6	54,3	47,2
7	49,3	55,2

y bilan x orasidagi dastlabki holatdagi tasviri 1-rasm Excel dasturi orqali tasvirlaymiz. Funktsiyalar parametrlarini hisoblab chiziqli modelini quramiz.



Chiziqli regressiyaning a va b parametrlarini hisoblash uchun quyidagi normal tenglamalar sistemasini a va b larga nisbatan aniqlashimiz mumkin:

$$n \cdot a + b \cdot \sum x = \sum y$$

$$a \cdot \sum x + b \cdot \sum x^2 = \sum (y \cdot x)$$

Hisoblashlarni amalga oshirish uchun quyidagi ishchi jadvalini tuzamiz.

2- jadval.

	y	x	yx	x^2	y^2	\hat{y}	$y - \hat{y}$	$A\%$
1	68,8	45,1	3102,88	2034,01	4733,44	61,3	7,5	10,9
2	61,2	59	3610,8	3481	3745,44	56,5	4,7	7,7
3	59,9	57,2	3426,28	3271,84	3588,01	57,1	2,8	4,7
4	56,7	61,8	3504,06	3819,24	3214,89	55,5	1,2	2,1
5	55	58,8	3234	3457,44	3025	56,5	-1,5	2,7
6	54,3	47,2	2562,96	2227,84	2948,49	60,5	-6,2	11,4
7	49,3	55,2	2721,36	3047,04	2430,49	57,8	-8,5	17,2
Jami	405,2	384,3	22162,34	21338,41	23685,76	405,2	0,0	56,7
O'rtacha qiymat	57,89	54,90	3166,05	3048,34	3383,68	-	-	8,1
σ_x	5,74	5,86	-	-	-	-	-	-
σ^2	32,92	34,34	-	-	-	-	-	-

$$b = \frac{\overline{y \cdot x} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x^2} = \frac{3166,05 - 57,89 \cdot 54,9}{5,86^2} = -0,35$$

$$a = \bar{y} - b \cdot \bar{x} = 57,89 - 0,35 \cdot 54,9 = 76,88$$

Parametrlarning qiymatlarini o'rniga qo'ysak ushbu regressiya tenglamasini olamiz:


$$\hat{y} = 76,88 - 0,35 \cdot x$$

Natijalar va uning muhokamasi. Tuzilgan regressiya tenglamasi o'rtacha kunlik ish haqini 1000 so'mga ortishi oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun xarajatlar ulushni o'rtacha 0,35 foizga kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Chiziqli juft korrelyatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:

$$r_{xy} = b \frac{\sigma_x}{\sigma_y} = -0,35 \frac{5,86}{5,74} = -0,357$$

$$r_{xy}^2 = (-0,357)^2 = 0,127$$

Determinatsiya koeffitsientining bu qiymati natija - y ning variatsiyasi 12,7 foiz x omil belgining variatsiyasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Regressiya tenglamasiga x ning haqiqiy qiymatlarini qo'yib nazariy (hisoblangan) qiymatlarini topamiz va tuzilgan model orqali $\hat{y} = 76,88 - 0,35 \cdot x$ chiziqli modelning tasviri quyidagi ko'rinishdalgini bilishimiz mumkin (2-rasm).



\bar{A} – approksimatsiyaning o'rtacha standart xatoligini hisoblaymiz.

$$\bar{A} = \frac{1}{n} \sum \left| \frac{y - \hat{y}}{y} \right| \cdot 100\% = \frac{0,567}{7} 100\% = 8,1\%$$

Bu natijaviy belgining hisoblangan qiymatlari nazariy qiymatlaridan 8,1 foizga chetlanishini ko'rsatadi. Regressiya tenglamasining ahamiyatligini tekshirish uchun Fisherning F-mezonidan foydalaniladi. Fisherning F-kriteriyasini hisoblaymiz. Juft chiziqli regressiya holatida regressiya modelining ahamiyatligi quyidagi Fisherning F- kriteriyasining formulasi bo'yicha aniqlanadi. n=7, k=1 qabul qilinadi.

$$F_{haq} = \frac{r_{yx}^2}{1 - r_{yx}^2} (n - k - 1)$$

$$F_{haq} = 5 \frac{0,127}{0,873} = 0,7$$

Xulosa. Olingan natijani, ya'ni $1 < F < \infty$ e'tiborga oladigan bo'lsak, olingan natijalar hosil bo'lgan bog'lanishni tasodifiy xususiyatga egaligi haqidagi H_0 gipotezani qabul qilish kerakligini va tenglama parametrlari hamda bog'lanish zichligini statistik ma'noga ega emasligini ko'rsatadi. Tuzilgan chiziqli model esa teskari bog'lanishga ega va $r_{yx} / \pm 0,3 /$ dan $\pm 0,5 /$ oralig'ida bo'lganligi, ya'ni -0,357, omillar o'rtasidagi

bog'liqlik zaif hisoblanadi. \bar{A} – approksimatsiyaning o'rtacha standart xatoligi 10-12 foizdan oshmasa, tuzilgan regressiya tenglamasi qoniqarli hisoblanadi, biz aniqlagan qiymatda esa 8,1 foizga chetlanishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Doliyev Shoxabbos Qulmurot o'g'li, and Raxmonov Erkinjon Komil o'g'li. "Ekonometrik modellashtirishda ko'p omilli regressiya usulini tadqiq qilinishi." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.10 (2022): 374-381.
2. Doliyev S. Q., & Jo'rayev F. D. (2022). *Ekonometrik modellashtirish bosqichlarini tahlil qilish. international conferences*, 1(1), 10–13. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/22>.
3. Greene W.H. *Econometric Analysis*. Prentice Hall. 7th edition, 2011.– 1232 p.
4. Christopher Dougherty. *Introduction to Econometrics*. Oxford University Press, 2011. – 573 p.
5. Жураев Ф.Д., Рахимов А.Н, *Введение в математический анализ и некоторые топологические понятия, раскрываемые с помощью метрики* - Вестник науки и творчества, 2017.

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA 3-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN
RATSIONAL OVQATLANISH TAMOYILLARINI ISHLAB CHIQUISH**

Dusanova Gulshod Mirzayevna,

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
guyg6063@gmail.com*

Tadjiyeva Muxayyo Kudratovna,

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
muhayyotadjiyeva@gmail.com*

Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi,

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
egamberdiyevamarjona286@gmail.com*

Qobilov Feruz Shuxrat o'g'li,

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali katta o'qituvchi
qobilovferuz1@gmail.com*

Bozorov Shomurod Ilmurodovich,

*Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
qobilovferuz1@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi va ishlab chiqilgan tamoyili asosida 3-7 yoshli bolalarni ratsional ovqatlanish tamoyillari bilan bog'liq bo'lgan masalalar tahlili keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshli bolalarning ratsional ovqatlantirish tamoyillarini ishlab chiqish va uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab o'rganiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom ovqatlanishiga oid uchraydigan muammolarni o'rganish hamda tahlil qilish va ular yuzasidan takliflar berishni o'z ichiga olgan. Undan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatdan zararlanish holatlarining oldini olish va ushbu holatlar yo'l qo'ymaslik uchun chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni aoutsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish boyicha taklif berildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshli bolalar uchun ratsional ovqatlanish tamoyillarini ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Moslashuvchanlik funksiyasi, tizimli yondashuv, tadqiqot davomida ilmiy, huquqiy, statistik, restrospektiv, moslashuvchanlik qobiliyati, qiyosiy kabi tahlil metodlardan foydalanildi.

**РАЗРАБОТКА ПРИНЦИПОВ РАЦИОНАЛЬНОГО ПИТАНИЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ 3-7 ЛЕТ
В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Аннотация. В данной статье представлен анализ вопросов, связанных с принципами рационального питания детей 3-7 лет, исходя из актуальности темы, уровня исследования и разработанного принципа.

Изучено развитие принципов рационального питания детей 3-7 лет в дошкольных образовательных учреждениях и его особенности.

Оно включает изучение и анализ проблем, связанных со здоровым питанием детей в дошкольных образовательных учреждениях, и внесение предложений по ним. Кроме того, разработаны меры по предотвращению случаев заражения пищевых продуктов в дошкольных образовательных учреждениях и недопущению этих случаев. Было предложено организовать аутсорсинг детского питания в дошкольных образовательных учреждениях. В дошкольных образовательных учреждениях разработаны принципы рационального питания детей 3-7 лет.

Ключевые слова: функция гибкости, системный подход, научные, правовые, статистические, ретроспективные, гибкие и сравнительные аналитические методы.

**DEVELOPMENT OF THE PRINCIPLES OF RATIONAL FOOD FOR CHILDREN AGED 3-
7 IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Abstract. This article presents an analysis of issues related to the principles of rational nutrition of 3-7-year-old children based on the relevance of the topic, the level of research and the developed principle.

Development of the principles of rational feeding of 3-7-year-old children in pre-school educational institutions and its specific features are studied.

It includes the study and analysis of problems related to healthy eating of children in pre-school educational institutions and making suggestions about them. In addition, measures were developed to prevent cases of food contamination in pre-school educational institutions and to avoid these cases. An offer was made to organize feeding of children in preschool educational organizations by outsourcing method. The principles of rational nutrition for children aged 3-7 years have been developed in pre-school educational institutions.

Key words: flexibility function, systematic approach, scientific, legal, statistical, retrospective, flexibility, and comparative analytical methods.

Kirish. Insonning real ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan va moddalar almashinuvining optimal darajasini ta'minlovchi ovqatlanish - ratsional ovqatlanish deyiladi.

Ratsional ovqatlanishning ilmiy asoslari shunday deb nomlanuvchi nazariyada ifodalanadi. Ratsional ovqatlanish nazariyasi XX asrdagi eng chiroyli nazariyalardan biri hisoblanadi: uning mantiqi va amaliy ahamiyati hech qachon shubhaga o'rin qoldirmaydi. Ratsional ovqatlanish konsepsiyasi 1930-yili M.N. Shaternikov tomonidan shakllantirilgan edi. Uning yozishicha, hayotiy jarayonlar dinamikasida ustuvor o'rinni moddalar almashuvi va organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi kuchlar, ya'ni keng ma'noda oladigan bo'lsak, ovqatlanish jarayonlari egallaydi. Insonning o'sishi, rivojlanishi, mehnat layoqati va hatto mavjudligining o'ziyoq ovqatlanishning yetarliligi va ratsionalligi bilan jips bog'liqlikda bo'ladi. Zamonaviy ko'rinishdagi ratsional ovqatlanish nazariyasi asosi – muvozanatlashtirilgan ovqatlanish konsepsiyasi esa 1964-yili A.A. Pokrovskiy tomonidan shakllantirilgan.

Uning fikricha, ovqatlanish haqidagi fan rivojlanishining asosiy xulosalaridan biri ovqat so'rilishi va uning kimyoviy tarkibining muvozanatlashtirilganligi darajasi orasidagi korrelyativ bog'liqlikni aniqlashdan iboratdir. Ba'zi bir ozuqa moddalarining organizmning fiziologik o'ziga xosliklariga, shuning barobarida mehnat qilish va yashash sharoitlariga sifatli va miqdoriy muvofiqligining nisbati haqidagi tasavvurlar, tabiiyki, nafaqat ovqatlanish haqidagi fanning rivojlanish darajasini belgilabgina qolmay, balki aholi ovqatlanishi sohasidagi va iqtisodiyotning muvofiq sohalari rivojlanishiga amaliy tavsiyalarning asoslanganlik darajasini ham aks ettiradi.

Nazariya tabiatshunoslik, fiziologiya va bioximiyaning fundamental qonunlari (quvvat saqlanish qonuni) asosida yaratilgan bo'lib, uyg'un rivojlanadi va ushbu sohalarda yangi bilimlar to'planishi va umumlashtirilishiga qarab to'ldirib boriladi. Ratsional ovqatlanish nazariyasiga asosan, inson ratsioni quvvati bo'yicha ham, shuningdek, alohida nutriyentlar va biologik faol moddalar bilan muvozanatlashtirilgan bo'lishi kerak. Bunda ratsion kimyoviy tuzilishining modda almashinuvining barcha bosqichlarida organizmning fermentativ tizimlariga muvofiq kelishidek ontogenetik evolyutsion qoidaga amal qilinadiki, bu metabolizmning optimal darajasining asosidir.

Ratsional ovqatlanish nazariyasining asosiy qonunlaridan biri barcha ozuqa moddalarini *almashtirilmas* yoki *essensial*, ya'ni organizmda yetarli miqdorda sintezlanmaydigan va ovqat bilan doimiy ravishda tushib turishi kerak bo'lgan hamda metabolizm yo'llarida yetarlicha paydo bo'luvchi *almashtiriluvchi* moddalarga bo'lishdan iborat. Essensial nutriyentlarga sakkizta aminokislotalar, ba'zi bir mono va polito'yinmagan yog' kislotalari, ovqat tolalari, barcha vitaminlar, mineral moddalar va mikroelementlar kiradi. Ushbu ro'yxat kelgusida unga bir qator ovqat tarkibiy qismlari (masalan, vitaminsimon birikmalar)ni kiritish hisobiga kengaytirilishi mumkin, faqat ularning alimantar almashtirilmasligi haqida ilmiy dalillar olinishi shart [4,11].

Ratsional ovqatlanish nazariyasi muvozanatlashtirilganlikning uchta darajasi ko'rinishida ko'rib chiqilishi mumkin.

Birinchi daraja – quvvat muvozanati. U organizm tomonidan barcha faoliyat turlariga sarflanadigan quvvat ovqat bilan tushayotgan quvvat hisobidan to'ldirilishi kerak. Shu tariqa, ratsionning kaloriyaliligi sarflangan quvvatga ekvivalent bo'lishi kerak. Tushayotgan quvvat tanqisligi yoki oshiqchaligi tomonga har qanday og'ish, albatta, alimantar muvozanat buzilishi (disbalans)ga olib keladi.

Ikkinchi daraja – quvvat eltuvchi makronutriyentlar (oqsillar, yog'lar, uglevodlar) muvozanati. Organizm optimal ishlashi uchun makronutriyentlarning proporsional ravishda tushishiga rioya qilish lozim. Ovqat bilan tushayotgan oqsillar ulushi 10 dan 15 % (o'rtacha 12%) oralig'ida, yog'lar ulushi – 30 % dan oshmaydigan, uglevodlar ulushi esa – 55 dan 65 % gacha (o'rtacha 58 %) bo'lishi kerak. Miqdoriy

tavsiflash (grammlarda) o'tkazilganda, quvvat eltuvchi makronutriyentlarning sutkalik optimal nisbati 1:1, 1:4,8 ni tashkil etadi.

Ovqatlanishning muvozanatlanganligi – bu uning ratsionalligini ahamiyatli metabolik asosidir. Biroq ratsional ovqatlanishning gigiyenik mazmuni nafaqat ovqat murakkab kimyoviy tuzilmasining umumiy muvozanatini ta'minlabgina qolmay, balki ovqatlanishni tashkillashtirish, ya'ni tartib va shartlarga rioya qilgan holda turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlaridan optimal foydalanishdir.

Ovqatlanishlar orasidagi tanaffuslar 3 ... 4 soatdan oshmasligi kerak: bu har safar ovqatlanganda o'rtacha miqdorda ovqat tanavvul qilishga imkon yaratadi va ortiqcha ovqat yemaslikdek sog'lom odatni shakllantiradi. Ovqatni keragidan ortiqcha miqdorda (o'ta to'yib) iste'mol qilish ko'pincha sog'lom odamda ovqatlanishlar orasidagi intervalning haddan tashqari uzoq bo'lishi oqibatida qattiq ochlik hissi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ayni paytda asosiy ovqatlanishlar orasida "tamaddi qilib olish"lar hisobiga ovqatlanishlar sonini oshirish maqsadga muvofiq emas, chunki bu normal ishtaha shakllanishini o'zgartirishi va ovqat hazm qilish a'zolarining bir maromda ishlashini buzishi mumkin. Ozuqaviy xatti-harakatning ijobiy dinamik stereotipi ishlab chiqilishi uchun ovqatni kunning belgilangan paytlarida tanavvul qilish lozim.

Ovqatni istemol qilish vaqti barcha taomlarni shoshilmay va puxta chaynab yeyish uchun yetarlicha bo'lishi kerak. Buning uchun, masalan, tushlik vaqtida 30 daqiqadan kam bo'lmagan vaqt talab etiladi. Shoshib ovqatlanganda inson kerak bo'lganidan ortiqroq ovqatni yeb yuboradi, chunki bunda to'yish vaqti nisbatan kechikadi va teskari salbiy aloqa qonuniga binoan qondagi glyukoza va aminokislotalar konsentratsiyasi bilan limitlashtirilib xatti-harakat signali miyaga kech uzatiladi. Bundan tashqari, ovqat yaxshi maydalanmaydi va so'lak bilan namlanmaydi, buning oqibatida esa uning oshqozondagi va ichaklardagi hazmlanishi va so'rilishi yomonlashadi.

Ovqat yeyish shartlarini baholash asosan mavjud talablarga asosan ovqatlanish sifatiga ta'sir ko'rsatilishi ehtimoli darajasi bilan aniqlanadi. Ovqatlanish – bu ovqat sifati bilan birga tevarak-atrofdagi sharoitga ham bog'liq bo'lgan murakkab ruhiy-emotsional akt ekanligini nazarada tutgan holda, ovqat yeyish uchun optimal sharoitlarni: xonadagi sharoit, iqlim sharoitlari, yoritilganlik va shovqinli (musiqiy) tartib, dasturxon bezatilganligi va hokazolarni ta'minlash lozim. Bir qator holatlar (bemorlarning, katta jamoalarning ovqatlanishi) da ovqat yeyish sharoitlari ushbu jarayonning to'laqonligini ta'minlashda ahamiyatli o'rin tutishi mumkin [3,8].

Odamning sog'lom va baquvvat bo'lishida, yosh organizmning normal o'sishi va rivojlanishida, ish qobiliyatining yaxshi bo'lishida ratsional ovqatlanish muhim ahamiyatga ega.

Ratsional ovqatlanish atamasiga yana quyidagicha ta'riflar keltirib o'tilgan:

Ratsional ovqatlanish – bu organizmni o'z vaqtida turli xil oziq ovqat moddalarga boy bo'lgan to'yimli va mazali ovqat bilan ta'minlashni to'ri tashkil etishdir.

Ratsional ovqatlanish – bu organizmning sutkalik sarflangan energiyasiga mos ravishda to'qima va organlarning yangilanishini uzluksiz ta'minlaydigan miqdordagi ozuqa moddalar bilan ta'minlashdir.

Ratsional ovqatlanish organizmning normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar, mikroelementlar va boshqa moddalar bilan o'z vaqtida ta'minlashni kafolatlaydi.

Ratsional ovqatlanish aniq ovqatlanish rejimini talab etadi, ya'ni kun davomida yeyiladigan ovqatni qaysi vaqtda necha marta ovqatlanish va to'yimlilikini har safar yeyiladigan ovqatga to'g'ri taqsimlashi talab etiladi.

Bolalar va o'smirlar ovqatlanishini to'g'ri tashkil qilish-ulaning jismonan rivojlanishida, sog'lom o'sishi va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatining yuqori bo'lishida ruhan tetik bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ratsional ovqatlanishining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'RB-595-sonli qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-sentyabrda PQ-3261-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyulda "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 626-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda 30-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar to'g'risida"gi Qaror; [4,6].

2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'RB-595-sonli qonuniga asosan, xususan, qonunning 46-moddasiga ko'ra, *Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalar uchun tabiiy oziq-*

EXACT AND NATURAL SCIENCES

ovqat mahsulotlari to'plami, ularni yoshiga doir fiziologik ehtiyojlariga muvofiq bo'lgan ratsional va mutanosib oziq-ovqat bilan ta'minlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan birgalikda belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oziq-ovqat sifati ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, uning hududiy bo'linmalari va maktabgacha ta'lim organlari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning ovqatlanishini tashkil etish outsorsing uslubi bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqot usullari: Oziq-ovqat mahsulotlarini taomnoma taqsimoti asosida qozonga solinishi tibbiyot xodimi nazoratida amalga oshiriladi. Taom pishirilishida qaynatish, pishirish, toblab pishirish, jazlash, dimlab pishirish, bug'da pishirishning o'ziga xos bo'lgan texnologik jarayonga amal qilinishi kerak. Taom tayyorlashda yog'da cho'mdirib qovurish usuli qo'llanilmaydi.

Juma va shanba kunlari olingan kunlik namunalar dushanba kunigacha saqlanadi. Muqaddam olingan kunlik namunalar bugun olingan sinamalar (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik, kechki ovqat) bilan almashtiriladi.

Kunlik sinamalarni olish va ularning saqlanishining nazorati tibbiy xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

1-jadval.

Turli yoshdagi guruhlar uchun mineral moddalarning o'rtacha kunlik fiziologik normalari

Nomi	1-3 yoshdagi bolalar	3-7 yoshdagi bolalar
Kalsiy, mg	800	900
fosfor, mg	800	800
magniy, mg	150	200
temir, mg	10	10
rux, mg	5	8
selen, mg	0,01	0,02
yod, mg	0,1	0,1
S, mg	30	50
A, mg	400	500
Ye, mg	5	7
D, mkg	10	10
V1, mg	0,5	1
V2, mg	0,5	1,2
V6, mg	6	8
Folat, mg	150	200
V12, mg	0,9	1,5

2-jadval.

Bolalarga berilayotgan taomlarning hajmi (grammda)

Bolalarning yoshi	Nonushta	Tushlik	Ikkinchi tushlik	Kechki ovqat
3 — 7 yosh	330 — 400	530 — 580	210 — 225	340 — 370

3-jadval.

Bolalarga berilayotgan taomlarning nomi va miqdori

Taom nomi	Porsiya miqdori (g, ml)	
	1 — 3 yoshgacha	3 — 7 yosh
Nonushta		
Bo'tqa (sutli, yormali, sabzavotli) yoki sabzavotli taom	120 — 150	150 — 180
Yoki go'shtli, baliqli, tvorogli, tuxumli taomlar garnir bilan	50/100	50/130
Qaynoq ichimliklar (sutli kakao, sut, sutli choy)	100 — 130	130 — 150

EXACT AND NATURAL SCIENCES

Non	25 — 30	30 — 40
yoki buterbrodlar	35 — 65	40 — 75
Tushlik		
Sabzavotlardan tayyorlangan salat	35 — 40	40 — 50
1-taom (sho‘rva, bulyon)	120	150
2-taom (quyuq taomlar)	130 — 150	150 — 180
yoki go‘shli, baliqli taom garnir bilan	50/100	50/130
Kompot, sharbat, kisel	130	150
Ikkinchi tushlik		
Sut, qatiq, sutli choy, sharbatlar	150	150
Bulochka yoki xamirli qandolat mahsulotlari	50 — 60	60 — 75
Kechki ovqat		
Bo‘tqa (sutli, yormali, sabzavotli) yoki sabzavotli taom	120 — 150	150 — 180
Sut, qatiq	130	150
Kechki tamaddi		
Qatiq, kefir, yoki mevalar	100	130

Maktabgacha ta’lim muassalarida bolalarning ratsional ovqatlanishi bilan bog‘liq yuzaga kelayotgan ayrim muammoli masalalar tahlili.

Natijalar va uning muhokamasi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda respublika bo‘yicha jami 28 012 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Mazkur muassasalarda bola qamrovi qariyb 2 million nafarga (69,4 foiz) yetgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 6 300 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatib, ularda 1 million 276 ming bola qamrab olingan. 1 185 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida ovqatlanish outsorsing usulida tashkil etilgan bo‘lsa, 5 145 tasi o‘z oshxonasiga ega.

Bog‘chalardagi bolalarning ovqatdan guruhli kasallanishning 4 ta asosiy omili bor.

1. Sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlatilishi;
2. Ovqat tayyorlash texnologik jarayoniga rioya etmaslik;
3. Nomutaxassislar faoliyat yuritayotgani;
4. Aksariyat hollarda xodimlar sanitariya talablarini bilmagani sababli bog‘chalarda ommaviy kasallanishlar kuzatilmoqda.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish darajasi to‘g‘risidagi hisobotlar yuritiladi.

4-jadval.

I. Umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish amaldagi sanitariya qoidalari va me’yorlarini to‘liq ta’minlagan holda amalga oshirish:

T/r	Oziq-ovqat mahsulotlari nomi	Miqdori (gramm)
1.	Non 1-navli (vitamin va minerallar bilan boyitilgan)	110
2.	Bug‘doy uni 1-navli	25
3.	Mevali kisel tayyorlash uchun kraxmal	5
4.	Yormalar, makaron mahsulotlari	45
5.	Shakar	40
6.	Qandolat mahsulotlari (murabbo, djem, gematogen va boshq.)	10
7.	Sariyog‘	20
8.	O‘simlik yog‘i	8
9.	Tabiiy sut	300
10.	Kefir, yogurt	200
11.	Smetana	10
12.	Tvorog	30

EXACT AND NATURAL SCIENCES

13.	Pishloq	8
14.	Go'sht (mol go'shti, qo'y go'shti, parranda go'shti, quyon go'shti)	100
15.	Baliq (tozalangan va muzlatilgan)	25
16.	Tuxum (dona)	0,5
17.	Kartoshka	150
18.	Sabzavotlar	200
19.	Mevalar, meva sharbatlari, vitaminli ichimliklar	150
20.	Quruq mevalar	15
21.	Choy	0,3
22.	Kakao	2
23.	Yodlangan tuz	3
24.	Achitqilar (drojlar)	1

5-jadval.

II. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish me'yori:

T/r	Oziq-ovqat mahsulotlari nomi	Miqdori (gramm)
1.	Non 1-navli (vitamin va minerallar bilan boyitilgan)	130
2.	Bug'doy uni 1-navli	25
3.	Mevali kisel tayyorlash uchun kraxmal	5
4.	Yormalar, makaron mahsulotlari	50
5.	Shakar	40
6.	Qandolat mahsulotlari (murabbo, djem, gematogen va boshq.)	10
7.	Sariyog'	20
8.	O'simlik yog'i	10
9.	Tabiiy sut	300
10.	Kefir, yogurt	200
11.	Smetana	15
12.	Tvorog	30
13.	Pishloq	10
14.	Go'sht (mol go'shti, qo'y go'shti, parranda go'shti, quyon go'shti)	120
15.	Baliq (tozalangan va muzlatilgan)	40
16.	Tuxum (dona)	0,5
17.	Kartoshka	200
18.	Sabzavotlar	220
19.	Mevalar, meva sharbatlari, vitaminli ichimliklar	180
20.	Quruq mevalar	15
21.	Choy	0,3
22.	Kakao	2
23.	Yodlangan tuz	3
24.	Achitqilar (drojlar)	1

Ovqatlanish rejimida 4 ta asosiy qoidaga amal qilinadi:

1. Ovqatni kunining ma'lum bir vaqtida iste'mol qilish. Chunki ovqat iste'mol qilishi kerak bo'lgan aniq vaqtda odam organizmida refleks tarzida me'da shirasi, so'lak, oshqozon osti bezidan shira, o't suyuqligi ajralib chiqadi, bu esa ovqatni to'liq hazm bo'lishini ta'minlaydi.

2. Kun davomida necha marta ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish. Sog'lom odamlarda asosan uch yoki to'rt marotaba ovqatlanish rejimi qabul qilinadi. Ya'ni nonushta, tushlik, kechi ovqat yoki nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik, kechki ovqat yoki nonushta, tushlik, yarim tushlik, kechki ovqat.

3. Har galdagi ovqat iste'mol qilishda ovqatlanish ratsioniga amal qilish. Bunda har galgi ovqatlanish (nonushta, tushlik, kechki ovqat) uchun tanlangan mahsulotlar tarkibida oqsil, yog', uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar yetarli darajada organizmga tushishini hisobga olish zarur.

4. Kun davomida iste'mol qilinadigan ovqat miqdorini fiziologik talablarga mos ravishda taqsimlash. Bunda uch mahal ovqatlanish rejimida ovqat koloriyaliyligi quyidagicha taqsimlanadi:

Nonushta	30%
Tushlik	45%
kechki ovqat	25%

4 mahal ovqatlanish rejimida esa quyidagicha bo'lishi kerak.

Nonushta	25%
Tushlik	40%
yarim tushlik	10%
kechki ovqat	25%

Har qanday ovqatlanish rejimida ham ovqatlanishlar orasidagi vaqt 6 soatdan oshmasligi va kechki ovqat yotishdan 2 soat oldin yeyilishi kerak. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida 3 mahal ovqat rejimida yuqori kaloriyali va kuchli ovqat tushlikda emas balki kechki ovqatda yeyilishiga odatlanilgan. Bunda:

Nonushta	25%
Tushlik	40%
yarim tushlik	10%
kechki ovqat	25%

Ratsional ovqatlanish muvozanatli ovqatlanish nazariyasiga asoslanishi va oziq-ovqat iste'mol qilishning to'g'ri rejimini ta'minlashi kerak.

Ratsional ovqatlanishning uchta tamoyilini bilish kerak:

- me'yor,
- xilma-xillik,
- ovqatlanish tartibi.

oziqlanishdagi mo'tadillik hayot jarayonida sarflanganidan ko'ra oziq-ovqat bilan ko'proq yoki kamroq energiya iste'mol qilishga imkon bermaydi;

ratsiondagi turli xil ovqatlar, ehtimol, barcha muhim ozuqaviy tarkibiy qismlarni olishni kafolatlaydi; ma'lum bir parhez (kun davomida ovqatlanish vaqti, shuningdek, har bir taomda oziq-ovqat miqdori va sifati) ishtahani kerakli chegaralarda saqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiqot davomida belgilangan vazifaga erishilib, oldimizga qo'yilgan barcha vazifalar bajarildi.

O'tkazilgan ratsional ovqatlanish tamoyillari natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

3-7 yoshdagi bolalarni ratsional ovqatlantirishning tamoyillarini ishlab chiqish tushunchasiga "maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mavsumga mos ravishda, turli xil oziq-ovqat moddalarga boy bo'lgan to'yimli, foydali ovqat bilan me'yor doirasida o'z vaqtida ta'minlashni to'g'ri tashkil etish" deb ta'rif berish o'rinli bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni bilan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlangan. Mazkur Taraqqiyot strategiyasining 4-yo'nalishi "adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" bo'lib, ushbu yo'nalishdagi 38-maqсад (maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish), 39-maqсад (maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish), 40-maqсад (maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash) maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oiddir.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, ularda bolalarning sog'lom ovqatlanishini tashkil etish bo'yicha bir qator boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar asosida hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tegishli tizim yo'lga qo'yilgan. Shunday bo'lsa-da, hanuzgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lom ovqatlantirish, ratsional ovqatlanishga alohida ahamiyat berish dolzarb bo'lib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni outsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etishda qator jiddiy kamchiliklarning oldini olish maqsadida, - outsorsing usulida ovqatlantirish ularni nazorat qilish tizimi to'liq shaklda amalga oshirish uchun tafsiya etildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-7 yoshli bolalarning ratsional ovqatlanish tamoyillarini ishlab chiqish zaruriyati shundan iboratki, bunda bolalarning ovqatlanishidagi har bir jihat inobatga olingan va to'liq qamrab olingan bo'ladi. Ushbu tamoyillardan chetga chiqish bolalarning sog'lom, ratsional ovqatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tamoyillar bolalar ovqatlanishini ustuvor jihatlarini belgilab beradi.

Ushbu masalani hal qilish uchun quyidagi 3-taklifni kiritamiz.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 3-7 yoshdagi bolalarning ovqatlanish ratsionining quyidagi tamoyillar ishlab chiqildi:

1. *Mavsumiylik*
2. *Foydalilik*
3. *Me'yor*
4. *O'z vaqtidalik*

Mazkur tamoyillarni tegishli me'yoriy hujjatlarda aks ettirish orqali keng ko'lamli natijalarga erishish mumkin.

Olib borilgan tadqiqot ishi yuzasidan umumiy xulosa qilinadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning o'sishi va rivojlanishi uchun o'ta muhim maskan hisoblanadi. Ushbu tashkilotlarda bolalar ratsional ovqatlanishining aniq belgilangan tamoyillari doirasida me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda ovqatlantirilishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Ладодо К.С. Рациональное питание детей раннего возраста. М. Миклос, 2009; 320 с.
2. Потапова С.К. Современные подходы рационального вскармливания детей раннего возраста. РМЖ 2008; 5: 330–332
3. Аношкина Н.Л. Состояние питания и физическое развитие молодежи / Н.Л. Аношкина, А.Б. Гулин // Вестник ТГУ. - 2014. - Т. 19, № 1.-с. 71-74.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni;
5. Mahramovich K. S., Sattarovna K. F., & Farangiz M. (2022). Synthesis of Gossipy Products of Pyrimidine Bases and Getting Their Water-Solved Complexes.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrda PQ-3261-son "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyulda "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 626-sonli Qarori;
8. Sharipova. N.V., Do'schanov B.O., Shayxova G.I., Qurbonov Sh.Q., Azizova F.L., Rahmatullayev Y.Sh., Salixova N.S. O'zbekiston Respublikasi aholisi turli guruhlarining oziq moddalar va energiyaga bo'lgan fiziologik. talab me'yorlari. Sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyena norinativlari (SanPiN-0250-08). Toshkent, 2008-y.
9. Мартинчик А.Н., Батулин А.К., Кешибянс Е.Е., Фатьянова Л.Н., Семенова Я.А., Базарова Л.Б., Устинова Ю.В. Анализ фактического питания детей и подростков России в возрасте от 3 до 19 лет // Вопр. питания 2017. Т. 86.
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda 30-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar to'g'risida"gi Qaror.
11. ГОСТ 55577— 2013 Функциональная информация о продукции, отличающая цену от эффективности.
12. Мартинчик А.Н., Батулин А.К., Кешибянс Е.Е., Фатьянова Л.Н., Семенова Я.А., Базарова Л.Б., Устинова Ю.В. Анализ фактического питания детей и подростков России в возрасте от 3 до 19 лет // Вопр. питания 2017. Т. 86.

**TEKNOLOGIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISHDA
TEKNIK VOSITALARNI TADQIQ QILISH**

*Farxodov Sunnatjon Umar o'g'li,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
s.farkhodov@mail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi texnologik jarayonlarni optimallashtirishda texnik vositalarni tadqiq qilish, Sanoatni avtomatlashtirish texnologiyalari real vaqt rejimida uskunalarni boshqarish, arifmetik va mantiqiy operatsiyalar, ma'lumotlar bitlarini qayta ishlash va taymer hisoblagichlarini sozlashni ta'minlaydigan dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlardan foydalanish maqsadga muvofiq ko'rsatilgan.

Zamonaviy sanoat PLClar ushbu qurilmalarni eng muhim obyektlarda ishlatishga imkon beruvchi afzalliklar, PLC dasturlash tillari standartlashtirilgan va IEC 61131 standartida keltirilgan. Avtomatlashtirish loyihasini har tomonlama rivojlantirish, shu jumladan, HMI vositalari loyihasiga integratsiya qilish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot - TIA Portal deb nomlangan. Uning qo'llanilishi avtomatlashtirishning barcha vazifalarini bitta dasturiy ta'minot loyihasida ishlab chiqish vaqtini, narxini va ish hajmini sezilarli darajada qisqartirish bilan hal qilish imkonini berganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Avtomatlashtirish, loyihalash, boshqarish tizimi, dasturlash, PLC, TIA Portal, SCADA, EMICON, HMI (human-machine interfeys).

**ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОПТИМИЗАЦИИ
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ**

Аннотация. В данной статье показана актуальность темы, степень изученности технических средств исследования при оптимизации технологических процессов, технологии промышленной автоматизации целесообразного использования программируемых логических контроллеров, обеспечивающих управление оборудованием в режиме реального времени, арифметические и логические операции, обработку битов данных и настройку счетчиков таймеров.

В статье приведены современные промышленные ПЛК преимущества, позволяющие использовать эти устройства на наиболее важных объектах, языки программирования ПЛК стандартизированы и перечислены в стандарте IEC 61131. Программный продукт, предназначенный для комплексной разработки проекта автоматизации, включая интеграцию в проект инструментов HMI, называется TIA Portal. Его применение значительно сокращает время, затраты и объем работ по разработке всех задач автоматизации в одном программном проекте.

Ключевые слова: автоматизация, проектирование, система управления, программирование, ПЛК, TIA Portal, SCADA, EMICON, HMI (интерфейс человек-машина).

**STUDY OF TECHNICAL MEANS FOR OPTIMISATION
OF TECHNOLOGICAL PROCESSES**

Abstract. In this article, the relevance of the topic, the level of study is seen in the optimization of technological processes, the research of technical means, industrial automation technologies in real-time equipment management, arithmetic and Logical Operations, Data bit processing and the use of programmable logical controllers that provide the adjustment of timer counters.

The advantages that modern industrial PLCs allow these devices to be used in the most important facilities, PLC programming languages are standardized and listed in IEC 61131. A software product designed to comprehensively develop the automation project, including integration into the HMI tools project, is called TIA Portal. Its application is to significantly reduce the development time, cost and workload of all automation tasks in one software project.

Keywords: automation, design, control system, programming, PLC, TIA Portal, SCADA, EMICON, HMI (human-machine interface).

Kirish. Texnologik operatsiyalarni avtomatlashtirish uchun o'ratilgan protsessor modullari va platalaridan foydalanish dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun professional dasturchilarni jalb qilish zarurati bilan bog'liq bo'lib, ular nafaqat dasturlash texnikasini yaxshi bilishlari, balki avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni ham yaxshi bilishlari kerak. Agar foydalanuvchi dasturchi boshqaruv obyektining ishlashi haqida yomon tasavvurga ega bo'lsa, bu qimmatbaho uskunalarning ishdan chiqishiga olib kelishi yoki hatto xodimlarning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, bu kosmik uchirish komplekslarini (SC) boshqarish tizimlari va gaz sanoati korxonalarini uskunalari uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga taalluqlidir. Bu yerda dasturiy ta'minot yagona obyekt sifatida ishlaydi va ko'plab boshqaruv tizimlarining birta yerdagi uskunalari ishonchligini belgilaydi. Shu bilan birga, kosmik SC uchun dasturiy ta'minot hajmi yuz minglab kodlarga yetishi mumkin (masalan, MTKK Space Shuttle dasturiy ta'minoti, shu jumladan, birta dasturiy ta'minotni tayyorlash va ishga tushirish uchun avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari uchun yerdagi dasturiy ta'minot, ko'proq narsani o'z ichiga oladi. 3 million kod). Oxir oqibat, SC dasturiy ta'minotining narxi apparat narxidan bir necha baravar yuqori bo'lishi mumkin [5, b. 115].

Shu nuqtayi nazardan, texnologik operatsiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirish uchun dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlar (PLC) yanada qulay yechimni beradi. Ular sanoat muhitida ishlashga moslashtirilgan mikroprotsessorga asoslangan ixtisoslashgan mahalliy boshqaruv qurilmalaridir. PLC arxitekturasi foydalanuvchi uchun zarur apparat konfiguratsiyasini yaratish va nazoratchini professional dasturlashni jalb qilmasdan dasturlash imkoniyatiga ega. Ya'ni odatda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish buyurtmachisi bo'lgan texnolog ko'p hollarda mustaqil ravishda nazorat qilish dasturini ishlab chiqish vazifasini bajara oladi. Tabiiyki, bunday texnolog-dasturchi raqamli avtomatlashtirish va boshqaruv mashinalarining ishlashini algoritmlash sohasida yetarli bilimga ega bo'lishi kerak.

Iyerarxik boshqaruv tizimining texnologik (maydon) darajasida o'ratilgan PLClar barcha SC tizimlari uchun asosiy boshqaruv algoritmini amalga oshirishni va ularning o'zaro ta'sirini ta'minlashi mumkin. Shu bilan birga, SC yer usti uskunalarning texnologik tizimlarining xilma-xilligi taqsimlangan boshqaruv tizimlarini yaratishga to'sqinlik qilmaydi. Chunki tarmoq aloqa kanallari PLC larga bir-biri bilan ma'lumot almashish va uni yuqori darajadagi boshqaruv darajalariga o'tkazish imkonini beradi. Bunda axborot qayta ishlanadi va eng to'g'ri qarorlar qabul qilinadi. Tabiiyki, iyerarxik boshqaruv tizimining yuqori darajalarida axborotni qayta ishlashni markazlashtirish, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda professional dasturchilarning ishtirokini talab qiladi. Ammo bu ishga tushirishdan oldin tayyorlashning texnologik operatsiyalarini o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmaydi [1, b. 70].

Deyarli yarim asrlik tarix davomida PLClar eng oddiy mantiqiy modullardan real vaqt rejimida kuchli boshqaruv tizimlarini yaratish imkonini beruvchi ko'p protsessorli qurilmalarga aylandi. Ularning sxemalari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Vazn va o'lcham ko'rsatkichlari va quvvat iste'moli pasaymoqda. Ishlash tezligi va ishonchligi oshib bormoqda. Ishlab chiqarish talablaridan kelib chiqib PLClar yangi funksiyalarga ega bo'ladi. Masalan, ular qadamli yuritmalarni kabi maxsus aktuatorlarni boshqaradi yoki noaniq mantiqqa asoslangan aqlli tizimlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sanoat PLClar ushbu qurilmalarni eng muhim obyektlarda ishlatishga imkon beruvchi afzalliklarga ega:

- markazlashtirilmagan boshqaruv strategiyasini amalga oshirishga imkon beradigan tarmoq funksiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, unda kuchli axborotni qayta ishlash resurslari va uzoq aloqa liniyalariga ehtiyoj qolmaydi, boshqaruv quyi tizimlari sensorlar va aktuatorlar yaqinida joylashgan bo'lishi mumkin.
- ruxsatsiz tizim boshqaruvi va tizim ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish.
- qiyin iqlim sharoitida ishlash qobiliyati: harorat oralig'i -40 dan $+125$ ° C gacha va chang - namlikdan IP65 gacha himoya qilish.

PLClar turli xil sanoat avtomatlashtirish uskunalari ishlab chiqaruvchilari tomonidan ishlab chiqariladi. Ular orasida yetakchi kompaniyalar bor:

Germaniyaning Siemens konserni, Amerikaning Rockwell Automation / Allen-Bradley korporatsiyasi va Yaponiyaning Omron korporatsiyasi. Rossiyalik PLC ishlab chiqaruvchilari orasida turli xil ish sharoitlari uchun dasturlashtiriladigan kontrollerlarni ishlab chiqaradigan Fastwel-ni ta'kidlash kerak [7, b. 32].

Tadqiqot usullari. REM620 o'rta va katta asenkron motorlarni himoya qilish, nazorat qilish, o'lchash va monitoring qilish uchun mo'ljallangan. PLC ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatida differensial himoyani talab qiladigan maxsus aqlli vosita - himoya qurilmasidir. REM620 - 620 seriyali qurilmalarning bir qismi bo'lgan Relion oilasining himoya va nazorat qurilmasi. REM620 seriyali qurilmalar kengaytirilishi va modulli dizayni bilan ajralib turadi. 620 seriyali IEC 61850 standartining aloqa va podstantsiyalarni avtomatlashtirish qurilmalarining o'zaro ishlashi nuqtayi nazaridan to'liq imkoniyatlarini amalga oshirish

uchun mo'ljallangan. COM600 ,shuningdek, shlyuz rolini o'ynaydi. Bu podstansiya IED lari va Micro SCADA Pro va System 800xA kabi tarmoq darajasini boshqarish va boshqarish tizimlari o'rtasida samarali aloqani ta'minlash sxemasi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

1-jadval.

ABBDan yechimlar

Mahsulot	Versiya
SOMbOO podstansiyasini avtomatlashtirish qurilmasi	4.0 SP1 yoki undan keyingi versiya
MicroSCADA Pro SYS 600	9.3 FP2 yoki undan keyingi
Tizim 800xA	5.1 yoki keyinroq

REM620 oldingi HMI(human-machine interfeys) yoki masofadan boshqarish pulti orqali o'chirgichlar, ajratgichlar uchun boshqaruv funksiyalarini ta'minlaydi. IED ikkita o'chirgichni boshqarish blokini o'z ichiga oladi. O'chirish to'xtatuvchisini boshqarish funksiyasi blokiga qo'shimcha ravishda boshqarish uchun mo'ljallangan yana to'rtta funktsiya blokiga ega.


Minimal, maksimal va o'rtacha quvvat qiymatlari (P, Q, S) vaqt belgisi bilan qayd etiladi. Bu odatiy bo'lib, yozuvlar doimiy xotirada saqlanadi.

Chiqish davrini nazorat qilish funksiyasi doimiy ravishda chiqish sxemasining tayyorligi va funksiyasini nazorat qiladi. O'chirishni ochish nazorati o'chirgichning yopiq va ochiq holatida ham amalga oshiriladi. Bundan tashqari, elektron cheklashning nazorat kuchlanishining yo'qolishi aniqlanadi.

AC kuchlanish pallasini nazorat qilish funksiyasi kuchlanish o'lchash davrlari va qurilma o'rtasidagi nosozliklarni aniqlaydi. Nosozliklarni aniqlash uchun salbiy ketma-ketlikning oqimi va kuchlanishini kuzatishga asoslangan algoritm yoki kuchlanish va oqimning o'zgarish tezligini kuzatishga asoslangan algoritm qo'llaniladi. Zarar aniqlanganda, o'zgaruvchan tok zanjirini boshqarish funksiyasi signalni faollashtiradi va kuchlanishni himoya qilish funksiyalarini mo'ljallanmagan ishlashdan bloklaydi [3, b. 17].

Oqim davri monitoringi funksiyasi oqim transformatorining ikkilamchi davrlarida nosozliklarni aniqlash uchun ishlatiladi. Nosozlik aniqlanganda, joriy kontaktlarning zanglashiga olib kelishini nazorat qilish funksiyasi ham signal LEDni faollashtirishi va mo'ljalsiz ishlashning oldini olish uchun ba'zi himoya funksiyalarini o'chirib qo'yishi mumkin. Joriy kontaktlarning zanglashiga olib borishini nazorat qilish funksiyasi fazali KT lardan olingan faza oqimlarining yig'indisini hisoblab chiqadi va ularni nol ketma-ketlikdagi CT yoki fazali CTlardagi alohida yadrolardan o'lchangan nol ketma-ketlik oqimi bilan taqqoslaydi.

PLClar keng doiradagi ilovalarni qamrab oladi va turli dizaynlarda amalga oshirilishi mumkin. Eng keng tarqalgani asosiy prinsipga muvofiq qurilgan modulli PLClardir. Ularga protsessor moduli va boshqaruvchining kerakli funksionalligini ta'minlovchi qo'shimcha modullar kiradi. 2-rasmda Siemens va Fastwell tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat PLClarning ikkita modeli misol sifatida ko'rsatilgan.



1-rasm. Aqlli elektron qurilmalar

COM600 va System 800xA energiya tizimini avtomatlashtirish boshqaruvchisidan foydalanadigan sanoat energiya tizimining namunasi



2-rasm. Sanoatda dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlar:
a – Siemens S7-1200 kontroller; b – Fastwell CPM 902 boshqaruvchisi

Bugungi kunga kelib, raketalarni uchirishdan oldin tayyorlashning texnologik operatsiyalarini avtomatlashtirish uchun Rossiyaning Fastwell kontrollerlaridan foydalanish tajribasi allaqachon qoʻllanilib kelinmoqda. Xususan, ushbu kontrollerlardan foydalangan holda “SKB Orion” YoAJ Gviana Kosmik Markazida (GCC) “Soyuz” kosmik raketasining yerga asoslangan texnologik jihozlarini boshqarish uchun axborot-nazorat kompleksini (IMC) yaratdi [1, b. 50].

Koʻp darajali iyerarxik tuzilishga ega boʻlgan kompleks suyuqlik komponentlari va kriogen komponentlar bilan getergen toʻldirish tizimlarini yagona axborot maydoniga birlashtirish imkonini berdi; yoqilgʻi komponentlarini saqlash va haroratni nazorat qilish tizimlari, siqilgan gaz taʼminoti tizimlari, yongʻin oʻchirish tizimlari va boshqalar.

Bundan tashqari, elektr ta'minoti tizimi boshqaruv majmuasiga birlashtirildi. Bu umumiy quvvati 1 MVt bo'lgan elektr energiyasini zarur taqsimlashni ta'minlanadi. Texnologik algoritmlarni amalga oshirish darajasida nazorat qiluvchilarning har biri operatorning ish stantsiyalaridan (AWS) va obyekt bilan aloqa qurilmasidan (USO) ma'lumotlarni oladi. Ularni belgilangan algoritmlar bo'yicha qayta ishlaydi va ish stantsiyasida ko'rsatish uchun tegishli ma'lumotlarni chiqaradi. Markazlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash CompactPCI forma faktorli o'rnatilgan protsessor platalari asosida hisoblash qurilmalarini boshqarishning yuqori darajalarida amalga oshiriladi [5, b. 14].

ACS TO dasturiy ta'minotini yaratish uchun "SKB Orion" YoAJda ishlab chiqilgan, professional dasturchilar va past darajadagi dasturlash tillari ko'nikmalarini talab qilmaydigan asboblarni majmuasi ishlatilgan. Sozlash jarayonida boshqaruv tizimining dasturiy ta'minotini dasturlash va sozlash avtomatlashtirilgan texnologik jarayonni yaxshi tushunadigan va algoritmlash asoslarini biladigan texnolog-dasturchilar tomonidan amalga oshirildi.

Dasturni boshqarish printsipi PLCda ishlayotgan boshqaruv dasturini o'zgartirish orqali boshqaruv tizimining algoritmini o'zgartirishga imkon beradi. PLC mikrokompyuter bo'lganligi sababli, uning dasturiy ta'minoti an'anaviy kompyuter dasturlari bilan juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega. Professional dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan bunday shaxsiy kompyuterlarning tizimli dasturiy ta'minoti amaliy dasturlarni ishlab chiqish uchun dasturlar to'plamidan (dasturlash muhiti) va ijro etuvchi muhitdan (operatsion tizim) iborat bo'lib, u chiqarilganda kontrollar xotirasiga yoziladi.

Ilovalarni ishlab chiqish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etiladi. Odatda funksional modullarga o'rnatilgan dasturlash tili muharrirlariga, aloqa vositalariga, disk raskadrovka vositalariga va boshqalarga kirishni ta'minlaydigan umumiy grafik foydalanuvchi interfeysi bilan dasturiy ta'minot to'plami sifatida amalga oshiriladi.

PLC uchun asosiy talab ularning texnik xodimlar tomonidan ishlashi uchun mavjudligi sababli, kompyuter dasturlash tillari va o'rnatilgan protsessor platalari PLC dasturlash uchun juda mos emas. Shuning uchun PLC uchun amaliy dasturlarni ishlab chiqishda analog va raqamli avtomatlashtirish asoslari bilan tanish bo'lgan, shuningdek, kompyuter fanlari sohasida tajribaga ega bo'lgan foydalanuvchi uchun tushunarli bo'lgan ixtisoslashtirilgan, muammoga yo'naltirilgan dasturlash tillari qo'llaniladi.

PLC dasturlash tillari standartlashtirilgan va IEC 61131 standartida keltirilgan.

Bular:

- narvon diagrammasi tili (Ladder diagrammasi - LD);
- funksional blok-sxemalar tili (Function Block Diagram - FBD);
- ko'rsatmalar ro'yxati (ko'rsatmalar ro'yxati - IL);
- tuzilgan matn (Strukturalangan matn - ST) [6, b. 54].

Birinchi ikkita dasturlash tillari (LD va FBD) grafik tillar bo'lib, hatto asosiy bilimga ega foydalanuvchilar tomonidan ham foydalanishlari mumkin. Ushbu tillarda yozilgan dasturlar mos ravishda qadamli va blokli mantiqiy sxemalarga o'xshaydi. Uskunani yangilashda bu mutaxassislariga "qattiq" apparat mantig'idan dasturlashtiriladigan mantiqqa o'tishni soddalashtirishga imkon beradi. Uchinchi va to'rtinchi tillar (IL va ST) mos ravishda past va yuqori darajali tillardir. Ular ilg'or foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Avtomatlashtirilgan jarayonni boshqarish tizimining atributi operator va jarayon o'rtasidagi aloqa vositalaridir: inson-mashina interfeysi (HMI - inson-mashina interfeysi). Bularga klaviaturalar, matnli displeylar, operator panellari va sensorli panellar kiradi. HMI qurilmalarini loyihaga kiritish qo'shimcha amaliy dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Umumiy xarajatlarni kamaytirish bilan birga foydalanuvchi, bozor va unumdorlik talablarining doimiy ortib borishi bilan PLC ishlab chiqaruvchilari barcha sohalarida avtomatlashtirish vazifalarini hal qilish uchun yagona platforma yaratishga intilmoqda. Ushbu yondashuvga misol sifatida Siemens tomonidan ishlab chiqilgan TIA (Total Integrated Automation) kontseptsiyasi bo'lib, u bir nechta qurilmalar o'rtasida ochiq muloqot va moslik uchun asos bo'lib, ularni yagona avtomatlashtirish tizimiga birlashtirish imkonini beradi. Natijada dala qurilmalaridan tortib, boshqaruvchilar va zavod miqyosidagi boshqaruv tizimlarigacha bo'lgan integratsiyalashgan o'simliklarni boshqarish tizimining barcha darajalarida maksimal ishlashi inobatga olinadi. Avtomatlashtirish loyihasi har tomonlama rivojlantirish, shu jumladan, HMI vositalari loyihasi integratsiya qilish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot - TIA Portal deb nomlangan. Uning qo'llanilishi avtomatlashtirishning barcha vazifalarini bitta dasturiy ta'minot loyihasi ishlab chiqish vaqtini, narxini va ish hajmini sezilarli darajada qisqartirish bilan hal qilish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda EMICON markaziy protsessor modullari va USO modullari o'rtasida axborot almashish uchun yangi protokol - EmiBusni ishlab chiqdi. Ushbu protokolni amalga oshirish uchun ikkita

yangi modul ishlab chiqilgan. Ulardan biri optik qabul qiluvchilarni o'z ichiga olgan MS-01A media konvertoridir. Modul optik tolali aloqa liniyalarini simli aloqa liniyalari bilan bog'lash uchun mo'ljallangan. Ikkinchi modul S-44A tarmog'i bo'lib, u so'roq modullarini so'roq qilishni ta'minlaydi.

2-jadval.

C-44A modulining texnik xususiyatlari

Parametr nomi	Parametr qiymati
Interfeys turi	RS-485
RS-485 interfeys kanallari soni	2
Maksimal ma'lumotlarni uzatish tezligi, Kbps	921,6
Almashinuv protokoli	EmiBus
RS-485 interfeys kanallari orqali axborot almashinuvi ko'rsatkichining mavjudligi	Mavjud
Tizim interfeysi	parallel avtobus

3-jadval.

MC-01A modulining texnik xususiyatlari

Parametr nomi	Parametr qiymati
qismi uglevodlardan iborat bo'lishini aytganda, asosan, sabzavot va meva-chevalarni nazarda tutdik. Uglevodlar hissasini non va non mahsulotlari, makaronlar hisobiga ko'paytirish maqsadga muvofiq emas. Chunki ovqatda non va makaronlar hisobiga uglevodlar ko'paysa, tanada chaqqonlik va tezlikni oshiruvchi fiziologik va biokimyoviy jarayonlar ko'ngildagidek kechmaydi. Tezlikning oshirilishiga yo'naltirilgan mashqlar, masalan, qisqa masofalarga yugurish, uzunlik va balandlikka sakrash kabi sport turlari bilan shug'illanuvchilarning taomlarida oqsillar, uglevodlar hamda fosfor ko'proq bo'lishi kerak. Bo'ladigan taomlardan, ichimliklardan kam miqdorda tanovul qilish, mashq qilish jarayonida katta asabiy-ruhiy zo'riqish tushadigan sport turlari bilan shug'ullanuvchilar (gimnastikachilar) bokschilar, qilichbozlar, tog' chang'isi bilan shug'ullanuvchilar va boshqalar) ovqatida oqsillar, fosfor hamda B1 vitamini ko'proq bo'lishi kerak.

Ko'proq issiqlik yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan sport turlari, masalan, suzish va sportning qishki turlari bilan shug'ullanilganda kundalik yeyiladigan yog' miqdorini ko'paytirgan ma'qul, chunki yog'lar, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, oqsil va uglevodlarga qaraganda ikki baravardan ko'proq energetik manba bo'lib xizmat qiladi. Ko'rish analizatori faoliyati oshirilishini talab qiladigan sport turlari (merganlik, qilichbozlik) bilan shug'ullanuvchilar ratsionida A vitamini serob bo'lishi kerak [1].

Qanday sport turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, har bir sportchining ovqatlanish bobidagi shaxsiy xususiyatlari, milliy an'analari, urf-odatlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki vujud uzoq yillar davomida iste'mol qilib kelingan taomlarga o'rganib qolgan, tanadagi moddalar va quvvat almashinuvi jarayonlari aynan shunday taomlarga moslashgan bo'ladi. Hazm a'zolarida amalga oshiriladigan gidrolizlanish va so'rinish jarayonlari ham "o'z" taomlariga moslanib, ularni tez va to'liq o'zlashtiradi. Masalan, kavkazliklar ko'proq go'shtli ovqatlarni, Boltiqbo'yi mamlakatlarida sut va sut mahsulotlarini sevib iste'mol qilishadi. O'zbeklar ovqatida non, un mahsulotlari ko'proq o'rin tutadi. Agar sportchi musobaqalarda qatnashish uchun o'zga mamlakatlarga borib qolsa, u yeydigan taomlar turi va miqdorining odatdagi holdan keskin o'zgarishi, dastavval, uning me'da-ichak tizimida hazm bo'lish jarayoni bilan bog'liq bir qator salbiy siljishlarni yuzaga keltiradi. Bu hol, o'z navbatida, me'yoriy moddalar va quvvat almashinuvini, vaqtincha bo'lsa-da, izdan chiqarishi mumkin. Bunday ko'ngilsiz holatlarning sodir bo'lmasligi uchun sportchi yoki o'zi o'rgangan ovqat turlari, hech bo'lmaganda shunga yaqin taomlar bilan ovqatlanishi yoki yangi ovqat turlariga bir necha o'nlab o'rganishi, ya'ni moslashishi kerak.

Tayyorlanish bosqichida sportning barcha turlari bilan shug'ullanuvchilar uchun iste'mol taomlarining servitamin bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Aytib o'tganimizdek, bu narsa umumiy moddalar va quvvat almashinuv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda qayta shakllantirishga olib keladi. Musobaqa kunlaridagi ovqatlanish kundalik mashq paytlarida bo'ladigan ovqatlanishdan birmuncha farq qiladi. Quyida shular haqida bayon etilgan fikrlarni tahlil qilib, ayrim tavsiyalar berish mumkin:

- 1) musobaqaga och holda qatnashmaslik;
- 2) start oldidan suyuqliklarni iloji boricha kam iste'mol qilish;
- 3) har xil ovqatning me'da-ichak tizimida qancha vaqt saqlanishini hisobga olish;
- 4) qiyin hazm bo'ladigan taomlarni yemaslik;
- 5) agar startlar orasida vaqt yetarli bo'lsa tez hazm bo'lmasdan meva sharbati, kisel ichish va musobaqa paytida ko'p miqdorda sarf bo'lgan uglevodlar o'rni bosadi.

Yuqorida sport mashqlarini bajarishning turli davr va bosqichlarida ovqatlanishga bo'lgan umumiy talablar haqida fikr yuritildi. Shu narsani qayd qilish kerakki, hech qachon alohida olingan sportchi uchun aynan qanday ovqatlanish kerakligini uzil-kesil aytib bo'lmaydi. Chunki har bir vujudning o'ziga xos xususiyatlari, shug'illanishning asosiy maqsadlari, ob-havo sharoitlari va boshqa qator omillar bunga imkon bermaydi. Lekin ovqatlanishdagi umumiy qonun-qoidalarga amal qilish har bir sportchi uchun kerak. Sportchining ovqatlanish tartibi, dastavval, bajariladigan jismoniy zo'riqish kunning qaysi soatlarida amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Agar mashq qilish va musobaqa kunning birinchi yarmiga to'g'ri kelsa, ertalabki nonushta miqdor jihatidan ko'p bo'lmasligi, uning tarkibida shakar, fosfor, C vitamini yetarli bolib, qiyin hazm bo'ladigan moddalar bo'lmasligi, energetik qiymati kunlik ovqatning o'rtacha 30-35%ini tashkil qilishi kerak. Ertalabgi ovqat tarkibida kletchatka va qiyin eriydigan yog'lar, iloji boricha, kam bo'lishi, go'shtlar qaynatilgan yoki maydalangan, sabzavot-ko'katlar serob bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tushlik ovqat kunlik ovqat energetik qiymatning 35-40 % ini tashkil qilib, uning fiziologik mohiyati mashq qilish natijasida sarflangan moddalar va quvvatning tiklanishiga qaratilgan bo'ladi. Tushlik tarkibida nonushta va kechki ovqatdan farqli o'laroq, go'sht, yog', kletchatka, me'dada uzoq turib qoladigan oziq moddalar bo'lishi mumkin. Shuni ham aytib o'tish kerakki, tushlikning bunday bo'lishi ob-havosi salqin o'lkalar sharoitiga to'g'ri keladi. O'rta Osiyo mamlakatlarida esa bunday tartibda ovqatlanish bahor, kech kuz va qish fasllarida mumkin. Yozning issiq kunlari esa ovqatlanishda boshqacha tartib o'rnatiladi. Kechki ovqat vazifasiga

tushlik bilan o'rni qoplanmay qolgan quvvat va moddalar o'rni to'ldirish hamda sportchi vujudini ertaga bo'ladigan mashqlarga tayyorlash kiradi. Shu bilan bir qatorda, u ko'p miqdorda bo'lib, me'da-ichak tizimini qiynab qo'ymasligi kerak. Kechki ovqatning energetik qiymati kunlik umumiy quvvatning 25-30 % atrofida bo'ladi. Uyquga yotishdan yarim soat yoki bir soat oldin bir stakan qatiq ichgan ma'qul. Chunki sut mahsulotlari uyquning tinch va bir tekis bo'lishini ta'minlaydi, ichaklarda chirish jarayoniga sabab bo'ladigan mikroorganizmlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Agar musobaqa va mashq qilish kunning ikkinchi yarmida o'tkaziladigan bo'lsa, tushlik ovqat biroz kamaytiriladi. Uning energetik qiymati 30-35 % ga tushirilib, hajmi katta bo'lrnasligi, tarkibida kletchatka kam bo'lishi kerak. Mashq qilishni ovqatlanishdan kamida 2-3 soat o'tgandan keyin boshlagan ma'qul. Musobaqalar sharoitida bu vaqt 3,5 soatgacha cho'ziladi. Mashq tugagandan keyin esa kamida 30-40 daqiqa o'tkazib ovqatga o'tirish kerak. [2].

Respublikamizning issiq iqlimi sportchilar vujudiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi. Yuqori harorat quruq havo, davomli quyosh nuri tanadagi ko'pgina fiziologik-biokimyoviy jarayonlarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Xususan, bunday paytda ovqatlanishning qanday bo'lishi kerakligi haqida to'xtalganda, dastavval, shuni qayd qilish lozimki, sanab o'tilgan omillar ta'sirida kishi ko'p suv va u bilan birga ko'pgina mineral moddalar yo'qotadi. Issiq harorat ishtahani bo'g'ib, me'da-ichak tizimida oziq moddalarini parchalaydigan fermentlar faolligini ko'pincha pasaytirib yuboradi, shuning uchun hazm jarayonlari qiynlashadi. Buning ustiga kuchli jismoniy mashqlar bajarish ovqat hazm bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarni yanada murakkablashtiradi. Havo issiq bo'lgan paytda jismoniy ish bajarishning qanchalik qiynligini ko'pchilik tasavvur qila oladi, lekin uning fiziologik-biokimyoviy mohiyatini tushunib yetish hamma uchun, ayniqsa, sportchilar uchun foydadan xoli emas. Gap shundaki, iste'moldagi har qanday ovqat tanada moddalar almashinuvining birmuncha kuchayishiga olib keladi, bu holat ovqatning spetsifik-dinamik ta'siri deyiladi. U oqsilii ovqat, ayniqsa, qo'y go'shti ko'p yeyilganda eng yuqori bo'ladi. Issiq paytda shunday ovqat iste'mol qilinib, kuchli jismoniy mashq bajarilsa, tashqi harorat ta'siri, yeyilgan ovqatning spetsifik-dinamik ta'siri va bajariladigan jismoniy mashq tufayli tana haroratining oshib ketishi bilan bog'liq uch tomonlama zo'riqish kuzatiladi. Shuning uchun ham bunday sharoitlarda mashq qilishda har bir sportchi va murabbiydan ovqatlanish omiliga alohida e'tibor berish talab qilinadi. [6].

Avvalo, sportchi ovqatida mineral moddalardan natriy, fosfor, kalsiy temir hamda vitaminlar birmuncha ko'paytirilishi zarur va buning uchun iste'mol qilinadigan osh tuzi miqdori 25-30 gr ga yetkazilishi kerak. Yana mineral moddalar majmuasidan iborat maxsus aralashmalar, mineral suvlar va servitamin mahsulotlardan muntazam iste'mol qilib turish zarur. Issiq iqlim sharoitida, ayniqsa, suv ichish tartibiga ko'p e'tibor berish ma'qul, chunki ko'p terlash tufayli suv va mineral moddalar tanadan chiqib ketib kishi chanqaydi. Bunday paytlarda ko'p suv ichishning foydasi kam. Yana ko'kat, bodring, pishirilgan go'sht, no'xat solib tayyorlangan ayron ham bu o'rinda juda foydali bo'ladi. Mashq qilish kunning salqin soatlariga qoldirilganligi tufayli shug'ullanishdan 2 soat oldin yengilgina ikkinchi tushlik qilib olish mumkin. Issiq iqlimli o'lkalarda ovqatlanish masalasida asosiy e'tibor kechki ovqatga qaratiladi. Bunday tartib respublikamizda yashaydiganlarning barchasiga ayon. Sportchi ovqatlanishining maqsadga muvofiqligini aniqlashda 2 ta ko'rsatkich muhim. Bulardan birinchisi—tana vaznini doimiy ravishda kuzatib borish. Buning uchun vaznni maxsus tarozida o'lchash ertalab nonushtagacha doim bir xil kiyimda olib borilishi kerak. Agar bu ko'rsatkich umumiy mushak vazni oshmasdan ko'paysa yoki tanadagi suv va yog'ning ozaymasligidan kamaysa, tegishli ravishda, ovqatlanishning me'yordan ortiq yoki kam bo'layotganligi haqida xulosa qilish mumkin. Ikkinchi ko'rsatkich shundan iboratki, sportchi mashq qilish va dam olish jarayonlarida o'zini lanj, og'ir, holsiz sezmasligi, ortiqcha qo'zg'aluvchan bo'lmashligi kerak, aksincha, va mashqlardan keyin yaxshi kayfiyatda va o'zini yengil his etishi kerak.

Tadqiqot usullari. Sportchilarning vitaminlar va minerallarga bo'lgan yuqori ehtiyoji ham har doim ham an'anaviy ovqatlanish bilan qoplanmaydi. Kuchli, uzoq va takroriy kunlik mashg'ulotlar ovqat hazm qilish tizimidagi asosiy oziq-ovqatning normal assimilyatsiyasi va barcha organlar va to'qimalarni zarur moddalar bilan to'liq ta'minlash uchun vaqt qoldirmaydi. Bu metabolizmdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, organizmdagi energiya va plastik resurslarning tiklanish tezligini pasayishiga olib keladi, sport ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi va sport natijalarini oshirishni qiynlashtiradi.

Ratsionga ixtisoslashgan mahsulotlar va xun takviyalarini kiritish metabolik jarayonlarni tartibga solish va faollashtirishga imkon beradi va shu bilan sportchining tanasiga sport turiga, mashg'ulot va raqobat faoliyati bosqichlariga muvofiq maqsadli ta'sir ko'rsatadi.

Ixtisoslashgan sport ovqatlanishi muammolarini hal qilish va uning yetarliligini nazorat qilish diagnostika qilishni o'z ichiga oladi, ovqatlanish va metabolizm holati, organlar va tizimlarning funktsional holati, sportchining jismoniy holatini baholash, energiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va asosiy oziq moddalar - uglevodlar, oqsillar, yog'lar, vitaminlar, mikroelementlar.

Xun qo‘shimchasi - bu sog‘liqni saqlash va yoki ish faoliyatini yaxshilash uchun odatiy iste‘mol qilinadigan parhezga qo‘shimcha ravishda maqsadli ravishda ishlatiladigan oziq-ovqat, ozuqaviy moddalarning ozuqaviy tarkibiy qismi konsensus bayonoti: xun takviyeleri va yuqori samarali sportchi.

Vitaminlar organizmning normal metabolizmi, o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy, almashtirib bo‘lmaydigan oziq moddalardir. Shuningdek, ular kasalliklardan va atrof-muhit omillaridan himoya qilishga hissa qo‘shadi, tananing barcha hayotiy funksiyalarini ta‘minlaydi. Vitaminlarni kam iste‘mol qilish immunitet tizimining faoliyatini susaytiradi, yuqumli kasalliklarning chastotasi va zo‘ravonligini oshiradi, atrof-muhitning salbiy ta‘siriga chidamliligini pasaytiradi, jismoniy chidamlilikni pasaytiradi va o‘quv qobiliyatiga, shuningdek, yosh avlodning reproduktiv salomatligini rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi.

Sportchilarning vitaminlar bilan ta‘minlash muammosi juda keskin va ko‘pchilik sportchilarning vitaminlarga bo‘lgan talablari yiqori. Ayniqsa, vitaminlar yetishmasligi kuz-bahor davrida aniq seziladi, mashg‘ulot yuklari ko‘payib, harorat pasayib, yuqumli kasalliklar ko‘payadi. Vitamin tanqisligi nafaqat zaiflashgan bolalarda, balki yuqori jismoniy zo‘riqish (sport bilan shug‘ullanadigan va hokazo) yoki faol o‘shishni boshdan kechirayotganlarda ham namoyon bo‘ladi.

Vitaminlarning yetishmasligi bolalarning yoshi va sog‘lig‘iga qarab tanlangan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari yoki vitamin-mineral komplekslari bilan qoplanishi mumkin. Ko‘pgina mamlakatlarda vitamin yetishmasligi muammosi ommaviy iste‘mol qilinadigan mahsulotlarni (non, sut va boshqalar) vitamin bilan boyitish muammosini hal qilishga yordam beradi. Biroq bizning mamlakatimizda bugungi kunda bunday amaliyot yo‘q, shuning uchun individual yondashuv, ayniqsa, muhimdir.

Sportchilar uchun funksional ovqatlanishning muhim prinsipi to‘g‘ri ovqatlanish rejimiga rioya qilishdir. Eng ko‘p fiziologik isbotlangan ovqat hazm qilishning rejimi kuniga belgilangan rejim vaqtida ovqatlanishni tashkil qilishdir.

Natijalar va uning muhokamasi. Sportchilar uchun umumiy tavsiyalar: Energiyaga bo‘lgan ehtiyojni qondiradigan va ozuqa moddalarining to‘g‘ri taqsimlanishini o‘z ichiga olgan oqilona ishlab chiqilgan dieta mashg‘ulotlarga va raqobatbardosh yuklarga samarali moslashish uchun asosdir.

1-jadval. Sport turlarida tavsiya etilgan vitamin talablari yoshga nisbatan.

Ko‘rsatkichlar	Sportchilarning yoshi			
	12-14 yosh	14-18 yosh	18-22 yosh	22-29 yosh
Energiya qiymati, kkal	2500	2800	3200	3500
oqsillar, energiya balansi, %	11,43	15	17	19
oqsillar, kkal	270	300	320	350
Vitaminlar, mg				
A (retinol)	1.0	2.1	2,6	3.0
E (a-tokoferol)	15	30	40	45
Askorbin kislotasi	70	130	180	210
D (kaltsiferol)	0,0025	0,0053	0,0065	0,0075
B1 (tiamin)	1,4	3,0	3,7	4,2
B2 (riboflavin)	1,7	3,6	4,5	5,2
B3 (niatsin)	18	36	48	54
B5 (pantotenat)	10	21	26	30
B6 (piridoksin)	2.0	4,25	5.3	6,0
B9 (folatsin)	0.40	0,85	1,06	1,30
B12 (kobalamин)	0,003	0,006	0,008	0,009

2- jadval. Kuchli sport turlari uchun tavsiya etiladigan vitamin talablari yoshga nisbatan

Ko‘rsatkichlar	Sportchilarning yoshi			
	12-14 yosh	14-18 yosh	18-22 yosh	22-29 yosh
Energiya qiymati, kkal	2800	3000	4000	5000
oqsillar, energiya	11,43	18	18	19

EXACT AND NATURAL SCIENCES

balansi, %				
oqsillar, kkal	320	540	720	800
Vitaminlar, mg				
A (retinol)	1.0	1.7	2,25	2.70
E (a-tokoferol)	15	26	34	40
Askorbin kislotasi	70	120	158	185
D (kaltsiferol)	0,0025	0,0043	0,0056	0,0066
B1 (tiamin)	1,4	2,4	3,5	3,9
B2 (riboflavin)	1,7	2,6	3,5	4,2
B3 (niatsin)	18	31	40	51
B6 (piridoksin)	2.0	3,4	4.3	5,1

Sportchilar odatda ko'p suyuqlik ichishlari kerak, masalan, tozalangan suv yoki shakarsiz ko'k choy. Bu mashg'ulotdan oldin, mashg'ulot paytida va keyin bajarilishi kerak. Shug'ullanish jarayonida siz oz miqdorda bir necha marta 2-3 qultum suv ichishingiz kerak. Shuningdek, bolalar bilan energetik ichimliklarni iste'mol qilish haqida suhbatlashishga arziydi, ko'plab do'konlarda ular butunlay erkin sotiladi, ammo ular tanaga katta xavf tug'diradi. Kun davomida bir xil mahsulotlardan iste'mol qilish va takrorlash, hafta davomida - bir sportchining energiya va ozuqa moddalariga bo'lgan ehtiyoji, birinchi navbatda, sport turiga va bajarilgan ish hajmiga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Energiya sarfiga qarab sport to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh - muhim jismoniy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan sport turlari
(Masalan: dart, shaxmat)

3- jadval

Jinsi	Yosh	Kalloriya
O'g'il bolalar va qizlar	6-10	2500
O'g'il	11-13	2700
qizlar	11-13	2500
O'smirin Yoshlar	14-18	3100
O'smirin qizlar	14-18	2700

Ikkinchi guruh - qisqa muddatli, ammo sezilarli jismoniy zo'riqish bilan bog'liq sport turlari
(Masalan: figurali uchish, quvnoq sport, gimnastika, chang'ida uchish, balandlikka sakrash).

4- jadval

Jinsi	Yosh	Kalloriya
O'g'il bolalar va qizlar	6-10	2700
O'g'il	11-13	3100
qizlar	11-13	2700
O'spirin yoshlar	14-18	2600
O'spirin qizlar	14-18	3100

Uchinchi guruh - jismoniy faoliyatning katta hajmi va intensivligi bilan tavsiflangan sport turlari
(Masalan: boks, kikkboksing, xokkey, og'ir atletika, qilichbozlik, futbol).

5- jadval

Jinsi	Yosh	Kalloriya
O'g'il bolalar va qizlar	6-10	3100
O'g'il	11-13	3600
qizlar	11-13	3400
O'spirin yoshlar	14-18	3900
O'spirin qizlar	14-18	3400

To'rtinchi guruh - uzoq va og'ir jismoniy faoliyat bilan bog'liq sport turlari (Masalan: uzoq masofaga suzish, biatlon, kros, yengil atletika).

6- jadval

Jinsi	Yosh	Kalloriya
O'g'il bolalar va qizlar	6-10	3100
O'g'il	11-13	3600

EXACT AND NATURAL SCIENCES

qizlar	11-13	3400
O'spirin yoshlar	14-18	4900

Muhim oziq moddalarga bo'lgan ehtiyoj dietaning umumiy kaloriya miqdori bilan bog'liq va har bir oziq moddasi tomonidan taqdim etilgan kaloriya tarkibini hisobga olgan holda hisoblanadi.

Muvozanatli ovqatlanish nazariyasi oziq-ovqat iste'molini ma'lum miqdorda oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar va minerallarni oziq-ovqat bilan birga iste'mol qilish hisobiga metabolizmning zarur darajasini ta'minlash nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Sportchilar uchun muvozanatli ovqatlanish formulasi quyidagicha ko'rinadi: 1 g uchun oqsillar 0,8 dan 1 g gacha yog' va 4 g uglevodlarni tashkil qilishi kerak. Sportchilarning ratsionidagi oqsillar, yog'lar va uglevodlarning ko'rsatilgan nisbatiga qo'shimcha ravishda, muvozanatli ovqatlanish formulasi har bir ozuqaviy moddalarni iste'mol qilishning ma'lum bir tuzilishini ham ta'minlaydi.

7- jadval

Kuniga bitta mashg'ulot	Kuniga ikkita mashg'ulot	Kuniga uchta mashg'ulot
Birinchi nonushta - 10% Mashg'ulot Ikkinchi nonushta - 25%	Birinchi nonushta - 5 % Mashg'ulot Ikkinchi nonushta - 25%	Birinchi nonushta - 15% Ertalabgi mashg'ulot Ikkinchi nonushta - 25 %
Kundalik mashg'ulot Tushlik - 35% Tushlik keyingi ovqat - 5 %	Kundalik mashg'ulot Tushlik - 35% Tushlik keyingi ovqat - 5 %	Kundalik mashg'ulot Tushlik - 30 % Tushlik keyingi ovqat - 5 %
Kechki ovqat - umumiy kunlik kaloriyalarning 25%	Kechki mashg'ulot Kechki ovqat -30% umumiy kunlik kaloriyalar	Kechki mashg'ulot Kechki ovqat -30% umumiy kunlik kaloriyalar

Yosh sportchilar uchun mashg'ulot paytida va undan keyin tavsiya etilgan minimal suyuqlik iste'moli.

8- jadval

Tana vazni, kg	Jismoniy mashqlar paytida regidratsiya (suyuqlikni to'ldirish), ml / soat	Mashqdan keyin regidratsiya (suyuqlikni to'ldirish), ml / soat
25	325	100
30	390	120
35	455	140
40	520	160
45	585	180
50	650	200
55	715	220
60	780	240

Eslatma: 13 ml/kg tana vazniga - mashg'ulot vaqtida; 4 ml / kg tana vazniga - mashg'ulotdan keyin

Mashg'ulot paytida o'rtacha terlash tezligi 0,5-2,0 l / soatni tashkil qiladi, deb ishoniladi, shuning uchun suv yo'qotish tufayli ishlashning pasayishi mashg'ulotning 60-90 daqiqasida sodir bo'lishi mumkin. Jismoniy mashqlar paytida tana vaznining 4% dan ko'prog'ini yo'qotish qizib ketish, issiqlik urishi va boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Suyuqlik muvozanatini saqlash va suvsizlanishning oldini olish uchun sportchilar 0,5-2 L / soat suyuqlik iste'mol qilishlari kerak. Buning uchun mashg'ulot paytida tez-tez (har 5-15 daqiqada) 350-500 ml suv yoki sport ichimligi iste'mol qilish kerak.

Energiya talabi ovqatlanish orqali mashg'ulotlarni optimallashtirishning asosiy komponenti sportchilarning energiya sarfini qoplash uchun yetarli kaloriya iste'mol qilishlarini ta'minlashdir. Muntazam ravishda o'rtacha intensivlikda (masalan, kuniga 2-3 soat intensiv mashg'ulotlar haftasiga 5-6 marta bajariladi) yoki yuqori hajmda (masalan, kuniga 3-6 soat intensiv mashg'ulotlar 5-6 kun davomida) muntazam ravishda mashq qiladigan sportchilar haftada) mashg'ulot paytida soatiga 600-1200 kkal yoki undan ko'p sarflashi mumkin. (50-100 kg vaznli sportchi uchun 2000-7000 kkal / kun). Sportchilar o'zlarining kaloriya ehtiyojlarini shunchaki muvozanatli ovqatlanish orqali qondirishlari mumkin, katta sportchilar va intensiv mashg'ulotlar bilan shug'ullanadiganlar uchun kaloriya talablarini qondirish uchun har kuni ko'p miqdorda oziq-ovqat iste'mol qilish ko'pincha qiyin. Ayol sportchilar sportning raqobatbardosh va estetik talablari tufayli energiya va ozuqaviy to'yib ovqatlanmaslik xavfi ostida. Bundan tashqari, ular orasida ovqatlanish buzilishining yuqori chastotasi qayd etilgan energiya ta'minotining yetarli

emasligi funksional gipotalamus oligomenoreya amenoreya bilan bog'liq bo'lib, bu ko'pincha tana vaznini tashvishga soladigan sport bilan shug'ullanadigan ayollar orasida qayd etiladi. Energiya ta'minotining kamayishi ayol sportchilar uchun asosiy ovqatlanish muammosidir.

Xulosa. Hozirgi vaqtda sportga tayyorgarlik tizimi, ayniqsa, eng yuqori yutuqlar, nihoyatda yuqori tayyorgarlik va raqobatbardosh yuklamalar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, jismoniy faollikni oshirish, charchoqning oldini olish va jismoniy zo'riqishlardan keyin tiklanish jarayonlarini tezlashtirishda ratsional ovqatlanish (asosiy ovqatlanish) va ozuqaviy-metabolik yordam muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, eng yuqori yutuqlar sportida, sportchining butun faoliyati davomida yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlaydigan vosita va usullar tizimida parhez omillarining roli xarakterlidir.

Mashg'ulotlar jarayoni tarkibini o'zgartirish yillik o'quv siklining turli bosqichlarida va musobaqa davomida ovqatlanish masalalariga alohida e'tibor berishni talab qildi. Kuniga ikki va uch marta mashg'ulotlarning joriy etilishi yuqori malakali sportchilarning ovqatlanishini sezilarli darajada o'zgartirdi va mashg'ulot usullarini takomillashtirish organizmning energiya sarfini sezilarli darajada oshirishga olib keldi.

Hujayra va hujayra darajasida ozuqa moddalarini assilyatsiya qilish jarayonida metabolik xususiyatlarni aniqlash sizga sportchining dietaning individual tarkibiy qismlariga bo'lgan ehtiyojini aniqlashga, ularning jismoniy ko'rsatkichlarini oshirish uchun zarur bo'lgan optimal nisbatlarini belgilashga, yuklarga moslashish jarayonlarini tezlashtirishga imkon beradi va salbiy ekologik omillarning ta'siri, organizmni tiklash jarayonlarini faollashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytamanki sportchilarning to'g'ri ovqatlanishi va o'z vaqtida mashg'ulotlarni bajarishi ularni kerakli darajada ham jismonan ham ruhan yetuk qilib tarbiyalaydi. Barcha sportchilarning funksional ovqatlanishi va ovqatlanish mezonlariga to'liq amal qilishi natijasida ularning sportda qo'lga kiritadigan yutuqlari eng yaxshi natijalarni qayd etadi. Sportchilarning funksional ovqatlanish natijasida turli xil sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarimizning sog'liklari va ularning erishadigan yutuqlari uchun chambarchas bog'liq bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Атамухамедова М. и др. Влияние умственной деятельности у учащихся на газообмен в различных экологических условиях //Символ науки. – 2019. – №. 3. –С. 81-82.

2. Атамухамедова М. Р., Саидова А. Я., Исраилжанов С. И. Функциональные сдвиги в организме детей в неблагоприятных условиях окружающей среды//Проблемы и перспективы развития экспериментальной науки. – 2018. – С. 136-138.

3. Atamukhamedova M. R., Eminov A. Y., Boratov O. M. Changes in the respiratory and blood system as a result of physical exercises //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 10. – С. 317-322.

4. Rakhimzhanovna A. M., Adkhamzhanovich A. A., Avazkhanovich E. A. Physical performance indicators in young swimmers //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 59-62.

5. Атамухамедова М. Р., Саидова А. Я. Питание при железодефицитной анемии //Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития. – 2020. – С. 267-269.

6. Атамухамедова М. Р., Саидова А. Я. Основные правила питания при занятиях спортом //Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития. – 2020. – С. 265-267.

7. Nikityuk D.B., Miroshnyukova Yu.V. Burlyaeva E.A., Vybornov V.D., Balandin M.Yu., Timoshenko K.T. Yosh sportchilarning ovqatlanishi bo'yicha ko'rsatmalar - Moskva, 2017 yil

8. Макарова, С. Г. Особенности питания юных спортсменов, занимающихся циклическими видами спорта / С. Г. Макарова, Т. Р. Чумбадзе, С. Д. Поляков // Вопросы современной педиатрии. – 2015. – 14 (3). – С. 332–340.

9. Гольберг, Н. Д. Питание юных спортсменов / Н. Д. Гольберг, Р. Р. Дондуковская. – М.: Советский спорт, 2007. – 240 с.: ил.

10. Пшендин, П. И. Рациональное питание спортсменов / П. И. Пшендин. – М., 2005. – 76 с.

11. IOC Consensus Statement on Sports Nutrition // Nutrition for Athletes – A practical guide to eating for health and performance. – 2016. – 37 p.

12. Phillips, S. M. Protein "requirements" beyond the RDA: implications for optimizing health / S. M. Phillips, S. Chevalier, H. J. Leidy // Appl Physiol Nutr Metab. – 2016. – Vol. 41 (5). – P. 565–572.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY UN ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIK
LINIYASINI NAZARIY JIHATDAN ASOSLASH

Barakayev Nusratilla Rajabovich,
Renessans ta'lim universiteti professori
BarakayevNR@gmail.com

Uzoqov Yusuf Ahrol o'g'li,
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali assistenti
yusufuzoqov121293@gmail.com

Ergashev Abduraufxon Mubilloxon o'g'li,
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi
Abdurauf1720@gmail.com

Sayfullayev Nodirxon Ilyos o'g'li,
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi
Nodirxon2023@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi va qilingan tahlil natijalari asosida, mamlakatimiz un ishlab chiqarish sanoatining hozirgi holati o'rganilgan va zamonaviy un ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan va tahlil qilinganligi keltirib o'tilgan.

Aholimizning bug'doy uniga bo'lgan ehtiyoji va iste'molda tutgan o'rni o'rganib chiqildi.

«O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi korxonalar tadqiq qilindi va ularning bugungi kundagi umumiy holati o'rganib chiqildi.

Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida aholining sifatli va oziq-ovqat nuqtayi nazardan xavfsiz bo'lan un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji va ushbu ehtiyojni qay darajada qondirilayotganligi o'rganib chiqilgan.

Ushbu maqolada dunyo standartlariga javob beradigan zamonaviy Turk texnologiyasi asosida qurilgan 150 tonna/sutka quvvatga ega bo'lgan un ishlab chiqarish korxonasining texnologik liniyasi bayon etildi.

Kalit so'zlar: O'zdonmahsulot, bug'doy uni, jaydari un, yorma, turk texnologiya, dimlash bunkerlari, vals dastgohi, elak, entolektor, vimol mashinasi.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИНИИ
ПО ПРОИЗВОДСТВУ МУКИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье, исходя из актуальности темы, уровня исследования и результатов анализа, изучено современное состояние мукомольной отрасли нашей страны, а также разработана и проанализирована современная технология производства муки.

Изучены потребности нашего населения в пшеничной муке и её роль в потреблении.

Изучены предприятия системы АО «Уздонмахсулот», и изучено их общее состояние на сегодняшний день.

В процессе изучения данной темы изучена потребность населения в качественных и безопасных для пищевых продуктов мучных изделиях и степень удовлетворения этой потребности.

В данной статье описана технологическая линия предприятия по производству муки мощностью 150 тонн/сутки, построенная на основе современной турецкой технологии, соответствующей мировым стандартам.

Ключевые слова: Уздонмахсулот, мука пшеничная, мука джайдари, крупа, турецкая технология, бункеры пропаривания, вальцовочная машина, сито, энтолейтор, машина vimol.

THEORETICAL SUBSTANTIATION OF A MODERN TECHNOLOGICAL LINE FOR
FLOUR PRODUCTION UNDER THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Abstract. In this article, based on the relevance of the topic, the level of research and the results of the analysis, the current state of the flour production industry of our country is studied, and the modern flour production technology has been developed and analyzed.

The needs of our population for wheat flour and its role in consumption were studied.

Enterprises in the system of the joint-stock company "Uzdonmakhsulot" were studied and their general condition today was studied.

In the process of studying this topic, the population's need for high-quality and food-safe flour products and the extent to which this need is met were studied.

This article describes the technological line of a flour production enterprise with a capacity of 150 tons/day, built on the basis of modern Turkish technology that meets world standards.

Key words: *Uzdonmakhsulot, wheat flour, jaidari flour, groats, Turkish technology, steaming bunkers, rolling machine, sieve, entoleitor, vimol machine.*

Kirish. Resublikamiz aholisi boshqa davlatlarga qaraganda don va don mahsulotlarini ko'proq iste'mol qiladi. Izlanishlar shuni ko'rsatkichi, dunyo bo'yicha olib qaraganda har bir kishi yil davomida o'rtacha 133 kg g'alla (bug'doy) donini qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni (un, non, yorma, makaron, qandolat) iste'mol qiladi. Bu raqam bizning respublikada 160-170 kg tashkil qiladi. Ya'ni bizda bu ko'rsatkich nisbatan yuqori. Un navlari ichida iste'mol qiymati bo'yicha javdari un yuqori hisoblanadi, unda inson organizmi uchun zarur barcha oziq moddalar mavjud [1].

Oliy navli undan tayyorlangan 500 g nonda oqsil moddasi 30 foizdan oshmaydi, I navli unda esa - 35 foiz, II navli unda 40 foizga yaqin va javdari unda 45-55 foizni tashkil qiladi [2].

Resublikamiz aholining bug'doy uniga bo'lgan ehtiyoji O'zdonmahsulot AK tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan unlar, mahalliy xususiy un ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan unlar hamda qo'shni Qozog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan unlar hisobiga qondiriladi. Agar 1992- yilda 1 million 250 ming tonna don yetishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2020- yilda 8 million tonnadan oshib ketdi [3].

Mamlakatimiz un ishlab chiqarish sanoati tarixi 100 yildan uzoqroqqa boradi. O'rta Osiyo hududida dondan un tayyorlashning turli usullardan foydalanganlar. Masalan, Xorazmda ikki toshdan iborat yormachiq qo'l tegirmoni yoki yog'ochdan tayyorlangan o'g'irlardan foydalanilgan. Keyinroq suv tegirmonlari qurila boshlagan. Toshkent shahrida birinchi bo'lib 1883- yili hozirgi 3-un tegirmoni Mirzo Ulug'bek tumanidan o'tadigan Salor arig'ining shimoliy qirg'og'ida qurilib, kuniga 20 tonna javdari un ishlab chiqargan. O'zbekiston viloyatlarida ko'pincha mayda suv tegirmonlari mavjud bo'lib, ular ariqlar yon bag'riga joylashgan edi. Bunday tegirmonlar hunarmandchilikda muhim ahamiyat kasb etgan. Tegirmonlarda tortiladigan unga ko'p mehnat sarf qilinar va buning natijasida mahsulot tannarxi ancha qimmatlashardi.

Asrimiz boshlarida O'rta Osiyoda paxta maydonlari kengayib borishi sababli o'lka iqtisodiyoti o'zgardi. Buning natijasida kattaroq quvvatga ega bo'lgan tovar tegirmonlarini barpo etish zaruriyati paydo bo'la boshladi va Samarqand (1898 y), Andijon (1901 y), Toshkent (1909 y) shaharlarida bug'doydan bir necha navli un ishlab chiqaradigan, elektr quvvati yordamida va chet el texnologiyasi asosida ishlaydigan tegirmonlar mahalliyashtirildi. 1918- yilga kelib o'lkadagi barcha tegirmonlar qayta qurildi. Tegirmonlardagi eski dastgohlar chet eldan keltirilgan yangi dastgohlar bilan almashtirildi, norma va normativlar qaytadan ishlab chiqilib, texnologiyasi yanada takomillashtirildi. Respublikada don resurslarining cheklanganligi sababli mutaxassislarning e'tibori tegirmonlarni qayta tiklash, mahsulot birligi uchun sarf bo'ladigan xom ashyo miqdorini iqtisod qilish kabi chora-tadbirlarga qaratildi. Buning natijasida don resurslari iqtisod qilinish, un ishlab chiqarish hajmi o'sdi. 1921- yilda tegirmon sanoati oziq-ovqat xalq komissariati ixtiyoriga o'tadi. 1922- yili "Xleboprodukt" aksionerlik jamiyati tashkil etilib, uning tarkibida "Aziyaxleb" tresti tashkil topadi. Shu yillardan boshlab tegirmonlar yiriklashib, maydalari esa asta-sekin kamaya boradi. 1932 yili "Aziyaxleb" jamiyati qayta tuzilib, uning o'rniga "Trestsredazglavmuka" tashkil etiladi. Bu trest tarkibiga O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarida joylashgan un, yopma ishlab chiqaruvchi korxonalar kirgan. "Trestsredazglavmuka"da 1938-yili un-yorma korxonalarining soni 3814 ga etib, bulardan 24 tasi tovar tegirmonlari edi. Tovar tegirmonlari yalpi mahsulotlarning salkam 80 % ini ishlab chiqarsa, qolgan qismi esa qishloq xo'jaligi tegirmonlari zimmasiga to'g'ri kelardi. Shunga qaramasdan, mayda tegirmonlar O'zbekistonning qishloq aholisini un bilan ta'minlashda muhim hissa qo'shib keldi. Respublikada un ishlab chiqarish hajmi 1941- yilga kelib 1917 - yilga nisbatan 10 marta oshdi.

II jahon urushi yillarida barcha korxonalar bir navli un ishlab chiqarishga o'tib, barcha kuchlarini front uchun safarbar etadi. 1950-1955- yillarga kelib ko'pgina korxonalar texnika bilan qayta qurollandi, 1955-yilning oxirlarida asosiy dastgoh bo'lgan valli stanoklarning 63,5 %, un elaklari, don tozalaydigan mashinalarning 64% almashtirildi. 1956- yil sentyabr oyida "Trestsredazglavmuka" o'rniga Respublikada Don mahsulotlari Ministrligi tashkil etiladi. 1956-65- yillarda tegirmon sanoati oldiga un ishlab chiqarish

hajmini ko'paytirish, un sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'tarish masalalari asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shy yillarda katta un kombinatlari qurilib, don qabul qilish punktlarida 25 ta kichik hajmga ega bo'lgan, kuniga 15 t navli un ishlab chiqaradigan, chet eldan olib kelingan tegirmonlar montaj qilindi. Ularning jami quvvati sutkasiga 375 tonna unni tashkil qilardi. Harakatdagi tovar tegirmonlari rekonstruksiya qilinib, ular yangi texnika va ilg'or texnologiya bilan almashtirildi. Yuqori mexanizasiyalashgan kopxonalarda kuniga 240 t un ishlab chiqaradigan yangi tegirmonlar qurila boshlandi. Shular jumlasiga Farg'ona (1962- y.), Yangiyo'l (1963- y.), Namangan (1964- y.), Andijon (1965- y.), Samarqand (1967 y.), Buxoro (1968 y.) va Navoiy (1960 y.) dagi tegirmonlarni kiritish mumkin. Respublikada 1971-1975- yillarda kuniga jami 540 t un ishlab chiqarish quvvatiga ega. 7 ta korxonalar: Jizzax (1971- y.), Ohangaron (1971- y.), Qo'qon (1971-y.), Qarshi (1973-y.), Asaka (1974 -y.), Jomboy (1974- y.) va Taxiatosh (1975- y.)da ishga tushirildi. 1980 -yili tegirmonlar 6330 t donni qayta ishlab, mahsulot olish quvvatiga ega bo'lib, ikkinchi jahon urushi davridagiga nisbatan bir necha marta ko'p un ishlab chiqara boshladi. Saksoninchi yillarda bular qatoriga Xonqa va Uchqo'rg'ondagi Shvetsariya litsenziyasi asosida to'la avtomatlashgan, kuniga 500 t. uch navli un ishlab chiqaradigan tegirmonlar qo'shildi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992- yil 6- fevraldagi PF-334-sonli farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari («O'zdonmahsulot») davlat konserni tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994- yil 22- apreldagi PF-840-sonli farmoniga asosan «O'zdonmahsulot» davlat konserni «O'zdonmahsulot» davlat - aksionerlik korporatsiyasiga aylantirilgan.

1995-1998- yillar davomida 13 ta yorma sexlari, 30 ta ozuqa am va 52 ta un zavodlari xususiy lashtirildi. Bu korxonalar yiliga 300 ming tonnadan ortiq yorma, 3 million tonnadan ortiq ozuqa am va un mahsulotlarini ishlab chiqarib, respublika aholisi ehtiyojini qondirdi.

Donni xarid qilish, saqlash va qayta ishlash sohasida boshqaruvni tubdan takomillashtirish, ortiqcha oraliq tuzilmalarni tugatish, tarmoqda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish, xususiy lashtirish va investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 6- avgustdagi 376-sonli qaroriga asosan «O'zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirilgan.

Bugungi kunda «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi tizimida 43 ta korxonalar mavjud.

«O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi korxonalarda 52 ta un ishlab chiqaruvchi tegirmon, 93 ta non sexi, 30 ta makaron sexi, 16 ta yorma va 49 ta omuxta am sexlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston respublikasida zamonaviy komplekt jihozlangan yuqori unumdorli tegirmonlar (unumdorligi bir kunda 60 tonnadan 500 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar) mavjud. Bu tegirmonlarda 75-78 % gacha yuqori navli unlar olinadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda unumdorligi 30 t/sut bo'lgan kichkina tegirmonlar qurilmoqda.

Tadqiqot usullari. Respublika aholisining sifatli va oziq-ovqat nuqtayi nazardan xavfsiz bo'lgan un mahsulotlariga bo'lgan talabining oshib borishi ushbu sohada tegishli yangiliklar va o'zgarishlarni amalga oshirib boorishni taqozo etadi. Ma'lumki mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan «O'zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasiga tegishli bo'lgan korxonalar dastlab chor Rossiyasi tomonidan patentlangan eski Byuller texnologiyasi asosida qurilgan edi. Hozirgi kunda ushbu texnologiyalarning 70-80 % qismi zamonaviy Turk texnologiyasi asosida qayta rekonstruksiya qilindi.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy komplekt jihozlangan yuqori unumdorli tegirmonlar (unumdorligi bir kunda 60 tonnadan 500 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar) mavjud. Bu tegirmonlarda 75-78 % gacha yuqori navli unlar olinadi. Hozirgi vaqtda Respublikamizda unumdorligi 30 t/sut bo'lgan kichkina tegirmonlar qurilmoqda.

Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda yuqori malaka va bilimga ega bo'lgan mutaxassislar talab oshib bormoqda.

Tegirmondagi texnologik jarayonlar bir yoki bir necha oqimdan boshlanib un tortish davrida o'nlab, yuzlab oqimlarga ajralib (yirikligi va sifati bo'yicha) alohida ishlov beriladi. Oxirida bir yoki bir necha nazoratchi oqim orqali tayyor mahsulot chiqadi.

Ushbu maqola Turkiyaning ERKAN MAKINA korxonasi liniyasi asosida un ishlab chiqaradigan kunlik quvvati 150 t/s ga teng bo'lgan 75-78% (ikki navli, ya'ni oliy va bir xamda manniy yormasi va makaron uni) olish uchun mo'ljallangan un ishlab chiqaruvchi tegirmonning texnologik liniyasi tadqiq qilingan.

Natijalar va uning muhokamasi. Quvvati 150 t/s bo'lgan donni qayta ishlovchi korxonaning ishchi binosining o'lchamlari:

Binoning eni: 18 metr
Uzunligi: 24 metr
Balandligi: 23,5 metr
Qavatlar balandligi:
1-qavat - 5.000 metr
2- qavat - 5.000 metr
3- qavat - 5.000 metr
4- qavat - 5.000 metr
5- qavat - 3.500 metr

Dastlabki tozalash liniyasidagi don noriya orqali yuqoriga ko'tarilib u yerdan EM-BM-150 tipidagi magnit separatorga, so'ngra EM-CS-150\200 tipidagi tozalash separatoriga, EM-HK150 havo kanaliga, so'ngra elektron tarozilarga beriladi. Keyingi noriya orqali shnek uskunasiga va undan o'tib $68 \times 4 = 272$ tonna quruq don uchun mo'ljallangan to'rtta qutiga beriladi.

Don tozalash bo'limida quruq bug'doy bunkeridagi don EM-UH250 shneki orqali EM-ELV25x25 №1 noriyaga va EM-BM-150 tipidagi magnit separatoriga uzatiladi va unda metal aralashmalardan tozalanadi, undan keyin EM-CS-100\200 tipidagi tozalash separatoriga uzatiladi unda asosiy tur dondan eni, yo'g'onligi va aerodinamik xususiyatlari bilan farq qiluvchi aralashmalarni ajratiladi, keyin EM-HK100 tipidagi havo kanaliga uzatiladi va dondan yengil bo'lgan aralashmalar tozalanadi, so'ngra undan o'tgan don EM-TA-2x120x120 tosh ajratuvchi uskunada mineral chiqindilardan tozalanib keyin esa ikki qavatli 2x75x240 rusumli trier kukolajratgich uskunada bug'doy dondan kichik bo'lgan donli aralashmalardan tozalanadi so'ngra 2-sonli noriyadan o'tib ikki qavatli EM-ATR 2x90x300 rusumli trierovsyugajratgich uskunadan bug'doy donidan uzun bo'lgan donlardan tozalanadi, keyin EM-BM-150 tipidagi magnit ustun orqali don yangi model oqlash uskunasi EM-KS 45x80 radial tarar (yopiq havo aylanishi bilan duoaspirator-separator) EM-KDRT-100 uskunalariga yuborilib unda donning qobiq qismi tozalanadi, keyin №3 noriya orqali va qiya namlantiruvchi mashina (xrom-nikel) EM-AT 35/300, bu yerda qolgan mikroflora va qisman meva qobig'i tozalanadi. Qiya namlash mashinasida donni namlash dastlabki bosqichda 4-5% ga erishishga imkon beradi. Sxemaga uch marta yangi model oqlash uskunasi kiritilishi O'zbekistonda yetishtirilgan donning yuzasi mikroflora bilan to'yinganligidan kelib chiqadi, uning elementlarini faqat yangi model oqlash mashinasida olib tashlash mumkin. Undan so'ng birinchi dimlash bunkeriga kelib tushadi.

Birinchi dimlash bunkeridan 4-sonli don noriyaga keyin yangi model oqlash uskunasi EM-KS 45x80 radial tarar (yopiq havo aylanishi bilan duoaspirator-separator) EM-KDRT-100 uskunalariga yuborilib unda donning qobiq qismi tozalanadi, so'ngra 5-sonli noriyaga don beriladi, keyin EM-ATM 35/300 rusumli qiya namlagich mashinasi, keyin esa ikkinchi dimlash bunkeriga beriladi.

Dimlashning ikkinchi bosqichida donni namlash rejimi 2-3% ni tashkil qiladi. EM-UVH 250 shneki bilan ikkinchi dimlash bunkerlaridan don 6-sonli noriyaga va yangi model oqlash uskunasi EM-KS 45x80 radial tarar (yopiq havo aylanishi bilan duoaspirator-separator) EM-KDRT-100 uskunalariga yuborilib, yengil aralashmalar va changlari don massasidan havo bilan chiqariladi.

Maydalash uchun tayyorlangan don B1 bunkeriga beriladi va keyin valli dastgohga beriladi.

Shunday qilib, tegirmonning donni tozalash bo'limida donni maydalash uchun tayyorlashning butun sikli prognoz parametriga muvofiq amalga oshiriladi va donni tozalash va gidrotermik qayta ishlashning quyidagi natijalariga erishiladi:

Un tortish bo'limiga qayta ishlash uchun olingan donning namligi-15,5-16,5% begona o'tlar aralashmasining mavjudligi 0,2% dan yuqori emas don aralashmasining mavjudligi yuqori emas-2,0% don kulining 0,12-0,14% ga kamayishi yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, texnologik ko'rsatkichlar nafaqat O'zbekiston Respublikasining "texnologik jarayonini tashkil etish va yuritish qoidalariga" mos keladi, balki ba'zi ko'rsatkichlar va undan yuqori.

Un tortish bo'limi uchun quyidagi texnologik uskunalar ishlab chiqilgan:

1. Vals dastgohi EMMV-4x1000x250 - 10 dona.
2. Elak EM-KE- 8x28-1 dona.
3. Elak EM-KE- 6x24-2 dona.
3. Vimol mashinasi EM-KF 45x110 -4 dona.
4. Entolektor EM-IF 55 -6 dona.
5. Sitoveyka-EM-IS-2x46x200 -2 dona.

Unni to'plash va uni navlar bo'yicha ajratish uchun har bir navli un uchun bo'luvchi klapanlar va o'zi oqar quvurlar mavjud. Un tortish bo'limining texnologik jarayoni an'anaviy bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga

oladi:

4 ta maydalash jarayoni (B1,B2,B3,B4)

2 sayqallash jarayoni (C1A, C1B)

2 saralash jarayoni (DIV1,DIV2)

8 ta un tortish jarayoni (C1,C2,C3,C4,C5,C6,C7,C8)

Vallarning yo'nilishi an'anaviy hisoblanadi. Silliqlash tizimlarining vallari C8 dan tashqari "silliq".

Periferik tezliklar va valning aylanish differentsialligi an'anaviylardan yuqori.

Texnologik jarayon ikki navli un chiqishi 75-78% bo'lgan novvoylik unini, makaron uni va yorma olishga asoslangan.

Elaklar sakkiz va olti seksiyalidir. Ular faqat Shveysariyada SEFAR NETAL tomonidan ishlab chiqarilgan neylon elaklardan foydalanadi.

Un assortimenti:

Oliy navli – 5 %

Birinchi navli - 65%

Makaron uni -2%

Manniy krupa-3%

Kepak – 21,5 %

Chiqindi- 3,5%

Elak unlari shnekda yig'iladi. Har bir elak sistemalari ostidan un o'zi oqar quvurlarga kelib tushadi va sifatiga qarab (oliy yoki birinchi nav) yo'naltirilgan klapanlarga yo'naltirilishi mumkin.

Un navlarga ko'ra noriyaga (oliy va birinchi navlarga) yuboriladi va o'zi oqar quvurlar yordamida bunkerlarga beriladi.

Qadoqlash bo'limi yuqori aniqlikdagi ± 50 gramm yuqori samarali elektron tortish moslamasida bilan ta'minlangan.

Unning tarozida tortish aniqligi O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti normalariga mos keladi.

Pnevmatik transport uchun elektr energiyasi sarfi shunga o'xshash ishlab chiqarish quvvatiga ega mahalliy yuqori samarali uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarga qaraganda 2 baravar past.

Metall aralashmalarni tozalash uchun U1-BMP tipidagi magnit separatorlar, U1-BMM yangi model oqlash uskunolari oldidan hamda vallli dastgohlardan oldin loyihalashtiriladi.

Xulosa. Un ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat iste'molchi uchun, balki ishlab chiqaruvchi uchun ham manfaatli hisoblanadi, chunki zamonaviy texnologiyalar kamxarajat, ya'ni elektr energiya sarfi, suv sarfi kamroq bo'ladi va asosiysi, samaradorligi yuqori bo'ladi. Shuning uchun eski turdagi un ishlab chiqarish korxonalarini bosqichma- bosqich zamonaviysiga almashtirib borish kerak.

ADABIYOTLAR:

1. *Don va don mahsulotlari tovarshunosligi.* Ayxodjaeva N.K., Ravshanov S.S. Toshkent: 2012-yil.-157 bet .

2. Черняев С.И., Зевакин И.И., Марков М.В. *Некоторые аспекты экологии, питания и здоровья //Пищевая промышленность, 2000-с*

3. <https://www.uzdon.uz> «O'zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi faoliyati.

4. *Un, yorma va omixta am texnologiyasi.* prof. P.M.Tursunxo'jaev Toshkent: 2013-yil.-172 bet

5. Suvankul R. et al. *Improving bakery properties in the preparation of wheat flour from local wheat grains // Chemistry and Chemical Engineering. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 14.*

ДОМЕННАЯ СТРУКТУРА БОРАТА ЖЕЛЕЗА

Шарипов Мирзо Зокирович,

Профессор Бухарского инженерно-технологического института
m.z.sharipov@rambler.ru

Хайитов Дилиод Эргашевич,

Доцент Бухарского инженерно-технологического института
d_e_hayitov@rabler.ru

Эргашева Нилуфар Мансуровна,

Докторантка Бухарского инженерно-технологического института
nilu_1221@mai.ru

Олимпур Фирдавс Икромзода,

Докторант Бухарского инженерно-технологического института

Файзиева Зарифа Хикматовна,

Докторантка Бухарского инженерно-технологического института

Зокирова Зархал Мирзоевна,

Студентка Бухарского Государственного Университета

Аннотация. В данной статье приведены литературный обзор исследования доменной структуры бората железа, в котором использовались метод рентгеновской топографии и магнитооптический метод. В результате было установлено, что в достаточно совершенных кристаллах реализуется регулярная доменная структура. Причём в зависимости от геометрических размеров образца и его кристаллографической ориентации в этих кристаллах может реализоваться как сквозная доменная структура, в которой вектор намагниченности не меняет своей ориентации в домене по всей толщине кристалла.

Общая теория доменной структуры ромбоэдрических слабых ферромагнетиков, учитывающая магнитоупругую и магнитоэлектрическую энергии, показывает, что в соответствии с симметрией в ромбоэдрических кристаллах возможно наличие 60, - 120 – и 180 – градусных доменных границ.

Ключевые слова: доменная структура, доменная граница, борат железа, слабый ферромагнетик, антиферромагнетик, лёгкая плоскость, эффект Фарадея, механическое напряжение, вектор намагниченности, тонкий кристалл.

TEMIR BORATNING DOMEN TUZILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rentgen topografiya usuli va magnit-optik usuldan foydalangan holda temir boratning domen tuzilishini o'rganish bo'yicha adabiyotlar ko'rib chiqiladi. Natijada, yetarli darajada mukammal kristallar muntazam domen tuzilishini namoyish etishi aniqlandi. Bundan tashqari, namunaning geometrik o'lchamlari va uning kristallografik yo'nalishiga qarab, bu kristallar magnitlanish vektori kristalning butun qalinligi bo'ylab domendagi yo'nalishini o'zgartirmaydigan yoki qatlamli domenni o'zgartirmaydigan domen strukturasi amalga oshirishi mumkin.

Magnit elastik va magnitostatik energiyalarni hisobga olgan holda rombedral kuchsiz ferromagnitlarning domen tuzilishining umumiy nazariyasi shuni ko'rsatadiki, simmetriyaga muvofiq, rombedral kristallar 60, - 120 - va 180 - darajali domen chegaralariga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: domen tuzilishi, domen devori, temir borat, zaif ferromagnit, antiferromagnit, oson tekislik, Faraday effekti, mexanik kuchlanish, magnitlanish vektori, yupqa kristal.

DOMAIN STRUCTURE OF IRON BORATE

Abstract. This article provides a literature review of the study of the domain structure of iron borate, which used the X-ray topography method and the magneto-optical method. As a result, it was found that sufficiently perfect crystals exhibit a regular domain structure. Moreover, depending on the geometric dimensions of the sample and its crystallographic orientation, these crystals can be realized as a through

domain structure, in which the magnetization vector does not change its orientation in the domain throughout the entire thickness of the crystal.

The general theory of the domain structure of rhombohedral weak Ferro magnets, taking into account magneto elastic and magneto static energies, shows that, in accordance with symmetry, rhombohedral crystals may have 60, - 120 - and 180 - degree domain boundaries.

Key words: domain structure, domain wall, iron borate, weak Ferro magnet, antiferromagnetic, easy plane, Faraday Effect, mechanical stress, magnetization vector, thin crystal.

Bugungi kun tadqiqotlari sirasida xalq og‘zaki ijodi namunalarning leksikasi, frazeologiyasi, grammatikasi, dialektologiyasiga doir izlanishlarni kuzatish mumkin. Tilshunoslikda lingvofolkloristika deb nom olgan soha tobora rivojlanib bormoqda. Folklor tili va unda qo‘llanuvchi lug‘aviy birliklarning izohli lug‘atlarini tuzishga e‘tibor oshirilmoqda.

Jahon xalqlari og‘zaki va yozma nutqida tibbiy birliklarning alohida o‘rni bor. Insoniyat azaldan kasallik turlari, ularning xalqona muolajasini aniqlab, belgi-xususiyatlariga ko‘ra tasniflab kelmoqda. Ba‘zan birliklar talqinida xalq dunyoqarashi, psixologiyasi, e‘tiqodiy tushunchalari, mifopoetik tafakkuri, ularni nomlashda tabu va evfemizmlarga rioya qilinganligiga alohida e‘tibor berilmoqda. Natijada, har bir xalq tilida tibbiy birliklarning muayyan tizimi shakllanib, qadimiy ko‘rinishlari folklor asarlari tilida saqlanib qolganki, ularning etnolingvistika, lingvofolkloristika, lingvopoetika, lingvokulturologiya jihatidan tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Asosiy qism. O‘rta Osiyo xalqlari orasida momo ruhlarning nomi juda ko‘p. Xalq nazdida Momoyi Kalon – Katta momo barcha momo ruhlarning boshlig‘i sanaladi. Boshqa ruhlar unga bo‘ysunishi aytiladi.

Yo‘lchi momo o‘z ajdodlariga yo‘lda va safarda homiylik qiluvchi momo ruhdir.

Elchi momo o‘z elini qo‘llab-quvvatlovchi, tiriklarga yordam ko‘rsatuvchi momodir.

Xabarbar momo – xabar eltuvchi, Xabarbiyor momo esa xabar keltiruvchi, yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealardan oldindan ogoh etuvchi ruhdir. Odatda, folbinlik va baxshilik qiluvchilar uni o‘zlariga

homiy deb bilganlar. Bu momo ruhlarning har to'rttasi ham insonlarga ezgulik qiluvchi madadkor ruhlar sanaladi.

To'q momo nomiga tez-tez is chiqarilib, duoyi fотиha o'qib turilgani, ya'ni tiriklar tomonidan vaqtida yo'qlanib, "oziqlantirib" borilgani tufayli o'z avlodlaridan minnatdor bo'luvchi ruhdur.

Gung momo – tirikligida gung, gapira olmaydigan bo'lib yashab o'tgan ayol ruhi. Aytishlaricha, ko'pincha ular shomon ayollarga homiylik ko'rsatarkan.

Momoyi pushti yoki momoyi merosi ajdod homiy ruhlardan biri bo'lib, shomonlik qiluvchining marhum ota-onasi, ajdodlari ruhi shu nom bilan yuritilgan. Bu dunyoni tark etgan ajdodlarining kasbidan, boyligidan foydalanadiganlar, odatda, shu momo ruhni homiy bilib, unga sig'ingan.

Gumchi momo yo'qolgan kishilarni va narsalarni topib berishda yordam beruvchi, izlab topishda yo'l ko'rsatuvchi homiy momo timsolidir. U folbin shomonlar sig'inib, madad so'raydigan homiy kuchdir. Ko'rinyaptiki, bu momo ruhlar, asosan, bajaradigan vazifasiga qarab nomlangan. Ba'zi momo ruhlar qo'nim topgan manzil-makoniga qarab nomlangani kuzatiladi. Jumladan,

Kul momo kul orasida,

Gul momo gullar, xususan, qizil atirgul orasida,

Suvchi momo suv havzalarida qo'nim topishi aytiladi.

Bu momo ruhlar ehtiyotsizlik qilgan odamga zarar yetkazishi mumkin. Agar odam kul to'kilgan joydan kechqurun o'tsa yoki u yerdan hojati uchun foydalansa, shuningdek, gul tagida uxlab qolsa, momo ruhlardan zarar topishi uqtiriladi. Ammo Kul momo va Gul momo hammavaqt ham insonga zarar va ozor yetkazuvchi yovuz, raqib kuch sifatida talqin qilinmaydi. Chunki gul va kuldanda o'rmi kelganda ezgu maqsad yo'lida ham foydalanish mumkin. Masalan, lolagul, lolaqizg'aldoq, na'matak, atirgul, chuchmomo kabi bir qator gullardan inson salomatligi yo'lida foydalanilishi ko'pchilikka ma'lum. Yoxud kuldanda kinnani haydashda, ko'z og'rig'ini davolashda foydalanadilar. Uchuni momo, Hasud momo, Mechkay momo, Kinna momo, Ro'dapo momo va Shalpar momo kabilar ham insonlarga raqib bo'luvchi yovuz momolar qatoriga kiradi.

Uchuni momo nopok va bevaqt yurgan kishilarga yo'liqsa, uchintirib kasal qilishi aytiladi. U ko'pincha o'z ajdodlariga munosib voris bo'lmaganlarni jazolashi uqtiriladi.

Hasud yoki Hasad momo ham odamlar uchun yovuz, raqib ruhlardan biridir. U yaqin ajdodlarining xasisligi va beparvoligi oqibatida unutilib, och qoldirilgani uchun xavfli ruhga aylangan bo'ladi. Ko'pincha ular qurbonlik talab qiluvchi och arvoqlar [1] sifatida kezib yurishi aytiladi. Jumladan,

Mechkay momo ham Hasad momo kabi och, yeb to'yimas yovuz ruhlardan biridir. Bu yovuz ruh, odatda, odamlarning tushida namoyon bo'lib, o'zi uchun qurbonlik berishga undar ekan. Agar tush ko'rgan kishi vaqtida unga atab qurbonlik marosimini o'tkazmasa, kasallikka chalinishi, yo biror baxtsizlikka yo'liqishi mumkinligi bildiriladi.

Kinna momo ruhi odamlarning qorin bo'shlig'iga joylashib olib, kuchli og'riq hosil qilishi, nigohi o'tkir odamlarga o'rtnashib, shu orqali atrofdagilarga zarar yetkazishi aytiladi.

Ro'dapo momo juda ozg'in va kasal ayol qiyofasida zarar yetkazuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. U, asosan, sog'lom va to'laqonli odamlarga zarar yetkazishga urinishi ta'kidlanadi.

Shalpar momo odamga yomon ta'sir ko'rsatib, uni kuchsizlantiruvchi, shalpaytirib, ojizlantirib qo'yuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. Momo ruhlar nomi ranglar bilan ham bog'langan. Bunda momo ruhlarga bag'ishlangan marosimlarda yoqiladigan chiroq – nukchalardan chiqqan olov va uning tutuni rangi e'tiborga olingan. Ya'ni olov va tutunning oq, qora, qizil, sariq tusga kirishiga qarab momo ruhlar miqdori, xarakter-xususiyati, nomi belgilangan. **Ko'k momo, Qora momo va Sariq momo** yovuz ruhlar qatoriga kiradi. Ular ko'proq odamlarni kasal qilib, ozor yetkazishga urinishi aytiladi.

Sariqiz yoki Sariq momo sariq sochli qiz yoki sariq tusli tovuq ko'rinishida ayollarga hujum qilishi aytiladi. Oq momo esa insonga homiy ezgu ruhlardan biri sanaladi. U juda rahmdil va mehr-shafqatli, saxovatpesha sifatida talqin qilinadi. O.A.Suxareva tadqiqotlarida Xunxor momo (qon so'ruvchi), Shaloyim momo (yengiltak, tutqich bermas), Kashmiri momo (sehr-jodu qilishga aloqador afsunlarni o'rgatuvchi).

Alamon momo (olomon, ya'ni ko'pchilik bo'lib yurishuvchi momolar), momo-pari kabi momo obrazlarining nomlari uchraydi. Lekin Alamon momo ayollarga ozor, dard yetkazuvchi, odamga kutilmaganda tashlanib qoladigan maxluq ko'rinishidagi yovuz ruhlardan biri sifatida ham talqin qilinadi.

Shaloyim momo ko'pincha chaqaloqlarga ozor yetkazuvchi, ularni nobud qilishga intiluvchi yovuz kuch sifatida talqin etiladi.

Xunxor momo esa jonzoqlarning, ayniqsa, insonlarning qonini so'rib ichuvchi momo sifatida ko'rsatiladi. Xunxor momo uchun ko'pincha uluq, qo'y tovuq kabildan qon chiqarilib, u zarar yetkazgan bemor davolanadi. Aks holda Xunxor momo bemorning qonini so'rib, uni holsizlantirishi, halok etishi

mumkinligi aytiladi. L.Xudoyqulovning “O‘zbek folklorida Momolar kulti” maqolasida Sariq momo, Qora momodan tashqari yana *Titti momo, Ochil momo, Gulsun momo, Yozil momo va Tuvgich* momo nomlari tilga olinadi. Muallifning ma’lumot keltirishicha, shu yetti momo obrazi xalq orasida homilador ayollarning asotiriy homiysi sifatida tasavvur qilinadi. O‘zbek xalq allalarida Uyqu momo obrazi ham uchraydi.

Uyqumomo – uyqu ilohasi. Qaldirg‘och nomi bilan bog‘liq afsona va afsunlarda Go‘zal momo nomi uchraydi. U ko‘z og‘rig‘ining oldini oluvchi, unga shifo baxsh etuvchi homiy momo timsolidir. O‘tmishda ko‘z og‘rig‘ining kelib chiqishi va tarqalishi sabablarini bilmagan kishilar bu kasallikka aziz avliyolarning ta’siri yoxud yomon ruhlarning ta’siri deb qaraganlar. 2 Xalq qurg‘oqchilikda yomg‘ir so‘rab, Guldur momo hamda Shaldir momoga murojaat qilgan.

Quriganmish gul hovuz
Baliqlardan biror iz.
Guldur momo, kelsang-chi,
Shaldir momo, kelsang-chi,
Savobdir yemak baliq [2].

Ushbu qo‘shiqda Guldur momo – momoqaldiroq, Shaldir momo – yomg‘ir tangrisi sifatida tilga olinayotir. Ma’lumki, yomg‘ir chaqirish marosimlarida Sust xotin, Chala xotin nomlariga ham murojaat qilinadi. M.Jo‘rayev yana o‘zbeklarning shamol kulti bilan bog‘liq mifologik tasavvurlarining matriarxat davri e’tiqodiy qarashlariga aloqador alohida turkumi Yali momo yoki Yalala momo haqidagi inonchlar tizimini tashkil etishini ko‘rsatib o‘tadi. Demak, hozirlikcha momo ruhlarning 40 dan ortiq nomlari aniqlandiki, bu o‘z navbatida, momo ruhlarga hamda Momo kultiga ishonch O‘rta Osiyo xalqlari orasida bir muncha keng va muayyan yaxlit tizim ko‘rinishida tarqalganligini bildiradi. Shunisi ham borki, xalq orasida bolani erkalash uchun aytiladigan quyidagi qo‘shiqda homiy momolarning yetmishdan ortiqligi ta’kidlangan:

Yetmish momong orqangdan
Bug‘doy olib yugursin.

Momo ruhlarning nomi, soni bu darajada ko‘p va rang-barang bo‘lganligi uchun, odatda, ularni umumlashtirib “lashkar” deb atash xalq orasida va shomonlik qiluvchilar o‘rtasida o‘ziga xos an’anaga aylangan. Yovuz momo ruhlarga yo‘liqish xalq orasida “ajina chalibdi”, “alvastiga yo‘liqibdi”, “momolar tegishibdi”, “momolar ziyon beribdi”, “momolarning shamoli tegibdi” yoki “momolaring og‘irlik tashlabdi” kabi iboralar bilan izohlanadi. Bu iboralarning har biri o‘ziga xos ma’noga ega.

Homiy momo timsoli O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlar orasida turlicha nomlanadi. Qirg‘izlarda ayollar va go‘daklarning homiy momosi sifatida Umay ena ruhiga sig‘iniladi. “Umay” so‘zi “ezgu ruh” tushunchasini bildiradi. Aslida “Uma” – qadimgi turkcha so‘z bo‘lib, “ona” deganidir. Folklorshunos A.Musaqulovning ta’kidlashicha, inson tanasidagi tug‘ma xollar ham Umayning izi hisoblangan. A.Bernshtam **Umay momoni ayol** jinsidagi mifologik mavjudot, oila o‘chog‘i va avlodlar davomiyligi homiysi bo‘lgan, deb talqin qiladi. O‘zbek va tojik xalqi orasida yordamchi, homiy momo ruhlar haqidagi qarashlar **Bibimushkulkushod va Bibiseshanba** kabi epik personajlar timsolida aks ettirilishi kuzatiladi. Momo ruhga ishonch va hurmat ta’sirida ayrim mifologik personajlarga “momo” so‘zi qo‘shib aytilganligi kuzatiladi. Jumladan, chaqmoq ruhi – Momo Qaldiroq, oy – Oymomo, birinchi ayol inson – Momo Havo, shamol tangrisi – **Chuy momo** deb yuritiladi. Momolarga e’tiqod ayol kishilarga atab qo‘yiladigan ismlarda ham seziladi. Ba’zi ismlarga ulug‘vorlik baxsh etish ma’nosida momo so‘zi qo‘shib aytiladi. B.Sarimsoqov “O‘zbeklarda qadimgi davrlardan ruhlarga dualistik munosabatda bo‘lish natijasida ularni Xizr, arvoh, momolar, parilar, chiltonlar, muakkillar, qirq qizlar, Bibimushkulkushod, Bibiseshanba kabi yaxshi; dev, alvasti, jin, ajina, suq kabi yomon ruhlarga ajratib kelinadi”, – deb yozadi. Ko‘rinyaptiki, momo ruhlar ezgu va homiy ruhlar qatorida sanab ko‘rsatilayotir. Darhaqiqat, ayrim kasalliklar nomining momo nomiga bog‘lab aytilishini kuzatish mumkin. Masalan, kishi badaniga qizilcha toshsa, bu kasallikning nomi “Qizamiq momo”, suvchekak toshsa – “Qora momo” deb yuritiladi. Bularning barchasi misolida momo ruhga nisbatan dualistik qarash shakllanganligi anglashiladi [5]. Momoni insu jins, ya’ni mifologik timsol sifatida, ko‘pincha pari yoki alvasti, ajina ko‘rinishida tasavvur qiladilar. Bunda momo shu mifologik timsollar ko‘rinishida insonga zarar yetkazuvchi yovuz ruh deb qaraladi.

Muhokamalar va natijalar. Islom dini davrida ayol homiy kuchlar, ya’ni Momo kulti haqidagi qarashlar ayrim real shaxslarga singdirila boshlagani kuzatiladi. Jumladan, Anbar ona, Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkusho, Bibi Ro‘ipo‘sh (niqobdagi bibi), Bibi Hojatbaror, Bibi Fotimayu Zuhro, Bibi Xadichai Kubaro, Qizbibi, Bibi Maxsumayi pok, Bibi Shahrabonu kabilar shular qatoriga kiradi. Momo ruhlar o‘zga, ko‘zga ko‘rinmaslar olami vakili sifatida bizning tilimizni tushunmaydi degan ma’noda ularga qarata boshqa tilda, masalan, o‘zbeklar bo‘lsa – tojik tilida, tojiklar bo‘lsa – o‘zbek tilida murojaat qilib, aytimlar aytganlar. Umuman aytganda, momolar ruhi ayollarga, ularning faoliyatida, shug‘ullanadigan kasb-korlarida hamisha

yoru madadkor bo'ladi. Momo kulti haqidagi qarashlar islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, kultmiflari bilan tutashdir.

Ertaklardagi qon so'ruvchi yoki bolalarni o'g'irlab ketuvchi maston kampir, yalmog'iz kampir kabi momolar timsolining keltirilishi hamda ularga qarshi epik qahramonning kurashi bevosita yovuz momolar haqidagi qarashlar ta'sirida shakllangan deyish mumkin.

O'zbek folklorida o'g'il bolalar sunnat to'yi folklori ham mavjud. Xalqimizda o'g'il bolalarning "qo'lini halollash", ya'ni sunnat qilish marosimining o'ziga xos folklor an'analari mavjud bo'lgan. "Sunnat" so'zi aslida arabcha bo'lib, Payg'ambarimiz bajargan va boshqalarga ham tavsiya qilgan amallardir. Bu marosim ko'pgina joylarda "xatna to'yi" deb ham ataladi. Zero, "xatna" atamasi arab tilidagi "kesmoq", "isqartmoq" ma'nolarini anglatuvchi "xatnun" so'zidan olinganligi uchun o'g'il bolalar jinsiy a'zosi uch qismi terisini kesish bilan bog'liq marosim ham "xatna to'yi" deb yuritiladi. Bolani xatna qilish an'anasining tarixiy ildizlari ibtidoiy jamoa davridagi sinov-initsiatsiyarituallari, xususan, bolalarni bir yosh-jins mansubiyatidan boshqasiga o'tkazish bilan bog'liq qadimgi udumlarga borib taqaladi. Xatna qilish odati qadimiy Misr, Indoneziya, Avstraliya, Afrika xalqlarida ham kuzatilgan. Sunnat qadimiy Bobilda yashagan somiy xalqlar o'rtasida ham keng tarqalgan. Xatna O'rta Osiyoda qadimdan mavjud bo'lgan degan taxminlar bo'lsa-da, biroq u islom dini kirib kelgandan (VIII asr)dan so'ng keng tarqalgan. Bu marosim mamlakatimiz viloyatlarida "xatna to'yi", "sunnat to'yi", "ummat qilmoq", "huydo-huydo qilmoq", "chuk to'yi", "to'yi pizar", "chuk buron", "gula qildirish", "kestirish", "chukron to'yi", "o'g'il to'yi", "nevara to'yi", "qo'l halollash to'yi" kabi nomlar bilan ataladi.

Xulosa. O'zbek folklori namunalari tilida tibbiy birliklarning sheva ko'rinishlariga ham ko'p duch kelinadi. Ular orqali o'sha folklor namunasi qayerda yaratilgani va keng tarqalgani, qaysi hududdan yozib olinganini bilib olish imkoni paydo bo'ladi. Xalq tilidagi tibbiy birliklar insonlarning yoshiga, jinsiga, kasallikning turiga, kechish davriga, og'ir yoki yengillik holatiga qarab nomlanishi ayonlashadi.

ADABIYOTLAR:

1. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зеравшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: "Наука", 1975. – С.101-102. 185.
2. Худойқулова Л. Ўзбек фольклорида Момолар култи. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2007. – 4-сон. – Б.50-53.
3. Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Т.: "Истиқлол", 2006. – Б.40-41.
4. Petersen Marilyn. *Treasury of Uzbek Legends and Lore.* –Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – Б.142. (Мерилин Петерсен 1996-2000).
5. Жўраев М. Ёмгир ёғдириш маросимлари // Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Т.: "Фан", 2008. – Б.160-205.
6. Сухарева О.А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: "Наука", 1975. – С.101.
7. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Т.: "Ёш гвардия", 1987. – Б.125.
8. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: "Фан", 2010. – Б.186.
9. Бернштам А. Социально-экономической строй Орхон-Енисейских тюрок YI-YIII веков: Восточнотюркской каганат и кыргызы. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С.163.
10. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Т.: "Қомуслар" Бош тахририяти, 1991. – 208 б. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Т.: "Фан", 1988. – Б.173-187
11. Наврузова М. Г. (2020). Креативность педагога-условие инновационности его профессиональной деятельности. Вопросы науки и образования, (11 (95)), 109-111.
12. Navrozoza M. G. (2021). Xalqona tibbiy birliklarda mano kochish usullari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.
13. Gaybullaevna N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.
14. Gaybullaevna N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.
15. Gaybullaevna N. M. (2021). Linguculturological properties of medical units of uzbek language. Journal of Contemporary Issues in Business & Government, 27(4).
16. Navruzova, M. (2023). Тиббий бирликлар тадқиқи. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).

**SURXONDARYO ETNODIALEKTAL XARAKTERDAGI MAQOL VA MATALLARNING
TURLARI HAMDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

Raxmanov Botir Abdurasulovich,

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,
botirjonrahmonov99@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo shevalariga xos maqol, matal va aytimlarning etnografik tomonlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, ming yillar davomida mahalliy aholi, cho'ponlar, baxshilar nutqida saqlanib kelinayotgan noyob xalq og'zaki ijodi namunalari (turg'un birikmalar) dialektal variantda yig'ib olinib tahlil qilingan. Shu bilan birga yo'qolib ketish arafasida turgan noyob mahalliy maqol, matal va aytimlarning turlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada vohaning keng tarqalgan hamda qadimiy mashg'ulot turi chorvachilik bilan bog'liq dialektal etnografizmlarga alohida urg'u berilgan.*

***Kalit so'zlar:** umumturkiy so'z, dialektal maqol, dialektal aytim, etnografik leksika, etnografizm, lingvomadaniyat, etnografik maqollar lug'ati, marosim leksikasi, diniy motivlar.*

**ВИДЫ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК ЭТНОДИАЛЕКТНОГО ХАРАКТЕРА
СУРХАНДАРЬИ И ИХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

***Аннотация.** В данной статье говорится об этнографических аспектах и лингвокультурологических особенностях пословиц, поговорок и посвящений, характерных для сурхандарьинских диалектов. Также в диалектном варианте собраны и проанализированы уникальные образцы народного устного творчества (устойчивые сочетания), сохранившиеся в речи местных жителей, пастухов и бахши на протяжении тысячелетий. При этом высказывались мысли о видах уникальных местных пословиц, поговорок и посвящений, находящихся на грани исчезновения. В статье особый акцент сделан на диалектных этнографизмах, связанных со скотоводством - распространённым и древним занятием оазиса.*

***Ключевые слова:** общетюркские слова, диалектная пословица, диалектная поговорка, этнографическая лексика, этнография, лингвокультура, словарь этнографических пословиц, обрядовая лексика, религиозные мотивы.*

**TYPES OF PROVERBS AND SAYINGS OF SURKHONDARYA OF ETHNODIALECTAL
CHARACTER AND THEIR LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES**

***Abstract.** This article talks about the ethnographic aspects and linguocultural features of proverbs, sayings and aytim-olkish, characteristic of the Surkhondarya dialects. Also, in the dialect version, unique examples of folk oral art (stable combinations) preserved in the speech of local residents, shepherds and bakhshis for thousands of years were collected and analyzed. At the same time, thoughts were expressed about the types of unique local proverbs, sayings and olkish that are on the verge of extinction. The article places special emphasis on dialect ethnographisms associated with cattle breeding - a widespread and ancient occupation of the oasis.*

***Key words:** common Turkish words, dialect proverb, dialect saying, ethnographic vocabulary, ethnography, linguistic culture, dictionary of ethnographic proverbs, ritual vocabulary, religious motives.*

***Kirish.** Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining uzoq asrlardan buyon og'izdan-og'izga o'tib, shoir va baxshilar, cho'ponlar tomonidan avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari talaygina.*

Surxondaryo o'zining qadim sivilizatsiyasi, turli til va madaniyatlar chorrahasida joylashganligi, lahja va shevalarga boyligi, folklor hamda etnografik an'ana va udumlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. [1.41]

Xalq dostonlari baxshilar tomonidan kuylanib keyingi avlodga yaxlit holda saqlanib kelayotgan bo'lsa-da, maqol, matal va aytim kabi xalq og'zaki ijodi turlarining bir qismi yo'qolib ketish arafasida.

Ayniqsa, dialektal-etnografik ko‘rinishdagi og‘zaki ijod namunalarining mutaxassislar tomonidan yetarli darajada o‘rganilmaganligi va yig‘ib olinmaganligi sababli minglab etnografizmlar iste‘moldan chiqib ketdi. Aslida o‘tgan asr o‘rtalarida ko‘tarilgan ushbu muammo hozir ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgan emas. Xususan, akademik Sh.Shoabdurahmonov “*Agar yaqin kelajakda o‘zbek traditsion leksikasi to‘laligi bilan qayd etib olinmasa, barcha mas‘uliyatni hisobga olgan holda aytish mumkinki, keksa avlod tugab borishi bilan, tilning ular hofizasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan qimmatli materiallarning bir qismi hamishalikka yo‘qolishi mumkin*” [3.325] - deya masalaga olimlar e‘tiborini qaratgan edi.

Asosiy qism. Har bir tilning tarixi, uning shakllanishi jarayoni hamda buguniga oid barcha hodisalar o‘sha xalq tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir millat va elatning tilida uning urf-odat va madaniyati, tarixiy an‘analari, turmush tarzi, o‘ziga xos realiyasi yoinki, mental belgilari bo‘rtib turadi. Turkiy xalqlarning ham ko‘p yillik tarixiy madaniyatida, hozirda alohida millat sifatida shakllangan xalqlarni tutashtiruvchi vositalardan biri bu til belgilaridir. Bir paytlar bir til, bir madaniyat hamda yakdil jamoa sifatida yashagan turkiy xalqlar bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida turli omillar ta‘sirida turli xillilikka yuz tutdi. Bu holat ularning tilida ham yaqqol aks etgan. Kattaligi bo‘yicha turk tilidan keyingi o‘rinda turuvchi o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot davomida o‘ziga xos jarayonlarni bosib o‘tdi. Xususan, o‘zbek tili boshqa turkiy tillardan bir necha muhim xususiyatlari bilan tubdan ajralib turadi. Masalan, faqatgina o‘zbek tilida uchta lahjaning mavjudligi, sershevaligi, adabiy tilda singormanizm holatining deyarli mavjud emasligi, fors-tojik tilining faol ta‘siri va h. Bu narsa, ayniqsa, o‘zbek tilining dialektal xilma-xilligi va murakkab etnografik leksikasida yanada ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Bizga ma‘lumki, hozirgi O‘zbekiston hududi uzoq yillik tarix davomida turli davlatlarning markazi va poytaxti bo‘lib kelgan. Shu bilan birga buyuk ipak yo‘lining muhim chorrahasi sifatida turli dinlar va madaniyatlar tutashgan nuqta sifatida e‘tirof etiladi. Bu omillar ham hudud madaniyati va tiliga yorqin ta‘sir etgan. Til tizimining murakkab va xilma-xil bo‘lishiga xizmat qilgan.

Barchamizga ma‘lumki, til tarixi va xalq tarixi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Har bir xalq tilida turli lisoniy belgilar orqali dunyo, olam tushunchalari, dunyoning lisoniy tasviri tasvirlanadi. Hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik tushuncha kategoriyalarini tashkil etuvchi leksemalarning mazmuniga ta‘sir qiladi. Agar bu tushunchalar turlarining nomlari bir butun sifatida tilning asosini tashkil etsa, dunyo, unda sodir bo‘layotgan hodisalar tasviri orqali milliy xususiyatlarni o‘zida jamlaydi.

Ta‘kidlash joizki, Surxondaryo hududi ham qadim etnomadaniy hayot tarzi hamda shunga hamohang xalq og‘zaki ijodi namunalariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Vohada uzoq yillar davomida shakllangan o‘ziga xos etnolingvomadaniy manzara mavjud. Buni mahalliy aholining turmush tarzida, kasb va kundalik mashg‘ulotlarida, to‘y va azalarida, turli diniy tadbirlarida, qarindosh urug‘chilik munosabatlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Surxondaryo dialektal-etnografik makonida qipchoq lahjasi katta hajmga ega. Shu sababli mahalliy hududga xos maqol, matal va aytimlarning aksariyat qismi “j” lovchi sheva vakillari nutqidan olingan hamda dialektal fonetik qonuniyat asosida qayd etilgan [2.24]. Ta‘kidlash joizki, mazkur etnografik maqol va matallarning ko‘pchiligi chorvachilik, turli marosimlar hamda urug‘-qabila munosabatlari bog‘liq. Shu bilan birga ularning aksariyat qismi boshqa viloyat sheva vakillari nutqida ham u yoki bu variantda uchrashi mumkin.

Ishda ayrim maqollarning ma‘nosini – ko‘chimini izohlashda turli mulohaza va munozaralarga duch keldik. Masalan, *Qo‘taningdan chixsa chixsin, Qozaningdan chixmasin* maqoli moling xarom o‘lsa o‘lsin-u, janoza – ma‘rakangga so‘yilib, qozoningdan chiqmasin – o‘lim bo‘lmasin tushunchasiga ishoradir.

Y o k i *O‘n sakkiz yashar qizi bor uyding, o‘tovidan qon tomib turadi* maqoli, bir qarashda, “bo‘yi yetgan qizi bor xonadon”ga ishora bordek tuyulsa ham, aslida, uning ko‘chimi o‘tmishda bo‘y qizlarning achchiq taqdiri, qismati bilan bog‘liq va b.

Aksar maqollar hayvon nomi yoki uning xususiyatlari asosida shakllanib, tarixiy-tadrijiy jarayonning yuqori bosqichiga ko‘tarilgan, til faktiga aylangan, xotirada butun holda shakllanadigan maqol, matal, topishmoq, frazema, aforizm maqomini olgan, ma‘nosi (ko‘chimi) ibora tarkibidagi so‘zlarning real (denotat) ma‘nosidan anglashilmaydigan umumiy, ko‘chma, obrazli, falsafiydashgan, mahraj ma‘no (hosila ma‘no) anglatadigan hodisalardir.

Ularning yana bir o‘ziga xosligi shuki, u grammatik shakli (sodda gapmi, qo‘shma gapmi)dan qat‘i nazar, matn ichida ham, matndan tashqarida ham o‘zining shakl va mazmun butunligini saqlaydi. Chunonchi, *Otdan tushsa ham, egardan tumaydi* maqoli har qanday nutqiy vaziyatda mansabparast, shuhratparast, takabbur yoki nodon tushunchalarini anglatadi beradi.

Hosila ma‘no – ko‘chim inson tafakkuri, fantaziyasi va zakovatining, demakki, tilning ham keyingi taraqqiyot mahsuli bo‘lmish maqol, matal, aytim, topishmoq, frazema, perefraza, aforizm, etnografizm, evfema va disfema (kakofemizm) kabi sayqallangan, obrazli vositalaridir.

Ta'kidlash kerakki, masalan, chorva nutqi va uning xususiyatlari asosida shakllangan, dastlab, chorvador (dehqon, ovchi, bog'bon, kosib va b.lar) nutqida sayqal topgan, so'ngra ijtimoiylashib, umumadabiy til mulkiga aylangan maqol, matal yoki ibora kabi lisoniy birliklarning ko'chimini aniqlash munozaralidir. Bu, avvalo, parafraza, frazema, jumladan, maqollarning semantik tizimi, evolutsiyasi, ko'chimlari yetarli o'rganilmaganligi bilan xarakterlanadi.

Ot tepmas, it qopmas dema; It qutursa egasini qopadi, eshak semirsa (to'ysa) egasini tepadi maqollarining mazmuni chorvadorlardan so'ralsa, ko'pchiligi asl, bosh ma'noga, ba'zilarigina majoziy (ko'chim) ma'noga ishora qiladilar. To'g'ri, bir qarashda, yuqoridagi maqollarda hayvon harakati bilan bog'liq yuz berishi mumkin bo'lgan **qopmoq, tepmoq, fishlamoq** tushunchalari anglashilib turadi. Bu tushunchalar hali fikrdan o'chgan emas.

Biroq parafraza, frazema, jumladan, maqollardan yuqoridagidek birlamchi (genetik, real) ma'no izlansa, tiklansa, ular: 1) maqol bo'lmaydi; 2) ulardan ko'chma ma'no qidirish ortiqcha bo'lib qoladi. Holbuki, chorva nomlari bilan bog'liq paydo bo'lgan maqollarda hukm qaratilgan obyekt – adresat, asosan, hayvon emas – inson, jamiyat [4.123].

Insondagi yoki jamiyatdagi ijtimoiy illat va nuqsonlar, ochiq aytish istihola qilingan, tilga olish odobsizlik, qo'pol hisoblangan salbiy holatlar hayvon harakati orqali (allegorik) bayon etiladi. Masalan, **Sinamagan otning sirtidan o'tma** maqoli real ma'no (sinamagan otning sirtidan yoki orqasidan o'tma (faqat II shaxsga qaratilgan), tepadi, mayib bo'lasan)ga nisbatan ham, majoziy ma'no (sinamagan, bilmagan odamga yaqinlashma, baloga qolasan, g'alva orttirishning mumkin)ga nisbatan ham obrazli ifodadir. Yoki *Vatanningni, xalqingni, oila va do'stlaringni tashlab ketding! Oxiri qaysi yuz bilan qaytib kelding, vatangado! Xoin!* gaplari o'rnida **«Ha, ot aylanib qozig'ini toparkan-da!»** deyish mumkin.

Demak, xalq fantaziyasi bilan bog'liq shakllangan maqollarning o'ziga xos xususiyati shuki, unda fikr tig'i formal jihatdan aniq obyektlarga qaratilgan bo'lsa-da, mantiqan ular nomi va xususiyatlari orqali inson xatti-harakati yoki biror ijtimoiy voqelik yopiq «feleton» qilingan bo'ladi. Maqolada maqol, matal va aytilmlar hudud shevasida – asliyatida berildi, ayrimlarining umumxalq va dialektal variantlari keltirildi. Ba'zi shevaga xos so'zlar esa qavs ichida izohlandi.

Mahmud Koshg'ariy ta'kidlaganidek, "...har bir so'zni o'z nomi bilan atamasak, garchi u uyat a'zolar nomi yoki haqorat, so'kishdan iborat bo'lsa ham, iste'moldan chiqib ketadi, unitiladi. Ularni aqalli lug'atlarda saqlash lozim". Shundan kelib chiqib, biz ham xalqimiz tilida, ta'bir joiz bo'lsa, dilida yashab kelayotgan "qo'pol" – disfemik tabiatli maqollarning ayrimlarini maqolada qayd etdik.

Maqolada keltirilgan materiallar voha tumanlari kesimida Surxondaryo viloyati hududini qamragan bo'lib, keltirilgan va izohlangan maqol, matal, aytilmlar boshqa joylarda uchramaydi, degan fikrdan yiroqmiz.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mamlakatimizning mustaqillikka erishishi milliy tariximizni, madaniyatimizni, urf-odat va an'alarimizni, qadriyat va marosimlarimizni, mahalliy lahja va shevalarimizni haqqoniy va keng asosda o'rganish imkonini berdi. Ayniqsa, etnografiya, folklorshunoslik o'zbek tilining etnografik leksikasini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi [4.98].

Dialektal-etnografik maqol, matal hamda boshqa birliklarni lingvomadaniy hamda etnik xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. **Diniy motivlar bilan bog'liq maqol, matal va boshqa birliklar:** Iymani jo'xting burdi jo'q (*noinsof, lafzi yo'q inson*); Mo'lla jo'xta mo'llaman, Mo'lla borda jo'ldaman (*uddaburon, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan odam*); Banda bersa ko'rimlik, Xuda bersa to'yimlik (*risqing Alloh tomonidan berilishiga ishora*); Payg'ambar(h)am hazirdi ko'zlabdi (*ertaga nima bo'lishini xudo biladi ma'nosida*); Safar oyi-xatar oyi (*irim-sirim*); Mullali ovul-qo'rqqoq, Boxshili ovul-botir (*qadimiy voha odatlariga ko'ra mullalar odamlarga pand-nasihat qilgan bo'lsa, baxshilar do'mbirasini qo'liga olib ularni ruhlantirgan*); Sodaqa baloni jer, to'(v)ba guna(h)ni... (*insonlarni yaxshilikka undash*); Poshshaning ha(o)li tang bo'sa gadoydi oxtarar, gadoyding hali tang bo'sa xudani oxtarar (*har bir narsani o'z vaqtida qadrlashga ishora...*); Chillasi chira(q)x ko'rmaganding, Sochi tora(q)x ko'rmas (*ziqna, xasis ma'nosida*); Sovadsiz mo'llaning sallasi katta (*bilimsizlik, uquvsizlikka ishora*).

2. **Pand-nasihat, didaktik mazmundagi hamda munosabat aks etgan maqol, matal va aytilmlar:** Birinchi boxting oy boxting, Yekinchi boxting suvlarga oxting (*birinchi nikoh va oilaning muqaddasligiga ishora*); Qutli (barakali) qo'noq (mehmon) kesa qo'y yegiz tuvar, Qutsiz qo'noq kesa qo'yg'a qoshg'ir tegar (*Odatda mahalliy cho'ponlar irm-sirimlarga ishonuvchan bo'ladi. Chorvaga keladigan biror falokat yoki barakani biror omilga bog'lab irm qiladi. Var. Cho'ponning toyag'idan, Kelinning oyag'idan*); Jemiyma, jemiyma deb jengsa bilakti jebdi (*ikkiyuzlamachi, tovlamachi, nafsi yomon insonlarga nisbat*); Qiyshiq-shiyshiq bo'sayam qiy shipirib keladi, Joman juman bo'sayam joppa (tappi) terib keladi (*qanoat, kifoya*).

boriga shukrona); Qudag'ayim qurovuz, Jegan noni birovuz (*ko'p gapiradigan, og'ziga elak tutib bo'lmaydigan xotin ma'nosida*); Oshiq o'ynag'an ozar, To'biq o'ynag'an to'zar (*vohada oshiq va to'biq kabi o'yinlar mashhur. To'biq o'yini ba'zan janjalli holatni keltirib chiqarganligi sababli aholi orasida salbiy qarashga ega. Ko'chimi: hayot sinovlarining rang-barangligiga ishora*); Ulsiz xotin sumakka to'yimas, Qizsiz xotin tubakka... (*ochko'z, ziqna kishilarga ishora*); Cholimning topqanini o'yna-o'ynab jiyman, ulimning topqanini o'ylab-o'ylab jiyman (*oilaviy munosabatlarga ishora*); Yel o'lar qada (*urf-odat*)si qolar (*dunyo utkinchi, insondan faqat yaxshiliklar qoladi ma'nosida*); Boxshig'a oysang bog'adi, Qushnochqa oysang qog'adi (*ijtimoiy notenglik*); Uling joqqan chira(q)xti qizing(h)am jog'adi (*ug'il va qiz farzand tengligiga ishora*)

3. **Chorvachilik bilan bog'liq maqol, matal va boshqa birliklar:** Surxon vohasi aholisining aksariyat qismi azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib keladi. Ayniqsa, tog' va tog'oldi hududida yashovchi aholi hayoti chorvachilik bilan chambarchas bog'liq. Shu sababali mazkur hududda chorvachilikka oid maqol, matal va shunga o'xshash etnografik birikmalar talaygina. Mavjud voqelik, biror narsani taqqoslashda, biror hayotiy misolni ta'sirchan ifodalashda aynan hayvonlardan majoz sifatida foydalanadi. Moling xo'ra bo'sa berdi Xuda, Xotining xo'ra bo'sa urdi xuda (*omad, taqdir- peshona*); Oshnangdan tuya so'ra, Uyalib biya berar (*ad.var. Tog'cha so'rasang qircha beradi*); Jolada ot tannama, Hayit(bayram)ta qiz tannama (*Bemavrid qaror qabul qilmaslikka ishora*); Cho'panning choqqani (chaqqoni), Takadan sut soqqani (*sog'moq*) (*abjir, uddaburon, kishilarga nisbat*); Bo'ri jordi, Quzg'in to'ydi (*ad.var. Birovning tahoratiga birov nomoz o'qimoq*); Itgayam bermadi, Yelgayam qimadi (*xasis, ziqna*); Toyliq'a ishanib toshshag'im jorildi (*aldov, yolg'on, fribgarlik ma'nolarida*); Silag'andi siyir bilmas, siypag'andi – yeshshak... (*hurmat-izzatni bilmaydigan kishilarga ishora*); Qo'y so'yib mardlik qilding, kallapa(y)cha qo'yib nomardlik... (*xasis, baxil kishilarga nisbatan*); Dehqan jovsa tinar, cho'pan o'lsa... (*cho'ponlikning og'ir kasb ekanligiga ishora*); Ovuldoshimding oti o'zgincha, Hamsaya(qo'shni)mding toyi o'zsin (*qo'shnichilikning ulug'lanishi*); Ovul oymag'i (qarindosh-urug') bilan, Bo'ta toylag'i bilan (*hayot o'zaro munosabat va muvozanatdan iborat*); Ot box(q)sang - ulaqqa, qo'y boxsang – qo'naq(mehmon)qa (*har narsaning o'rni joyi bor*); Oyran ichkan qutular, satil jalagan (yalamoq) tutilar (*ad. Var. Suv olib kelgan emas, ko'za sindirgan aziz. Asosiy jinoyatni amalga oshirganlar panada qolib ikkinchi darajali insonlarni jazolash holatiga nisbatan*); Norman (nari) borma bo'ri jemasin, Berman (beri) kema ko'zim ko'rmasin (*na unga na bunga ko'nadigan kishilarga nisbatan*); Chola tentak otini mo(a)x(q)tar, Toza tentak xotinini... (*farosatsiz, befahm, kattaog'iz kishilarga nisbatan*); Yo(Ya)xshig'a hazil qisang jipaktay bo'lar, jomanga hazil qisang yeshaktay bo'lar (*Har bir narsada me'yor bo'lishiga ishora*); Yegachi (opa) li qizg'a to'y qayda?, Yechkili qo'yg'a suv qayda? (*hisob-kitobli, muammoli dunyo*)[5.427].

4. **Inson yoshi, vaqt va makon, zamon bilan bog'liq etnografik birliklar:** Navro'zdan so'ng qish bo'mas, Mezondan so'ng yoz bo'mas (*har bir narsaning o'z vaqti soati bor*); Ol(t)mishqacha oshir, Jetmishdan so'ng dashir (*Inson hayot-faoliyatini to'g'ri taqsimlashga ishora*); Ol(t)mishdan so'ng urgangan kuyingdi go'ringda cholasan (*disf. aytim*), (*har bir narsaning o'z vaqti soati bor, ilm va hunarni yoshlikdan egallash zarurligiga ishora*); Yoxshi kesa hut – kadi-kadi sut, Joman kesa hut-soylar to'la put (*Eski taqvim bo'yicha oy nomi. 21 fevral va 21 mart oralig'i. Shu muddatda yog'ingarchilikning yaxshi bo'lishi chorvadorlar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan*); Safar oyi – Xatar oyi (*irim-sirim*); Qiz chog'im sulton, Kelin chog'im ulton (*qul*), (*umrning har bir davri, lahzasi qadrli ekanligiga ishora*); Asadda oralab jiysan, Sumbulada saralab (*Eski taqvim bo'yicha oy nomi. Avgust Sentabr oylari. Bu davrdagi pishiqchilik va to'kin-sochinlikka ishora*); Javzodan o'tmagan nahal o'tin bo'ladi (*aytim. Eski taqvim bo'yicha oy nomi. 20 may va 20 iyun oralig'i. Bu paytda odatda kattiq issiq va qurg'oqchilik kuzatilgan. Ko'chimi:insonlarning sabr-toqati qanoatiga, hayot mashaqqatlari va sinovlari oldidagi bardoshiga ishora*); Oy qutannasa oyda jovadi, Kun qo'tannasa kunda jovadi (*chorvadorlar bashorati. Ko'chimi: ehtiyotkorlik, shaylik, har xil holatlarga tayyor turishga ishora*).

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Surxon vohasi aholisining qadriyat va an'analari, rasm-rusumlari o'ziga xosligi va xilma-xilligi, jozibadorligini o'zida aks ettirgan minglab xalq og'zaki ijodi namunalarini yig'ish va ularni ilmiy asosda o'rganish kechiktirib bo'lmaz masalalardan biridir. Sababi asosan keksa avlod nutqida saqlanib qolayotgan nodir maqol, matal va boshqa og'zaki ijod manbalari vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketish xavfi mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. Рахмонов Б.А. Сурхондарё диалектал-этнографизмларининг турлари ва таснифи. *Academic research in modern science International scientificonline conference*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7066347>
2. Омонтурдиев А. Рахмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли лугати. Тошкент, 2019 й.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек шевалари. – Тошкент, 1962, 325-б.
4. Рахманов Б. Этнографизмлар талқини ва унинг ёндаш соҳалар билан муносабати масаласи. *Илм сарчашмалари. (ОАК журнал) Урганч*. 12. 2020 й.
5. Рахманов Б. Этнографизмлар тилишунослик объекти сифатида. Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. 2023 йил, 7-сон 426-429-бетлар.

TURKIY TILLARDA SHAXS TAVSIFINING SINTAKTIK IFODASI XUSUSIDA

Nazarova Saida Axmedjanovna,

*Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
saidanazarova77@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining semantik guruhlari, lisoniy qurilish qolipi, oraliq shakllari ajratilgan, til sathida shaxs tavsifini anglatuvchi so‘z birikmalari tizimini hosil qilishi asoslangan. Turkiy tillarda shaxs tavsifining sintaktik ifodalanishi masalasi o‘zbek, ozarbayjon va qumiq tillaridagi shaxsni tavsiflashga xizmat qiluvchi so‘z birikmalari misolida qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, shaxs tavsifi, so‘z birikmasi, ismli birikmalar, lisoniy sintaktik qolip, antroponim.

**О СИНТАКСИЧЕСКОМ ВЫРАЖЕНИИ ОПИСАНИЯ ЛИЧНОСТИ
В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ**

Аннотация. В статье обосновано образования системы словосочетаний, описывающих личность на уровне языка, выделены семантические группы, рассмотрены языковая синтаксическая модель и промежуточные формы их в узбекском языке. Изучен в сравнительном аспекте вопрос синтаксического выражения описания личности в тюркских языках на примере словосочетания служащие для описания личности в узбекском, азербайджанском и кумыкском языках.

Ключевые слова: личность, описание личности, словосочетание, именные словосочетания, языковая синтаксическая модель, антропоним.

**THE SYNTACTIC EXPRESSION OF PERSONALITY DESCRIPTION
IN THE TURKIC LANGUAGES**

Abstract. The article substantiates the formation of a system of phrases describing a person at the language level, identifies semantic groups, a linguistic syntactic model and their intermediate forms in the Uzbek language. The question of the syntactic expression of the description of personality in the Turkic languages has been studied comparatively by the example of the phrase serving to describe personality in the Uzbek, Azerbaijani and Kumyk languages.

Key words: personality, personality description, word combination, nominal phrases, language syntactic model, anthroponym.

Kirish. Tilda shaxsni atash yoki tavsiflash leksik-semantik sath birliklarining vazifasi bilan cheklanmaydi. Til tizimi shunday qurilganki, ayni bir vazifani bajarishda lisoniy sathlar bir-birini to‘ldiradi, qo‘llab-quvvatlaydi, muhtasham imorat ustunlaridek uning butunligini ta‘minlab turadi. Agar har bir tilda shaxsni atashga xizmat qiluvchi leksik birliklar mavjud hisoblansa, demak, shaxs tushunchasini ma‘lum jihatdan muayyanlashtiruvchi sintaktik birliklar borligiga shubha qilib bo‘lmaydi. Tilda shunday imkoniyat mavjudligini S.E.Ragimxanova, N.V.Yashchenko, G.I.Babayeva, M.T.Ramazanov, G.X.Zinnatulina, M.B.Guseynovaning tadqiqotlari [1; 2; 3; 4; 5; 6] dalillaydi. Ularda ozarbayjon, slavyan, roman-german, tatar, qumiq tillarida shaxsning u yoki bu xususiyatini aniqlashtiruvchi so‘z birikmalari atributiv, ismli, substantiv, genitiv birikmalar paradigmasida ko‘zdan kechiriladi. Bu sintaktik birliklar ba‘zan tavsifiy, ba‘zi hollarda semantik, struktur, qiyosiy-tipologik jihatlardan tahlil qilingan. Ta‘kidlash lozimki, ismli, substantiv, atributiv birikmalarda aks etishi qayd etilsa ham, “shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalari” deb ajratilmagan va maxsus tadqiq etilmagan.

Asosiy qism. O‘zbek tilida shaxs tavsifi leksik, morfologik, sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Shaxs tavsifi “shaxs” semali leksik birliklarda ifodalanishi, ot turkumi tizimida shaxs otlari/nomlari sifatida ajratilishi va “shaxs tavsifi” mavzuviy to‘dasini tashkil etishi, shuningdek, mazkur to‘da tarkibida o‘ndan ortiq lug‘aviy-ma‘noviy guruhga birlashishi ma‘lum. Tilshunoslikda “shaxs” va “shaxs tavsifi” ma‘nolarining til birliklarida aks etishi yirik muammo bo‘lgani bois bu muammoni alohida tadqiq qilish lozim. Shunisi muhimki, tilda shaxs tavsifi leksik-semantik ifodalanish imkoniyati bilan cheklanmaydi.

Sababi, til shaxsni tavsiflash vazifasini soʻz birikmalari yordamida ham amalga oshiradi. Chunonchi, oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar nutqida shaxsni maʼlum xususiyatlariga koʻra tavsiflaydigan soʻz birikmalari mavjud:

oʻqituvchi ayol, sotuvchi erkak, ayol haydovchi, erkak oshpaz, qoʻshni qiz, sinfdosh yigit, qozoq chol, rus shifokor, suvchi yigit, mahalladosh novvoy, sirdosh doʻst, ovuldosh choʻpon, tilshunos olim, aravasozi usta, chiptachi erkak, (v.h.).

Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarini semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) shaxsni kasbi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *oʻqituvchi ayol, oshpaz erkak, shifokor ayol, sotuvchi erkak, farrosh xotin, naqqosh erkak, haydovchi ayol, novvoy erkak, fermer ayol, soatsoz erkak...*

2) shaxsni jinsi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *erkak shifokor, ayol payvandchi, erkak oshpaz, ayol fermer, erkak tikuvchi, ayol uchuvchi...*

3) shaxsni millati va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qozoq choʻpon, oʻzbek muallim, tojik savdogar, hind sangtarosh, uygʻur oshpaz, turk muhandis...*

4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *chol baqqol, oʻspirin usta, kampir tabib, oʻsmir etikdoʻz...*

5) shaxsni kasb-hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *duradgor usta, oʻrmonchi agronom, aravasozi usta, parhezshunos hamshira, mashinasoz muhandis, maslahatchi shifokor, akusher ginekolog, tarjimon shoir, urolog jarroh...*

6) shaxsni millati va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qozoq chol, oʻzbek yigit, tojik qiz, loʻli bola, rus kampir, turkman qiz...*

7) shaxsni millati va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *oʻzbek ayol, turkman erkak, tatar ayol, rus xotin, uygʻur erkak, qirgʻiz xotin...*

8) shaxsni millati va yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *tatar qoʻshni, qoraqalpoq kursdosh, tojik mahalladosh, qozoq birodar, rus hamkasb...*

9) shaxsni millati va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *tojik kelin, turkman yanga, turk kuyov, tatar buvi, qozoq quda, uygʻur ovsin...*

10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qiz farzand, oʻgʻil farzand, qiz nevara, oʻgʻil nevara, ayol quda, erkak quda...*

11) shaxsni yaqinligi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qoʻshni ayol, mahalladosh erkak, hamshahar erkak, hamqishloq ayol...*

12) shaxsni yaqinligi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qoʻshni duradgor, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, ovuldosh choʻpon, hammaslak oʻqituvchi, hamshahar jurnalist, hamqishloq dehqon...*

13) shaxsni yaqinligi va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *sinfdosh bola, mahalladosh chol, qoʻshni kampir, kursdosh qiz, hamqishloq juvon, yurtdosh yigit ...*

14) shaxsni yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *sinfdosh doʻst, sirdosh dugona, hamqishloq oshna, kursdosh oʻrtoq, maslakdosh hamkasb, hamxona kursdosh, kasbdosh doʻst...*

Oʻzbek tilida shaxs tavsifini ifodalovchi soʻz birikmalari alohida maʼnoviy tur sifatida ajratilgan. Mazkur soʻz birikmalarini hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qolip ham aniqlangan [7;8;9;10;11].

Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining lisoniy qurilishi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ sintaktik qolipida umumlashadi. Bu soʻz birikmalari nutqda $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ qolipining voqelanishi asosida yuzaga keladi, shuning uchun $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ ning hosilalari hisoblanadi. Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining guruhlariga ajratilgan koʻrinishlari shaxs otlarining oʻzaro birikuvlarini umumlashtirgan $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ qolipiga tegishlidir. Ammo ular bu sintaktik qolipga muayyan oraliq shakl/qolip orqali, yaʼni:

- 1) shaxsni kasbi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_k \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 2) shaxsni jinsi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_j \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 3) shaxsni millati va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_y \sim O_{k/h}] = SB$ oraliq shakli;
- 5) shaxsni kasb-hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_k \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 6) shaxsni millati va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_y] = SB$ oraliq shakli;
- 7) shaxsni millati va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 8) shaxsni millati va yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_{yaq}] = SB$ oraliq shakli;
- 9) shaxsni millati va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_q] = SB$ oraliq shakli;
- 10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_j \sim O_q] = SB$ oraliq shakli;
- 11) shaxsni yaqinligi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_{yaq} \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 12) shaxsni yaqinligi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_{yaq} \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;

13) shaxsni yaqinligi va yoshiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar $[O_{\text{yaq}} \sim O_y] = \text{SB}$ oraliq shakli;

14) shaxsni yaqinligiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar $[O_{\text{yaq}} \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$ oraliq shakli asosida bog'lanadi.

Shunga asoslanib aytilish joizki, o'zbek tilida shaxsni tavsiflash vazifasiga xoslangan so'z birikmalari mavjud va ular shaxs tavsifini anglatuvchi so'z birikmalari tizimini hosil qiladi. Bu tizimni quyidagi jadval yaqqol aks ettiradi:

Shaxs tavsifini anglatuvchi SBlari		
Shaxs tavsifi – umumiy ma'no		
$[O_{\text{sh}} \sim O_{\text{sh}}] = \text{SB}$ – umumiy qolipi		
Xususiy ma'nolar/ma'noviy turlar		
Oraliq shakl/qolip		
1.	<i>Kasb va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_j] = \text{SB}$
2.	<i>Jins va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_k] = \text{SB}$
3.	<i>Millat va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_k] = \text{SB}$
4.	<i>Yosh va kasb/hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_y \sim O_{k/h}] = \text{SB}$
5.	<i>Kasb-hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_k] = \text{SB}$
6.	<i>Millat va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_y] = \text{SB}$
7.	<i>Millat va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_j] = \text{SB}$
8.	<i>Millat va yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$
9.	<i>Millat va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_q] = \text{SB}$
10.	<i>Jins va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_q] = \text{SB}$
11.	<i>Yaqinlik va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_j] = \text{SB}$
12.	<i>Yaqinlik va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_k] = \text{SB}$
13.	<i>Yaqinlik va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_y] = \text{SB}$
14.	<i>Yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$

Turkiy tillarda shaxs tavsifini anglatuvchi birikmalar “ismli so'z birikmalari” yoki “ismli birikmalar” terminlari ostida o'rganilgan. Chunonchi, M.T.Ramazanov “Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении” nomli tadqiqotida ismli birikmalarni qismlari ot bilan ifodalangan so'z birikmalari sifatida tahlil qiladi [4, 210-212]. Uning fikricha, bunday birikmalarda ikkala qism (ya'ni tobe va hokim a'zo – *izoh bizniki*) bosh kelishikda ifodalanadi va qismlar orasida atributiv (aniqlovchili) munosabat mavjud bo'ladi. Birinchi qism ikkinchisini aniqlaydi. Ko'p hollarda qismlar vazifasida muayyan otlar voqelashadi: demir korpu=turk tilida: demir ko'pru – rus tilida: железный мост (o'zbek tilida: temir ko'pri); dash ev=turk tilida: taş ev – rus tilida: каменный дом (o'zbek tilida: tosh uy)... [4, 210].

Tadqiqotchi ismli birikmalarni tarkibiy qismlari orasidagi semantik munosabatlar asosida guruhlariga ajratganligi e'tiborimizni tortdi. Zero, ular sirasida shaxsni muayyan jihatdan tavsiflaydigan so'z birikmalari ham o'rin olgan. Chunonchi:

1. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning mashg'ulot turini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: muellim Suleyman = turkcha: öğretmen Suleyman – rus tilida: учитель Сулейман; hekim Logman = turkcha: hekim Loğman – rus tilida: врач Локман; demirchi Musa = turkcha: demirçi Musa – rus tilida: кузнец Муса [4, 211].

2. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning lavozimi, unvoni, darajasi, ilmiy darajasi va shu kabilarni anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: general Nazi = turkcha: general Nezi – rus tilida: генерал Нази; polkovnik Mustafa = turkcha: albay Mustafa – rus tilida: полковник Мустафа; deputat Xelil = turkcha: milletvekili Halil – rus tilida: депутат Халил [4, 211].

3. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning qarindoshlik belgisini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Bu guruhga quyidagi birikmalar kiritilgan: jezne Hesen = turkcha: enişte Hasan – rus tilida: зять Гасан; dayı oğlu Memmed = turkcha: dayı oğlu Memet – rus tilida: сын дяди Мамед; xala oğlu Mehman = turkcha: hala oğlu Mehman – rus tilida: сын тети Мехман; kirve Mehmed = turkcha: kirve Mehemet – rus tilida: кум Мамед [4, 211].

4. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning milliy mansubligini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: rus Ivan=turkcha: rus Ivan – rus tilida: русский Иван; ózbek Gulam=turkcha: ózbek Gulam – rus tilida: узбек Гулам; tatar Balaxan = turkcha: tatar Balahan – rus tilida: татарин Балахан; gurchu Shato = turkcha: gürçu Şato – rus tilida: грузин Шато [4, 211-212].

5. Birinchi komponenti ikkinchi a'zo nomlaydigan predmet laqabini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Quyidagi birikmalar mazkur guruh tarkibiga kirishi qayd etilgan: gatyır Memmed = turkcha: gatiр Memmed–

rus tilida: мул Мамед; kirpi Hesen=turkcha: kirpi Hasan – rus tilida: ёж Гасан; xoruz Semed=turkcha: horus Semed – rus tilida: петух Самед; chuche Kerim = turkcha: çivçiv Kerim – rus tilida: цыпленок Керим [4, 212].

Аннотация. В данной статье рассматривается употребление слова "ой" в узбекском языке в именах девушек (Ойгул, Ойсанам, Гулой) и анализируются ассоциации подбора, языковые и не языковые особенности таких имён. Имена, включающие слово "ой", представляют собой существенную часть узбекской антропонимии и имеют большое значение в обществе, что проявляется в распространённости их использования среди девушек. Более 250 имён начинаются с этой лексемы, такие как "Ойсулув", а более 400 имён заканчиваются словом "ой", например, "Иқболой", "Тошой", "Бекой". Эти два случая разграничиваются как по количеству, так и по значению. Несмотря на сходство в форме, их семантическое содержание разнообразно и зависит от положения слова "ой" в имени. Когда "ой" находится в начале, оно ассоциируется с красотой, светлостью, сиянием и обогащением мира, связанным с планетой Луна (Ойгул – цветок, похожий на Луну). Когда "ой" находится в конце имени, обычно уделяется внимание гендерным аспектам и нюансам.

Ключевые слова: ой, слово, понятие, имя, имена девушек, женщина.

THE PLACE AND USE OF THE MOON LEXEMA IN UZBEK WOMEN'S NAMES

Abstract. In this article, we examine the use of the Uzbek word *oy* in the names of Uzbek girls (e.g., *Oygul*, *Oysanam*, *Guloy*) and analyze the associations, lexical and semantic features of such names. Names containing the word «*oy*» are a significant and integral part of Uzbek anthroponymy, and they hold great importance within society, as evidenced by their prevalence among girls. Over 250 names begin with this lexeme, such as «*Oysuluv*», and more than 400 names end with the word *oy*, for instance, «*Iqboloy*», «*Toshoy*», «*Bekoy*». Despite their formal resemblance, their semantic content is diverse and dependent on the position of the word *oy* in the name. When «*oy*» appears at the beginning, it is associated with beauty, brightness, radiance, and enriching the world, including references to the Moon as a celestial body. When «*oy*» is at the end of the name, it typically highlights gender-related aspects.

Keywords: moon, word, meaning, name, girls names, woman.

Қириш. Ўзбек хотин-қизларига исм қўйиш, ном танлаш дастлаб қачон ва қаерда расм бўлганини аниқ айтиш қийин. Аммо бир нарса аниқки, исмлар қизалокка ота-онаси, яқин қариндошлари, табаррук кексалар томонидан бериладиган, уни оилада, авлодлар ўртасида ва турли давраларда бошқалардан фарқлаш имконини яратадиган омил бўлиб, муайян сабаблар негизида шаклланган. Заҳматкаш номшунос олим Э.Бегматовнинг уқтиришича, исмларнинг барчаси эстетик ва ахлоқий

тамойиллар, инсоний орзу-истаклар, тасаввур ва дунёқарашлар, миллий кадриятларга уйкашиб кетган.

Асосий қисм. Хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни ва қўлланиши ҳақида фикр юритишдан олдин қисқагина, ой сўзининг луғавий маънолари, ўзбек антропонимиясидаги киши исмларининг пайдо бўлиши, танланиш тамойиллари, қизларга чиройли ва гўзал исмларнинг танлашидаги лисоний ва нолисоний омиллар ҳақида фикр юритиш мақсадга мувофиқ.

Ой лексемасининг бош маъноси изоҳли луғатда изоҳланишича, қуйидаги луғавий маънога эга: 1. Куёшдан нур олиб, ёғду сочувчи самовий жисм, Ернинг табиий йўлдоши. *Ўн тўрт кунлик ой. Тўлин ой. Ой нури. Ой чиқди. Ой ботди. Ойнинг юзидаги доғлар. Ойнинг Ер атрофида айланиши. Ойни этак билан ёпиб бўлмайди.* Мақол. *Кечки гуллар очилиб турибди. Кўкда танҳо ой кезмоқда.* И. Раҳим, Чин муҳаббат.

Бош маъносидан ташқари яна уч маъноси ҳам берилган: яъни иккинчи маъноси сифатида астрономик йилнинг ўн иккидан бирига — Ойнинг Куёш атрофидан бир марта айланиб чиқиш муддатига яқин вақт оралиғи; ўлчов бирлиги: 28, 29 30 ёки 31 кунлик давр. *Ой боши. Май ойи. Бир йил — ўн икки ой. Бу орада уч ой ўтди. Ёз ойлари ҳам ўтиб кетди. Ойнинг ўн беши қоронғи бўлса, ўн беши ёруғ.* Мақол. *Ўзлим бечора ой ўтмасдан бўзчининг моксицидек қатнаб турса.* А. Қодирий, Ўтган кунлар. 3 Уч-тўрт кунлик ой шаклидаги безак ёки белги. *Мезана устидаги ой.* 4 Аёллар исми таркибига киради ёки аёллар номига қўшилиб, эркалалаш, хурматни билдиради. Мас: *Ойпошиша, Ойқиз, Ойтўти, Ойниса; Турсуной, Ширмоной, Кундузой.*

ЎТИЛда ой лексемаси иштирокида ўзбек тилида бир қатор сўзлар ясалганлиги ҳам кўрсатилган: **ойболдоқ**- исирғанинг олтин, кумуш, мисдан уч-тўрт кунлик ойга ўхшатиб ишланган, нақшсиз, шокиласиз бир тури. *Олтин ойболдоқ. Ойболдоқ тақмоқ.* **Ойгул** - кўп япроқли мойчечак шаклидаги нақш. *Ойгулни наққошлар бахт-иқбол.* **Ойдин** - ой чиқиб, ҳамма ёқ ой нури билан ёриган, ёруғ. *Ойдин кеча. тт Кеча ойдин, қабристон тип-тинч.* А. Қодирий, Ўтган кунлар. **Ойимпошшо**-хурмат юзасидан ёки кесатиқ билан аёлларга нисбатан ишлатиладиган сўз. [*Домла Фотимага:*] *Бир оз тобим йўқ деб ёзибсиз, нима бўлди, ойим-пошиша?* Ҳамза, Тухматчилар жазоси. 2 **Ойимпошша** (хотин-қизлар исми). **Ойимқовоқ**- ошқовоқнинг эртапишар бир тури. *Хуллас, икки-уч йил ичида пешонаси икки ҳиссага кенгайиб, боши ойим-қовоқдек ялтиради-қолди.* Н. Аминов, Ёлғончи фаришталар. **Ойтамғали**- ўзбек халқининг дўрмон, кипчоқ, кўнғирот каби йирик қабилалари таркибига кирган уруғлардан бири [4: 99-102] ва бошқалар.

Алишер Навоийнинг асарларида ҳам ой лексемаси ўхшатишлар ҳосил қилишда маҳорат билан қўлланилган: **Ой** юзунг кўзгуну атрофини тутқан занг хат, Не ярашибдур ул **ой** даврига миноранг хат [1: 204] Қилсангиз тасвир Лайли хуснин ул **ойдек** сизинг, Лек Мажнунни Навоий бирла монанд айлангиз [2, 214].

Аёнки, хотин-қизлар исмлари ўзбек антропонимияси гуруҳининг узвий ва муҳим қисми ҳисобланади. Жамиятнинг ярмини ёки ярмидан сал кўпроғини хотин-қизлар ташкил қилади. Шу сабабли жамиятда шунча хотин-қизлар исмлари мавжуддир. Ўзбек антропонимиясининг асосчиси Эрнст Бегматовнинг “Ўзбек исмлари изоҳи” [3: 605] номли луғатида 14600 та эркак ва аёллар исмлари берилган. Шу исмларнинг ярмидан анча оз қисмини хотин-қизлар исмлари ташкил қилади. Эркаклар исмлари миқдоран анча ортиқ. Бу ҳолат исмлар билан борлиқ нолисоний ҳодиса - ижтимоий воқелик таъсиридир. Жамиятда эркакларнинг ўрни юксак. Диний таълимот ва тарғибот, маънавият ва маърифат билан эркаклар кўпроқ шуғулланишган. Кишиларга исм қўйиш азал-азалдан кўп ҳолларда эркаклар қўлида бўлган. Жамиятни бошқариш эркаклар томонидан амалга оширилган. Ана шу каби нолисоний ҳолатлар эркаклар исмининг ниҳоятда бой, хилма-хил бўлишини таъминлаган.

Асрлар оша исм қўйишнинг турли расм-русум ва удумлари қарор топган. Аждодларимиз боланинг соғлиғи, келгуси ҳаёти ва бахти, хулқ-атвори ва тақдирига таъсир кўрсатади, деб билишган. Насллари давомчиларига уларни ғурурлантирадиган, бамисоли хусндек яхши отлар танлаб, тўлиқ ва чиройли талаффуз қилишган. Ўзгалар исмини чала-ярим айтишни ёки дилга оғир ботгувчи лақаблар тўқишни одобсизлик ҳисоблашган. Зеро, ҳадисда ҳам «Кимки бировни ўз номи ўрнига лақаб билан чақирса, уни фаришталар лаънатлайдилар» дейилган.

„Айрим исмлар ҳолат, вазият, табиат ҳодисалари, чақалоқ туғилган вақт, кун, фасл ва байрам-тантаналарга қиёслаб қўйилган. Оиланинг тўнғич фарзанди Муқаддам, иккинчиси Сония, тўртинчиси Робия ёки Чори, бешинчиси Панжи деб аталган. Отаси кексайганида туғилганларга Олтмишбой, Етмишбой, Саксонбой, Тўқсонбой, ота ёки онаси вафот этган гўдакка Ёдгор, ҳар иккисидан айрилганига Етим исми қўйилган. Ҳижрий йил ҳисобидаги ойлар номи ҳам кўпинча исм Ҳайиталининг замирида янги меҳмон куч-қудрат, етук ақл-заковат соҳиби бўлиб

камол топсин деган эзгу тилак мужассамлашади. Кўпчиликка аён иримга кўра, оилада қизлар кўпаяверса, энди бас, етар, навбатдагиси ўғил бўлсин деган умидда Басбуви, Басанда, Ўғилой, Ўрилшод, Кифоят, Зиёда, болалар гўдаклигида нобуд бўлаверса, кейингиси яшаб қолиши, умри узоқ бўлиши илинжида Яшар, Турди, Турғун, Турсун, Ўлмас, Тўхтасин, Кўйсин, Омон, Эсон каби ўзакли исмлар лойиқ кўрилади”. “Яна бир кизиқ ҳолат: муқаддам уйда туғилган қиз чақалоқлардан айримларининг киндиги меҳнат ёки жанг қуроллари ёрдамида кесилган. Шунга биноан, Олтиной, Олмосой, Кумуш, Динора исмларини олишган. Қолаверса, қоғоноқ, яъни ҳомила пуфаги ёрилмай туғилганини Парда, тиши борини Бўри, киндигига ўралиб тушган жингалаксоч митти войни Ўрол, сочи ўралиб туғилган чиройли «ҳолва»ни Зулфия дейишган. Исмларга тааллуқли бундай ажойиб-ғаройиб далилларни истаганча келтириш мумкин” [3].

Исмлар - сўз. Ҳар қандай исм аслида сўздан ҳосил қилинади. Сўз бўлганлиги учун у тил бирлиги ҳисобланади. Тил бирлиги сифатида у жамиятнинг инъикоси саналади. Ижтимоий воқелик тилда акс этади. Тил – жамиятнинг кўзгуси. Тил – борлиқнинг акси. Тил борлиқнинг инсон онгидаги, тафаккуридаги инъикосидир.

Тил – жамиятдаги ҳар қандай воқеликни акс эттиришга қодир мўъжиза. Жумладан, жамиятда юзага келган янги мавжудот - инсон ҳам бирон тил бирлиги билан аталади. Ана шу аталиш – исм деб номланган. Исм танлаш – ижтимоий воқелик, ижтимоий ҳодиса. Бу ҳодисани жамият бошқаради. Жамият эса ном, исм, отни жамоа аъзолари онгидаги сўзлардан танлайди. Танланган сўз - лисоний бирлик, лисоний ҳодиса. Танлаш тамойиллари, сабаблари - нолисоний ҳодиса, ижтимоий талаб ва эҳтиёждан келиб чиқади.

Исм, яъни кишининг оти ижтимоий воқелик билан боғлиқ бўлгани учун у жамият аъзоларининг кундалик, замонавий талабига мос бўлиши, жавоб бериши зарур. Жамият гўзалликни яхши кўради. Шунинг учун жамият аъзосининг исми ҳам гўзал бўлмоғи зарур. Ота-онанинг ҳам вазифаси фарзандига гўзал, мазмунли, ҳаммага манзур бўладиган исм кўйиши зарур. Шунинг учун жамиятда, оилада ҳам ўзбек тилида қиз фарзандларга исм танлашда ҳар бир исмнинг чиройли бўлишига асосий эътибор қаратилади. Масалан, гўзал ва чиройли исмлар сирасига қуйидаги исмларни намуна сифатида келтириш мумкин: Юлдуз, Гўзал, Сулувоё, Ойсулув, Раъно, Наргиза, Озода, Ойгул, Соҳиба, Ҳилола, Мудаддас, Баҳор, Чевархон, Дилбар, Дилдор, Лолахон, Норгул, Вазира, Зебо, Барно, Гулзебо, Гулнора, Гулчирой, Гулчехра, Тозагул, Гулсанам, Ойсанам, Гулимоё, Гулимоҳ, Назокат, Санобар, Кумушхон. Бундай исмлар ниҳоятда кўп. Баъзан Беғам, Басанда, Басбуви (оилада кетма-кет қизлар туғилгани учун кўйиладиган исм) каби исмлар ҳам учрайди. Бундай исмлар яхши исм ҳисобланмайди. Ҳам сўзи ва у англаган маъно инсон табиатига мос эмас. Инсон фақат яхши тушунчаларни хуш кўради. Исмларда ҳам ана шундай тушунчаларнинг номини кўришни хоҳлайди. Фарзанди чиройли бўлмаса ҳам, унинг исми чиройли бўлишини истади. Шунинг учун ҳам чиройли исмлар танлайди.

Чиройли, гўзал сўзлари англаган тушунчалар нисбийдир. Ҳамма учун бир хилдаги чиройли нарса йўқ. Ҳар ким учун ҳар хил нарса гўзал туюлиши мумкин. Шунинг учун ҳам оилада ардоқланган исм гўзал исм, чиройли ном саналаверади. Исм танлашда оилавий, сулолавий исмлар сериясига амал қилиш одати ҳам бор. Опаси - Шаҳноз, синглиси - Гулноз. Опаси-Дилбар, синглиси - Дилдор. Опаси - Ойбахор, синглиси - Гулбахор ёки Навбахор. Опаси Бўригул, синглиси - Кўзигул. Опаси - Ойсанам, синглиси - Гулсанам. Умуман, исмлар танлашда анъанавийлик кучли. Расм бўлган одатларга ҳам амал қилинади. Фотима, Зухра, Ҳадича; Ширин - Шакар, Ҳадича.

Аллоҳ сифатлари – 99 та. Ана шу сифатларнинг номлари эркаклар исмида қарийб тўла акс этган. Кузатишлардан қизлар исмида ана шу Аллоҳ исмларининг атиги 24 тасинигина акс этганлиги маълум бўлди. Буларнинг ҳам барчаси оммавий эмас. Диндорлар оиласида, шаҳар халқи орасида, маълум ҳудуддаги кишилар жамоаси орасида Аллоҳ исмлари борлиги маълум. Кенг тарқалган исмлар ичида нисбатан кам. Раҳима, Малика, Азиза, Ҳамида, Ҳалима, Ҳақима, Ҳафиза каби исмлар нисбатан фаолроқ учрайди. Аммо Сабура, Ҳодия, Валия, Вакила, Рақибба, Кабира, Шакура, Ғафура, Азима, Латифа, Алима, Басира каби исмлар нисбатан кам тарқалган. Баъзан бадийий асарларда учрайди. Қизлар исмида дин, Аллоҳ, худо, тангри сўзли исмлар ҳам деярли учрамайди. Диний мазмундаги исмларнинг камлиги ёки йўқлиги қизлар исмининг ўзига хос лисоний, нолисоний хусусиятларидан бири саналади.

Энди ой лексемаси ҳақида. Кузатишлар ва таҳлиллар шуни кўрсатдики, ўзбек антропонимиясида ой лексемаси қизлар исмининг бош қисмида ва сўнг қисмида қўлланади. Ойсулув каби бош қисмида ой сўзи келадиган исмлар 250 дан ортиқ. Ой сўзининг исм сўнгида келиши анча кўп учрайди, 400 дан ортиқ исмлар охирида ой сўзи келади. Бу икки ҳолат бир-бирига миқдоран мос келмагандан, мазмунан ҳам мос эмас. Ой сўзи исм бошида келса, Ой планетаси ҳақидаги инсониятнинг гўзаллик, ойдинлик, нурлилик, дунёни - ер юзини ёритиши каби тушунчалари билан боғлиқ бўлади. Ойгул - Ойга ўхшаган гул. Ой сўзи исм сўнгида келганда жинс маъносини ҳам англатади.

Исм сўнгида келганда ой сўзи қ и з сўзи маъносини ҳам беради. Умуман, ой сўзи қизлар исми ҳосил қиладиган маҳсус лексемалардан саналади.

Ой сўзи исм бошида келганда кишиларнинг осмон жисмларига сифиниши каби ибтидоий тасаввурлари ҳам акс этганлиги маълум. Қадимий исмлар бу тасаввурни тасдиқлайди. Ойнинг гўзаллик тимсоли саналиши ой сўзининг ҳам исм бошида, ҳам исм сўнгида келишига сабаб бўлган, албатта. Ой сўзли исмларнинг 2-қисми ўзбекча сўзлар (*биби, момо, қиз, тош, хон*), форс-тожикча (*бўстон, бозор, зада, жаҳон, зиёд, зебо, гул, пошша, парча, ҳол*), арабча (*қамар, султон, ҳумор, карам, зухра*) сўзлардан таркиб топган. Сўнгида ой сўзи келадиган исмларнинг 1-қисми ҳам ўзбекча, форс-тожикча, арабча.

Олтин, тилла, кумуш, зар, ёқут, гавҳар, маржон, дур, ақиқ, садаф, нуқра каби нодир металллар номи қизлар исмига айланган. Бу металллардан ва улардан тайёрланган зийнат буюмларига хос гўзаллик шу тур исмларнинг яралишига асос бўлган.

1 . Ой лексемаси исмлар бошида келади: Ойгул, Ойбиби, Ойбуви, Ойхон, Ойхол, Ойсара, Ойбанот, Ойбегим, Ойжамол, Ойзиёд, Ойзира, Ойзода, Ойкарам, Ойкулча, Ойлола, Ойнисо, Ойноз, Ойнур, Ойнор, Ойтувғон, Ойтўра, Ойчаман, Ойширин, Ойқамар, Ойўғил.

Э.Бегматовнинг “Ўзбек исмлари изоҳи” (2016) китобида ой сўзи билан бошланадиган 251 та хотин-қизлар исми мавжуд. Бу рўйхат, албатта, қатга ҳажм ва миқдорни ташкил этади.

Ой - осмондаги планетанинг исми. Ўзбек адабиётида Ой - гўзаллик тимсоли. Шунинг учун ҳам гўзалларнинг, маъшуканинг хуснини ойга нисбат беришади. Албатта, бунда ойнинг кечаси тунни ёритишини эътиборга олишган. Ойнинг гўзаллик тимсоли эканлиги ва шундай тасаввур қилиниши кишиларнинг осмон жисмлари ҳақидаги тушунчалари билан боғлиқ. Маълумки, кишилар энг ибтидоий даврларда осмон жисмларига эътиқод қилишган. Уларни муқаддас деб билишган. Осмон жисмларининг сирларини билишмаган.

Шуни айтиш керакки, Э.Бегматов томонидан аниқланган луғатда изоҳланган ой сўзи билан бошланадиган исмларнинг кўпчилиги қизларнинг исмидир. Айримлари ўғил болаларнинг ҳам исмига айланган; Оймирза, Оймардон, Ойбек. Аммо бундай исмлар миқдори жуда кам. Аксарият қизларнинг исми Ой - сўзи умумтуркий сўз. Туркий тилларнинг энг қадимий ўтмишига хос сўз бўлгани учун ҳам қадим замонларданок туркий исмлар таркибида учрайди.

Шуни айтиш керакки, ой сўзи билан бошланадиган исмларда киши турли мазмундаги ва турли тилларга мансуб сўзлар саналади:

А. 2-қисми ўзбекча сўздан таркиб топган: *Ойбиби, Оймомо, Ойқиз, Ойтош, Ойхон*

Б.-қисми форс-тожикча сўздан таркиб топган: *Ойбўстон, Ой бозор, Ойзода, Ойжаҳон, Ойзиёд, Ойзебо, Ойгўзал, Ойгул, Ойрўзи, Ойпошша, Ойпарча, Ойширин, Ойтўти, Ойхон, Ойшаҳар, Ойчаман.*

В. 3-қисми арабча сўздан таркиб топган: *Ойкарам, Ойзуҳра, Ойдават, Ойсанам, Ойсултон, Ойсифат, Ойқамар, Ойҳумор.*

Сўнги қисми сифатида кўпгина исмларда туркий-ўзбекча сўзлар хизмат қилган. 2-қисм сифатида арабча ва форсча, тожикча сўзларни қўлланиши нисбатан тилнинг кейинги даврлар тараққиётига хос. Ва бундай исмларнинг айримлари тилнинг адабий қатламига хос. Соф туркий сўзлардан юзага келган исмлар анча қадимий ва халқ орасида кенг тарқалган. Масалан, Ойтўлғон, Ойтўла, Ойтурди каби исмлар халқчил исмлардир. Аммо Ойчаман, Ойсифат, Ойширин исмлари китобий, кам учрайдиган исмлардир.

2. Ой лексемаси исмларнинг сўнгида келади. Ой лексемасининг исмлар охирида келиши кўп учрайдиган лисоний ҳодиса, Ой фақат қизлар исмининг охирида келади. Ўғиллар исмининг охирида ой лексемаси учрамайди. Ой лексемасининг гўзаллик аниқлиши ва шу билан боғлиқ тушунчаларнинг, ақидаларнинг кенг тарқалиши ой лексемасининг қизлар исмининг сўнгида келишини махсуслаштирган. Ой сўзи 250 дан ортиқ исмлар бошида келса, бир неча минг исмлар охирида келади. Айрим ўғиллар исми бошида ҳам ой сўзи учраса, ўғиллар исмининг охирида ой сўзи умуман учрамайди. Бу ҳолат ой сўзининг исмларда қўлланиши билан боғлиқ лисоний ва нолисоний ҳолатдир. Қизлар исмининг сўнгида келувчи ой сўзи гўзаллик тушунчаси билан боғлиқ. Инсон азалдан гўзалликни яхши кўради, гўзаллик сари интилади. Гўзаллик оламни кутқаради деб бежиз айтишмаган.

Яна шуни айтиш керакки, ой сўзи қизлар исмининг сўнгида келганда исм яшаш учун хизмат қилади. Масалан, Тошой исмини олайлик, Ой сўзини қўшмаса тош сўзининг ўзи қиз болага исм бўлмайди. Ой сўзини тош сўзи билан қўшса яхши исм - қўшма сўз юзага келади. Тошой исмида ном берувчининг икки хил орзу истаги ифодаланган. Маълумки, тош ташқи таъсирга узоқ чидаш бера оладиган жисм. Бу сўзда вақт семаси бор инсон эса узоқ вақт яшашни орзу қилади. Тош сўзида ҳар қандай ташқи таъсирга чидаш семаси ҳам бор. Бу маънони ҳам инсон яхши кўради. Ана шу икки маъно нозиклигини эътиборга олиб, инсон ўз боласига тош сўзини қўшиб исм танлайди. Бундан ташқари, тош сўзига ой сифат қўшганда унинг гўзаллик ҳақидаги орзуси ҳам акс этади. Тошой дегани тошдек мустаҳкам, тошдек умри узоқ ва ойдек сулув киз бўлсин деганидир.

Хулоса. Хуллас, хотин-қизлар исмларида ой лексемасининг ўрни бекиёс. Бу лексеманинг қизлар исмларида қўлланиши лисоний ва нолисоний омиллар билан боғлиқ ҳолда юзага келади. Бундай исмларда ота-оналарнинг орзуси, тилаги мужассам бўлади. Ой лексемасида гўзаллик, бежиримлилик, чиройлилик,

хушсуратлилик, зеболик семалари бор. Ана шу семаларни ёқтиргани учун инсон ўз фарзанди исмига ой сўзини қўшишни хуш кўради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб // Хазойин ул-маоний. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Тўртинчи том. –Т.: Фан, 1989. -526 б.
2. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя / Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Биринчи том. –Т.: Фан, 1987. -689 б.
3. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изоҳи. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2016. - 605 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. И-В. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 99-102
5. Ҳайдаров А, Тил, сўз ва исм ҳикмати унутилмас сабоқ. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2021 йил 30 апрель, 18-сон.

ZIYORAT TURIZMI TERMINLARINING STRUKTURAL QOLIPLARI

Vaxidova Fotima Saidovna,

Buxoro davlat universiteti, Xorijiy tillar fakulteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

f.s.vaxidova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ziyorat turizm terminlarining struktur- semantik modellari, shakllanish tamoyillari va manbalari tahlil qilingan. Ingliz va o‘zbek tillarida ziyorat turizm terminologiyasining tarkibi so‘z yasashning morfologik, sintaktik, va leksik semantik usullari dalilalangan.

Kalit so‘zlar: derivatsiya, qolip, morfologik, struktural yasalish.

STRUCTURAL PATTERNS OF PILGRIMAGE TERMS

Abstract. This article analyzes the structural and semantic models, principles of formation and sources of terms of pilgrimage tourism. The composition of pilgrimage tourism terminology in English and Uzbek languages is confirmed by morphological, syntactic and lexico-semantic methods of word formation.

Key words: derivation, model, morphological, structural, formation.

СТРУКТУРАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ТЕРМИНОВ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Аннотация. В данной статье анализируются структурно - семантические модели, принципы формирования и источники терминов паломнического туризма. Состав терминологии паломнического туризма на английском и узбекском языках подтверждается морфологическими, синтаксическими и лексико-семантическими методами словообразования.

Ключевые слова: деривация, модель, морфологический, структурный, формирование.

Kirish. Ma’lumki, terminlar oddiy so‘zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo‘lgan so‘z va o‘zaklardan yasaladi. O‘zbek tili terminlari sistemasi struktur turlar, ya’ni sodda, yasama, qo‘shma, qisqartma va so‘z birikmalarini qamrab oladi.

Bugungi kunda o‘zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi, ma’no-mazmuniga mutanosib, mos tushishi, struktur (shakl) jihatdan ixcham bo‘lishi, yakka ma’noni ifodalashi, ma’nodoshlik(sinonimik) qatorlariga kirmasligi kabi talablar terminshunoslar diqqat markazidan joy olganligi yangilik emas.

Terminlar struktur xususiyatlari va derivastion jarayonlar terminlarni tushunish, ziyorat turizm sohasi mutaxassislarining o‘zaro bir-birini tushunishida muhim rol o‘ynaydi. Bunday xususiyatlar terminning shakily mezonini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Asosiy qism. Avvalo, ziyorat turizm sohasi terminlarining so‘z turkumli tavsifiga to‘xtalamiz. Barcha soha terminshunosligida bo‘lgani kabi o‘rganilayotgan korpuslarda ot so‘z turkumi ustuvordir.

Terminning shakl jihatini tahlil qilib, ko‘plab tadqiqotchilar terminlarning tarkibiga ko‘ra farqlanadigan ikki asosiy guruhlarini ajratishadi: termin-so‘zlar (bir komponentli) va termin-so‘z birikmalar (ko‘p komponentli).

O‘rganilayotgan terminotizimlarda bir komponentli va ko‘p komponentli terminlarning tillar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

	O‘zbek tili		Ingliz tili	
	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan % hisobidan	Terminlar soni	Umumiy tanlamadan % hisobidan
Bir komponentli	288	41,1%	301	30,4%
Ikki komponentli	378	54%	635	64,1%
Uch komponentli	33	4,8%	37	3,7%

LINGUISTICS

To'rt komponentli	1	0,1%	2	0,2%
Olti komponentli	-	-	1	0,1%

Demak, biz tomondan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi "ziyosat turizmi" terminosistemasi shakllanish jarayonida bo'lib, taraqqiyoti davomida allaqachon shakllanib bo'lgan terminosistemalarga intiladi. Ko'p komponentli terminlarning ko'pligi, shuningdek, turizm terminlari ixtisoslashuvi jarayonining jadallashuvidan, terminosistemaning ierarxik tuzilmasining shakllanishidan, terminlar o'rtasidagi derivatsion aloqalarning o'rnatilishidan dalolat bermoqda. O'zbek va ingliz tillaridagi turistik nomlar ro'yxatining qiyoslanishi, shuningdek, o'zbek tilida oddiy terminlar yasama terminlardan ko'ra ko'pligiini, (mos ravishda 38,5% va 28,1%) ingliz tilida esa mazkur nisbat amalda bir xilligini (35,5% va 34,6%) aniqlashga imkon beradi. Bunday farq shu bilan izohlanadiki, o'zbek bir komponentli terminlarning yetarli darajada katta qismi o'zlashtirma so'zlar hisoblanadi (mehrob, qibla, ziyorat, masjid, *apgreyd, buking, otel trevelog, patio, xostel, branch, xab va boshqalar*).

Terminshunoslik bo'yicha ilgari olib borilgan tadqiqotlar [2, 106] shundan dalolat beradiki, shakllanayotgan terminotizimda ko'p komponentli terminlarning soni 70% ga yaqinlashadi. Demak, biz tomondan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi "turizm" terminotizimi shakllanish jarayonida bo'lib, taraqqiyoti davomida allaqachon shakllanib bo'lgan terminotizimlarga intiladi.

Ko'p komponentli terminlarning ko'pligi, shuningdek, turizm terminlari ixtisoslashuvi jarayonining jadallashuvidan, terminotizimning ierarxik tuzilmasining shakllanishidan, terminlar o'rtasidagi derivatsion aloqalarning o'rnatilishidan dalolat bermoqda. Bunday farq shu bilan izohlanadiki, o'zbek bir komponentli terminlarning yetarli darajada katta qismi o'zlashtirma so'zlar hisoblanadi (*apgreyd/upgrade, safari/safari, trevelog/travelog, botel/botel, djakuzi/jakuzi, kabana/cabana, xostel/hostel, branch/brunch, xab/hub*).

Turistik terminologiyada eng ko'p qo'llanilgan uslub so'zlarning birikuvidir. Jumladan, *ot + ot (muzey-qo'riqxon, yaxt-klub, kokteyl-zal, gid-tarjimon, yo'l-xarita, vagon-restoran, lanch-paket, banket-furshet, reliz-data, konferens-zal, vip-tur); internatsional xarakterdagi o'zgarma bog'liq bo'lak + ot (avtoturist, avtoturizm, avtorestoran, avtokarvon, avtouy, aviareys, aviatarif, aerovokzal, agroturizm, geoturizm, ekoturizm, akvapark)*.

O'zbek tilining terminotizimida murakkab so'zlarning o'sishi, avvalo, inglizabon termin elementlarning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lib, tizimning inglizchaga yo'nalganligidan dalolat beradi. Turizm terminshunosligiga tegishli murakkab so'zlar orasida inglizcha so'zlarning kirishi aniq kuzatilib, ular xalqaro xarakterga ega: *rum-servis/room service, lanch-paket/lunch package, fast fud/fast food, split-charter, buking-list/booking list, ruming list/rooming list va boshqalar*.

Biroq yasama bo'lmagan terminlarning ko'pligiga qaramasdan, shuni ta'kidlash lozimki, turistik terminlarning affiksial paydo bo'lishi yetarli darajada mahsuldor hisoblanadi (o'zbek va ingliz tillarida turizm sohasining bir komponentli terminlarining shakllanish yo'llari tavsiflangan jadvalga qarang). Turizm sohasida bu umumiste'moldagi leksikaning shakllanishi kabi ayni o'sha so'z shakllantiruvchi model asosida amalga oshiriladi. Asosiy terminologik birliklar ot so'z turkumi hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillaridagi turizm terminshunosligi tizimida otlar barcha nutq qismlarining umumiy sonidan tegishli ravishda 97,1% va 96,8% ni tashkil etadi. Turizm sohasi tizimda faoliyat yurituvchi ot so'z turkumini semantik belgisiga ko'ra

- 1) jarayon;
- 2) faoliyatni amalga oshiruvchi;
- 3) turistik predmetlar, obyektlar, hodisalarni belgilaydigan 3 ta semantik sinfga bo'lishadi: jarayonni ifodalovchi ot so'z turkumi orqali yasalgan turistik terminlar ingliz tilida *-ing* suffiksli so'z shakllantiruvchi modellar eng ko'p qo'llaniladi: *praying, visiting, camping, hiking, staggering, catering, caravanning, trekking, meeting*.

Mazkur toifadagi ot so'z turkumini yasashda *-tion* (reservation, recreation, animation, accommodation), *-al* (arrival), *-ure* (departure), *-age* (pilgrimage, portorage) suffikslari kam ishlatilgan.

O'zbek tilida jarayonni anglatuvchi turizm terminlarining yasalishi boshqa sohalardagi terminlar yasalishiga o'xshaydi: bunda ustuvor suffiks *-lash, -lashtirish* hisoblanadi (*joylashtirish, mo'ljallash, bronlash, rezervlashtirish, kvotalash*). *-lash* suffiksi bilan tugaydigan so'zlar ko'plab sohalarda qo'llanilib, ilm-fan va texnika, ishlab chiqarishning turli sohalari tiliga xosdir.

Ziyorat turizm terminshunosligidagi salmoqli qatlamni har ikkala tilda faoliyatni amalga oshiruvchi, boshqacha aytganda, shaxs ismlarini bildiruvchi otlar tashkil qiladi. Shaxslarning inglizcha nomlari orasida ko'pchilik qismni *-er* suffiksi yordamida shakllangan otlar tashkil qiladi: *prayer, hosteller, busser, greeter, traveler, tripper, camper, cruiser*.

Ingliz tilida shaxslarni bildirishda mahsuldorlik bo'yicha ikkinchi va uchinchi o'rinda *-or* (*animator,*

visitor, consolidator) va *-ist (receptionist, excursionist, motorist)* suffiksli modellar turadi.

O‘zbek tili turizm terminshunosligida shaxs nomlarini yasashda eng mahsuldor modellar sifatida -or(er) (registrator, administrator, animator, rekreator, restorator, konsolidator, riteyler, serfer, dayver, xoteler), -chi (sayohatchi, kuzatuvchi, kutib oluvchi) suffiksli modellar xizmat qiladi.

Ot so‘z turkumining uchinchi sinfini turizm sohasidagi predmetlar, obyektlar va turizm sohasi hodisalari tashkil etadi. Ingliz tilida *-er* suffiksli (*appetizer, diner, sleeper, trailer, liner*) terminologik nomlar faoldir.

-ity (hospitality, seasonality), -ery/ory (carvery, inventory) qo‘shimchalari ham birmuncha faollikka ega.

O‘zbek tilida suffiksastiya ot so‘z turkumining mazkur sinfida ingliz tiliga qaraganda kam faol hisoblanadi: *-lik qo‘shimchali ko‘p bo‘lmagan terminlar mavjud (mavsumiylik, daromadlilik)* va *-ing (kemping, parking, yaxting)*.

Old qo‘shimchalar (prefiksastiya) tahlil etilgan tanlamaning mulohaza yuritishga imkon yaratishiga ko‘ra o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham turizm terminlarini tashkil etishning mahsuldor yo‘li hisoblanmaydi: o‘zbek tilida (*nosezon, norezident*), ingliz tilida (*non-season, non-resident, overbooking, incoming, rerouting*) kabilargina uchraydi.

Tadqiq etilayotgan terminologiyada fe‘l so‘z turkumlari unchalik ko‘p emas va ulardan termin yaratishda ot so‘z turkumiga qaraganda kam foydalanilgan. Fe‘llarning suffiksastiyasi ancha kuchsiz: o‘zbek tilida *-lash/lashtirish (bronlash, rezervlashtirish, kvotalash)*, ingliz tilida *-ate* qo‘shimchali 4ta fe‘l (*accommodate, animate, recreate, consolidate*) aniqlandi. Fe‘llar orasida prefiksastiya kamroq uchraydi: *reboard, reissue, reroute*.

Ziyorat turizm terminshunoslikda inglizcha so‘z yasash uchun quyidagi modellar xos:

1) ot + ot (*imomkhateeb, bellboy, owner-manager, housekeeping, chambermaid, pageboy, rest-camp, roadhouse, timeshare, birdwatching, hillwalking, kitesurfing, busboy*);

2) fe‘l+ predlog-so‘ng qo‘shimcha (*check-in, check-out, pick-up, kick-back, stopover, blackout*);

3) *sifat+ ot (freediving, blacklist)*.

“Turizm” terminotizimi tarkibidagi termin so‘z birikmalarining eng mahsuldori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Konseptual modellarda komponentlarni belgilash uchun biz ingliz va o‘zbek tillarida umume’tirof etilgan qisqartirishlardan foydalanamiz: ot son turkumi (ot) – N (noun); sifat so‘z turkumi (sifat.) – Adj (adjective); predlog (predl.) – prep, (preposition); bog‘lovchi – conj (conjunction).

O‘zbek “turizm” terminotizimning ko‘p komponentli terminlari struktur modeli quyidagicha tahlil qilindi

Terminologik so‘z birikma	Model	Jami birlik	Jami, %	Namunalar
Ikki komponentli	sifat + ot	310	82,3%	<i>Muqaddas kitob, Muborak safar, katta haj, halol taom, Muqaddas avliyo, to‘liq paket, Charter aviareys, turistik qishloq, tematik park, tabarruk qadamjoh, aziz avliyo</i>
	ot + ot	54	13,8%	<i>Nogironlar aravachasi, ziyoratgoh joy, ziyoratchilar kiyimi, Umra qo‘llanmasi, qabr toshi, Haj vizasi, Payg‘ambar ravzalari, ziyoratchilar beijiki, gid tarjimon, Arafot tog‘i, mehmonxona xizmati, qo‘l yuki.</i>
	ot+predlog + ot	14	3,9%	<i>Ravzadagi gumbaz, quduqdagi suv, ziyoratga ruxsatnoma, ziyoratga yo‘llanma, hajdagi amallar.</i>
Jami		378	100%	
Uch komponentli	ot + sifat+ ot	9	27,2%	<i>Ziyorat lyuks paketi, turizmning yuqori konyukturasi, Mehmonxona standartli xizmati, sayohatning mavsumiy tannarxi.</i>
	ot+ pred.	7	21,2%	<i>Mehmonxona uchun qo‘shimcha to‘lov, ziyorat</i>

LINGUISTICS

	+sifat+ ot			<i>uchun turistik xarajatlar.</i>
	ot +ot + ot	5	15,1%	<i>Jahon sayohlik tashkiloti, ziyorat turizmi paketi, transport narxi koeffitsienti, ziyorat manzili xaritasi, qibla (Makka) yo'nalishi ko'rsatkichi.</i>
	ot + pred.+ ot + ot	3	9%	<i>Ellikboshi hamrohligidagi tur, maqbara joyiga tur, vizalar uchun talabnoma buyutmasi</i>
	sifat+sifat+ot	3	9%	<i>Halol tarkibli taom, tashqi/ichki turistik oqim, muqaddas manzilli ziyorat.</i>
	Boshqa	6	18,5%	<i>Shahar bo'ylab obzor ekskursiya, "uchinchi yosh" turizmi, ziyoratgohning doimiy mijosi; oilaviy ziyoratchilar tur paketi.</i>
Jami		33	100	
To'rt komponentli	Ot+ot+ot+ot	1	100%	<i>Ziyorat xizmatidagi transport vositalari.</i>

Ziyorat turistik terminlarining inglizcha tanlamasida ikki komponentli birliklar ustuvor bo'lib, ulardan eng ko'p ishlatilgani N + N (442 atama, 69,6%) modeli ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur modelning keng qo'llanishi shu bilan izohlanadiki, bunday so'z birikmalar sintaktik munosabatlarni ifodalashning tejamkorlik vositasi hisoblanadi, chunki komponentlar o'rtasidagi aloqalar so'zlarning o'rini oddiy o'zgartirish orqali mazkur aloqaning shakliyi ko'rsatkichlari ishtirokisiz amalga oshadi.

Struktura	Model	Jami, birlik	Jami, %	Misollar
Ikki komponentli	N + N	442	69,6%	<i>Prayer book, Faith healing, Church porch, Sky temple, icon lamp, icon case, Blessing benediction, church records, communion cup, communion table, Ember days, Hall porter, hospitality praying room, menu card, shoulder season, tourism resources</i>
	Adj +N	181	28,5%	<i>Silk road, sacrificial altar, ritual bath, scared place, Holy See, Cultural heritage, Catholic church, ecumenical council, ecclesiastical law, religion ceremony, connecting rooms, halal hotel, good deed, Holy Qur'an, happy hour, ethnic restaurant, domestic traveler</i>
	N + prp / conj + N	12	1,9%	<i>Mother of God, Object of worship, act of worship, Kingdom of heaven, Bed and breakfast, meet and greet, heads in beds, length of stay, Prince of Peace, demand for tourism, date of departure</i>
Jami		635	100%	
Uch komponentli	Adj + N + N	13	35,1%	<i>Supplementary pilgrimage accommodation, daily pilgrimage flow, same day prayer, large pray room, electronic praying beads,</i>
	N + N + N	11	29,7%	<i>Pilgrimage journey route, worship places itenary, room status board, church candle stand (box), passenger facility charge, country house hotel</i>
	N + conj + N + N	4	10,8%	<i>Mosques and security regulations, food and beverage facilities, hub and spoke tour.</i>
	N +Adj +N	3	8,1%	<i>pilgrimage generating areas, group inclusive tour, horse riding tour</i>
	Boshqalar	6	16,2%	<i>Domestic independent tour, visiting friends and relatives, third and fourth freedom, inbound tourism department, host party logo.</i>
Jami		37	100%	
To'rt	N + N + N	2	100%	<i>Pilgrims' conference room facility, pilgrimage pray</i>

komponentli	+ N			room mat.
-------------	-----	--	--	-----------

Xulosa. Zamonaviy ingliz tilida ikki komponentli substantiv soʻz birikmalari vazifasi koʻp hollarda oʻtning grammatik imkoniyatlari bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari “predmet” maʼnosidan tashqari, ot turli nominallashgan harakatlar, belgilar, sifatlarni ifodalashi mumkin. Otlarning soʻz birikmalari tarkibiga kirishi ularning “uzunligi” va shuningdek, “chuqurligi”ni taʼminlaydi: otlar guruhi mazmunan juda sigʻimli sintaktik tuzilma hisoblanadi, chunki aniqlovchilar oʻz navbatida, sintaktik guruhlarining yadrolari boʻlishi mumkin.

Oʻzbek tili korpusi tahlili shuni koʻrsatdiki, terminshunoslik soʻz birikmalarining sintaktik yasalishi hozirgi kunda termin hosil qilishning eng mahsuldor yoʻli hisoblanadi.

Yuqoridagilarni xulosalagan holda, shuni qayd eta olamizki, ot soʻz turkumi barcha soʻz birikmalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ot soʻz turkumining koʻp qoʻllanilishi uning semantik sigʻimidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Вахидова, Ф. (2022). *Ziyorat turistik terminlar ozlashuvining intralingvistik omillari va tarixiy-etimologik manbalari. центр научных публикаций (buxdu.uz), 18(18).*
2. Гринев С.В. *Введение в терминоведение.* – М.: МГУ, 1993. –С.106;
3. Saidovna, V. F. (2023). *The Formation of Tourism and its Development in Central Asia. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 398–402. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/357>*
4. Vakhidova Fotima Saidovna. (2022). *Pilgrimage Tour in Tourism. Miasto Przyszłości, 28, 342–345. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/651>*
5. Saidovna, V. F. (2022). *The Usage of Pilgrimage Tourism Terms in the English Language. International journal of inclusive and sustainable education, 1(4), 66-70.*

REGIONIM – BUXORO TOPONIMLARINING BIR GURUHI

Kilichev Bayramali Ergashovich,
Buxoro davlat universiteti professori
b.e.kilichev@buxdu.uz

Annotatsiya. Buxoro viloyati hududida qadimiy toponimlar ko'plab uchraydi. Ular tarkibida tumanlarga atab qo'yilgan nomlar ham mavjud. Viloyatdagi Jondor, Olot, Qorako'l, Qorovulbozor, Romitan, Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon va boshqa tuman nomlari o'zining uzoq tarixga mansubligi bilan ajralib turadi. Bunday tipdagi nomlar regionim nomi ostida o'rganilishi mumkin. Regionimlar hududlardagi tuman (rayon) nomlaridir. Bu nomlar haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda Narshaxiy, Beruniy, Bobur va boshqalar tomonidan qayd etilgan. Tuman nomlarining alohida guruh sifatida o'rganilishi xalqimiz va tilimiz tarixini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Regionimlarning respublika toponimiyasida o'rganilishi ham o'ziga xos ilmiy-nazariy, tarixiy va lingvistik ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Buxoro, viloyat, toponim, tuman, rayon, regionim, tarixiy nom, tarixiy toponim.

РЕГИОНИМ - ГРУППА ТОПОНИМОВ БУХАРЫ

Аннотация. В Бухарской области много древних топонимов. Они также содержат названия районов. Названия Джандарского, Алатского, Каракульского, Каравулбазарского, Ромитанского, Вабкентского, Шафирканского, Гиждуванского и других районов области отличаются своей многовековой историей. Топонимов этого типа можно изучать под названием регионим. Регионим – это названия туманов (районов). Сведения об этих именах зафиксированы в исторических источниках Наршахи, Беруни, Бабура и других. Изучение названий районов как отдельной группы позволяет более глубоко проанализировать историю нашего народа и языка. Изучение регионов в топонимике республики имеет своё научно-теоретическое, историческое и лингвистическое значение.

Ключевые слова: Бухара, область, топоним, туман, район, регионим, историческое название, исторический топоним.

REGIONIM - A GROUP OF NAMES OF BUKHARA

Abstract. There are many ancient toponyms in the Bukhara region. They also contain the names of the districts. The names of Jandar, Alat, Karakul, Karavulbazar, Romitan, Vabkent, Shafirkan, Gijduvan and other districts of the region are distinguished by their centuries-old history. Toponyms of this type can be studied under the name regionym. Regionynoms are the names of tumans (districts). Information about these names is recorded in historical sources of Narshakhi, Beruni, Babur and others. Studying the names of districts as a separate group allows us to more deeply analyze the history of our people and language. The study of regions in the toponymy of the republic has its own scientific, theoretical, historical and linguistic significance.

Keywords: Bukhara, region, toponym, district, region, regionym, historical name, historical toponym.

Kirish. Buxoro Sharqning qadimgi madaniyat o'chog'i sifatida mashhurdir. Hozirgi Buxoro viloyati hududida minglab tarixiy madaniy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular sirasiga joy nomlarini – toponimlar ham kiritishimiz mumkin. Chunki toponimlar xalqning madaniyati, ma'naviyati, tarixi, urf-odat va an'analari haqida ma'lumot beradigan ishonchli manbadir.

Buxoro viloyatida Buxoro viloyatida 11 ta tuman mavjud: Buxoro, Jondor, Kogon, Olot, Peshko', Qorako'l, Qorovulbozor, Romitan, Vobkent, G'ijduvon, Shofirkon. Toponimlar tarkibida hududlardagi tuman nomlari alohida bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Tuman nomlarini **regionim** sifatida o'rganish ma'quldir. Chunki tuman ma'lum bir region (hudud) uchun qo'llangan atoqli otdir.

Respublika toponimiyasida tuman atamasi keng qo'llandi. Nomshunoslikda viloyatlarning tarkibiy qismlariga nisbatan qo'llanadigan *tuman* so'zi aslida tarixiy toponimiya bilan bog'liq. Tuman – ma'muriy-hududiy birlik. O'rta asrlardan ma'lum. Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ma'muriy-hududiy bo'linish; uyezd ma'nolarida ishlatilgan. O'zbekiston sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davrda

tumanlarni “rayon” deb atash rasm bo‘lgan. O‘zbek tiliga davlat til maqomi berilishi munosabati bilan tarixiy *tuman* so‘zi qayta tiklandi [1, 616].

Asosiy qism. Tuman turkiy-mo‘g‘ulcha so‘z sifatida, birinchidan, o‘n ming kishidan iborat harbiy qism, diviziya, ikkinchidan, o‘n ming va undan ortiq askar yetkazib imkoniga ega ma‘muriy-hududiy birlik, uchinchidan, viloyat, shahar hududida ularning tarkibiy qismi bo‘lgan ma‘muriy-hududiy bo‘linma ma‘nolarini ifodalaydi [2, 187]. *Tuman* so‘zi toponimiya sohasiga *rayon* atamasining muqobili sifatida kirib kelgan. *Rayon* (fr. rayon – keng maydon, katta keneglik < lot. regio, regionis – viloyat, o‘lka; chegara) tuman, tuman markazi, biror geografik, iqtisodiy va shu kabi belgilar, xususiyatlar bilan ajralib turadigan joy, hudud ma‘nosiga ega [3, 344]. Demak, *tuman* (rayon) viloyatning tarkibiy geografik bo‘linmalarini ifodalash uchun qo‘llanadigan atamadir.

Biz mazkur axborotda Buxoro viloyatidagi *Jondor*, *Kogon*, *Olot*, *Peshko‘*, *Qorako‘l*, *Qorovulbozor*, *Romitan*, *Vobkent*, *G‘ijduvon* va *Shofirkon* tumanlarining nomiga xos lisoniy – leksik-semantik va etimologik jihatlarni tahlil qilamiz.

Jondor tumani (1935-yil 17-yanvarda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Buxoro va Romitan tumanlari tarkibida bo‘lgan, 1967-yil 9-yanvarda qayta tuzilgan) Buxoroning janubiy-g‘arbida joylashgan. *Jondor* toponimi asos bo‘lgan so‘z bir necha ma‘noga ega.

Jondor so‘zining 1) tirik mavjudot, jonivor; 2) O‘rta Osiyoda qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida yasovulboshi; 3) qurol-aslaha egasi; 4) do‘st va madadkor kabi ma‘nolari bor. Prof. Z.Do‘simov va X.Egamovlar ham *jondor* so‘zining “tirik mavjudot, jonivor hamda yasovul boshlig‘i” kabi ma‘nolari borligini, toponimga keyingi mansab, unvon ma‘nosi asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin, deya fikr bildirishgan [4, 62].

Kogon tumani (1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan) 1935-yilgacha Yangi Buxoro deb atalgan. Uning kichik shaharcha sifatida faoliyat ko‘rsatib, shahar sanoat tarmoqlarining shakllanishi 1887-yilda qurilgan Kaspiyorti temir yo‘lining Yangi Buxoro orali o‘tishi bilan bog‘liqdir. *Kogon* so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida turlicha qarashlar mavjud. Birinchidan, bu hududda o‘tgan asrlarda yirik somon bozori bo‘lgan; ikkinchidan, *kogon* so‘zi “kah+kon”, ya‘ni fors-tojikcha *somon koni* ma‘nosini anglatadi. Aholi ziroatkorlik bilan shug‘ullanib, asosan, bug‘doy yetishtirgan va somonini Buxoro bozorida sotgan. Qishloq aholisi somon, bug‘doy sotish bilan band bo‘lgani uchun ham *Kahkon* nomini berilgan. Bu nom keyinchalik o‘zgarib *Kokon*, keyinroq *Kogon* bo‘lib olgan, degan taxminlar bor.

Olot tumani (1943-yil 14-fevralda tashkil etilgan. 1960-yil Qorako‘l tumaniga qo‘shilgan. 1973-yil 26-dekabrda qayta tashkil etilgan. 1983-yildan yana Qorako‘l tumani tarkibida bo‘lgan. 1989-yildan mustaqil tumani maqomini olgan) nomi turkiy va mo‘g‘ul xalqlari uchun umumiy bo‘lgan qabila nomiga asoslangan. Chingizxon o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim etgan to‘rtta qabiladan biri – arlot. Bu qabila Afg‘onistonning shimoliy qismiga o‘rnashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar kam bo‘lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan [5, 176-177]. Arlot qabilasi 92 bog‘li o‘zbek “qavmlari” qatorida ko‘plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila *allat*, *olot* shakllarida ham talaffuz qilinadi. O‘rta asrlarning so‘nggi davrlarida arlotlar etnik mansubligini va butunligini unutgan, turli qabila, urug‘lar tarkibiga singib ketgan. Qadimgi turkiy etnonim mahalla, guzar nomiga aylangan [6, 46].

Olot, *Olotxona* toponimlari *Kogon*, Buxoro, *Olot* tumanlarida uchraydi. *Olot* – orlot etnonimining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir (sonor tovushlarining bir-biriga o‘tishi o‘zbek tiliga xos hodisa). *Olot* o‘zbek xalqi tarkibida uchraydigan urug‘lardan biri. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining “Shajarayi turk” kitobida orlot urug‘ini “mo‘g‘ul avlodlari” deb atalgan qismida tilga oladi va *arlot* so‘zining asl ma‘nosi “onasining sevgan o‘g‘li” demakdir, deydi.

Peshko‘ tumani (1950-yil 15-aprelda tashkil etilgan. 1959-yil 19-aprelda Vobkent tumani tarkibiga kiritilgan, 1978-yil 5-aprelda qaytadan tuzilgan. 1988-yil 5-sentyabrda Romitan tumani bilan birlashtirilgan, 1989-yil 17-maydan yana alohida tuman maqomiga ega bo‘lgan) nomi ikki qismdan iborat. Xalq etiologiyasiga ko‘ra birinchi qism old qo‘shimcha – *pesh* biror narsaning old tomoni va ikkinchi komponenti –ko‘ (-ko‘h): *tog‘* so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli. Aslida “*pesh*” biror narsaning old tomoni, yoni; *ko‘* – arabcha “yo‘l” – ya‘ni yo‘lning oldi, yoni: yo‘l yonidagi qishloq. “Peshi ko‘ – “katta yo‘l ustidagi joy” ma‘nosini bildiradi va shu nomdagi qishloqqa nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik tuman ham shu nom bilan atalgan. Bu nom Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liq. Chunki *Peshko‘* tumani Xorazm tomondan Buxoroga kirish yo‘li ustida joylashgan. *Yo‘lning yonidagi qishloq*, *makon* deyilganda mana shu tarixiy savdo yo‘li nazarda tutilgandir. Bu atamaning “peshi ko‘h” – “oldindagi tog‘” varianti ham bor.

Qorako‘l (1926-yildan 29-sentyabrda tashkil topgan) nomi ilk bor Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida *Haromkom suvi Baykandga keladi*. *Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi*:

bularni “*Borgini farox*” – “*Keng havz*” deydilar va *Qorako‘l deb ham ataydilar. Ishonchli kishilardan eshitganmanki, u ko‘lining kengligi yigirma farsangdir, tarzida uchraydi* [7, 25].

Qorako‘l toponimi gidronim bilan bog‘liqligi ma‘lum. Nom ikki qismdan iborat: *qora* – katta (qora so‘zining ba‘zi so‘zlar bilan qo‘llanib, ular anglatgan narsaga xos belgi-holatning kuchli darajasini bildiradi), *ko‘l* – tabiiy suv havzasi, ya‘ni *katta ko‘l*.

S.G‘aybullayev *Qorako‘l* toponimi haqida quyidagicha fikr bildirgan: toponim tarkibidagi ikkinchi so‘zga kelsak, aslida u *ko‘l* emas, balki *kul* so‘zining talaffuzga moslashgan shaklidir. *Kul* so‘zi qadimiy turkiy tilda erk, erkin; xalqqa xizmat qiluvchi degan ma‘noda ishlatiladi... *Qorako‘l* – erkin, erkli, ozod qoralar yurti degan ma‘noni beradi [8, 141].

Bizningcha, *Qorako‘l* toponimini *katta ko‘l, ulkan ko‘l* tarzida sharhlash ma‘qul bo‘ladi. Chunki Narshaxiy ham ko‘lining kengligini yigirma farsax (140-160 km) deb ko‘rsatib nomning katta, ulkan ekanligiga ishora qilgan.

Qorovulbozor (1993-yil 12-yanvarda tashkil topgan) nomi *Qorovulbozor sardobasi* nomidan olingan. Mahalliy rivoyatga ko‘ra, qadimda sardoba yonida karvonsaroy qurilib, kichkina bozorcha vujudga kelgan. Uning yonidagi tepalikda Buxoro amiri sarbozlarining qorovullik burji bo‘lib, o‘sha tepalik *Qorovultepa*, yonidagi bozorcha esa *qorovulbozor* deb atalgan. Yana boshqa bir rivoyat bo‘yicha sardoba yonida qora o‘tovlar tikilgan *Qora ovul* vujudga kelgan. O‘tovlar oldida paydo bo‘lgan bozor *qoraovulbozor* deb yuritilgan. Yana bir taxminga ko‘ra, Buxoroga qo‘shni mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari sardoba yonidagi karvonsaroyda to‘xtab, ularning mollari amirlikning shu yerdagi bojxona vakillari tomonidan tekshirilgandan so‘ng savdogarlarga poytaxtga kirishga ruxsat etilgan. Ruxsatnoma ololmagan savdogarlar o‘z mollarini shu yerdagi bozorda sotib yurtlariga jo‘nab ketishgan. Ruxsatnoma olgunga qadar savdogarlar o‘z mollarini ma‘lum muddat o‘zlari qo‘riqlagan.

Bizningcha, *Qorovulbozor* toponimi etimonini *qorovullik punkti* bilan bog‘lash o‘rinli bo‘ladi. Chunki bu joy Buxoro shahriga kelishdagi eng oxirgi nuqta bo‘lib, shu yerda qorovullik joyi tashkil qilingan.

Romitan. Mazkur toponimni etimologiyasini aniqlash borasida bir qator fikrlar bildirilgan. Xususan, I.Magidovich o‘zining “*Материалы по районированию Средней Азии* (кн.1. ч.1. –Т., 1926. –С.226) asarida Buxoro vohasida *rometi* degan kichkina bir urug‘ bo‘lganligini aytadi va *Romitan* o‘sha etnonimdan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin deydi.

V.V.Bartold o‘zining (Сочинения. –М., 1963-1973) tadqiqotida *Romitan* tarixi borasida “*hozirgi vaqtgacha o‘z nomini saqlab kelgan Romitan istehkom qishlog‘i Buxoro atrofidagi eng ajoyib qishloqlardan biridir. Bu qishloq “qadimgi Buxoro” hisoblangan, ya‘ni Buxoro hokimining qadimgi rezidensiyasi (qarorgohi) shu yerda bo‘lgan. Buxoro barpo qilingandan keyin ham mahalliy hokimlar ko‘pincha Romitanda qishlab qolar edi. Romitanni afsonaviy Afrosiyob barpo qilgan deb hisoblaydilar. Afrosiyobning raqibi Kayxisrav Romitanning ro‘parasida, ya‘ni ariqning narigi betida Romush degan qishloq barpo qilgan va bu qishloqqa otashparastlar ibodatxonasini qurgan. Bu ibodatxonada somoniylar davrida ham cho‘qinishgan*” degan fikrni bayon etgan.

Buxorolik mashhur tarixchi Muhammad Narshaxiy *Romitan* haqida quyidagi ma‘lumotlarni bergan: “*Bu katta bir ko‘handizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba‘zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataydilar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo‘lgan, keyinroq esa Buxoro shahri bino bo‘lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo‘lganlar. Bu erlar islom davlatiga o‘tganda ham shunday bo‘lib turgan. Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganda shu qishloqda turgan. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan...*” [7, 23].

Demak, *Romitan* toponimi tarkibidagi *metan/mitan* komponentini qishloq, shahar, aholi punkti yoki urug‘ nomi – etnonim deb qarash mavjud. Bizningcha, *yo‘l va etnonim* so‘zlarining bog‘lanishidan ko‘ra *yo‘l va qishloq* (*yo‘l bo‘yidagi qishloq*), *yo‘l va shahar* (*yo‘l yaqinidagi shahar*) tarzidagi birikuv ishonchliroqdir. Xullas, *Romitan* – *yo‘l bo‘yidagi qishloq* *yo‘l yaqinidagi shahar* ma‘nosiga ega.

Vobkent (1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan) nomi o‘g‘uz shevalarida *vob* yoki *vaxob* so‘zi *bo‘z yer, quruq yer* degan ma‘noni bildiradi. Demak, toponimning birinchi qismi *vob* – bo‘zdagi, qo‘riqdagi yer, degan ma‘noga ega. Toponimning ikkinchi komponenti – *kent* so‘zi so‘g‘dcha bo‘lib, *katta qishloq, shahar* degan ma‘noni ifodalaydi. Bobur ham qishloqni *kent* deb atagan. Xullas, *Vobkent* – *bo‘z yerdagi qishloq (shahar), qo‘riqdagi qishloq (shahar)*dir.

G‘ijduvon (1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan. 1935-1938-yillarda Akmal Ikromov tumani deb yuritilgan) nomi qishloqqa nisbatan X asrdan boshlab qo‘llangan. Narshaxiyning “*Buxoro tarixi*” asarida Muqanna voqeasi munosabati bilan birinchi marta tilga olingan. Ba‘zan *G‘ijduvon* shaklida ham uchraydi. Xalq og‘zida *G‘uji devon* – *bir to‘p dev*, yoki *G‘uji dehon* – *bir to‘p qishloq demakdir* tarzidagi rivoyat uchraydi [9, 65].

Ba'zan *G'ijduvon* nomining etimologiyasini *Kishtuvon* so'zi bilan bog'laydilar. Kish – forscha *ekin ekuvchi, tuvon – manzil*, ya'ni *ekin ekadigan dehqonlar manzili*. Bunga *G'ijduvon* va uning atrofi qadimdan dehqonchilik rivojlangan hudud hisoblanganligi asos bo'lgan.

Bizningcha, tuman nomini *bir qancha qishloq, qishloqlar to'dasi* ma'nosi bilan izohlash o'rinli bo'ladi, chunki bu holat hududdan o'tgan Zarafshon daryosi bilan ham uzviy bog'liq. Qadimdan aholi suv manbasiga yaqin joylarda o'rnatilgan.

22. Habibova, M. (2023). *Epistolary comparisons and trends*. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 4), 330–338. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/16170>

ARUZ – METAFORIK TAFAKKURNING KENG MAYDONI SIFATIDA

*Karamova Shohida Luftillayevna,
Qarshi davlat universiteti, Yangi o'zbek adabiyoti va
adabiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
karamovash@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada metafora – ijodkorning salohiyati, ijodiy quvvati va iste'dodini namoyish qiladigan hodisa ekanligi haqida so'z boradi. Ayrim ashyolar, holat va hodisalar bugungi hayotimizdan butkul yo'qolib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ular tashbeh, tafsil yoki istiora o'laroq she'riyat sathida faol ekanini E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi she'rlari misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: metafora, metaforik tafakkur, majoziy, ko'chim, g'azal an'anaviy timsol, tashbeh, tafsil.

ARUZ КАК ШИРОКАЯ ОБЛАСТЬ МЕТАФОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В статье отмечается, что метафора – явление, демонстрирующее потенциал, творческую энергию и талант автора. Несмотря на то, что некоторые предметы, ситуации и события сегодня полностью исчезли из нашей жизни, они активны на уровне поэзии как аллюзия, деталь или метафора, это анализировалось на примере стихотворений Э.Вохидова, А. Оripова, Р.Парфи.

Ключевые слова: метафора, метафорическое мышление, образность, перенос, традиционный символ газели, аллегория, деталь.

ARUZ AS A LARGE FIELD OF METAPHORICAL THINKING

Abstract. The article notes that metaphor is a phenomenon that demonstrates the potential, creative energy and talent of the creator. Despite the fact that some objects, situations and events today have completely disappeared from our lives, they are active at the level of poetry as an illusion, detail or metaphor, this was analyzed using the example of poems by E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi.

Key words: metaphor, metaphorical thinking, imagery, metaphor, traditional gazelle symbol, allegory, detail.

Kirish. She'riyatda metafora, metaforik tafakkur muammosi adabiyotshunoslikda chuqur tadqiq etilgan. Binobarin, metafora nazariyasi so'zning ko'p ma'noliligi, so'z ma'nolarining ko'chishi aspektida tilshunoslikda adabiyotshunoslikdan ham ko'proq o'rganilgan. Metafora (istiora) muammosi antik zamonlardayoq nafaqat olimlar, ijodkorlarning ham diqqatini o'ziga tortgan. Chunki metaforik tafakkur insoniyat ongli hayotining ilk davrlaridanoq o'zidan darak bergan, qadimiy qoyatosh rasmlaridan tortib folklorning ilk namunalarigacha in'ikos topgan. Metaforaga oid tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Inson tafakkurining g'aroyib bu hodisasi tilshunoslar va adabiyotshunoslardan, ijodkorlardan tashqari, falsafa, psixologiya, mantiq, san'atshunoslik, folklor, hatto jamiyatshunoslik sohasi olimlari diqqatini ham o'ziga jalb etmoqda [1.512-bet].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Metafora, sodda qilib aytganda, bir narsa-hodisani o'rtadagi o'xshashlikka asosan boshqa narsa-hodisani nomi bilan atashdir. Bobur “Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz” degan misrani yozganda yorni gulga o'xshatgan va uni “yor” emas, “gul” deb atagan. Metaforaning sharqona nomi “istiora” bo'lib, so'zning lug'aviy va terminologik ma'nosi ham shundan dalolat beradi. Chunki “istiora” – omonat, oriyatga olmoq, ya'ni biror kishining buyumidan bebadal foydalanib turmoq demak. Terminologik ma'noda ham ijodkor muayyan voqea-hodisani ifodalash uchun boshqa bir so'zdan bebadal foydalanib turadi. Yuqoridagi misolda Bobur “yor” ma'nosini ifodalash uchun “gul” so'zini, obrazli aytganda, “arendaga olgan”. Mana shu tarzda metafora (istiora) badiiy matnda qariyb topishmoq, jumboq kabi namoyon bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Aristotel “topishmoq – mohirona yaratilgan metaforadir”, [2. 92 -bet] degan edi.

“Yor”ning “gul”ga istiora qilinishi mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham nihoyatda ko'p uchraydi. Shu o'rinda “Nega “gul” ramz emas, takror-takror qo'llanib ramzga aylanib ketmagan?” -

degan savol tugʻilishi tabiiy. Umuman olganda, adabiyotshunosligimizda ramz va metaforaning chegaralarini aniqlay olmaslik uchrab turadi. Ramz (simvol) va metafora-istora bir-biriga yaqin, oʻxshash hodisalar boʻlsa-da, baʼzan metaforaning ramzga aylanib ketishi badiiy soʻz tarixida uchrab tursa-da, ularni farqlab olish lozim. Ramz – kengroq tushuncha, oʻrni bilan u metaforani ham oʻz ichiga olishi mumkin. Ammo ramzlar hammavaqt ham oʻxshashlik asosidagi maʼno koʻchishiga asoslanmaydi, ramzlar nihoyatda chuqur maʼnoga, tarixga ega boʻladi. Masalan, kabutarni tinchlik ramzi deb oladigan boʻlsak, ikki oʻrtada oʻxshashlik yoʻq. Umuman, mavhum tushunchani konkret predmetga oʻxshatib boʻlmaydi. Mavhum tushunchani konkret predmet vositasida tasvirlash, tushuntirish mumkin. Kabutarning tinchlik ramzi oʻlaroq taqdim etilishi qadim rivoyatlar bilan bogʻliq. Bu rivoyatlar “Eski Ahd”da ham, “Injil”da ham, qadimgi Rim afsonalari ichida ham uchraydi. “Eski Ahd”ga koʻra, Nuh paygʻambar toʻfon tugagan-tugamaganini bilish uchun oʻz kemasidan kabutarni uch marta uchirib yuboradi. Birinchi gal qush qaytib keladi, ikkinchi gal tumshugʻida zaytun shoxchasini olib keladi va Yer yaqin orada ekanidan xabar beradi, uchinchi gal butunlay qaytib kelmaydi va kema dagilar toʻfon tugaganini anglaydilar. Shundan keyin kabutar Xudo va banda oʻrtasidagi sulh, tinchlik ramzi oʻlaroq tushuniladigan boʻladi. Nasroniylikda Muqaddas Ruh kabutar jismiga joylashgan deb anglangan. Kabutar tinchlik ramzi sifatida ikkinchi jahon urushidan keyin tan olingan [7]. Boshqa ramzlarning ham shunday muxtasar “tarix”lari bor. Ramz – butun insoniyat tafakkuri tarixi bilan bogʻliq va hammaga tushunarli boʻlsa, metaforalar – individual tafakkur mahsuli, miqyosan kichikroq hodisadir.

“Adabiyotshunoslik lugʻati”da metaforaning ana shu xususiyati uning matn bilan qattiq bogʻlangan ekanligi orqali quyidagicha ochib berilgan: “Badiiy matndagi metaforaning maʼnosi gʻoyat serqirra, chunki u kontekstdagi boshqa soʻzlar bilan birga mazmuniy butunlikni tashkil qilar ekan, ular bilan aloqada hosil boʻlgan assotsiatsiyalar tufayli maʼno diapazonini kengaytiradi. Mas., matndan ajratib olingan holda “suv sindi” birikmasining maʼnosi juda xira, uning metafora ekanligini idrok qilish uchun aqlni zoʻriqtirish talab etiladi. Biroq R. Parfining “Suv ostida yaltiraydi tosh, Xarsanglarda sinadi suvlar” satrlarida badiiy matn kontekstidagi birikma maʼnosi yorqin namoyon. “Suv sinishi” uchun uning oynaga oʻxshatilishi zarur, lekin sheʼrda suv oynaga oʻxshatilgan emas. Shunga qaramay, assotsiativ aloqalar asosida “ostida yaltiragan tosh” koʻrinadigan darajada tiniq suvni oynaga oʻxshata olamiz va shuning uchun ham uning “sinishi” tabiiy koʻrinadi”[8.169- bet].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Agar metaforik tafakkur – majoziy, koʻchimga asoslangan tafakkur ekanidan kelib chiqadigan boʻlsak, bu hodisaning soʻz sanʼatining mohiyatini tashkil etishi ayonlashadi. Metafora – assotsiya, yaʼni turli narsa-hodisalar oʻrtasidagi aloqadorlik, oʻxshashliklarni idrok etish va soʻzda ifoda etish asosida maydonga keladigan hodisa. Adabiyotning asosini tashkil etgan obrazlilik ham qariyb shu mezonga asolanadi. Binobarin, metafora – ijodkorning salohiyati, ijodiy quvvati va isteʼdodini namoyish qiladigan hodisadir.

Maʼlumki, mumtoz sheʼriyatimiz istoraviylikning quyuqligi bilan alohida hodisadir. Zamonaviy milliy sheʼriyatning metaforalarga boy ekani ham, bizningcha, bevosita mumtoz adabiyot anʼanalari bilan bogʻliq. Istioraviylik kuchli boʻlmagan sheʼr bizda hatto kitobxonni ham qoniqtirmaydi. Biz sheʼrda kuchli istoraviylikka, badiiy sanʼatlarga oʻrganganmiz.

Binobarin, zamonaviy oʻzbek aruzi ham quyuq metaforalari bilan xarakterlanadi. Hatto aytish mumkinki, istoraviylik – zamonaviy oʻzbek aruzining eng muvaffiqiyatga erishgan sathidir.

Zamonaviy oʻzbek aruzini metafora nuqtayi nazaridan shunday xulosaga kelish mumkin. Hozirgi oʻzbek shoirlari aruzda qoʻllagan metaforalarni anʼana munosabatan quyidagi uch guruhga ajratish lozim:

Mumtoz sheʼriyatda qoʻllangan metaforalar.

Mumtoz sheʼriyatda qoʻllangan metaforalar bilan bogʻliq ravishda paydo boʻlgan metaforalar.

Individual-ijodiy metaforalar.

Alohida taʼkidlash lozimki, zamonaviy aruzda, xuddi mavzu sathida kuzatilganidek, oʻtmish shoirlarimiz qoʻllagan metaforalar miqdor jihatdan koʻp.

Maʼlumki, oʻtmish sheʼriyatimizga mansub gul, bulbul, may, sham, parvona, soqiy kabi istoralar “bosim”idan milliy adabiyotda oʻziga xos inqilob yasagan jadid shoirlari ham emin boʻlmaganlar. “Koʻp shoirlarimiz jadid boʻlushlik ila eski sheʼrlarini yirtib, yondurib tashlagon”[4.170-bet] boʻlsalar-da, eski adabiyotdagi vazn, qofiya kabi shakliy unsurlar bilan bir qatorda, poetik obraz va tafsillardan, istoralardan ham foydalanib turdilar. Bu haqda tadqiqotchi Sh. Nazarova shunday yozadi: “Jadid sheʼriyatida ham olamni poetik idrok etish ilmi badeʼ ruhida edi. Bu avlod oʻz sheʼriyatidagi oʻz markaziy obrazlarini tizimga solguncha, yangi poetik timsollarni yaratguncha, toʻlaligicha mumtoz adabiyot asosiga tayandi... Bunda mavjud timsollar mohiyati yangilandi, semantik qamrovi kengaydi” [4.121-bet]. Qizigʻi shundaki,

zamonaviy o'zbek aruznavislari mumtoz adabiyotdan vaqt nuqtayi nazaridan ancha uzoqlashgan, til, imlo o'zgarishlari, sho'roning "yangi proletar madaniyati" yaratish tamoyili bu uzoqlashuvni yanada chuqurlashtirgan bo'lsa-da, fonetik va leksik sathda ko'rib o'tilganidek, obrazlilik sathida ham an'ananing ta'siri kuchli bo'ldi. Bu ta'sir hatto katta shoirlar ijodida ham sezilarlidir.

Netaykim, har / tarafdan yo / g'ildir g'am o'q /lari menga,
Lekin mahv et / gali zulfig / dayin dor / ni topmasman[5.117-bet].
V - - - / V - - - / V - - - / V - -

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun fauvlun.

Hazaji musammani mahzuf.

Ishqiy mavzuda yozilgan mazkur g'azal Abdulla Oripov qalamiga mansub. Ushbu baytda bizning diqqatimizni tortgan badiiy tasvir vositalari "g'am o'qlari" ochiq metaforasi hamda "dor" tashbehidir.

G'am o'qlari va dor. Biz o'q ishlatilmaydigan, dor qurilmaydigan makon va zamonda yashashimizdan, na ijodkorlar va na kitobxonlar aksariyatining umrida o'q va dorni ko'rmaganligidan kelib chiqsak, bu ikki tasvir vositasining mumtoz adabiyot ta'sirida qo'llanganini boshqa yo'l bilan isbotlashga hojat qolmaydi.

Umuman olganda, ushbu g'azal an'anaviy timsol, tashbeh, tafsil va obrazlar asosiga qurilgan.

Demishlar hur, malaklar ko'p, nihondir, ko'zga tashlanmas,

Bu ne sirdur, bashardursan, borsan, borni topmasman.

Mukammal suratingga jo bo'libdi siyrating, ey yor,

Muallif qaydadir, kim ul? Me'morni topmasman.

Junun vodiysida sarson misoli Shayx San'onman,

Qo'limda tasbehu, goho zunnorni topmasman.

Visoling vasfidan ortiq go'zal she'ru g'azal bo'lmas,

Tavof aylay desam gar Hofizu Attorni topmasman.

G'azal matni lingvistik jihatdan, grammatika nuqtayi nazaridan hozirgi o'zbek tili adabiy tili qoidalariga muvofiq yozilgan. Unda ayrim aruznavislarda o'rinli-o'rinsiz ravishda qo'llanadigan arxaik, tarixiy tushunarsiz so'zlar ham, shakl va qo'shimchalarning eski o'zbek tilidagi shakllari ham qo'llanmagan. G'azal til jihatdan bugungi o'quvchiga to'la tushunarli. Ayni vaqtda mazkur baytlardagi hur, malak, junun vodiysi, Shayx San'on, zunnor, Hofiz, Attor kabi obraz, tafsil va metaforalarning har biri qaysidir bir jihatlardan g'azalni mumtoz she'riyatga qarab tortadi. Hur, malaklar tilga olingan baytda "bashardursan" so'zining kelishi darhol Mashrabni yodga tushiradi. Bugungi shoir yoki o'quvchi zunnorning shaklu shamoyilini tasavvur qilolmasa-da, mohiyatini mumtoz adabiyot, Shayx San'on qissasi orqali bir qadar tushunadi, lekin ko'rmaganligi aniq. "Mukammal suratingga jo bo'libdi siyrating, ey yor, // Muallif qaydadir, kim ul? Me'morni topmasman" baytida ham an'anaga ko'ra Yaratuvchi, uning buyukligi haqida so'z boradi. Biroq A. Oripov shu baytda Parvardigori olamni "muallif" degan istiora orqali ifoda etadiki, mana shu birgina istiora tufayli an'analarga ko'milgan g'azal butunlay yangicha ruh paydo qiladi. Shoir benazir iste'dod kuchi tufayli birgina ohori istiora orqali she'ning badiiyatini yuksak darajaga ko'tara oladi.

Mustaqillik davri aruzida obrazlilik sathida vorisiylikka xos yana bir xususiyat bor. Mumtoz she'riyatda qo'llangan obraz, tafsil, tasviriy vositalar yangilangan holda, boshqa qirralarini namoyon qilgan holda qo'llanadi. Masalan, sochning tunga, yuz yo tishning tongga tashbeh, istiora qilinishi mumtoz shoirlarimizda o'nlab marta uchraydi. Endi ikki zabardast zamonaviy shoirning shu tafsillarni qo'llashiga e'tibor qarataylik.

Tun qorong'usida men Soching shabistonin ko'ray,

Tongotarda yuzlaringni Tong kabi ravshan topay.[2.10 -bet]

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Erkin Vohidov bu g'azalida yorning sochini tunga, chehrasini tongga mengzayapti. Ammo bu o'xshatish to'g'ridan-to'g'ri "sochlaring tundur sening, oq yuzlaring – tongdir sening" qabilida sodir bo'lmaydi. Lirik qahramon tunga boqib mahbubasining sim-siyoh sochlarini, tongga qarab esa oppoq chehrasini xotirlaydi, ushbu jarayonda uning ko'z o'ngida yorning shakl-shamoyili namoyon bo'ladi. Shu tariqa milliy she'riyatimizda nihoyatda faol bo'lgan istiora, o'xshatish yangicha usulda istifoda etiladi, xuddi ohori tasviriy vositadek zavq uyg'otadi.

Endi Abdulla Oripov baytiga diqqat qilaylik.

Sochlaring yoymay turib, tushgan qorong'u tun emas.

Tishlaringni ko'rmayin tong ham oqargan kun emas.

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Bu baytda ham asl muddao yorning sochlarini tunga, tishlarini tongga tashbeh qilish. Ammo lirik qahramon uchun butun olam ma'shuqa prizmasi orqali idrok etiladi. Olamning har bir ashyosi, hodisasi uningsiz ahamiyatsiz bo'lib tuyuladi. Sevimli yor yonida bo'lsagina, hayot – oshiq uchun hayotdir... Shu tariqa ikki buyuk shoirimiz mumtoz adabiyotdagi ikki tafsilga yangi hayot bag'ishlaganlar. Mana bu baytda esa mumtoz lirikada yor va oshiqqa istiora qilingan gado va shoh Abdulla Oripov tomonidan nihoyatda latif qo'llanadi.

Men gado bo'lsam agar, shohsan muhabbat mulkida,

Ayt o'zing, qay bitta shoh bo'lmish gadolardan xalos?

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Xulosa. Bu – milliy she'riyatimizda an'analarning ta'sir kuchi nihoyatda katta ekanligi bilan bog'liq qonuniyatdir. Yuz yillar davomida shakl va mazmun bilan bog'liq ko'p unsurlar o'zgardi, yangilari paydo bo'ldi, sarbast misolida qofiya va vazn kabi unsurlar chetga chiqdi. Umumiyati-la go'yoki yangi bir she'riyat paydo bo'ldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, leksik, fonetik, morfologik sathda, obrazlar sathida mumtoz adabiyot ta'sirining, o'rta asrlar aruziga xos elementlar quyuq ekanini ko'rish mumkin. Ayrim ashyolar, holat va hodisalar bugungi hayotimizdan butkul yo'qolib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ular tashbeh, tafsil yoki istiora o'laroq she'riyat sathida faol ekanini ko'ramiz. Vaholanki, ular faqat muzeylarda, tarix sahifalarida, shuningdek, badiiy matnlar qavatidagina uchraydi.

Zamonaviy aruzda mumtoz lirikada o'ta faol bo'lgan ochiq istioralar ham quyuq istifoda etilgan. Aniqrog'i, zamonaviy shoirlar mazkur tasviriy vositaning modelini – biri o'z va biri ko'chma ma'noga ega bo'lgan aniqlovchi-aniqlanmish tipidagi modelini saqlab qolgan holda original istioralar yaratdilar.

ADABIYOTLAR:

1. Теория метафоры. Сборник: Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой. Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. — М.: “Прогресс”, 1990. — 512 с
2. Воҳидов Э. Сайланма. Танланган асарлар – Тошкент, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2018. – 10-бет.
3. Энциклопедический словарь юного литературоведа. – Москва, “Педагогика”, 1988. – Стр. 92. (416 стр.)
4. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Тошкент, “Университет”, 1993. – 70-бет.
5. Nazarova Sh. XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari (yangi o'zbek she'riyati kontekstida). Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 121-бет.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. 7-jild. – 117-бет.
7. Parpishoyev K. Charo kabo'tar ramzi sulh ast? // <http://marifatiomuzgor.tj/blog-detail.php?id=236>;
8. Mayakova O. Kak poyavilsya simvol “golub mira”? // <https://www.culture.ru/s/vopros/golub-mira/>
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati, 169-170-бетlar

ZAMONAVIY INGLIZ VA O'ZBEK SHE'RIYATIDA TOVUSH TAKRORLARINING O'ZIGA XOS JIHLARI

*Karimova Shaxnozaxon Karimovna,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
karimovashakhnoz@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatida tovush takrorlari – alliteratsiya, assonans va konsonansning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari qiyoslangan. Maqola zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyati vakillari Habib Sa'dulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Ros Barber, Jeki Key, Kerol Enn Daffi, Kerol Rumens she'rlarida tovush takrorlarining ishlatilishi masalalariga bagishlanadi. Bundan tashqari, maqolada tovush takrorlarining she'riy nutqning musiqiyliigi, uning ohangdorligini oshirishdagi o'rni dalillangan. Umuman, maqolada fonetik takrorlarining zamonaviy she'riyatda qo'llanilishining poetik fikr takomiliga xizmat qilishi misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: alliteratsiya, assonans, konsonans, ohangdorlik, musiqiylik, turg'un alliteratsiya, kesishgan alliteratsiya, affiksalliteratsiya

ОСОБЕННОСТИ ЗВУКОВЫХ ПОВТОРОВ В СОВРЕМЕННОЙ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье сравниваются особенности и функции звуковых повторов – аллитерации, ассонанса и созвучия в современной английской и узбекской поэзии. Статья посвящена использованию звуковых повторов в стихотворениях представителей современной английской и узбекской поэзии Хабиба Садуллы, Сироджиддина Сайида, Абдуллы Орипова, Усмана Азима, Роса Барбера, Джеки Кейя, Кэрала Энн Даффи, Кэрала Руменса. Кроме того, в статье доказывается роль звуковых повторов в повышении музыкальности поэтической речи и ее мелодичности. В целом, в статье на примерах показано использование фонетических повторов в современной поэзии для совершенствования поэтической мысли.

Ключевые слова: аллитерация, ассонанс, консонанс, мелодичность, музыкальность, константная аллитерация, скрещённая аллитерация, аффиксальная аллитерация.

SPECIFIC ASPECTS OF SOUND REPETITIONS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK POETRY

Abstract. This article compares the specific features and functions of sound repetitions – alliteration, assonance and consonance in modern English and Uzbek poetry. The article is devoted to the use of sound repetitions in the poems of modern English and Uzbek poetry representatives Habib Sadulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usman Azim, Ros Barber, Jackie Kay, Carol Ann Duffy, Carol Rumens. In addition, the article proves the role of sound repetitions in increasing the musicality of poetic speech and its melodiousness. In general, the article shows the use of phonetic repetitions in modern poetry to improve poetic thought with the help of examples.

Key words: alliteration, assonance, consonance, melodiousness, musicality, constant alliteration, crossed alliteration, affixal alliteration

Kirish. Zamonaviy ingliz va o'zbek she'riyatidagi eng ko'p qo'llanadigan tovush takrorlaridan biri – alliteratsiyadir. Alliteratsiya ham nasrda, ham nazmda qo'llaniluvchi fonetik takror unsuridir. U – boshlang'ich undosh tovushlarning ikki yoki undan ortiq yaqin so'zlarda takrorlanishini aks ettiruvchi adabiy vosita. Bunda har bir urg'uli so'zning boshida undosh tovushning takrorlanishi tushuniladi. Ingliz adabiyotshunosligida alliteratsiyaning turg'un va kesishgan alliteratsiya xili mavjudligi qayd etilgan. Turg'un alliteratsiyada muayyan tovush ketma-ketlikda har bir so'z boshida takrorlanib keladi. Kesishgan alliteratsiyada muayyan tovush so'zlar osha takrorlanib keladi [1.68]. Adabiyotshunos D.Quronovning fikricha: "Alliteratsiya (lot. Al –yonida, litera – harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan ham) bir xil undosh

LITERARY CRITICISM

tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Alliteratsiya she‘rning alohida satri yoki misradagi so‘zlar guruhini fonetik jihatdan ajratadi, natijada she‘rning ifodaviyligi, musiqiyliigi, xushohangligi ortadi” [2,26]. Ingliz she‘riyatida alliteratsiyaning har ikkala ko‘rinishi ham qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Buni alliteratsiya qo‘llangan she‘rlar misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
You might forget the exact sound of her voice, Or how her face looked when sleeping. You might forget the sound of her quiet weeping Curled into the shape of a half moon, When smaller than her self , she seemed already to be leaving Before she left, when the blossom was on the trees And the sun was out, and all seemed good in the world. I held her hand and sang a song from when I was a girl – Heil Ya Ho Boys, Let her go Boys And when I stopped singing she had slipped away, Already a slip of a girl again, skipping off, Her heart light, her face almost smiling.[3]	Qaro qoshing qarolikda Qaro tunni xarob etmish [4,43]. Qay kunikim, kun jamoling Ko‘rdi bu ko‘z, dilrabo [4,71].

Yuqoridagi misralarda “q” va “k” undoshlari takroriga asoslangan alliteratsiya leksik ma’no ustiga qo‘shimcha she‘riy “bo‘yoq”, tegishli ohang va joziba berish vazifasini bajargan. Jeki Keyning “*Darling*” nomli she‘ri shoiraning eng yaqin do‘sti Julia Darling xotirasiga bag‘ishlangan. Shoir kitobxonlarning bu satrlarni o‘qib, o‘zlariga taskin topishlariga umid qiladi. To‘rt bandli, to‘rt qatorli misralardan tuzilgan bu she‘r erkin vaznda yozilgan. Shoir matnda bir necha takror va yarim qofiya namunalarini, shuningdek, mukammal qofiyaning yaxshi namunalarini ham mahorat bilan qo‘llaydi. Bunda shoir o‘lim mavzusini tilga oladi. U hozirgina vafot etgan kishi hayotda ularni sevganlar bilan yaqin bo‘lib qolishini, faqat odam ularga tayyor bo‘lganda ketishini nazarda tutadi. Ikkinchi baytning birinchi qatorida “*smaller*” va “*self*”, uchinchi baytning uchinchi qatorida “*slip*” va “*skipping*” so‘zlari kesishgan alliteratsiya bo‘lib kelgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
I did not promise to stay with you till death do us part , or anything like that, so part I must, and quickly. There are things I cannot suffer any longer: Mother, you never, ever said a kind word or a thank-you for all the tedious chores I have done; There are parents who stroke their children’s cheeks in the dead of night and sing in the colourful voices of rainbows, red to blue.[5]	Visol – Sizsiz, Muhabbat- Siz Vatan ham, e’tiqod ham Siz, Vafo ham – siz, Baqo ham – siz, Lazizsiz barcha ne‘matdan [4,106].

Tahlil va natijalar. Habib Sa’dulla ijodida qofiyadosh, ohangdosh so‘zlarning yoki bir xildagi tovush hamda qo‘shimchalarning takroriga asoslangan alliteratsiya ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. a) qofiyadosh so‘zlar alliteratsiyasi. Ushbu she‘rda alliteratsiya qofiyadosh so‘zlar va “s” tovushi takroridan yuzaga kelgan. Misralardagi olmoshlarning takrori esa qat’iy hukm, kuchli ta’kid, cheksiz hurmat kabi ma’nolarni ifodalashi barobarida, lirik qahramon dilida kechayotgan beg‘ubor ishq tuyg‘ularini nechog‘li bebaho va beqiyos ekanligini ko‘rsatmoqda. Ingliz tilidagi “*Divorce*” (“*Ajralish*”) 2 bandlik she‘r bo‘lib, jami 14 misradan iborat. Misralari erkin vaznda yozilgan ushbu she‘r ota-ona va bola munosabatlari talqiniga bag‘ishlangan. Xususan, shoir notiqning ota-onasiga munosabatini, ular farzand haqida qayg‘urishlarini ifoda etgan. Lirik qahramon idealidagi ota-ona bilan hayotdagi ota-ona u qadar muvofiq kelmasligi uni o‘yga toldiradi. Bunda shoir alliteratsiyadan samarali foydalangan. Dastlabki bandning birinchi va ikkinchi qatorlaridagi “*promise*” va “*part*” so‘zlarida [p] va ikkinchi banddagi “*children’s cheeks*” so‘zlarida esa [tʃ] tovushlari takrorlangan va o‘ziga xos ohangdorlik kasb etgan. Buni turg‘un alliteratsiya deyish mumkin.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Not a red rose or a satin heart. I give you an onion. It is a moon wrapped in brown paper. It promises light like the careful undressing of love. Here. It will blind you with tears like a lover. It will make your reflection a wobbling photo of grief. I am trying to be truthful. Not a cute card or a kissogram . I give you an onion.[6,9]	Ruhbaxsh dastur misol ustoz sabog‘i Barham berdi gina-quduratlarga “Toshkentnoma” bo‘lib adib mayog‘i Chorladi ijodga, yo‘lga, safarga ... [7,430] Men uchun har maktub bir butun olam, Har xat ola kelar qalbimga bahor. Onajonim yozar: “Sog‘misan, bolam?” “Boshingiz omonmi?! – deya so‘rar yor... Har kun xat olaman yaqin-olisdan – Ammadan, xoladan, tog‘a-jiyandan. Ishchi kasbimdan, Sinfdosh qizdan, Nechun xat kelmaydi, do‘stginam sendan?[7,48]

Shoir Habib Sa‘dullaning alliteratsiya qatnashgan she‘rlarida qo‘shimchalar takroridan hosil bo‘lganligini ham kuzatish mumkin. Demak, alliteratsiyaning 2-turi b) qo‘shimchalarning aynan takroridan iborat ko‘rinishi qo‘llangan. Yuqoridagi misollarda dastlab *ijodga, yo‘lga, safarga* so‘zlaridagi jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-ga* hamda *ammadan, xoladan, tog‘a-jiyandan* kabi qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi shaxs otlariga qo‘shilgan *-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchalari alliteratsiyani hosil qilgan. Kerol Enn Daffining “*Valentin*” nomli she‘ri muhabbat mavzusida yozilgan. Shoirning lirik qahramoni – ishqdan ozorlangan shaxs. Shu bois unda kamon sevgi ramzini ifodalab keladi. “*Valentin*” kunida sevishtanlar bir-birlariga sovg‘alar beradilar. Bu sovg‘aning nima bo‘lishi sevgining oldida u qadar ahamiyatli emas. Chunki haqiqiy muhabbat his-kechinmalarda, qadr-qimmatda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni oshiq sevmasa-yu, qimmatbaho sovg‘a bersa, unday sevgining keragi yo‘q. She‘r misralaridan shunday fikrlarni anglash mumkin. Bunda oshiq ma‘shuqaga piyoz beradi. Bundan tashqari, shoir avliyo Valentin kunida sevishtanlarning bir-biriga sovg‘a berishlarini yoqlamaydi. Lirik qahramon sevishtanlarning bir-biriga “qizil atirgul” va yurak shaklidagi sovg‘alar berishlarini u qadar oqlamaydi. Shuning uchun u har kunlik oshxonasidagi asosiy sabzavot – piyozni berishni ma‘qul ko‘radi. Bu ramziy ma‘noda muhabbatning barqaror, abadiy tuyg‘u ekanligini ta‘kidlaydi. She‘rdagi “*cute card or a kissogram*” satrda alliteratsiya qo‘llangan. Ingliz tilida “*c*” va “*k*” harflari [k] tovushini ifodalab keladi va tovush takrorini hosil qiladi. Bu bilan shoir muhabbatga nisbatan his-tuyg‘ularni yangicha ifodalash uchun piyozni tanlaydi.

Beloved sweetheart bastard.

Not a day since then I haven’t wished him dead.
 Prayed for it so hard I’ve dark green pebbles for eyes,
 Ropes on the back of my hands I could strangle with.[6,9]

Shoiraning ushbu she‘ri Miss Havisham tomonidan aytilgan monologdir. Kerol Enn Daffi feministik fikr tarafdori edi. Yuqoridagi she‘r Charlz Dikkensning “*The Great Expectations*” (“*Buyuk umidlar*”) romani qahramoniga bag‘ishlangan. Zamonaviy ingliz she‘riyati vakili Kerol Enn Daffi Shotlandiyaning Glazgo shahrida tug‘ilgan va Angliyada o‘tib-ulg‘aygan. U Angliyaning “*Poet-laureat*” (“*Poet-laureate*”) unvoniga sazovor bo‘lgan ilk ayol shoiradir (2009-yilda Britaniya qirolichasi Yelizaveta tomonidan taqdirlangan). Uning lirik qahramonlari o‘zidan tashqari, o‘zga kishilar hamdir. Shuning uchun ham yuqoridagi she‘rning lirik qahramoni Miss Havishamdir. She‘r xiyonatdan ozor chekkan lirik qahramonning qalb og‘riqlari, ruhiy iztiroblari, nafratli kechinmalaridan so‘zlaydi. Undagi o‘tli satrlardan ma‘lum bo‘ladiki, lirik qahramon xiyonat tufayli uzoq yillar iztiroblar ichida yashagan. Shu bois unda tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ana shu kechinmalarni ifoda etishda kesishgan alliteratsiyadan foydalanilgan. Ayolning eri Janob Havishamning xiyonatidan keyin unda pessimistik kayfiyat tobora ortishi tasvirlangan. Bundan tashqari, she‘rning ehtirosli diksiyasi xonimning qalbidagi ehtirosga ishoradir. “*Beloved sweetheart bastard*” satrida [b] tovushi ketma-ket emas, so‘zlar osha takrorlangan. Lirik qahramon turmush o‘rtog‘iga murojaat etar ekan, uni “*sevgilim, azizim*” deyish barobarida xiyonatkorligiga ishora qilib, “*bastard*” so‘zini ishlatadiki, bu o‘ziga xos oksimorondir.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
<p>Here are my bees, brazen, blurs on paper, besotted; buzzwords, dancing their flawless, airy maps. Been deep, my poet bees, in the parts of flowers, in daffodil, thistle, rose, even the golden lotus; so glide, gilded, glad, golden, thus – wise – and know of us: how your scent pervades my shadowed, busy heart, and honey is art.[8]</p>	<p>Samimiyatni ham, Andishani ham, Lutfu karamni ham, Odob - esni ham, Mehru-oqibatni, insoniylikni – Bir so'zga qilib jom Keksani ko'rsam ham, Yoshni ko'rsam ham Labimdan uchajak kalom - "Assalom!" [7,56]</p>

"Bees" ("Asalarilar") she'ri 2011-yilda "The Bees" to'plamida chop etilgan. Mazkur to'plam 2011-yilda she'riy asarlarga beriladigan Kosta mukofotini qo'lga kiritadi. Bu shoiraning shoir-laureat unvonini olgandan keyingi birinchi to'plami hisoblanadi. She'rda asalarining poetik obrazi yaratilgan. Bu nihoyatda mehnatkash hasharotlar guldan gulga qo'nib, nektar izlaydilar va ularni o'z inlariga olib keladilar. Natijada tabiatning eng yaxshi mo'jizasi asalni yaratadilar. Darhaqiqat, shoirning san'atkorligi, uning qo'llagan har bir so'zi asalari mehnatiga qiyos etiladi. Asal yig'ish jarayonida asalari hamma gulga ham qo'navermaydi. Shoira ham so'zning eng saralarini satrlarga tizadi. Qolaversa, she'r ohangdorligini ta'min etgan vositalardan biri – alliteratsiyadir. Jumladan, birinchi bandda "*bees, brazen, blurs*"; *besotted; buzzwords*" so'zlaridagi [b], ikkinchi banddagi "*gilded, glad, golden*" so'zlaridagi [g], uchinchi banddagi "*heart and honey*" so'zlaridagi [h] undosh tovushlari takrorlanishi natijasida turg'un va kesishgan alliteratsiya yuzaga kelgan. Mazkur misralardan asalarining g'izillab nektar yig'ishi holatini lirik qahramon ko'z oldiga keltiradi. Bu so'zlar asal bilan bog'liq tushunchalarni bildirib keladi. Qolaversa, takror tovushlar va asalari harakatlarida uyg'unlik mavjud.

Ma'lumki, kelishik qo'shimchalari tilshunoslikda sintaktik munosabat hosil qilish vazifasini bajaradi, ya'ni so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajaradi. Habib Sa'dullaning yuqoridagi misralarida esa, bu affikslar grammatik vazifa bajarish bilan bir qatorda affiksalliteratsiyani hosil qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
<p>I'm fond, neroids and nymphs, unlike some, of the pig, of the tusker, the snout, the boar and the swine. One way or another, all pigs have been mine – under my thumb, the bristling, salty skin of their backs, in my nostrils here, their yobby, porky colognes.[6,28]</p>	<p>Poezdlarda, Samolyotlarda, Tramvayda, Saman otlarda Uchqurlikda bo'lib go'yo nur O'tmoqda umr [7,134].</p>

Bu she'r yunon afsonasi syujeti, aniqrog'i, Homerning "*Odissey*" asaridagi Kirka ma'budasi qissasi asosida yozilgan. Circe (Kirka) – quyosh xudosi Heliosning qizi. U Eeya orolida yashagan va u yerda Odisseyni Troya urushidan uyiga qaytayotganda uchratadi. U o'z odamlarini Kirka orolini kashf qilish uchun yuboradi va uning mehmondo'stligini qabul qiladi. Ko'pchilik uyga kiradi. Bir kishi tashqarida qoladi. O'sha kishi Kirkaning sehr yo'li bilan odamlarni cho'chqa, sher va boshqa hayvonlarga aylantirayotganini ko'radi. Bu odam Evrilox, Odisseyga ko'rganlarini aytib beradi. Ular tashqi ko'rinishlari o'zgartirilgan odamlarni ozod qilish rejasini ishlab chiqadilar. Germes ularga o'zgarimasligi uchun ma'lum bir o'simlikni ichimlikka solib qo'yishni aytadi. Odissey Kirkaga tahdid qiladi va uni erkaklarni o'z shakllariga qaytarishga majbur qiladi. Odissey Kirka bilan bir oy yashaydi, ketishidan oldin undan o'g'il ko'radi. She'r shu jihatdan voqeabandlik kasb etgan. Alliteratsiya yordamida shoira shu voqelikni badiiy ta'sirchan ifodalashga erishadi. Dastlabki satrdagi "*neroids* (suv parisi) va *nymphs*" (ma'budalar, ular uzoq umr ko'rgan, odamlarga mehribon, beozor bo'lishgan) so'zlarida [n] va to'rtinchi misradagi "*bristling*" (quyuq) va "*backs*" (orqa) so'zlarida [b] tovushi takrorlangan. Yuqoridagi voqelikni badiiy ifodalash maqsadida shoira alliteratsiyadan foydalangan. O'zbek she'riyati misollaridan ko'rinadiki, Habib Sa'dulla she'riyatidagi affiksalliteratsiya

LITERARY CRITICISM

alliteratsiyalar, asosan, kelishik qo‘shimchalari vositasida hosil qilingan. Demak, shoir bu qo‘shimchalardan uslubiy bo‘yoqdorlik, fonetik ohangdorlik ifodalashda unumli foydalangan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Where I lived – winter and hard earth. I sat in my cold stone room choosing tough words, granite, flint, to break the ice. My broken heart – I tried that, but it skimmed, flat , over the frozen lake. She came from a long, long way, but I saw her at last, walking, my daughter, my girl, across the fields, in bare feet , bringing all spring’s flowers to her mother’s house. I swear the air softened and warmed as she moved.[6,31]	Gul shahrim, Gulzor shahrim, Gilamday guldor shahrim. Keksadan yoshigacha, Yerdan quyoshigacha. Billurday suvlaridan Yo‘ldagi toshigacha – Ishqibozi gulkor shahrim [7,31].

Kerol Enn Daffining “*Demeter*“ (“*Demetra*”) deb nomlangan yuqoridagi she’ri yunon afsonasi asosiga qurilgan. Unda yunon hosildorlik ma’budasi Demetraning hayoti haqidagi eng ko‘p aytilgan afsonalarga ishora qilinadi. Unda yozilishicha, ma’buda Demetraning chaqmoqdor Zevsdan bo‘lgan Persefona ismli navnihol, sohibjamol qizi bo‘lgan. Persefona dugonalari – Okean qizlari bilan chamanzor Nisey vodiysida kapalak misoli guldari gulga uchib, betashvish yayrab, sho‘x-sho‘x o‘ynab yurgan kunlardan biridagi voqea qalamga olingan. Ular barq urib ochilgan gullar, muattar binafshalar, qordek oppok nilufarlar, qirmizi rang xushbo‘y sunbul gullarini terish bilan band edilar. Persefona ham ular bilan juda xursand edi. U peshonasiga padari Zevs yozgan qismatdan mutlaqo bexabar edi. She’rda yozilishicha, Aid Nisey vodiysida halovatda o‘ynab yurgan Persefonani ko‘radi-yu, tezda uni o‘g‘irlashga qaror qiladi. U yer ma’budasi Geyadan go‘zallikda qiyosi yo‘q bir gul paydo qilishini iltijo qilib so‘raydi. Geya rozi bo‘ladi. Natijada Nisey vodiysida mo‘jizali bir gul g‘uncha ochiladi. Bu gulning kishini sarxush etuvchi atri butun vodiya taraladi. Persefona gulni ko‘rib qoladi va unga qo‘lini cho‘zib, uzib oladi. Shunda birdan yer yoriladi-yu, uning qariidan qora otlar qo‘shilgan oltin jang aravada Aid chiqib keladi. U Persefonaning belidan quchib arobaga chiqaradi-da, ko‘z yumib ochguncha yer ostiga kirib, g‘oyib bo‘ladi. Persefona faqat bir marta chinqirishgagina ulguradi. Badqovoq Aid uni o‘g‘irlaganini hech kim payqamaydi. Buni faqat tangri Helios, ya’ni Quyosh ko‘radi. Yuqoridagi she’rda mana shu afsonaviy voqea ifoda etilgan. Dastlabki bandning uchinchi misrasida “*flat*” (tekis) va “*frozen*” (muzlagan) so‘zlari va to‘rtinchi bandning birinchi satrida “*feet*” (oyoqlar) va “*flowers*” (gullar) so‘zlarida [f] undoshi takrorlangan. Habib Sa’dulla yuqoridagi “*Sog‘inib keldim*” she’rida *g* va *sh* tovushlari vositasida alliteratsiya hosil bo‘lgan. Shoir ona shahri Namanganni “Gullar shahri” ekanligini shu she’rda madh etgan. Uni sog‘inib kelganini, undagi go‘zallikni biron joyda topmaganini chiroyli sifatlar orqali ta’riflagan.

And now we are no longer blessed, for the world
 will not **deepen to dream** in. The other knows
 and out of love reflects me for myself.
 We see our **silver skin** flash by like memory
 of somewhere else. There is a coloured ball
 we have to balance till the man has disappeared.[9]

Kerol Enn Daffining “*Dolphins*” (“*Delfinlar*”) she’rida istirohat bog‘ida asirlikda saqlanayotgan umidsiz delfinlarning azob-uqubatlari ifoda etilgan. Asirlikdagi delfinlar uchun dunyo hovuzdir. Hovuz atrofida faqat eshkaklar, xalqalar, cheksiz doiralari mavjud. Bu to‘siqlar ularning erkinlikka chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ular bu joyni hech qachon tark etolmasliklarini his etishadi. She’rda tilsiz hayvonning iztirobli holatlari ifoda etilgan. Unda “*silver skin*” yoki “*deepen to dream*” kabi birikmalarda [s] va [d] undosh tovushlari takrorlanishidan alliteratsiya yuzaga kelgan. Bu orqali delfinlarning ozod bo‘lish orzusiga chuqur berilishlari ta’sirchan ochib berilgan.

The children are at the loom of another world.
 Their braids are oiled and black, their dresses bright.
 Their assorted heights would make a melodious chime.
 They watch their flickering knots like television.

LITERARY CRITICISM

As the garden of Islam grows, the bench will be raised.

Then they will lace the dark-rose veins of the **tree-tops**. [10]

Ingliz shoiri Kerol Rumensning *“Carpet-weavers, Morocco”* (*“Gilam to‘quvchilari, Marokash”*) asari uchinchi dunyo mamlakati deb atalmish Afrika hayotidan olingan. Unda turli yoshdagi bolalarning umrini masjidlarda ishlatiladigan gilamlarni to‘qish, ularga islom bog‘i naqshini solish bilan o‘tkazganlari ifoda etilgan. Bu bilan shoir ularni G‘arb bolalari bilan qiyoslaydi. Ehtimol, Marokash hayotini sharhlovchilar buni uchinchi dunyodagi bolalarning majburiy mehnati tarzida talqin qilishar. Aslida bu bolalarning yoshlikdan chiroyli ishlar bilan band qilishni ham anglatadi. She‘rda bolalarning turli balandliklarning go‘zal tasvirini gilamlarda aks ettirishi ifodalangan. Lirik qahramon bundan hayratga tushganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, shoir qalamga olgan voqelik G‘arb dunyosiga yot. Demak, u turli mintaqalar va turli xalqlar hayotiga, madaniyatiga qiziqadi. Shu jihatdan Marokash musulmon bolalari hayotidan bir lavhani she‘rga soladi. She‘rning oltinchi misrasidagi *“the tree-tops”* so‘zlarida [t] tovushi takrorlangan. Bu turg‘un alliteratsiyani hosil qilgan.

Zamonaviy ingliz va o‘zbek she‘riyatidagi eng ko‘p qo‘llanadigan tovush takrorlaridan biri bu assonansdir. *Assonans* – bir xil yoki turdosh unli tovushlarning ketma-ket yoki taxminiy bo‘g‘inlardagi takrorlanishi. Bu alliteratsiyadan ko‘ra kamroq ko‘zga tashlanadi, lekin muhimroq rol o‘ynaydi va misraning ohangida ishtirok etadi [11,177]. Mazkur takror turi she‘riy matn ichiga o‘ziga xos bo‘yoq berish uchun qo‘llaniladi. Zamonaviy she‘riyat namunalarini ko‘zdan kechirgan paytda tovush takrorlarining ishlatilishi naqadar she‘rni jozibali va kitobxon uchun qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. She‘riyatda assonansning vazifasi asosan ritm yaratish. O‘zbek adabiyotshunos olimi D.Quronov assonansga quyidagicha ta‘rif beradi: *“Assonans – (lot. assonare –uyg‘un jaranglash, fr. assonance – ohangdoshlik) – 1) she‘riy nutqda (nasrga nisbatan ham) bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi; she‘rga xushohanglik baxsh etadi, musiqiylikni kuchaytiradi”* [2,37].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Not tomorrow, I’m dreaming till dusk turns into dawn – dust, must most, moot, moon, mown, down – with my hand on an open unread book, a bird that’s never flown...distantly the birdsong of the telephone.[12]	Onajonim , har kim oshin Oshab o‘tsin dunyoda, Garchi fano har kimsaga Azaliy bir qismatdir. Lekin ona tiriklik ham Bilsang, yarim hikmatdir. Tushlarimda, mayli boshim Silab turgin, onajon , Qolganlarga endi umr Tilab turgin, onajon [13,106].

Assonansning yaqqol ko‘rinishi zamonavi o‘zbek she‘riyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Abdulla Oripov ijodidan olingan shoirning onasi Turdi Erdona Karvon qiziga bag‘ishlab yozgan *“Onajon”* she‘rida *“o”* tovushining takrori assonansni yuzaga keltirgan. She‘riy parchada unlilar takrori shoirning onasi xotirasini doimo yod olishi, onasi vafotidan keyingi iztirobli qalb kechinmalarini boshidan kechirganini ko‘rsatadi. She‘rni o‘qir ekansiz, har bir farzand hayotida onaning o‘rni beqiyos ekanligini, onalar hayotimiz mazmuni ekanligi chiroyli va ta’sirli tasvirlangan. She‘rning ta’sirli va jozibali chiqishida assonansning xizmati katta bo‘lgan. Kerol Enn Daffining *“A Dreaming Week”* (*“Orzular haftasi”*) asari Daffining she‘r yozishga bo‘lgan muhabbati bilan chambarchas bog‘liq. She‘r ichida melanxoliya ham bor. Ko‘pchilik Kerol Enn Daffi ham umri davomida bir *“hafta”* bo‘lib o‘tadigan munosabatlarni kuzatayotganini taxmin qilishadi. Bir tomondan, she‘r she‘riyatning go‘zalligini ta’kidlaydi, shu bilan birga munosabatlar olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘amginlikka ishora qiladi. *“Dust, must”* bo‘ylab ichki qofiya she‘rni oldinga suradi. Assonansning *“dust, must”* bo‘ylab jiringlab takrorlanishi she‘rda uyg‘unlikni yaratadi.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
She brought her own; I never did. Hankies were presents from distant aunts in boxed sets, with transparent covers and script initials spelling <i>ponce</i> , the naffest	Ikki qumri bir-biriga mung‘ayar shoxlar aro, Ikkisi ham ikki hijron , ikki dildir, ikki zor [15,70].

LITERARY CRITICISM

<p>Christmas gift you'd get – my brothers too, more often than not, got male ones: serious, and grey, and larger, like they had more snot. It was hankies that closed department stores, with headscarves, girdles, knitting wool and trouser presses; homely props you'd never find today in malls.[14]</p>	
--	--

Ros Barberning *“Material”* she’ri - bu ro‘molcha ramzi orqali o‘tmish va an’analar haqida gapiradigan qiziqarli va ta’sirchan she’r. She’r o‘quvchini qahramonning yoshligiga olib boradi va onasining ro‘molchalarga bo‘lgan mehrini ko‘rsatib beradi. Onasi ro‘molchalarni har doim o‘z oldida, odatda, yengida saqlab yurardi. Shoir o‘z farzandlarini o‘z yoshida qanday yashaganini o‘zi bilan taqqoslaydi va keyin onasining hayoti va o‘limini so‘nggi satrlarda eslaydi. She’rning uchinchi bandida kelgan *“snot”* va *“props”* so‘zlaridagi [o] tovushining takrorlanishi kuzatiladi. Bu she’rga o‘ziga xos ichki qofiyani baxsh etadi va ritmi kuchaytirib beradi. She’rni o‘qir ekansiz, assonansning she’rga o‘zgacha ritm bag‘ishlaganini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir tovush takrori konsonans – bu matn qatorida bir xil undosh tovushlarning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida takrorlanishi bo‘lib, ushbu poetik unsur nasrdan ko‘ra nazmda faol qo‘llaniladi. Konsonansning alliteratsiyadan farqli tomoni shundaki, alliteratsiya urg‘uli bo‘g‘indagi bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi hisoblansa, konsonans ketma-ket va undan ortiq so‘zlarda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishidir. Konsonans foydali adabiy vositadir, ayniqsa, she’riyatda. Undosh tovushlarning takrorlanishi o‘quvchilar va tinglovchilar uchun dramatik eshitish effektini keltirib chiqarishi mumkin. Bu yozuvchilarga o‘z tinglovchilarining e’tiborini va diqqatini adabiy asar mavzusiga qaratish imkonini beradi [16].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
<p>If she were here she'd forget who she was, it's been so long, maybe nurse, a nanny, maybe a nun— Anon. [17]</p>	<p>Kelib qoldi bahor ham mana, Dalalarga sochib lolalar. Tepalikda quvonch-tantana – Chillak o‘ynab ketdi bolalar [18,50].</p>

Kerol Enn Daffining *“Anon”* (*“Anon”*) asari tarixda unutilgan ayollarga e’tibor qaratish bilan boshlanadi, ehtimol ular o‘zlarining anonim ishlarini tan olmaydilar. Shoiraning *“Anon”* asari to‘rtta teng bo‘lmagan baytlarni o‘z ichiga oladi, har bir band 6 dan 9 qatorgacha o‘lchanadi. Tuzilishdagi tafvutlar nafaqat adabiyot va yozuv bilan bog‘liq, balki jamiyatda ayollar hayotining ko‘p jabhalarida qanday qadrlanmaganligini aks ettirishi mumkin. She’rning dastlabki ikki satrida shoira *“she”* (u-ayollarga nisbatan ishlatiladigan olmosh) olmoshini uch marta takrorlaydi. Ayol mavzusining uch marta takrorlanishi ayollarning doimiy mavjudligini ko‘rsatadi. Shoira bu uslub orqali ularning tarixda mavjudligini ifodalaydi. Misralar osha esa [n] tovushining konsonans bo‘lib kelganini uchratamiz. Shoir Usmon Azimning *“Bolalikning so‘nggi kunlari”* she’rida *l* undosh tovushi so‘zlar boshida, o‘rtasida va oxirida kelib, konsonansni hosil qilgan va o‘zgartiruv figurasi bo‘lgan inversiya bilan uyg‘unlashib kelgan. She’r qahramoni bolalikdan o‘smirlikka o‘tayotgan bolaning o‘y-xayollari, orzu-umidlari va ruhiy kechinmalari bayon etilgan. She’rning ta’sirchanligini va ifodaviyligini kuchaytirishda konsonansning mohirona qo‘llanilishi yuqori darajada xizmat qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
<p>Whether or not shadows are of the substance such is the expectation I can wait to surprise my vision as a wind enters the valley: sudden and silent [19]</p>	<p>Bxshi bobongizni bilmaysiz ammo, Bu ayyor o‘yinda sizlarni yutdim! Menga berolmaysiz hech qanday baho – Oyoqyalang bo‘lib dunyodan o‘tdim... [18,44]</p>

Jeffri Xillning yuqoridagi she'rida [r] va [s] tovushlari konsonans effektini yaratish uchun ishlatgan. O'quvchilarni she'r mazmuniga ko'proq e'tibor qaratish uchun [s] tovushi ko'proq seziladi, chunki [s] tovushini o'qish davomida bir necha marta pauza qiladi. Zamonaviy o'zbek shoiri Usmon Azimning yuqoridagi "Mamamrayim baxshining bir davrada aytgani" she'riy parchasida ishlatilgan "Baxshi", "bilmaysiz", "Bu", "berolmaysiz", "baho", "bo'lib" so'zlarida b tovushi konsonansni hosil qilgan. Usmon Azim mazkur she'rida Mamamrayim baxshining etikdo'z bolalarning kishilarning boy va kambag'alligiga qarab, ularga bo'lgan muomalasi tilga olinishida shoir mohirona ravishda konsonansni qo'llaydi. Tovush takrorining ishlatilishi she'r ritmini kuchaytirib bergan.

Xulosa va takliflar. Tovush takrorlari qatnashgan misollardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, zamonaviy ingliz she'riyati namunalarida alliteratsiyaning ikki xil turg'un va kesishgan shakli uchraydi. Zamonaviy o'zbek shoirlari ijodida ham alliteratsiyaning faolligi kuzatiladi. Alliteratsiya she'rning ifodaviyligi va musiqiyligini oshirishni ta'min etadi. Habib Sa'dulla ijodida affiksalsal, ya'ni qo'shimchalar alliteratsiyasining qo'llanilishi so'z va jummalarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, assonans zamonaviy ingliz she'riyatida alliteratsiyadan kamroq qo'llaniladi, ammo u muhimroq rol o'ynab, misra ohangining jozibali bo'lishida ishtirok etadi. O'zbek she'rlarida esa assonansning ichki qofiya va ritmi kuchaytirishga xizmat qilganligi kuzatildi.

Uchinchidan, konsonans nasrdan ko'ra she'riyatda ancha muhim poetik figura hisoblanadi. Bu unsur ingliz she'rlarida kitobxonning e'tibori va diqqatini tortsa, zamonaviy o'zbek she'rlarida she'r tuzilishi va jarangdorligiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Boulton M. *The Anatomy of Poetry*. Routledge & Kegan Paul, 1953. 1982. –P.68.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. *Адабиётшунослик лугати*. – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.26,177.
3. <https://poemanalysis.com/jackie-kay/darling>
4. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. II жилд*. – Т.: Шарқ, 2002. –Б. 43,71,106.
5. <http://www.poemhunter.com/poem/divorce-61/>
6. Duffy C. A. *The World's Wife Collection*. –P.9,28,31.
7. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. I- жилд*. –Т.: Шарқ, 2002. –Б. 430, 38,56,134,37.
8. <http://margaret-cooter.blogspot.com/2016/04/poetry-thursday-bees-by-carol-ann-duffy.html>
9. <https://englishsummary.com/lesson/the-dolphins-poem-summary-and-analysis-isc/>
10. <https://literarydevices.net/carpet-weavers-morocco/>
11. Connell F.M. *A Textbook for the Study of the Poetry*. Norwood Press, U.S.A.1913. –P.177.
12. Duffy C. A. "A Dreaming Week". <http://a-poem-a-day-project.blogspot.com/2018/06/a-dreaming-week.html>
13. Орипов А. *Танланган асарлар. I-жилд. Шеърлар ва достонлар*. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наириёти, 2000. –Б.106.
14. Barber R. "Material". <https://harton-tc.co.uk/wp-content/uploads/custom-import-v2/12062018090124.pdf>
15. Саййид С. *Дил фасли. Шеърлар*. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –Б.70.
16. <https://literarydevices.net/consonance/>
17. Duffy C. A. "Anon". <https://genius.com/Carol-ann-duffy-anon-annotated>
18. Азим У. *Сайланма. Шеърлар*. –Тошкент: Шарқ наириёт-матбаа концерни, 1995. –Б.50,44.
19. Hill G. *On Seeing the Wind at Hope Mansell*. <https://www.poetryfoundation.org/poetrymagazine/poems/48432/on-seeing-the-wind-at-hope-mansell>

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARIDA ILOHIY MOTIVLAR VA RIVOYATLARNING QO'LLANILISH TAMOYILLARI

Muxtorova Umida Tolib qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi
muxtorovaumida06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy adabiyotidagi ilohiy-irfoniy g'oyalarning, motiv va rivoyatlarning badiiy sintezi o'rganildi. Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning o'zaro uzviy aloqadorligi, Qur'oni karim va hadisi sharifning ta'siri hamda ahamiyati, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf xos Hojib hamda Navoiy asarlaridagi barcha ilohiy-irfoniy g'oyalar dalillar bilan solishtirilgan. Shuningdek, Sharq adabiyotidagi ilohiy-, diniy motivlar, mifologiyadan foydalanish usullari bilan bog'liq yo'nalishlar ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, Islom dini, Hamidulla Karomatov, Iloh-yirfoniy g'oyalar, Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", "Hikmatlar", Ahmad Yassaviy, "Xamsa".

ПРИНЦИПЫ ПРИМЕНЕНИЯ БОЖЕСТВЕННЫХ МОТИВОВ И ПОВЕСТВОВАНИЙ В ОБРАЗЦАХ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассказывается о синтезе божественных идей, мотивов и повествований в узбекской национальной литературе. С религиозными и мистическими концепциями, присутствующими в восточной литературе, неразрывной взаимосвязью художественной литературы, влиянием и значением Корана Карима и хадиси Шарифа, все божественные идеи в произведениях Ахмада Яссави, Ахмада Югнаки, Юсуфа Хос Хаджиба и Навои были сопоставлены с доказательствами. Также научно обоснованы направления в восточной литературе, связанные с божественными, религиозными мотивами, методами использования мифологии.

Ключевые слова: священный Коран, ислам, Хамидулла Кароматов, божественные идеи, Юсуф Хос Хаджиб, "Кутадгу билиг", "Наставления", Ахмад Яссави, "Хамса".

PRINCIPLES OF APPLICATION OF DIVINE MOTIVES AND NARRATIVES IN THE SAMPLES OF CLASSICAL LITERATURE

Abstract. In this article written about synthesis of divine-Iranian ideas, motifs and narratives in Uzbek national literature. With the religious and mystical concepts present in Eastern literature, the inextricable relationship of fiction, the influence and significance of the Holy Quran and hadisi Sharif, all the divine-Iranian ideas in the works of Ahmad Yassawi, Ahmad Yugnaki, Yusuf Khos Hajib and Navoi were compared with the evidence. Also, the directions in Eastern literature associated with divine -, religious motives, methods of using mythology are scientifically based.

Keywords: Holy Quran, Islam, Hamidulla Karomatov, Divine-Iranian ideas, Yusuf Khos Hajib, "Qutadgü bilig", "Proverbs", Ahmad Yassawi, "Khamsa".

Kirish. Sharq adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning integratsiyalashuvi, ya'ni Qur'oni karim va hadisi sharif ta'siri natijasida umuminsoniy g'oyalar va axloqiy konsepsiyalar aks etgan turli xil janrdagi asarlar mavjud.

"Bu olamning kaliti – Islom dini ruknlari va Qur'oni karim kalomi. Qur'oniy mavzularning jahon va xususan, o'zbek adabiyotiga singib o'tishi faqat diniy nuqtayi nazardangina ibratli bo'lib qolmay, balki, Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi o'zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan bo'lardi" [1; 3].

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqining bir necha asrlik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan islom madaniyatini tiklash, jamiyatning diniy asoslari, axloqiy qadriyatlarini anglash, milliy g'urur, madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo'lish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Hamma davrlarda ham har qanday milliy adabiyot din va ilohiyotga doimo kuchli ehtiyoj sezgan va undan oziqlashib kelgan.

“Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, xalqimizning o‘n to‘rt asrlilik ma‘naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan islom madaniyatini tiklash o‘z taqdirini o‘zi belgilash, tarixiy xotira, milliy g‘urur va madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo‘lish yo‘lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, har qanday milliy adabiyot dinning ruhoniyyatiga doimo kuchli ehtiyoj sezadi, undan oziqlanadi” [2; 15].

Adabiyotlar tahlili. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Adabiyotshunos olim Hamidulla Karomatovning “Qur‘on va o‘zbek adabiyoti” risolasi va Olim Davlatovning “Alisher Navoiy she‘riyatida Qur‘on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” mavzusidagi tadqiqot ishi bu borada amalga oshirilgan asosiy tadqiqotlardan biridir. Hamidulla Karomatov ushbu tadqiqotda Qur‘oni karimning o‘zbek adabiyotiga, jumladan, Abu Ali ibn Sino she‘riyatidan tortib hazrat Alisher Navoiy ijodiga qadar ta‘sirini o‘rganib, tahlil qiladi va bu haqda olimning o‘zi “Qur‘on mavzulari islom dinini qabul etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy aqida-yu an‘analar bilan uzviy ravishda bog‘landi. Islom dini va mahalliy urf-odatlar to‘qimasi asosida o‘zbek adabiyoti va ilmning shoh asarlari yaratildi” [3; 120], – deb yozadi.

Ilohiy-irfoniy motivlar ustuvor bo‘lgan mumtoz asarlarning ilk namunasi sifatida XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning ilk davlatchilik tizimlarini o‘zida mujassam etgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asarini ta‘kidlab o‘tishimiz joizdir. Asarning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) tarzida nomlanishidan uning saodatga eltuvchi yagona kitob, ya‘ni Qur‘oni karimga tayanib yozilganligini bilishimiz mumkin. Turkiy xalqlarning ushbu ko‘hna asar matnida biz islomiy mavzular va qur‘oniy iboralarga ko‘p bora duch kelamiz. Asar Qur‘ondagi suralarning avvali hisoblanmish basmala (“Bismillahir-r-rahmoni-r-rohim”) Yaratganga hamd-u sanolar (nasriy bitilgan) bilan boshlanadi.

Asarning ilk misralariyoq Qur‘on oyatlarining mazmuni bilan oziqlangan. Misralar mazmuni Muqaddas kitobning dastlabki “ochuvchi” ma‘nosini beruvchi “Fotiha” surasidagi oyatlarga ishora qiladi. Ya‘ni Yaratganning yakkayu-yagona ekanligi, barcha sifat va maqtoqlar yagona zot ekanligiga ishora qiladi – “Alhamdu lillahi robbil a‘lamiyin” (“Hamd-u sano barcha olamlarning Papvardigori bo‘lmish Olloh uchundir”) [4; 17-34]. Shuningdek, misralarda iyhom san‘ati asosida Yaratgan Zotning bir necha ismlari keltiriladi.

Qodir bir xudo barchadan ustundir,

Talay hamd-u sanolar ungagina sazodir.

Ulug‘lik sohibi, qodir, zuljalol,

Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol [5; 52].

“Qutadg‘u bilig” asarining “Payg‘ambar alayhissalom fazilatlar borasida”, “Payg‘ambar sahobalarining, rizvonollohi alayhim, fazillari borasida” kabi fasllarning nomlanishi asarda Qur‘oni karim va Hadisi shariflarning ta‘sirini qay darajada ekanligi belgilab beradi. Muallif Tangri taoloni har ishda e‘tirof etish, zikr qilish hamda shariat va ma‘rifat yo‘lini bir lahza bo‘lsa-da, unutmazlikka chorlaydi.

Chuqur ma‘noli hikmatlari bilan xalq orasida mashhur bo‘lgan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” asarining asosini ham ilohiy-irfoniy motivlar tashkil qilganligi bois, shu turdagi asarlar sirasiga qo‘shish mumkin.

Ahmad Yassaviy ilk mutasavvuf o‘laroq o‘z hikmatlarida Allohni ko‘ngil bilan tanish va Uni so‘ngsiz muhabbat bilan sevishtir, mudom uning zikrida bo‘lish, farz va sunnat amallarni mukammal ado etish kabi g‘oyalarini targ‘ib qildi. Shuningdek, inson nafsdan poklanib, ruh tarbiyasi bilan komillikka erishishi va Yaratganga yaqinlashishi tasavvufning, islom dinining bosh g‘oyasi bo‘lganidek, Ahmad Yassaviy hikmatlarining ham asosidir.

Nafsing sani oxir damda gado qilg‘oy,

Din uyini g‘orat qilib ado qilg‘oy.

O‘lor vaqtda iymoningdan judo qilg‘oy,

Oqil ersang nafs baddin bo‘lg‘il bezor [6; 97].

Shoir ta‘kidicha, o‘z holiga qo‘yilgan nafs odamni kundan kunga to‘g‘rilikdan ozdiradi, rasvoyi gumroh qilib, shayton bilan hamroh qiladi. Agarki nafsga qarshi kurashib, nafsning bo‘yni qayrilmas ekan, so‘nggi damda “O‘lor vaqtda iymoningdan judo qilg‘oy” deya ogohlantiradi, Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta qismida nafs va uning oqibatlari va uni yengish choralari haqida gapiriladi.

Xudovandi Karim suygan bandalariga ilohiy quvvatni, fikr va tasavvur imkoniyatini ham o‘zi beradi. Valiy shoir Xo‘ja Ahmad Yassaviy hazratlari yozadiki:

Subhon azim bandasiga lutf aylasa,

Ichi yorib, tashi kuyib bir yon bo‘lur.

Pir etagin tutib oshiq yo‘lga kirsar

Haqni izlab ikki ko‘zi giryon bo‘lur [7; 152].

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining bosh fazilati bu ilohiy olam g'oyalari, islomiy ma'rifat targ'ibi, Qur'on va Hadis hikmatlarini hayotga tadbiiq etish maqsad-muddaolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Tajovuzkor ateistik mafkura zug'umi bilan A.Yassaviy, S.Boqirg'oni, S.Olloyor kabi mutasavvif shoirlar ijodini o'rganish, asarlaridan bahramand bo'lish yo'li tamoman berkitib qo'yildi. "Hamsa", "Boburnoma" singari monumental asarlardan Qur'oniy o'rinalar, Olloh va payg'ambarga ixlos satrlari zulmkor kommunistlar tazyiqi asosida munofiqlik bilan qisqartirib nashr etildi.

Hali go'daklik chog'idayoq Qur'oni Karimni, F.Attorning yuksak ilohiy islomiy nur bilan bezangan "Mantiq ut tayr" asarini yod olgan Navoiyning barcha yaratmalarida ilohiy olam masalalari salmoqli e'tiqod bilan o'z aksini topdi.

"Farhod va Shirin" dostonidagi muhim ijobiy obrazlardan biri olim Suhayldir. Rivoyatga binoan, Suhayl 500 yil umr ko'rgan, g'orda maskan tutgan "zamonasining Suqrotidir". Xalq ertaklaridek fantastik tarzda tasvir etilgan bu obrazning zamirida realistik haqiqat, maqsad bor. Ma'lumki, Navoiy ilm-fanni yuksak qadrlar, uning kuch-qudratiga katta baho berar edi. Uningcha, turli xil mushkulotlarni olimlarsiz hal etish mumkin emas. Davlat arboblari har bir masalada olimlar bilan kengashishlari, ularga tayanishlari kerak. Suhayl ham shunday olimlardan. U maslahatga kelgan hoqon va Farhodga "kelajakning kaliti"ni topshiradi. Uning ko'rsatmalari asosida Farhod Iskandar tilsimini ochadi, ajdarni o'ldiradi. Ahramanni yengadi va Chinga qaytib, ko'zguda Shirinni, o'z kelajagini ko'radi. Navoiy ilohiy nur egasi bo'lgan Farhodni xalqona rivoyatlar og'ushida tasvirlab, asarning qiziqarlilik mohiyatini hosil qila olgan.

"Farhod va Shirin" xalq orasida keng tarqalgan asarlardandir. Uning afsona va rivoyat, ertak va doston variantlari ham mavjud. Bular syujeti va kompozitsiyasi jihatidan bir biridan farq qiladi. Lekin g'oyaviy mazmuni bilan o'zaro juda yaqin turadi. Suv uchun, xalqning osoyishtaligi va farovonligi uchun kurash, samimiy sevgi va sadoqat "Farhod va Shirin" variantlarining asosiy mohiyati va leytmotivini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligida mehnatkash va ijodkor Farhod zolim va ayyor Xisravga qarshi qo'yiladi.

O'zbek xalq ertaklaridan birida hikoya qilinishicha, Farhod bir kambag'alning o'g'li ekan. Otasi o'lib, unga bir ketmon, bir sandiq meros qolibdi. Farhod sandiqni ochib qarasa, unda bir ko'zgu bor ekan. Ko'zguna qarab go'zal bir qizni ko'rbdi va behush bo'lib yiqilibdi. O'rtog'i Shoko'r kelib, uni o'ziga keltiribdi. Farhod va Shoko'r bu go'zal qizni izlab yo'lga tushishibdi, ular juda ko'p yurib, oxiri Bekobodga kelibdilar, Bekobod xarob bir joy ekan: bu yerning aholisi mashaqqat chekib, tog' tosh kesib, Sirdaryo suvini cho'lga oqizish taraddudida ekan. Farhod otasidan qolgan ketmon bilan ishga tushib, mo'jizalar ko'rsatibdi. Farhodning ovozi Bekobod hukmdori Gulchehra va uning jiyani Shiringa borib yetibdi. Farhod ko'zguda ko'rgan go'zalning o'zini ko'ribdi. Farhod sharafiga ziyofat beribdilar.

"Sab'ayi sayyor" dostoni voqealariga ko'ra, ovda rassom Moniy uchrashib, Diloromning suratini ko'rgan Bahrom unga oshiqi beqaror bo'lib qoladi. Bahrom hoqondan oladigan bir yillik xirojini Xitoy savdogariga to'lab, Diloromning visoliga erishadi. Bahrom Diloromni butun qalbi bilan sevadi. Biroq u shohlik bilan oshiqlikni uyg'unlashtira olmaydi.

Shunday qilib, aysh-ishrat va xudbinlik shoh Bahromning ijobiy xislatlarini yengib boradi. Bu, hatto, oshiq Bahromga ham salbiy ta'sir etadi. U xudbinligi tufayli ovda sevikli yori Diloromni cho'l biyobonga, o'lim qa'riga tashlab ketadi. Biroq sevgi tug'yoni tezda g'alaba qiladi. Bahrom Diloromni izlaydi, undan darak topolmaydi. Hijron azobi uning yurak-bag'rini ezadi, ayonlar va hakimlarning tadbirlari ham kor qilmadi. U o'ziga ibrat bo'la oladigan Suhayl, Axil, Mas'ud, Juna va Farruh kabi ajoyib kishilarning sarguzashti, olijanob fazilati, xislati bilan tanishadi. Bahrom ularda ibrat olishi kerak edi. Biroq u shunday qilmaydi. Diloromning visoliga ikkinchi marta muyassar bo'lgandan keyin Bahrom yana aysh-ishratga, ovga berilib ketadi. U dardu illatga giriftor bo'lgan edi. Bunday kishi davlat boshida ortiq qolmasligi kerak. Birinchi jazo (Diloromdan judolik)dan tegishli xulosa chiqara olmagan Bahromni endi halokatga mahkum etish kerak edi. Bahrom saroy ahli, qo'shin va Dilorom bilan katta ovga chiqadi. Lak-lak hayvonlar, qushlar qirib tashlanadi, qon ariq bo'lib oqadi. Bu ovloq bir vaqtlar botqoq yer ekan. Ko'p qon to'qilishi va qattiq yomg'ir yog'ishi bilan yerning ustki qatlami yumshab, botqoqlik ochiladi. Natijada Bahromni ham, uning hamrohlarini ham, xalq ta'biri bilan aytganda, yer yutadi. Bu bilan Navoiy Bahromning halokatini yanada dahshatliroq va haqqoniyroq qilib tasvirlaydi.

Navoiy "Xamsa"sining so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" ham rivoyatlar, ertaklarning ilohiy-ma'rifiy g'oyalar bilan bog'langan yaratmalar.

Iskandarning yarim tarixiy, yarim afsonaviy sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyatlar bilan birga, Iskandar haqida kichik-kichik ibratli hikoyalar ham vujudga keladi. Ularda Iskandar Arastuning maslahati bilan ish tutgan donishmand, xalqparvar, olijanob kishi sifatida tasvirlanadi. Bunday hikoyalardan ba'zi birlari, masalan, "Iskandar va Devona", "Iskandar va hoqon" va boshqalar Iskandar obrazi yaratilgan

dostonlarda ham keltiriladi. Iskandar obrazi lirik asarlarda ham o'z ifodasini topa boshlaydi. Turkiy xalqlarda ham Iskandar haqida turli-tuman afsona va rivoyatlar paydo bo'la boradi. Mashhur olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi ayrim qayd va izohlar shundan dalolat beradi. Mahmud Qoshg'ariy xalq etimologiyasiga asoslanib, ayrim geografik nomlar va so'zlarning kelib chiqishini Iskandar nomi bilan bog'lab izohlaydi, u haqda yaratilgan ba'zi bir afsona va rivoyatlarning (yoki parchalarning) qisqacha mazmunini bayon etadi.

O'zbek adabiy yodgorliklaridan Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo" asarida (XIV asr) Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar ancha keng o'rin tutadi. Rabg'uziy Iskandarning urushlardagi yurishlari, sad(devor) barpo etishi, obi hayot izlab zulmatga kirishi va boshqalarni hikoya qiladi. U qadimiy afsona va rivoyatlardan ham, "Qur'on"dan ham foydalanadi, Iskandarni islomning homiysi qilib ko'rsatishga alohida e'tibor beradi. O'zbek xalqi orasida ham, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar hozirga qadar yashab kelmoqda. Ularda Iskandar yo zolim podsho yoki odil podsho sifatida tasvirlanadi. Masalan, Xorazm xalq ertagi "Iskandari Zulqarnayn"da Iskandar odil podsho va lashkarboshi sifatida berilib, uning Doron (Doro)ga qarshi jangi va g'alabasi hikoya qilinadi. "Shohli Iskandar" nomli xalq ertagida esa u zolim va qotil sifatida tasvirlangan.

Anglaymizki, Navoiyga qadar Iskandar obrazi uch yo'nalishda: shoh, olim va payg'ambar sifatida talqin qilinardi. Navoiy Iskandarni shoh va olim sifatida talqin etdi hamda salaflaridan (Nizomiydan ham) farqli o'laroq, shoh va olim obrazini bir biriga o'zviy bog'ladi; uning yaxshi fazilatlarini bo'rttirib tasvirladi. U Iskandarning olimlarga munosabati, ular bilan hamkorligiga katta e'tibor va o'rin berdi. Navoiy Iskandarning sarguzashtlariga doir voqealar doirasini belgilab, chegaralab oldi. Garchi u Iskandarning o'nlab o'lkalarga yurish qilishini, afsonaviy sarguzashtlarini, dengiz sayohati va obi hayot izlashini dostonning XXIII bobida yarim tarixiy, yarim afsonaviy ma'lumotlar hamda badiiy yodgorliklar asosida sanab o'tsa, ham, Iskandarning hayoti va faoliyati silsilasini bir necha yirik epizod asosida to'zadi.

Navoiy dostonining qahramoni Iskandar insoniyatga zarar keltiruvchi har qanday kuchlarga qarshi kurashadi. U vataniga qaytayotib, mag'rib o'lkasida it kattaligida bo'lgan chumolisimon hayvonlarga duch keladi. Ular odamxo'r vahshiylarning posbonlari ekan. Iskandar qo'shini bilan vahshiylar o'rtasida jang boshlanadi. Vahshiylar boshlig'i yakkama-yakka jangga kishi talab qiladi; Iskandar yigitlari maydonga tushishga botinolmaydilar. Shunda Chin hoqoni tortiq qilgan kanizak erkakcha libos kiyib, betiga niqob tashlagan holda maydonga kiradi va vahshiyni yengadi. Shundan keyin Iskandar qo'shini Karvon o'lkasiga keladi. O'lka nihoyatda xarob bo'lib, aholi vahshiy ya'juj- ma'jujlarning yag'mosidan musibat chekar ekan. Iskandar Qof tog'i etagida yashovchi ya'juj va ma'jujlarning yo'lini to'sib sad devor qurdiradi. Bu devor adolat va osoyishtalik devori edi. Uni bino qilishda turli mamlakatlarning xalqlari, jumladan, rumliklar, movarounnahrliklar, forslar, xitoylar, hindular, ruslar, fransuzlar va boshqalar qatnashadi. Xalqlar do'stligi va ittifoqliligi insoniyatning ashadiy dushmani timsoli bo'lgan ya'juj va ma'jujlarni qirib tashlaydi.

Yana bir valiy shoir So'fi Olloyor ham komil musulmon sifatida Parvardigorning beaded qudratini ixlos ila bayon qilgan:

Xudovandiki birdur beshaku rayb
Ravo yo'qdir anga o'rtoq ila ayb.
Aning farmonindin hech kim qutulmas,
Tovonadur hamisha o'zga bo'lmas.
Erur ul barcha olamning xudosi,
Aning yo'q ibtidosi, intihosi [8; 8].

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi diniy-tasavvufiy qarashlarni, ilohiy-irfoniy motivlarni Ahmad Yassaviy singari tashviqiy yo'sinda davom ettirgan bir qancha islomiy masnaviylar muallifidir. Mutasavvufning ilohiy-irfoniy motivlar asosida yaratilgan "Sabot ul-ojizin" asari Qur'oni karimdagi oyat va hadislarning she'riy talqini deyish mumkin. Qur'oni karimni, Hadisi sharif va fiqh ilmini yuksak darajada o'rganib musulmonlarning hidoyat yo'liga mash'ala tutdi.

"Sabot ul-ojizin" asarida "Taroziyu qiyomat bayoni" haqida quyidagicha sharhlar keltiriladi.

Tarozi haq erur ro'zi qiyomat,
Aning sidqig'a nozil bo'ldi oyat.
Bilur Tangri agarchi holimizni,
Tarozug'a solur a'molimizni.
Qilur ogoh qulin qilmishlariga,
Yetushmas aql Egamning qilmishlarig'a.
Tarozi borig'a qirorimiz bor,

Nechuk erkanig'a ne korimiz bor? [9; 6]

So'fi Olloyor qiyomat kuni tarozi borligini haqiqat ekanligini uqtirmoq maqsadida bu haqida Qur'oni karimda oyat borligini aytadi. "Mufasssirlar aytmishlarki, me'zon Mikoil farishtasining qo'lida bo'lur, Bir pallasi – Nurdan, ikkinchisi – qorong'ulikdan. Kattaligi Yer bilan ko'k orasicha" [10; 256]. Shoir aytganidek, Qiyomat tarozi haqida "A'rof" surasining 8-oyatida xabar beriladi. Mashrab ijodi, yuqoridagi shoirlardan farqli ravishda, xalqonaligi, ilohiy-irfoniy motivlar tadrijida esa adabiy-badiiy qoliplardan uzoqlashganini, shu bilan bir qatorda, she'riyatning bir qadar shaxsiylashganini kuzatish mumkin. Ammo mana shunday shaxsiylashish obyektiv ibtido tarzida kitobxonga ta'sir qilib boraveradi. Bunday qarashlarni olima Zebo Yaxshiyeva ta'biri bilan aytganda, "badiiy voqelikning "obyektiv ibtido" deyilishida shartlilik bor, chunki u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor ko'zi bilan ko'rilgan, idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksidir [11,21].

Xulosa. Mashrab yaratgan she'rlar qanchalik dardli bo'lmasin, vazni sho'x, ohangi diltortar. U yaratgan tasavvufiy, ilohiy-irfoniy motivdagi she'rlar shoir ishqining jilvalari yanglig' akslanadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida aks etgan ilohiy-irfoniy g'oyalarning ilmiy tadqiqi va badiiy talqiniga Hamidulla Karomatov, Shuhrat Sirojiddinov, Rashid Zohidov, Akramjon Dehqonov, Ma'rifat Rajabova, Olim Davlatov, kabi olimlar mumtoz adabiyot namunalarini asosida yondashganlar. XX asr o'zbek adiblari o'z uslubiy tadqiqotlarida Sharq mumtoz adabiyoti durdonalari va jahon mumtoz adiblari tajribasidan kelib chiqib, diniy-ma'rifiy, ilohiy-irfoniy motivlar badiiy sintez qilingan mifologik syujetli asarlar yozishga kirishdilar. Bu borada mifologik model an'anasini mumtoz adabiyotdan so'ng davom ettirgan Asqad Muxtor asarlari ahamiyatlidir. Istiqloq davri adabiyoti vaqillarining mifologik yaratmalari qariyb jahoniy jamiyatga molik yutuqlarga dadil yaqinlashib borayotganligi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Karomatov H. *Qur'on va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1993. 3-bet
2. Davlatov O. *Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini*. *Filol.fan.b.fals.dok.diss. avtoref...* – Samarqand, 2017, 15-bet
3. Karomatov H. *Qur'on va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1993, 120-bet
4. Shayx Alouddin Mansur. *Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima* – Toshkent: Cho'lpon, 2001. 17-34-betlar
5. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – Toshkent. "FAN", 1971. 52-bet
6. Xoja Ahmad Yassaviy. *Devoni Hikmat*. – Toshkent. "Movaraunnahr", 2006. 97-bet.
7. Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar*. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 152 bet. (Misollar shu nashrdan).
8. So'fi Olloyor. *Sabotul ojizin. Manzuma*. Toshkent. "Yozuvchi", 8 bet.
9. So'fi Olloyor. *Sabotul ojizin. Taroziyu qiyomat bayoni*. Toshkent. "Yozuvchi", 6- bet
10. "Risolai aziza" – "Sabotul ojiziyn" sharhi // *Tuzuvchi: B. Hasan*. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2000. 66-bet (256-bet)
11. Yaxshiyeva Z. *Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi*. *fil. fan. diss. Qarshi.2021,142 b.*

MAYA ANJELU ASARLARINING ADABIY TANQIDCHILAR TOMONIDAN TAHLIL QILINISHI

*Urazaliyeva Madina G'ofurovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
O'zbekiston, Toshkent
madinaurazaliyeva4@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afro-amerikalik yozuvchi Maya Anjeluning hayoti va ijodining turli tanqidchilar tomonidan o'rganilishi va tahlili yoritilgan. Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asari bilan boshlanuvchi jami umumiy yettita romandandan iborat ulkan avtobiografik asarlari to'plamiga ham ta'rif berib o'tilgan. Adabiy tanqidchilar Maya Anjeluning avtobiografik romanini o'ziga xosligini bir necha o'ziga xos jihatlarini va ularning har biri muallif tomonidan alohida shaxsga bag'ishlov ekanligini ham qayd etib o'tganlar. Yozuvchining o'ziga xos she'riyatiga ham bir necha adabiy tanqidchilar nigohida maqolada to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: avtobiografik roman, Afro-amerikalik yozuvchi, qafasdagi qush, tanqidiy asar, badiiy unsur, memuar asar, formalist, an'anaviy unsurlar, jazz adabiyoti, o'zlikni anglash, jasorat.

АНАЛИЗ РАБОТ МАЙИ АНЖЕЛУ ЛИТЕРАТУРНЫМИ КРИТИКАМИ

Аннотация. В этой статье даётся обзор анализа и изучения жизни Майи Анжелу в её произведениях различными критиками. Кроме того, описаны автобиографические сборники Майи Анжелу, которые начинаются словами "Я знаю, почему поёт птица в клетке" и содержат в общей сложности семь романов. Литературные критики подчёркивают, что автобиографический роман Майи Анжелу имеет свои уникальные особенности, и каждая из них является посвящением автора определённому человеку. Уникальный поэтический стиль писателя рассматривается также в соответствии с обзором литературных критиков.

Ключевые слова: автобиографический роман, афроамериканский писатель, птица в клетке, критический роман, буквальный элемент, мемуарное произведение, формалист, традиционные элементы, джазовая литература, самооценка, смелость.

ANALYSIS OF THE MAYA ANGELOU'S WORKS BY THE LITERAL CRITICS

Abstract. This paper gives an overview of the analysis and study of Maya Angelou's life in her works by various critics. In addition, Maya Angelou's autobiographical collections are described, which begins with "I know why the caged bird sings" and contains a total of seven novels. Literary critics emphasise that Maya Angelou's autobiographical novel has its own unique features, and each of them is the author's dedication to a certain person. The unique poetic style of the writer is also considered according to the review of literary critics.

Key words: autobiographic novel, Afro-american writer, caged bird, critical novel, literal element, memoir work, formalist, traditional elements, jazz literature, self-evaluation, courage.

Kirish. Maya Anjelou, asl ismi Marguerite Johnson bo'lib, 1928- yilda Amerikaning Missouri shtatida tug'ilgan. Oiladagi tinimsiz kelishmovchiliklar va bir joyda muqim turmaslik Anjelou hamda akasining tarbiyasida jarohatli izlarni qoldirgan. Anjelou uch yoshga to'lganda ota-onasi ajrashishdi va akasi bilan uni buvisinikiga Arkansasga, ya'ni dadasining onasi bilan yashashga jo'natishdi [1]. U ulg'aygan jamiyat o'sha davrda nochorlik va irqiy kamsitishlarni boshdan kechirayotgan edi. Biroq eng yomoni hali oldinda edi: yetti yoshida u onasining yaqin kishisi tomonidan zo'rlandi va buni hech kimga aytmaslikka majbur qilindi. 1940-yilga kelib, San Franciscoda hozirgi Maya Anjelou ismi bilan sahnada aktrisa va qo'shiqchi bo'lib o'z faoliyatini boshladi. 1960- yillarda Janubiy Xristian Yetakchi uyushmasining shimoliy bo'limida yetakchilik qila boshladi va Martin Luter King kabi yetakchilar bilan hamkorlik qildi. O'zining dastlabki avtobiografik romani "Angladim qafasdagi qushlar nolasin"ni 1970- yilda nashr ettirdi va xuddi shu yilda bir necha she'riy to'plamlarini ham chop ettirdi [2].

Maya Anjelou kitobxonlar orasida mashhur bo'la boshlaganda, u allaqachon g'ayrioddiy hayot tarziga ega edi. 1960- yillar boshida o'zining Ganadagi muqim uyini topguniga qadar, Anjelou Amerikaning turli shaharchalarida, G'arb, Janub, Shimoldagi turli shaharlarda, Yevropaning yotoqxonalarida hamda Shimoliy Afrika poytaxtida yashagan. Maya Anjelou 16 yoshida San Fransisko ko'chalarida xayriya mablag'larini yig'uvchi bo'lib yollangan birinchi qora tanli ayol edi, bu uning hayotidagi uzun birinchiliklarning boshlanishi edi- televidenyada video film namoyish etgan ilk qora tanli ayol, Prezident qasamyodida she'r o'qigan birinchi Afro-Amerikalik ayol edi. O'z hayot yo'lini topib olgunga qadar, Maya Anjelou oshpazlik, ofitsiantlik, raqqosalik, qo'shiqchilik, aktrisalik, jurnalistlik, boshqaruvchilik kabi faoliyat orqali kun kechirgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Maya Anjelou ko'plab kasblarni muvaffaqiyatli egallab olgan. "Qafasdagi qush" ning yozilishi esa o'z hayotidagi g'aroyib sarguzashtlarini san'at darajasiga mohirona chiqarishni uddalaganini ko'rsatadi [3].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Maya Anjelou shaxsiyatiga va mahoratiga to'xtovsiz shon-sharaflar aytilishi uning asarlarini ilmiy jihatdan tanqid qiluvchilarning ko'lami kamligi bilan bog'liq emas. Jahon tarixida eng sermahsul ijod qilgan va asarlari eng ko'p sotilgan Afro-Amerikalik yozuvchi sifatida Anjelou umri davomida 36 ta kitob chop ettirdi [4]. Natijada, Mary Anjelou ijodini asosan ijobiy tomondan yoritishga bag'ishlangan bir nechta tanqidiy asarlar yaratildi- Mary Jane Luptonning "Maya Angelou: Tanqidiy asar" (1998) va Dolly McPhersonning "Order Out of Chaos: Maya Angelouning avtobiografik asarlari" (1990) kabilar eng mashhurlaridir, ehtimol [5]. Chop etilishi bilan klassikaga aylangan "Angladim qafasdagi qushlar nolasin" nomli ilk avtobiografik asari dastlab Joanne Braxton tomonidan tahrirlanib, 1999da chop etilgan tanqidiy asarga mavzu bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Mildred Mickle tomonidan qayta tahrirlanib, 2010 yilda qayta nashrdan chiqdi .

Kitobxonlarni ko'proq Maya Anjelouning jo'shqin hissiyotlari qiziqirsada, Anjelou hunarining ahamiyati xususida so'z yuritadi. Maya Anjelou: "Hunar o'rganish, tilning imkoniyatlarini anglash, tilni boshqara olish insonga odamlarni yig'latish, kuldirish, va hattoki, ularni jang qilishga boshlash imkonini beradi" deya izohlaydi. O'z navbatida, bunga erishish uchun so'z qudratini jilovlashni o'rganish zarur deydi Anjelou- "*Learning the craft, understanding what language can do, gaining control of the language, enables one to make people weep, make them laugh, even make them go to war,*" she explained. *To do so however, it was necessary to learn "how to harness the power of the word."* [6]. 18-19 asrda ham Afro-Amerikalik yozuvchilar keyinchalik adabiy asar deya tan olingan avtobiografik romanlar yozishgan, ammo asar g'oyasi san'at yok ijod bo'lmagan , balki ozodlik g'oyasi bo'lgan. Yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib, roman nasriy janr sifatida mualliflarga badiiy ilhom berdi, Anjelou esa buni o'zgartirishga kirishdi.

Maya Anjelouning dastlabki ijod mahsuli "Angladim qafasdagi qushlar nolasin" bo'lib, u avtobiografik asar hisoblanadi. Anjelouning har doim ham bir tekis kechmagan hayoti ushbu asarning tug'ilishiga sabab bo'ldi. Asar chindan ham Anjelouning u ulg'aygan va doimiy kurashlardan iborat jamiyatdagi taqiqlarni yengishga qaratilgan kurashini tasvirlaydi. S. A. Smith Angelouning ushbu asariga yuksak baho bergan holda quyidagi fikrni aytib o'tadi:" Anjelou R.Wright kabi o'z asarini har bir inson qochishga urunadigan kishanlangan jamiyat tasvirini jajji bolakay nigohi bilan ochib berishdan boshlaydi" "*like Richard Wright, she opens with a primal childhood scene that brings into focus the nature of the imprisoning environment from which the self will seek escape*" [7]. Asardagi tasvirlardan Anjelouning favqulodda kuchli xarakterli shaxs ekanligini ko'rish mumkin. S. Cudjoe and M. H. Washington kabi tanqidchilar ta'kidlaganidek, Angelou asardagi epizodlarni Afro-Amerika dabiyotida keng tarqalgan mavzu hamda badiiy unsurlar bilan uyg'unlashtirgan. "Anjelou zulmga bo'yin egmay,uni yengan ruhiy-ma'naviy kuchni; so'z qudratiga erkinlik berishni; so'zlangan hamda yozilgan; o'ziga xoslik va hamjihatlik; musiqiy metaforalar, xristian diniga oid alluziyalari hamda hikmatli so'zlarni ifodalaydi"-

" *She represents spiritual strength that resists and overcomes oppression; the liberating power of words, both spoken and written; the relationship between the individual and the collective, and the use of biblical allusions as well as musical metaphors and quotations.*" [8]. Robert Evans o'zining Maya Anjelouga bag'ishlangan maqolasida quyidagi jumlar bilan yozuvchiga bo'lgan tanqidiy qarashlarini qolipga solgan holda izoh beradi: "formalism, ayol tahlilchi, an'anaviy va yangi tarixchi, Markist tahlilchi, Retseptiv poetika nazariyasi, strukturalizm va dekonstruksiya."- "*formalism, feminist analysis, traditional historicism and new historicism, Marxist analysis, reader response criticism, structuralism, and deconstruction.*" [9]. Maqolada yozuvchi Maya Anjelou o'z asarini yaratishda yagona yondashuvdan foydalanmaganini, balki yondashuvlarning turli-tumanligi asarga ko'rk qo'shganligini ta'kidlaydi. Anjelouning memuar asarining badiiy jihatdan go'zalligiga misollar keltirib, adabiy tanqidchilarni asarni yana ham mukammal tahlil etishga chaqiradi.

“Angladim qafasidagi qushlar nolasin” nomli asaridan soʻng, Maya Anjelou oʻzi va akasining buvisinikidan ketishini va undan soʻng yuz bergan voqealarni tasvirlovchi “Nomim ila toʻplaning” (*Gather Together in My Name*) deb nomlangan ikkinchi asarini ommaga taqdim etdi. A. Gottlieb ushbu asardan kelib chiqib, Anjelou ga nisbatan shunday munosabat bildiradi: “Anjelou ashula va haqiqat kabi yozadi “-“writes like a song, and like the truth” [10], yaʼni tanqidchi bu oʻrinda asarning ashula kabi yoqimli, haqiqat kabi oʻtkir va achchiqligini nazarda tutmoqda. Yana bir tanqidchi D.Grumbach ham ushbu asar haqida yozar ekan, quyidagilarni taʼkidlaydi: Maya Anjelou kuchli ishtiyoq sohibasi, oʻtkir, tabiiy, tassavvur olami boy, ruhan tetik va mukammallikga ega boʻlgan shaxs- “it is apparent that Angelou is keen, sharp, earthy, imaginative, lyrical, spiritually bold, and seems destined for distinction” (Grumbach, p 12) [11]. S.A Smithdan farqli oʻlaroq, Frank L. Phillips Maya Anjelou ijodini bitta qolipga solingan holda tahlil qilish notoʻgʻri ekanligini taʼkidlab, buni shunday izohlaydi Maya Anjelou Himes va R.Wright singari stilist emas- “Maya Angelou is not the stylist that Himes is, nor a Richard Wright” [12].

Maya Anjelouning ijodi juda ham serqirra boʻlib, buni uning uchinchi asari boʻlgan “Oʻyna, kuyla, Rojdestva kabi quvna” (*Singin’ and Swingin’ and Gettin’ Merry Like Christmas*) romaniga nisbatan bildirilgan koʻplab ijobiy tanqidlardan ham bilish mumkin. Xususan, J.Jordan bu romanni komik operaning fantastik va yorqin uslubi bilan chegaradoshligini taʼkidlab, bu asarni mutoala qilish oʻquvchiga baʼzan yoqimliday tuyulsa, baʼzida unday boʻlmasligini aytib oʻtadi: “frequently borders on a light and fantastical style of comic opera. . . .that is sometimes delightful reading, and sometimes not” [13]. Shuningdek, A.P.Nilsen ham ushbu asardagi sheʼriy jumlar, badiiy ohangdorlik haqida soʻz yuritib, uni Anjelou sheʼriyatining “ajoyib debochasi” sifatida tavsiflaydi: “this book might make an exciting introduction to Angelou’s poetry” [14]. McPhersonning fikriga koʻra Anjelouning “Oʻyna, kuyla, Rojdestva kabi quvna” (*Singin’ and Swingin’ and Gettin’ Merry Like Christmas*) romani uning avtobiografik asarlari orasida eng mashhurlaridan boʻlib, unda muallifning gullab yashnagan balogʻat davrining tasvirini koʻrish mumkin (McPherson, 80). Ushbu asar Afro-Amerikalik yozuvchi ayol hayotini ilk marotaba uchinchi kitobga qadar uzaytirilib yozilishi bilan ahamiyatlidir. Bu kitobda ham oldingi ikkita asarda uchratish mumkin boʻlgan mavzular yoritilgan boʻlsada, kitobxon yana ayolning ona sifatida duch kelishi mumkin boʻlgan-yurakni ezuvchi muammolarini ham uchratadi. Yaxshiroq hayot berish va boshpana umidida bolasini tark etishi, qaddini tik tutib, kuchli ayol sifatida oʻzini kashf etishi kitobxoniga ham kuch bagʻishlaydi, oʻz jasorati sabab ilhomlantiradi. Ushbu asarda aynan Marguerite Johnsonni maʼlum bir kasb-korga ega boʻlish maqsadida Maya Angelouga aylanishi tasvirlanadi. Boshqa koʻplab olimlar singari D. McPherson ham asarni oʻqish davomida oʻquvchi Maya Angelou siymosi bilan toʻqnash kelganda kulgu, azob, joʻshqinlik, insof kabi tushunchalar bilan toʻqnashishini, hayotni har tomonlama toʻla his etgan va oʻzligini yoʻqotmagan insonni anglashini taʼkidlab oʻtadi [15].

Maya Anjelouning toʻrtinchi romanining sarlavhasi shoir G.D.Johnsonning sheʼridan olingan boʻlib, “Ayol qalbi” (*The Heart of a Woman*) deb ataladi. A.D.Miller ushbu kitob Afrika va Afro-Amerika tarixining eng ajoyib davrlarini oʻz ichiga olgani bilan ahamiyali ekanligini taʼkidlaydi: “covers one of the most exciting periods in recent African and Afro-American history” [16]. Hagenning yozishicha asarda muallif hayot uchun kurash, oʻzlikni anglash va taʼlim olish kabi doimiy mavzularga sodiq qolgan holda, “Ayol qalbi”ning qahramonini mukammal inson masalasiga qaratadi-“Faithful to the ongoing themes of survival, sense of self, and continuing education, *The Heart of a Woman* moves its central figure to a point of full personhood.” [17]. Shuningdek, Maya Anjelou ushbu avtobiografik asarda oʻzining yaqinlari bilan munosabatlari va onalik davri xususida soʻzlab beradi. Bundan tashqari, asarda oʻgʻli Guyning halokatga uchrashi, ozodlik kurashchisi Vusumki Make bilan munosabatlari, Guyning Ghana oliygohi qoshidagi kollejga tahsil olishga roziligi tasvirlangan hayajonli sahnalar ham mavjud. Ona sifatida Anjelou oʻgʻli mustaqil boʻlganiga va oʻzi ham shaxsiy kasbiy faoliyatiga vaqt ajratishi mumkinligini anglab qalbida hotirjamlikni his etadi.

Maya Anjelouning beshinchi avtobiografik asari muallifning qanchalik oʻz oʻtmishi -Afrika bilan chambarchas boʻlganini tasvirlaydi va “Yaratganning barcha farzandlari sayohat qilishi zarur” (*All God’s Children Need Traveling Shoes*) deya nomlanadi. B.T. Christian asarni tasvirlar ekan, kitob Afro-Amerikalik ayolning oʻz ajdodlari makoniga qilgan sayohati sabab ruhlanishi va mulohaza yuritishi natijasida yozilgan deydi. Muallifning oʻzi ham Afrika va Amerika xalqining yashirin tarixiga koʻproq eʼtibor qaratilishi zaruriyatidan muhim hujjatlarga nazar solish deb ataydi. Shuningdek, B.T.Christian muallifning Afrikaga sayohati haqida fikr bildirar ekan, Anjelou oʻzini Afro-Amerikalik sifatida ulardan ajralib turishini aniq his etsada, bu sayohat ajdodlari yashab oʻtgan makon bilan uni yana bir bor mustahkam bogʻlanishini taʼkidlaydi [18].

Anjelouning so'nggi romani "Onam, men va onam" (*Mom & Me & Mom* (2013)) deb nomlanadi. Ushbu avtobiografik asar qolgan asarlariga nisbatan xotima o'rnida yozilgan bo'lib, Maya Anjelouning butun hayoti tasvirlanadi, shu jumladan, onasi Vivian Baxter bilan ayrilishidan to qayta birlashishi, Anjelouning ayollar va qora tanlilarning erkinligini yoqlab chiqqan ovoz sifatida ulg'ayishi, yozuvchi, ona, yetakchi sifatida bosib o'tgan yo'lini aks ettirgan voqealardan iborat. Asarning ahamiyatli jihati shundaki, muallif avtobiografiya negizida yana bir biografiyani mohirlik bilan so'zlab beradi, ya'ni onasining o'tmishini ham o'zining hayoti bilan birga yoritib o'tadi. Kitobxon asarni o'qir ekan, ayol kishining jasoratidan ruhlanadi, muhabbat hamda mehrning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini his etadi, biroq muallif ushbu asar ruhlantirish yoki maqtovlar uchun emas, balki onasiga bo'lgan muhabbatini ifodalash uchun yozilganligini ta'kidlaydi. Asarning kirish qismida muallif tomonidan yozilgan fikrlar ham sevgining qanchalik insonga kuch baxshida eta olishini, uni imkoni yo'q deb hisoblangan marralarni, cho'qqilarni zabt etishga turtki bo'la olishini va aynan shularni Anjelou boshidan kechirganini ko'rsatadi: "*Love heals. Heals and liberates. I use the word "love", not meaning sentimentality, but a condition so strong that it may be that which holds the stars in their heavenly positions and that which causes the blood to flow orderly in our veins. This book has been written to examine some of the ways love heals and helps a person to climb impossible heights and rise from immeasurable depths*" [19].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi asarlarga nazar solar ekanmiz, shuni aytish joizki, Maya Anjelou o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda hayot yo'lini ma'lum davrlarga bo'lib tasvirlaydi. Buning uchun an'anaviy avtobiografik asar shaklini yanada kengaytiradi va yozishning o'ziga xos usullaridan foydalanadi. Garchi Anjelouning hikoya qilish uslubi ko'pchilik tomonidan dastlab tanqid qilingan bo'lsada, muallif o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotmaydi va huddi shu uslubda davom etadi. Uning avtobiografik asarlari turli sabablarga ko'ra o'ziga xos hisoblanadi. Masalan, muallifning hayoti faqatgina bitta kitobga "qoliplanmaydi", balki yettita asar shaklida qismlarga bo'lingan holda yoziladi va ularning barchasi yagona shaxs – Maya Anjelouning hayotiga bag'ishlanadi. Shuningdek, asar avtobiografiya bo'lishiga qaramasdan, syujet, qahramonlar, dialoglar va boshqa bidiiylik xususiyatlariga ega. Shuning uchun ham tanqidchi Burr Maya Anjelouning avtobiografik asarlari haqida shunday fikrlarni aytadi: "Anjelouning asarlari "ochiq-oshkora, ishonarli"- *to be representative rather than individual, authoritative rather than confessional*" [20].

Yana bir tanqidchilardan biri L.B.Hagen Anjelou ning asarlari va hayotining tasvirlanishi haqida fikr bildirar ekan, ularga nisbatan "o'z-o'zini anglash, kashf etish va qayta dunyoga kelish sayohati" deb ataydi- "*a journey of discovery and rebirth*" (Hagen, 95). Aslida ham uning hayoti shunchaki yozilgan o'tmish sahifalari emas, balki o'zligini va ertangi kunga umidini yo'qotmagan, doim hayotdagi qiyinchiliklarga yaxshi ko'z bilan qaragan qora tanli ayolning hayotiy hikoyasidir. L.B.Hagen uning asarlari vaqtan vaqtga, u joydan bu joyga ko'chib yuradi, voqealar ikkinchi jahon urushi boshlaridan Martin Lyuter Kingning qatl etilishigacha bo'lgan vaqtlarni qamrab, Arkanzas, Afrika va AQShda bo'lib o'tadi deb ta'kidlaydi [21].

L.Henry hamda P. Lespinasse kabi yozuvchilar Anjelou ijodiga ko'z yuritar ekan, u haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: Maya Anjelouning badiiy asarlarini mutoala qilish, yanayam yaqinroq tinglash orqali ichiga kirib borish kitobxon uchun foydalidir [22]. Zero, Anjelou qahramon tasvirida musiqiy ohangdorlik beruvchi ta'riflardan foydalangan va kayfiyatga mos sahnalarni yaratgan. Lespinasse o'z maqolasida Maya Anjelouning yozish uslubi jazz-adabiyoti- "*jazz-literature correspondence*" uslubi bilan uyg'unlashib ketganligini ham ta'kidlaydi, chunki bir paytlar Anjelou jazz musiqasiga juda ham qiziqqan va buni uning qisqa hikoyasi "Qayta birlashuv" ("The Reunion, 1992") da ham uchratish mumkin degan xulosani beradi [23].

M.J. Lupton esa o'zining "Ulkan daraxtlar qulaganda: Maya Anjelou she'riyati" ("When Great Trees Fall: The Poetry of Maya Angelou,") deb nomlangan maqolasida Anjelouning she'riy asarlariga nazar soladi. Muallif ushbu asarda Afro-Amerikaning og'zaki va yozma nutqining an'anaviy unsurlarini, qasidani hamda boshqa bir necha xususiyatlarini uchratish mumkinligini ta'kidlaydi [24]. Anjelouning she'riy uslubi o'ziga xos bo'lib, o'z davrida she'riy to'plam holga keltirilmagan. Shuningdek, prezident Bill Klintonning qasamyodida Anjelouning "Tonggi nashida" ("*On the Pulse of Morning,*") she'rining o'qilishi ham Maya Anjelouning she'riy janrda erishgan ulkan yutug'i sifatida baholanadi. Shuningdek, Anjelouning "Still I rise". "A Phenomenol Woman" kabi she'rlari kitobxonlarning olqishiga sazovor bo'lgan.

Ch. A. Wall ham boshqa tanqidchilar singari uning ijodiga yuksak baho bergan holda: "Maya Anjelou hayoti davomida avtobiograf yozuvchi, shoira, film sur'atga oluvchi va ssenariy muallifi sifatida samarali ishlar olib bordi va ulkan boylik qoldirdi, ularni o'rganishning turli innovatsion usullarini yaratish biz tanqidchilarning zimmasida, albatta, o'rganiladigan asarga mos tanqid bo'lishi kerak"- deb fikr bildiradi-

“*Maya Angelou left multiple legacies as an autobiographer, poet, filmmaker, and playwright .The stunning quantity of her work as well as its enormous breadth and variety call on critics to develop strategies that are as various, as innovative, and incisive as the work to which they respond. It is our task to develop a criticism worthy of its subject.*” [25].

Maya Anjelou odatda ko'plab ijodiy uchrashuvlarda o'zini avtobiograf yozuvchi hamda shoira sifatida tasvirlasada, u boshqa ko'plab janrlarda ham ijod qilganligini ko'rish mumkin. Zero, Anjelouning qisqa hikoyalari, bir nechta esselari, bolalar uchun kitoblari, oshpazlik sirlari haqidagi kitoblari, hikmatli so'zlardan iborat to'plamlari ham nashr etilgan. Muallif o'z asarlarining mohirona yozilmaganligini ochiq-oydin ta'kidlar edi. Buni quyidagi so'zlaridan ham anglash mumkin:” Hardoim ham yaratganlaringiz mukammal shohona asar bo'lmasligi mumkin, biroq asosiysi bu- yozishni chin yurakdan istashingiz, shohona asarni yozarsiz ham, boshqa tomondan ko'ngil yayraydi,miyangiz dam oladi. Bu ham yaxshi.”- “*Now, not everything you do is going to be a masterpiece,*” she conceded. “*But you get out there and you really try and sometimes you really do, you write that masterpiece, you sing that classic. The other times you're just stretching your soul, you're stretching your instrument, your mind. That's good.*” [26]. Ushbu so'zlari bilan, Maya Anjelou adabiy tanqidchilarning o'ziga nisbatan bildirilgan fikrlariga parvo qilmasligini, kitobxon uning hikoyasidan ko'ngliga yaqin kechinmalarini rostdan his qilsa , asarlari o'qilaverishini ham nazarda tutadi.

Hozirgi kunda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida Maya Anjelouning avtobiografik romanlari Amerika maktab hamda oliygohlarda keng miqyosda o'qitiladi va o'rgatiladi. Anjelouning telepyessalari adabiy tanqidchilar tomonidan chuqur o'rganilmaganligi tufayli juda ham mashhur emas. Ba'zilar uning she'riyati o'ta soddaligi uchun Amerika she'riyat xazinasiga kiritishga munosib emas degan fikrlarni ham bildirishgan. Biroq, Anjelouning haqiqiy muxlislari yuqoridagi fikrlarga qaramasdan, uning ijodini hali-hamon mehr bilan mutoala qilishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maya Anjelou nafaqat Afro-Amerikalik ayol yozuvchi , balki o'z hayot yo'lini she'riy hamda nasriy asarlarda ifoda eta olgan serqirra ijodkordir. Anjelou she'riyatini haqidagi ilmiy maqolalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning she'riyati yuqorida ta'kidlanganidek sodda deb hisoblansada, ko'p marotaba lingvistik tahlil etilgan va o'rganilgan. Shu jihatdan, uning avtobiografik asarlaridagi hikoyalarni o'qish va o'rganish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu hikoyalarning turli mavzu, turli yosh, turli davrlarni qamrab olganligi adabiyot darolarida har xil dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchilarning, albatta, e'tiborini jalb qila oladi. Zero, Maya Anjelou har bir inson boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan hayotning turli past-balandliklari va uni yengib o'tgan jasoratli inson haqida yozgan.

ADABIYOTLAR:

1. Kort Carol. "Angelou, Maya." *A to Z of American Women Writers, Revised Edition*. New York: Facts On File, Inc., 2007. (Updated 2014.) Bloom's Literature. Facts On File, Inc. Web. 11 Mar. 2016 <<http://www.fofweb.com/activelink2.asp?ItemID=WE54&WID=104985&SID=5&iPin=ffazwmwr0005&SingleRecord=True>>.
2. Kort, Carol. "Angelou, Maya." *A to Z of American Women Writers, Revised Edition*. New York: Facts On File, Inc., 2007. (Updated 2014.) Bloom's Literature. Facts On File, Inc. Web. 11 Mar. 2016 <<http://www.fofweb.com/activelink2.asp?ItemID=WE54&WID=104985&SID=5&iPin=ffazwmwr0005&SingleRecord=True>>.
3. Cheryl A. Wall. *Maya Angelou: Toward a Criticism Worthy of Its Subject*. SPECIAL ISSUE: *The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal*. Volume 58, Nos. 1-2. CLAJ (ISSN 0007-8549). p 2.
4. Claudia Johnson, ed. *Racism in Maya Angelou's I Know Why the Caged Bird Sings* (Detroit: Greenhaven Press, 2008).
5. Claudia Tate, "Maya Angelou," in *Conversations*, 149.
6. Smith, Sidonie Ann. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).
7. Washington M. H. 1987. *The Darkened Eye Restored: Notes Toward a Literary History of Black Women*. <https://doi.org/10.1215/9780822399889-033>. Published: 1994.
8. Selwyn R. Cudjoe, "Maya and the Autobiographical Statement," *Black Women Writers (1950-1980) A Critical Evaluation*, ed. Mari Evans (New York: Anchor Press/Doubleday, 1984), p. 14.
9. Robert Evans. *Maya Angelou's I Know Why the Caged Bird Sings and the Advantages of a Pluralist Close Reading*. SPECIAL ISSUE: *The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal*.

LITERARY CRITICISM

Association Journal . Volume 58, Nos. 1-2. *CLAJ* (ISSN 0007-8549). P 36-47.

10. Gottlieb, Annie. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
11. Grumbach, Doris. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 12
12. Phillips, Frank L. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 12
13. Jordan, June. "Maya Angelou 4 April 1928" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980). P 13
14. Nilsen, Alleen P. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 14
15. McPherson, Dolly A. *Order of Chaos: The Autobiographical Works of Maya Angelou*. New York: Peter Lang Publishing, 1990. P 90
16. Miller, Adam David. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
17. Hagen, Lyman B. *Heart of a Woman, Mind of a Writer, and Soul of a Poet: A Critical Analysis of the Writings of Maya Angelou*. Lanham, New York: University Press, 1997. P 107
18. Christian, Barbara T. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
19. Angelou, Maya. *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. New York: The Modern Library, 2004.
20. Burr, Zofia. *Of Women, Poetry, and Power: Strategies of address in Dickinson, Miles, Brooks, Lorde, and Angelou*. Urbana and Chicago: University of Illinois Press, 2002. P 183
21. Hagen, Lyman B. *Heart of a Woman, Mind of a Writer, and Soul of a Poet: A Critical Analysis of the Writings of Maya Angelou*. Lanham, New York: University Press, 1997. P 95
22. Lorraine M. Henry. *The "Voice of Melody": Healing and Transformation in Maya Ahgelou's Life Narratives*. *CLA Journal*Vol. 58, No. 1/2, *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou* (SEPTEMBER/DECEMBER 2014), pp. 48-64 (17 pages).
23. Lespinasse, Patricia G. *The Drum Is a Wild Woman.Jazz and Gender in African Diaspora Literature*. NYU Press. 164 p.
24. Lupton M. J. "When Great Trees Fall": *The Poetry of Maya Angelou*'. *CLA Journal* Vol. 58, No. 1/2, *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou* (SEPTEMBER/DECEMBER 2014), pp. 77-90 (14 pages).
25. Cheryl A. Wall. *Maya Angelou: Toward a Criticism Worthy of Its Subject* . *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal* . Volume 58, Nos. 1-2. *CLAJ* (ISSN 0007-8549). p 9 .
26. Beth Ann Krier, "Maya Angelou: No Longer a Caged Bird," in *Conversations*, 51.

BADIIY MATNDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING VOQELANISHI

Xolova Madina Boboqulovna,

Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy tillar fakulteti

Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

madinaxolova1987@gmail.com

Annotatsiya. Xushmuomalalik strategiyalari o'zaro muloqotda ma'ruzachilar tomonidan o'zboshimchalik bilan tanlanmaydi. Aksincha, strategiyani tanlash ma'ruzachilarning nisbiy kuchi, ularning ijtimoiy masofasi va nutq paytida nima sodir bo'layotgani kabi bir qator kontekstual xususiyatlar (ijtimoiy-madaniy o'zgaruvchilar) bilan cheklanadi. Ushbu tadqiqot xushmuomalalikning lingvistik strategiyalariga, aniqrog'i, badiiy adabiyotda ifodalangan ijobiy va salbiy xushmuomalalikka qaratilgan. Tanlangan asar Jojo Moyesning "Me before you" romani bo'lib, unda bosh qahramon Luiza Klark deyarli hamma bilan do'stona va ijtimoiy uyg'un munosabatlar o'rnatish uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Ushbu tadqiqotda nutq aktlari va xushmuomalalik strategiyalariga e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotda e'tiborga molik yana bir nuqta - tinglovchiga tushadigan yukni yumshatish va ular o'rtasida pragmatik muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun har bir guruh tomonidan qo'llaniladigan xushmuomalalik strategiyalarining turlari o'rtasidagi farqni taqqoslashdir. Bu taqqoslash Braun va Levinson (1987) taksonomiyasiga asoslangan.

Kalit so'zlar: xushmuomalalik strategiyalari, ijobiy xushmuomalalik, salbiy xushmuomalalik, pragmatik kompetensiya

АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ ВЕЖЛИВОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация. Стратегии вежливости не выбираются говорящими во время взаимодействия произвольно. Скорее, выбор стратегии ограничен рядом контекстуальных особенностей (социокультурных переменных), таких как относительная власть говорящих, их социальная дистанция и то, что происходит во время речи. В данном исследовании основное внимание уделяется лингвистическим стратегиям вежливости, а именно позитивной и негативной вежливости, выраженной в художественной литературе. В качестве романа выбран роман Джоджо Мойес «Я перед тобой», в котором главная героиня Луиза Кларк изо всех сил старается быть дружелюбной и социально гармоничной почти со всеми. В данном исследовании основное внимание уделяется речевым действиям и стратегиям вежливости. Ещё одним интересным моментом в этом исследовании является сравнение различий между типами стратегий вежливости, используемых каждой группой, чтобы смягчить навязывание слушателю и избежать прагматической ошибки/неудачи между ними. Это сравнение основано на таксономии Брауна и Левинсона (1987).

Ключевые слова: стратегии вежливости, позитивная вежливость, негативная вежливость, прагматическая компетентность.

ANALYSIS OF POLITENESS STRATEGIES IN LITERARY TEXT

Navoiy-Foniylar fors-tojik adabiyotining g'azal ustodlari Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy bilan bellashar ekan, nafosatda ham, fasohatda ham ulardan aslo qolishmaydigan badiiy durdonalar yaratdi. Bunda ulug' Navoiy fors-tojik adabiyoti suxan maydonining ajoyib chavandozlari Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy va boshqalar bilan bellashib ko'rishni, bu sohada balog'at va fasohat ko'rsatishni, so'ng esa ona tili – qadimgi o'zbek tilida lirik va epik asarlar yaratib, o'z xalqini yakqalam qilish, o'zbek she'riyatini ham yuksak badiiyat ko'kiga ko'tarish maqsadini oldiga qo'ygan. Navoiy o'zining o'zbek tilidagi g'azallaridan devon tuzishda ham salafllari Xusrav Dehlaviy, Jomiy va ayniqsa, Xoja Hofiz devonlarini asos qilib oldi. Bu haqda u "Bado'e ul-bidoya" devoniga yozgan debochasida quyidagicha ma'lumot beradi: "... Ammo ash'or tadvin qilg'onlardan ba'zekim baho mulkida foniydurlar va ba'zekim holo fano dayrida boqiydururlar. Avvalg'i zumradin bovujud dard beshasining g'azanfari va ishq otashgohining samandari, javohir ma'naviysi – Amir Xusrav Dehlaviy... va fano mayxonasining rindi xirqachoki va balo paymonasining masti beboki, ishq muhabbat asrori aminlarining hamrozi – Xoja Hofiz Sheroziy ... va so'ng'i quds shabistonining sham'i anvori va uns gulistonining andalibi suxanvari, balog'at shakkaristonining to'tii shirinkalomi janob maxdumiy mavlono Abdurahmon Jomiy ... devonlari iroda bo'lg'ay..." [Alisher Navoiy. MAT. Badoe' ul-bidoya.. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. 3-bet].

Hofiz – dilbar she'riyat meros qoldirgan ijodkor. Uning o'ynoqi, yuksak mahorat bilan aytilgan mazmundor asarlari Sharq G'arbda dovruq taratgan. Shuning uchun ham Hofizga ergashish, undan o'rganish, she'rlariga javob aytish, tatabbu' qilish, she'rlariga muxammas bog'lash badiiy so'z san'ati mulkida tabarruk an'ana sifatida yashab keladi. Ana shunday ulkan so'z san'atkorining ma'naviy merosi Alisher Navoiy e'tiborini o'ziga tortadi. Shu boisdan ham “Navoiy Hofizni dohiy san'atkorlardan biri deb tanigan, u bilan bir umr qiziqqan, o'z poetik ijodida uning eng ilg'or g'oyaviy-badiiy an'alarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirgan”.

Bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fors adabiyoti tarixida asta-sekin taraqqiy etib kelgan insonparvarlik g'oyasi Hofiz Sheroziy ijodida yuksak cho'qqiga ko'tarilib, G'arbdagi Uyg'onish davri adabiyotida muayyan bir oqimga aylangan gumanizm darajasiga yuksala oldi. Hofiz Sheroziy ijodi fors-tojik yozma adabiyotiga xalqdan kirib kelgan va Ro'dakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy va boshqalar ijodida rivojlantirilgan insonparvarlik g'oyalariga ma'lum darajada yakun yasadi. Shu nuqtayi nazardan Hofiz ijodi fors-tojik adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich, katta bir manzil bo'ldi.

Sharqda gumanizm va Uyg'onish davri G'arbdan oldinroq boshlandi, deyishga asos beradigan ma'lumotlar Sharq xalqlari adabiyoti tarixidan yetarlicha topiladi. Biz fors va o'zbek mumtoz adabiyoti ma'lumotlariga tayanib, N.I.Konradning “Uyg'onish davri Sharqdan boshlangan, Uyg'onish davrining boshlanishi Sharqda, oxiri G'arbda”, degan fikrlariga to'la qo'shilamiz. Bu fikrga qo'shilgan I.S.Braginskiy “Fors-tojik adabiyotini davrlarga bo'lish” degan maqolasida shunday degan edi: “Xuddi shu she'riyat, ya'ni X- XV asrlardagi fors-tojik she'riyati dunyo adabiyotiga qo'shilgan eng e'tiborli hissa bo'ldi, chunki u XII asrda Tan poeziyasidan boshlanib, Eron klassik she'riyati orqali XIV- XVI asrlarda Yevropadagi gumanizmning ko'tarilishi va gullab-yashnashi bilan bog'liqdir. Shunisi e'tiborga sazovorki, N.I.Konrad mana shu davrning hammasini Uyg'onish davri deb atashni va undan ilk davr – Sharq Uyg'onish davrini ajratib ko'rsatishni taklif etadi. G'arbdagi eng yirik eronshunos va adabiyotshunos E.Braun ham fors she'riyatining mumtoz davrini “Uyg'onish davri” deb ataydi. Albatta, bu ikki olimning har biri shu atamaga faqat umumiy bir tushunchagina emas, balki ko'pgina o'zga xil mazmunlar ham beradi. Ammo bu masalada ularning fikridagi umumiylikni ta'kidlab o'tish muhimdir”. Hofiz ijodi mana shu Sharq Uyg'onish davrining cho'qqisi yoki G'arb Uyg'onish davrining arafasi bo'ldi.

Fors-tojik mumtoz shoirining badbinlik va tarkidunyochilikni qoralovchi, hayot shodliklari: bahor, ishq, gul, may va boshqa ne'matlarni vasf etuvchi g'azal va ruboiylari Navoiy dunyoqarashi va ruhiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning fors tilida barkamol g'azallar yaratishida muhim rol o'ynadi.

Aslida, Alisher Navoiy ijodi chuqur an'anaviy ildizga tayanadi. U o'z salafllari ijodini keng o'rganib, ular ijodini rivojlantirib, yuksak shakl va teran mazmunli original asarlar yarata oldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Hofiz va Foniylar mavzusi juda keng bo'lib, u chuqur tarixiy va adabiy tadqiqotlarni talab qiladigan katta ishdir. Tojik olimi, akademik Abdulg'ani Mirzoev buni alohida ta'kidlab: “Alisher Navoiyning Xoja Hofiz merosiga munosabati asoslarini yoritish uchun bu ikki so'z ustasining bir-biriga aloqador bo'lgan asarlarini muqoyasa qilishdan tashqari, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining mazkur ikki asrdagi ijtimoiy, ma'naviy qarashlari, madaniy hamda adabiy hayoti va shuningdek, shunga bog'liq bo'lgan boshqa sotsial omillarni mukammal ko'rib chiqishimiz lozim”, -degan edi.

Garchi Hofiz va Navoiy-Foniylar hayoti hamda ijodi xususida alohida-alohida holda V.V.Bartold, E.E.Bertels, I.Braginskiy, A.Mirzoev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Hayitmetov, V.Abdullaev, P.Shamsiev, Sh.Shomuhamedov, N.Komilov, H. Eshonqulov va boshqalar ilmiy ishlar qilishgan, qator maqolalar e'lon qilishgan bo'lsa-da, A.Mirzoevning “Foniylar va Hofiz” sarlavhali maqolasini istisno qilganda, bu ikki shoir ijodi bog'liq holda (Hofizning Navoiy fors merosiga ta'siri bilan bog'liq tadqiqotlar nazarda tutilmoqda) va Alisher Navoiyning Xoja Hofiz asarlariga munosabati masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Navoiy o'zini katta ishlarga ilhomlantirgan ustozlarini minnatdorchilik bilan eslaydi:

G'azalda uch kishi tavriddur ul nav'

Ki andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.

Biri mo'jazzbayonlig' sohiri Hind,

Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.

Biri isonafaslig' rindi Sheroz

Fano dayrida mastu louboliy [**Alisher Navoiy. MAT. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan. 1990. – B.516].**

Hofiz ijodiga xolisona va yuksak baho beradi. Masalan, “Nasoyimul-muhabbat” asarida: “Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy – alar lison ul-g'ayb va tarjimon ul-asrordurlar...” - deydi. Shuningdek,

“Mahbub ul-qulub” asarining o‘n oltinchi faslidagi “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” va “Ishq zikrida” boblarida ham ulug‘ shoir haqida iliq gaplarni aytadi.

Navoiy davri an‘anasiga ko‘ra, turkiy tilda ijod qiluvchilar o‘z qalamlari kuchini Ro‘dakiy, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Sa‘diy, Hofiz kabi nazmpirodlarni yetkazib bergan fors-tojik she‘riyatida sinab ko‘rishgan. Jumladan, Navoiy fors-tojik tilida Foni taxallusi bilan barkamol nazm namunalari yaratdi. Uning bu lisondagi she‘rlarining ko‘pchiligi Hofiz g‘azallariga javobiydir. Buni o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmida yashagan samarqandlik tazkiranavis shoir Abdumutalib Xoja Samarqandiy - Fahmiy o‘z tazkirasida ta‘kidlab: “Va dar ash‘ori turki taxallusi vay Navoi ast va dar forsi Foni taxallus nihoda... Dar shuhrat hamon hukm dorat, ki dar forsi ash‘ori obdori Mavlono Jomi va devoni hazrati Xoja Hofizi Sheroziro javob gufta...” (“turkiy she‘rda taxallusi Navoiydur va forsiyda Foni taxallus... Mavlono Jomiyning go‘zal she‘rlariga va Xoja Hofiz Sheroziy hazratlarining devoniga javobi bilan mashhurdir”),- deydi.

Foniyning o‘zi esa bir g‘azalida:

Ba rohi agar mushkuli fitad, Foni,

Zi ruhi Hofizu ma‘nii Jomiyash jo‘yam.

(Ey Foni, ishq yo‘lida boshimga mushkullik tushguday bo‘lsa, uni bartaraf qilishda Hofiz ruhidan va Jomi ma‘nosidan madad tilayman) – degan edi.

Navoiy “Devoni Foni” haqida “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida: “Yana forsiy g‘azaliyot, Xoja Hofiz tavridakim, suxanadolar va nazmpirodlar nazarida mustahsan va matbu‘dur, tartib beribmenkim, olti mingdan abyoti adadi ko‘prakdurki, ko‘prak ul hazrat she‘riga tatabbu‘ voqe‘ bo‘libdur”, - deb yozadi. Darhaqiqat, “Devoni Foni”dagi 554 g‘azaldan yarmiga yaqini Hofiz g‘azallariga tatabbu‘dir. Foni bunday g‘azallarini “Dar tatabbu‘i Xoja Hofiz”, “Tatabbu‘i Xoja”, “Muxtare” (Yangi badiiy ifoda vositalari bilan yangi g‘oyalar ilgari surilgan she‘r) deb nomlagan bo‘lsa, ba‘zilariga “Dar tavri Xoja” deb qo‘ygan.

Nega Navoiy, asosan, Hofiz g‘azallariga tatabbu‘lar yozdi, ko‘proq unga ergashdi, degan tabiiy savol tug‘iladi. Bunga Hofizning mashhur “Agar on turki Sherozi...” deb boshlanuvchi g‘azaliga Foni tatabbu‘si maqta‘ini javob tariqasida keltirish mumkin:

G‘azal guftan musallam shud ba Hofiz shoyad, ey Foni,

Namoyi choshni daryuza z-on nazmi jahonoro.

(Hofiz g‘azallariga hamma qoyil qolgan, Ey Foni, o‘sha jahonni bezatgan nazmdan sen ham biroz tilanib olsang bo‘lardi).

Alisher Navoiy Hofiz g‘azaliyotini lirik she‘riyat mezoni deb bilganligi aniq. Chunki Hofiz o‘z g‘azallari bilan xalqning ulkan mehr-muhabbatiga sazovor bo‘lgan edi. Shuning uchun Foni forsiy g‘azaliyotda ana shu so‘z ustasiga ergashdi, uning g‘azallariga tatabbu‘lar yozdi. Sharqshunos olim Sh.Shomuhamedov esa Hofiz g‘azaliyotining Navoiy ijodiga ta‘siri xususida to‘xtalib: “G‘azalsarolikda Hofiz Sheroziy an‘anasini davom ettirib, forsiy va turkiy tillarda bu daraja yuqori ko‘tarilishi Navoiyni XIII-XV asr G‘arb adabiyotidagi ulug‘ gumanist shoirlar bilan yana ham yaqinlashtiradi”, - deydi. Professor E.E.Bertels nazirago‘ylikning asl mohiyatini juda to‘g‘ri ta‘kidlab, “nazira mualliflari javob aytilayotgan asar syujetini aniq takrorlashdan qochibgina qolmay, aksincha, uni tamoman yangicha original yoritishga intilganlar”, - deydi.

Hofiz vafotidan keyin unga “Lison ul - g‘ayb”, ya‘ni “G‘oyibning tili” degan laqab berdilar. Shoir devoni fol kitobiga aylantirib yuborildi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul- muhabbat” asarida bu xususda to‘xtalib: “Xojalar silsilasidan azize debdurki, hech devon Hofiz devonidan yaxshiroq emas, agar kishi so‘fiy bo‘lsa. Bu faqirg‘a andoq ma‘lum bo‘lubdur va mashhur mundoqki, hazrati Mir Qosim alarning devonini Qur‘oni forsiy der ermishlarki, kalom oyoti ma‘nosidan mamlu‘ va asror va nukotidin mashhurdir”.

Alisher Navoiy Hofiz Sheroziyni g‘azalchilikda o‘z asrida yagona deb hisoblaydi. Bu haqda uning “Muhokamat ul- lug‘atayt” asaridan o‘rin olgan quyidagi fikrlari muhim: “G‘azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin Sa‘diy va yagonayi asr Xoja Hofizi Sheroziydekki, bularning ta‘rifi yuqoriroq chun shammai suruluptur va vasflarig‘a qalam uruluptur...”

U o‘zining “Mahbub ul - qulub” asarida ham bu fikrini yanada ochiqroq ifodalaydi: “...Forsiy iboratda... yana bir jamoatdurki, haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut qilibdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar. Andoqki, maoniy ahlining nuqtapardozi Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy va ishq guharining pokvaz va pokravi xusrav Dehlaviy va ma‘ni adosig‘a lofiz Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz”. Hofiz o‘zining insoniy hissiyot va kechinmalarini yuksak mahorat bilan tasvirlab, buyuk shoirlarni ham hayratda qoldirgan edi. Alisher Navoiy nazarida Hofizning bu ajoyib xususiyati badiiy ijodiyot sohasida karomatday tuyulardi.

Alisher Navoiyning Xoja Hofizga 237 ta tatabbu' bitdi. Uning naziralari ichida **tatabbu'- tazminlar** ham uchrab turadi. Hofizning quyidagi baytini Navoiy aynan keltiradi:

Biyo, ki qasri amal saxt sustbun'yod ast,

Biyor boda, ki bun'yodi umr barbod ast [Hofizi Sherozi. Kulliyot. – Dushanbe: Irfon, 1983.Sah-73].

U Hofizning g'azallarida talqin qilingan mavzular, olg'a surilgan g'oyalarga javob aytish jarayonida o'z fikrini dalillash, tasvir ta'sirchanligi va bo'yoqdorligini oshirish maqsadida bu usulga murojaat etadi. Xuddi shunday hodisani Alisher Navoiyning quyidagi tatabbu' g'azalida ham ko'rish mumkin:

Biyo, ki arsai mayxona ishrat obod ast,

Zi soxtash xasi anduh ro'fta barbod ast.

Kitobayi dari oli-sh in raqam k-in dar,

Ba on, ki az du jahon ro' natoft nakshod ast,

Zi toqi murtafnash in sado rasida ba go'sh,

“Biyo, ki qasri amal saxt sust bunyod ast”,

Ba so'i mug'bacha rindon-ro xitob, ki xez

“Biyor boda, ki bunyodi umr barbod ast”.

Surudi nag'magarash in, ki dodu aysh dihed,

Ba nuqlu boda, ki kori zamona bedod ast.

Sabu zi g'ulg'uli may karda in nido, ki bino'sh,

Qadahki dayri ko'hanro base chu tu yod ast.

Ba jilva z-oinai jom chehrai maqsud.

Ki mast gashta ba o' chashmi har ki aftodast.

Bidor, soqi, az on jomi may, ki shud umre,

K-az ishtiyoqi vayam kor ohu faryod ast.

Ki mast gashta, kunam tarki xesh chun Foni,

Har on, ki masti xarob in chunin shud obod ast [Alisher Navoiy. MAT. 18-tom. – Toshkent: Fan. –

B.216].

Ko'rinadiki, Navoiy-Foniy Hofiz g'azalida o'rta qo'yilgan g'oyaviy maqsadni ijodiy rivojlantirgani holda o'ziga manzur tushgan o'sha asarning matlayini ham aynan keltirgan. Bu, shubhasiz, ulug' o'zbek shoirining Sharq she'riyati, xususan, g'azalchiligi ustasiga bo'lgan samimiy muhabbati, katta ishtiyoqi va ixlosidan guvohlik beradi. Alisher Navoiy Hofiz Sheroziydek buyuk ijod sohibi ma'naviy merosini baland zavqu shavq bilan o'qir ekan, o'sha nazmiy bo'standan o'ziga ma'qul tushgan, g'oyaviy konsepsiyasiga mos keluvchi she'rlarnigina tanlab, o'shalarga javobiyalar yaratdi. Yuqoridagi g'azalda ham dunyo va uning tuzilishi, asoslari xususida o'ta zukkolik, falsafiy teranlik va mushohadakorlik bilan aytilgan fikrlar o'rta qo'yilgan. Bu xulosalar Alisher Navoiyning yuksak ideallariga har jihatdan to'g'ri kelar edi. Shuning uchun u mazkur g'azalga tatabbu' qilibgina qolmay, Sharq she'riyatining qo'shaloq adabiy hodisasini ishga solgan, dilkash tatabbu'-tazminlar yaratgan. Tatabbu'-tazminlar yaratish jarayonida ham ijodiylik, an'ana zaminida tug'ilgan novatorlik ulug' shoirning diqqat markazida turgan.

Xulosa shuki, Alisher Navoiy so'z mulkidagi buyukligini fors-tojik tilidagi asarlari misolida ham yorqin ko'rsata olgan. Uning qalami tuhfa etgan tatabbu' va javobiya g'azallar nafaqat o'zbek, balki o'n beshinchi asrning ikkinchi yarmidagi fors-tojik adabiyoti xazinasiga ham qo'shilgan bebaho boylikdir. Navoiy o'zining ikki tildagi shoh asarlari bilan ikki bir-biriga qardosh, qondosh xalq ma'naviy manfaatlari uchun xizmat qildi, ularning birodarligini yanada mustahkamlashda sharafli vazifani ado etdi.

Garchi Foniy g'azallari mavzusi Hofiznikiga yaqin bo'lsa-da, ko'pgina jihatlari bilan ulardan farq ham qiladi. Sherozlik nazm ustasining g'azallari baytlari mazmunan bir-biri bilan mustahkam aloqada emas. Bu xususiyat kamchilik emas. Baytlar mustaqilligi shoirga lirik mavzudagi g'azallarga falsafiy mushohadali baytlarni joylashtirish imkonini bergan. “Hofiz baytlarini bekorga gavhar shodalariga o'xshatishmaydi. Uning g'azallaridagi ayrim baytlar tashlab ketilsa va o'rni almashtirilsa ham sezilmaydi. Shu bois, Hofizning turli yillarda ko'chirilgan va chop etilgan devonlarida ayrim baytlarni tashlab ketish yoki ular o'rni almashtirishdek hollarga yo'l qo'yilgan”.

Foniy g'azallari esa *musalsalligi, ya'ni voqeabandligi* bilan ajralib turadi. Ularda bir mavzu chuqur va izchil yoritiladi. Hofiz g'azallarida aks etmay qolgan jihatlariga urg'u berish, uning fikrini to'ldirish va yangi sharoitlarda rivojlantirish, mavzuni yangi-yangi tasviriy vositalar yordamida ochish Foniy tatabbu'lariga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham fors-tojik adabiyoti tarixida g'azal taraqqiyotini chuqur tekshirgan olim A.Mirzoev Foniy g'azallarini Hofiz Sheroziy g'azallari bilan muqoyasa qilib tekshirar ekan, quyidagi

xulosaga keladi: “Alisher Navoiyning ...g‘azalida, umuman, yangi mazmun va latif tasvir shu daraja baland va mohirona keltirilganki, ular batamom mustaqil va XV asrning birinchi yarmidagi fors-tojik she‘riyatida birinchi darajali asarga aylanganlar. Bu ahvol “Foniy” devonida tasodifiy bir hodisa emas, Alisher Navoiyning fors-tojik nazmida ustodligi va baland mahorati nishonasini uning har bir nazira yoki mustaqil g‘azalida ko‘pmi-ozmi yaxshi mushohada qilish mumkin. Navoiy ijodining bu qismini mutolaa qilishdan shunday tasavvurot hosil bo‘ladiki, o‘zbek adabiyotining asoschisi fors-tojik adabiyoti tarixida ham o‘z maqomini haqiqatan yaxshi tayin eta olgan. Shunday qilib, Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixiga XV asr fors-tojik g‘azalga‘yilgida eng yaxshi shoirlardan biri bo‘lib kiradi”.

Olim “Foniy va Hofiz” maqolasida ta’kidlab, quyidagi misolni keltiradi:

Voizon k-in jilva bar mehrobu minbar mekunand,

Chun ba xilvat meravand, on kori digar mekunand.

(Voizlar mehrob va minbarda bu xildagi gaplarni qilsalar-da, xilvatga borganlarida boshqacha ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladilar).

A.Mirzoev Foniyning shu matla’ bilan boshlanuvchi g‘azalga yozgan tatabbu’si Hofiz she’rini to‘ldirib, uning fikrlarini rivojlantirib kelganligini aytadi. U Navoiyning Hofiz g‘azallariga tatabbu’ tariqasida yozilgan “mekunand”, “andozem” radifli g‘azallarini atroflicha qiyoslab va tahlil etib, quyidagi xulosaga keladi: “Alisher Navoiyning fors-tojik she‘riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko‘rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g‘azallarining har birida ma’lum darajada aniq ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarining shu qismi mutolaasidan shunday tasavvur tug‘iladiki, o‘zbek adabiyotining asoschisi o‘zining fors-tojik she‘riyati tarixidagi o‘rnini, haqiqatan ham, juda yaxshi belgilagan.

Shu tariqa Alisher Navoiy faqat o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi – adabiyot san’at ahlining homiysi hamda XV asrning ikkinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining ilm, adabiyot va san’at taraqqiyotiga qudratli asoschi bo‘libgina qolmay, balki Abdurahmon Jomiydan keyin XV asr fors-tojik g‘azalchiligining eng buyuk vakillaridan biri sifatida bizning adabiyotimiz tarixidan ham munosib o‘rin oladi”. Adabiyotshunos olim bu Foniyning dastlabki baytidanoq ko‘rinadi, deydi.

Foniy:

Voizon to chand man’i jomi sog‘ar mekunand,

Chun dimog‘i xushro ham gah-gahe tar mekunand.

(Voizlar jom-sog‘arni man etsalar-da, goh-gohida o‘zlari ham u bilan dimog‘larini ho‘llab turadilar).

Hofiz baytida voizlarning nima haqida gapirganlari, nimani man etganlari ochiq aytilmaydi, ularning xilvatga borganlarida turli ishlar bilan shug‘ullanishlari mavhumroq aytilsa, Foniya ularga tomoqlarini o‘zlari man etgan narsalar, ya’ni Qur’oni karimda harom deb tilga olingan may bilan ho‘llab turadilar, degan ayb qo‘yiladi. Bunday misollarni Foniyning boshqa tatabbu’larida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Hofiz bir g‘azali matla’sida shunday deydi:

Do‘sh az masjid so‘i mayxona omad piri mo,

Chist yoroni tariqat ba’d az in tadbiri mo?

Ya’ni:

Keldi masjididan bu kech mayxona sori pirimiz,

Ne bo‘lur yo‘ldoshlarim, bundan keyin tadbirimiz?

Foniy o‘z javobiyasining dastabki baytidanoq uning savoliga javob berib, to‘ldirib hukm chiqarib:

Di so‘i dayri mug‘on omad zi masjid piri mo,

Chist juz zunnor bastan ba’d az in tadbiri mo!

Ya’ni pirimiz masjididan dayri mug‘on – nomusulmonlar maskaniga keldi, bizning tadbirimiz bo‘yinga kofirlik zunnorini bog‘lashdan boshqa nima ham bo‘lard, - deydi.

Tatabbu’da fors-tojik mumtoz shoirlarining Foniya ta’siri bevosita namoyon bo‘lgan. Tatabbu’ning mohiyatini obyektiv belgilash uchun har ikki g‘azalni solishtirib ko‘raylik.

Hofiz:

Do‘sh az majid so‘i mayxona omad piri mo,

Chist yoroni tariqat ba’d az in tadbiri mo?

Dar xaroboti mug‘on mo niz hammanzil shavem,

K-in chunin raftast dar ahdi azal taqdiri mo.

Mo, muridon ro‘ ba sshi Ka’ba chu orem, chun

Ro‘ ba so‘i xonai xammor dorad Piri mo?
 Aql agar donad, ki dil dar bandi zulfash chun xush ast,
 Oqilon devona gardand az pai zanjiri mo.
 Ro‘ xubat oyati az lutf bar mo kashf kard,
 Z-on zamon juz lufu xubi nest dar tafsiri mo.
 Bo dili sanginat oyo hech dargirat shabe?
 Ohi otashboru so‘zi nolai shabgiri mo.
 Murg‘i dilro saydi jam‘iyat ba dil aftoda bud,
 Zulf bikshodi-vu boz az dast shud naxchiri mo.
 Bod bar zulfi tu omad tu omad, shud jahon bar man siyoh
 Nest az savdoi zulfat besh az in tadviri mo.
 Tiri ohi mo zi gardun bigzarad, jono xamo‘sh,
 Rahm kun az joni xud, parhez kun az tiri mo.
 Bar dari mayxona xoham gasht chun Hofiz muqim
 Chun xaroboti shud, ey yori tariqat, piri mo [Hofizi Sherozi. Kulliyot. – Dushanbe: Irfon, 1983.Sah-

41].

Foniy:

Di so‘i dayri mug‘on iomad zi masjid piri mo,
 Chist juz zunnor bastan ba‘d az in tadbiri mo.
 Kofiri ishqemu behush az junun , ey mug‘bacha,
 Ham zi zunnori sari zulfi tu bas zanjiri mo.
 Piri dayr az kard moro mujrim az taqdiri zuhd,
 Gar bimonad, qatra dar sog‘ar, buvad taqsiri mo.
 Kay tavon budan digar dar xonaqoh chun yoftand,
 Shishai may dar daruni xirqai tazviri mo.
 Bahri pandi mo makash, ey shayx, zahmat chun shudast,
 Rindivu rasvoi az ro‘za azal taqdiri mo.
 Shisha dar gardan chu gardondi bia dayr , ey muhtasib,
 Mashkanash bore, ki nabvad besh az in ta‘ziri mo.
 Olloh-Ollloh, sharm az imonash nadorad shayxi shahr,
 Mekunad az sajda peo‘i on sanam takfiri mo.
 Shanbnishinonro ajab ro‘zi siyoh oyad ba pesh,
 Gar zi zulfi u baroyad nolai shabgiri mo.
 Shoyad, ey Foniy, ba qabri Hofizash sazand sabt,
 Gar ba xoki Fors aftad nusxai tahriri mo [Alisher Navoiy.Asarlar.T.5.1-kitob. – Toshkent:

G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1965. – B.50].

Foniy tatabbu‘ida ham Hofiz g‘azali vazni va radifi saqlangan. Hofiz g‘azali 10 baytli bo‘lsa, Foniy tatabbu‘si 9 baytlidir. Navoiy salafi qo‘llagan 5 ta qofiyani (“piri”, “tadbiri”, “zanjiri”, “taqdiri”, “shabgiri”) ishlatgan. Hofiz bir qofiyani (“piri mo”) takror ishlatgan bo‘lsa, Foniya bunday holni ko‘rmaymiz. U yangi-yangi qofiyalar yaratish yo‘lidan boradi – “taqsiri”, “tazviri”, “ta‘ziri”, “takfiri”, “tahriri” kabi. Uning Hofizdan olib qo‘llagan qofiyalari ham yangicha mazmunni bajarib kelgan. Hofiz:

Bo dili sanginat oyo hech dargirat shabe,
 Ohi otashboru so‘zi nolai shabgiri mo?-

desa, ya‘ni shuncha ohu nolalarimizga e‘tibor bermayapsan, deb, asosan, *Xudoga* murojaat etsa, Foniy tatabbu‘ida *esa mahbuba* nazarda tutiladi. Foniy fig‘on ko‘tarilayotganlarning nolayu zori Xudo yo‘lida toat-ibodat qilayotganlarning afg‘onidan ustunroq, o‘ktamroq ekanligini ta‘kidlaydiki, bu borada borliq haqidagi kechinmalar u dunyo xususidagi o‘ylardan afzalroq, degan ma‘no chiqadi:

Shabnishinonro ajab ro‘zi siyoh oyad ba pesh,
 Gar zi zulfi o‘ baroyad nolai shabgiri mo.

Ya‘ni agar uning zulfi javri tufayli bizning nolalarimiz ko‘kka o‘ralsa, kechasi uxlamay, toat-ibodat qiluvchilarning boshlariga qora kunlar tushadi.

Hofiz g‘azalida ham, Foniy tatabbu‘ida ham mayxona va masjid, namoz o‘qish va may ichish, din va muhabbat biri-biriga qarama-qarshi qo‘yladi. Hofizda yorga murojaat etilib, uning *go‘zalligi va rahmsizligi* ta‘kidlansa, ya‘ni masjid va mayxona mavzusidan birmuncha chetga chiqilsa, Foniya bu mavzu tatabbu‘ *maqta‘igacha* davom etadi. Foniy shayx va muhtasibga murojaat etadi: “Ey shayx, bizga pandu nasihat

qilaman deb zahmat chekma, chunki azaldan bizning taqdirimiz rindu rasvolikdir”. U dindorlarning, Xudo peshonaga yozgani bo’ladi, degan tushunchasidan kelib chiqib, ularga zarba beradi.

Foniy g’azal xulosasini ham erkin tarzda, o’zgacha yo’l bilan hal etgan. Bular Foniylarning tatabbu’sining originalligi, yetukligidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos Sh.Shomuhamedov ta’biri bilan aytganda, “Alisher Navoiy o’zbek adabiyoti va adabiy tilini yuksak badiiyat osmoniga, fors-tojik adabiyotini yangi, yuqoriroq bosqichga ko’tara olgan, uslub nuqtai nazaridan esa uni yangi o’zanga solib yuborgan ulkan san’atkordir”.

Akademik A.Mirzoev Foniylarning Navoiy goh Hofizdan sustroq, goh unga teng va goh undan o’tib ketadigan g’azallar yaratdi, der ekan, u tamoman haqli. Bu fikr to’g’ri, lekin ayni masalani yanada ochiq-oydin dalillab tushuntirib berish uchun tatabbu’ qilingan g’azallarni olib, baytma-bayt muqoyasa qilib, ayrim qismlarini tahlil qilib chiqish zarur.

Hofiz o’zining “Soqiy, barxez, dardeh jomro...” deb boshlanuvchi g’azalida go’zal va mayni shodlik timsoli sifatida ko’rsa, Foniylarning ham o’z ustozlari singari mayni xurramlik chashmasi, deydi. Uning tatabbu’si Hofiz g’azali singari 9 baytlidir. Har ikki g’azalni solishtirish ularning *shaklan va mazmunan barkamolligini, ma’no jihatidan bir-biriga yaqinligini* ko’rsatadi.

Hofiz:

Garchi badmonist nazdi oqilon,

Mo namexohem nangu nomro.

(Garchi oqillar nazarida badnomlik sanalsa-da, biz oru nomusni istamaymiz) desa, Foniylarning fikrini qo’llab-quvvatlab:

Zohid, majo’y, az mo, ki mondaem,

Andar sari surohiyu may, nangu nomro.

(Ey zohid, bizdan intizomlilik, sharmu nomuslilik, taqvodorlik xislatlarini izlama, biz ularni ko’zacha-yu may yo’lida qurbon qilib yuborganmiz),- deydi.

Hofiz o’zining “kujo” radifli g’azalining matla’ida:

Salohi krur kujovu mani xarob kujo,

Bubin tafovuti roh, k-az kujost to ba kujo!

(Ishni o’nglamoq qayoqda-yu men qayoqdaman, bu yo’llarning tafovutini ko’rish-bilish – boshadog’ini aniqlash qayoqda) desa, Foniylarning o’zining tatabbu’si matlayida:

Zeri no’h toqi falak g’ayri kaji kor kujost,

Rosti dar kami in gunbadi davvor kujost?

(Bu to’qqiz falak toqining tagida egrilikdan boshqa nima bo’lardi, ya’ni bu gumbaz devori ichra to’g’rilik bo’larmidi?) –deydi.

Hofizning “Sahar chun xusravi xovar...” deb boshlanuvchi g’azaliga Navoiylarning o’zbekcha javobiyasi mavjud. Garchi unda Hofiz g’azalining radifi tarjima qilib berilgan, vazni, birinchi baytidagi obrazli tasvir to’la saqlangan bo’lsa-da, uni to’la ma’nodagi tatabbu’ deb bo’lmaydi:

Sahar xovar shohi charx xoshlu hasham chekti,

Shioyi xat bir-la ko’hsor uza oltun alam chekti.

Bu g’azal ham Foniylarning fors-tojik tilidagi tatabbu’siga o’xshab, dastlab, tabiat tasviriga bag’ishlanadi, kishilar ruhiyati va ahvoli ularga bog’lab beriladi. Umuman, bunday hol shoirning Hofizga ergashib yozgan boshqa ko’pgina o’zbekcha tatabbu’lariga ham xosdir. Navoiylarning ularda ustozlari qo’llagan vazn, qofiya, obrazlarni saqlashga e’tibor bergan. Masalan, Hofizning “Chandon ki guftam...” deb boshlanuvchi g’azaliga Foniylarning javobiyasi ham shu vazndadir. Unda Hofiz qofiya va obrazlari saqlangan. Hofiz:

Chandon ki guftam g’am bo tabibon,

Darmon nakardandmiskin g’aribon.

Foniy:

On gul, ki no’shad may bo raqibon,

Binandu mirand miskin g’aribon.

Hofiz:

On gul, ki har dam dar dasti bodast,

Go’, sharm bodash az andalibon.

Foniy:

Ey gul, ba gulshan chun jilva sozi,

Afg’on makun ayb az andalibon.

Hofiz:

Ey mun'im, oxir, bo xoki judat,
To chand boshem az benasibon.

Foniy:

Foniy, nasibe z-on mahvashad nest,
Xush benasibi az benasibon.

Ko'rinib turibdiki, Foniy, hatto ba'zi misralarda Hofiz birikma va so'zlarini aynan qo'llagan. Ammo baytlari ma'nosi boshqacha. Demak, Foniy o'z fikrlarini aytishda ba'zan Hofiz g'azallari *shaklidan* foydalangan. Mazkur tatabbuda g'azalning vazn, qofiyasi saqlangan, mazmuni esa erkin. Shuning uchun uni she'riy san'atlar chuqur ishlangan *masnu' tatabbu'* deyish mumkin.

Foniy Hofizning "moro bas", "ust", "girift", "kujost", "nest", "biso'xt", "kujo", "xush", "shud", "donad", "xarobot", "manast" radifli va boshqa yuzlab g'azallariga tatabbular yozdi. Shuning uchun taniqli o'zbek va tojik adibi Sadridin Ayniy Navoiyning fors-tojik tilidagi she'rlariga yuksak baho berib: "Alisherning tili tojikcha she'rda umuman sodda, ravon va tabiiydir. Tojikcha g'azallarda u oddiy suhbatda gapirayotganday she'r yozadi. Uning tojikcha she'rlarini, "Tuhfat ul-afkor" qasidasidan boshqalarni nasrga aylantirish kerak bo'lsa, so'zlarni oldinma-keyin qilishga va tashqaridan biror so'z keltirishga ehtiyoj tushmaydi", - deb yozadi. Foniy Hofizga tatabbu'lar bog'lash bilan uni ham fors-tojik, ham turkiy xalqlar o'rtasida yanada ko'proq ommalashuviga hissa qo'shdi. Navoiyning o'zi ustozining ijodining barakali ta'siri xususida:

Foni az jur'ai Hofiz shuda mast, ey soqiy,

"Xezu dar kosai zar obi tarabnok andoz".

(Ey soqiy, Foniy Hofiz jur'asidan mast bo'lgan, turib oltin kosani xurramlik mayiga to'ldir), - degan edi.

Hofiz she'riyati Navoiy-Foniy ijodiga, umuman, o'zbek g'azalchiligi ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi. O'z navbatida, Foniyning forscha-tojikcha g'azallari nodir durdonalar bo'lib, bu tildagi she'riy xazinani boyitdi. Hofiz ijodining Navoiyga ta'siri va o'zbek shoirining "Devoni Foniy"si o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidaga adabiy aloqalarni yanada mustahkamladi. Shuning uchun ham «Devoni Foniy»ni A.Hayitmetov Navoiyning «Hofiznoma»ci deb ataydi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy forsiy devonida Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Kamol Xo'jandiy va boshqa shoirlarga izdoshlik qilgan ekan, ko'p hollarda mahoratda o'z salafalaridan ham yuqori pog'onaga ko'tarila oldi. Ular yo'lidan borib, ajib nozik his-tuyg'ularga to'la *rindona, oshiqona, orifona* lirik she'rlar yaratdi.

LOYYA JIRG'ANING AFG'ON SIYOSIY TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA TA'SIRI

Rashidov Rustam Rasulovich,

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

rustamrr20@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada butunafg'on oqsoqollari yig'ilishi – Loyya Jirg'aning tarixiy asoslari va zamonaviy afg'on siyosiy tizimidagi o'rni va roli yoritib berilgan. Loyya Jirg'aning afg'on davlati va afg'on jamiyatidagi, xususan, afg'on davlatchiligi hamda siyosiy tizimidagi boshqaruv an'analariga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega bo'lgan o'ziga xos tarixiy tuzilma ekanligi mazkur maqolada tadrijiy tarzda tahlil etilgan. Shu bilan birga, mazkur maqola doirasida Loyya Jirg'aning muhim siyosiy institut sifatidagi o'rniga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ushbu o'ziga xos tarixiy tuzilmaning afg'on xalqi oliy irodasini namoyon etuvchi hamda umumdavlat ahamiyatiga ega muhim masalalarni muhokama qiluvchi va hal etuvchi davlat instituti ekanligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Loyya Jirg'a, Qurultoy, siyosiy tizim, afg'on davlati, afg'on jamiyati, doira, xalqa, oqsoqollar kengashi, konsensus, kelishuv.

РОЛЬ И ДЕЙСТВИЕ ЛОЙЯ ДЖИРГИ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ
АФГАНИСТАНА

Аннотация. В данной статье освещаются исторические основы Лойя Джирги – собрания всех старейшин Афганистана, а также её место и роль в современной политической системе Афганистана. Лойя Джирга – уникальная историческая структура, оказывающая большое влияние на традиции управления в афганском государстве и афганском обществе, в частности, на афганскую государственно-политическую систему. При этом в рамках данной статьи особое внимание уделяется месту Лойя Джирги как важного политического института и упоминается, что эта уникальная историческая структура является государственным институтом, выражающим высшую волю афганского народа, в рамках которого обсуждаются и решаются важные вопросы государственного значения.

Ключевые слова: Лойя Джирга, курултай, политическая система, афганское государство, афганское общество, круг, совет старейшин, консенсус, соглашение.

THE ROLE AND EFFECT OF THE LOYA JIRGA IN THE AFGHANISTAN
POLITICAL SYSTEM

Abstract. This article highlights the historical foundations of the Loya Jirga - a meeting of all the elders of Afghanistan, as well as its place and role in the modern political system of Afghanistan. Loya Jirga is a unique historical structure that has a great influence on the traditions of governance in the Afghan state and Afghan society, in particular on the Afghan state-political system. At the same time, within the framework of this article, special attention is paid to the place of the Loya Jirga as an important political institution and it is mentioned that this unique historical structure is a state institution that expresses the highest will of the Afghan people, within which important issues of national importance are discussed and resolved.

Key words: Loya Jirga, assembly, political system, Afghan state, Afghan society, circle, council of elders, consensus, agreement.

Kirish. 2021- yil avgustda Afg'onistonda markaziy hokimiyatga "Tolibon" harakatining qayta yuzaga kelishi bilan butun mamlakatda so'nggi 20 yil davomida G'arb davlatlarining tashabbusi bilan shakllantirilgan va faoliyat ko'rsatgan zamonaviy ko'rinishdagi siyosiy tizim barbod bo'ldi hamda Afg'onistonda tamomila yangicha siyosiy tizim barpo etishga qaratilgan barcha say-harakatlar besamar ketdi, deyish uchun barcha asoslar bor. Shunday bo'lsa-da, Afg'onistonda asrlar osha mavjud bo'lgan va mamlakatdagi siyosiy tizimda o'ziga xos tarzidagi o'rni hamda ta'siriga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-siyosiy

tuzilmalar faoliyatini tadqiq etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ana shunday muhim siyosiy institutlardan biri sifatida Loyya Jirg'ani alohida qayd etib o'tish joizdir.

Afg'onistonning ilgari bir qator hukumatlari siyosiy tizimiga e'tibor qaratar ekanmiz, ularda qonun chiqaruvchi organ sifatida parlament mavjud bo'lsa-da, mavqeyi va muhokama qilinadigan masalalarning muhimligi nuqtayi-nazaridan parlamentdan yuqori turuvchi hamda afg'on davlatchiligida an'anaviy davlat instituti sifatida shakllanib ulgurgan butunafg'on oqsoqollari yig'ilishi – Loyya Jirg'a o'zining tarixiy asoslarga egaligi hamda zamonaviy davlatchilik shakllanishidagi roli muhimligi bilan ajralib turadi.

“Jirg'a” so'zi pushtu tilida “doira”, “aylana” degani bo'lib, “kichik yoki katta miqdordagi fuqarolar yig'ilishi”, “katta doira atrofida to'planib muayyan masalalarni muhokama qilish, kengashish” ma'nosini beradi [1; p. 3].

Tarixdan ma'lumki, Afg'onistonda jirg'alar uch bosqichda – mahalliy, qabila va umumdavlat darajasiga chiqarilgan [2; c. 76].

Mahalliy jirg'alar Afg'onistonda keng tarqalgan quyi boshqaruv organi bo'lib, u muayyan bir aholi manzilgohi – qishloq yoki mahalla darajasiga chiqirilgan va faqat shu hududga oid muammolar (qurg'oqchilik, kichik mojarolar va h.)ni hal etgan.

Qabila jirg'asi mahalliy jirg'adan yuqori darajada turuvchi tuzilma bo'lib, u bir yoki bir necha qabilalar kundalik hayoti bilan bog'liq masala (qabilalar o'rtasidagi muammo, to'qnashuv va h.)larni muhokama etgan.

Umumdavlat miqyosida chaqiriladigan Jirg'a – Loyya Jirg'a afg'on jamiyati elitasi vakillari, qabila yetakchilari, jamoat va din arboblardan iborat tarkibda chaqirilgan. Ilgari Loyya Jirg'a faqat mamlakat hukmdori chaqirig'i bilan yig'ilgan.

Adabiyotlar sharhi. Afg'onistonda jirg'alarning yuqoridagi kabi uch bosqichda faoliyat yurititganligi xususida Buyuk Britaniyaning Glamorgan (hozirgi Janubiy Uels – R.R.) Universiteti ma'ruzachisi doktor Ali Vardak fikr yuritib, Mahalliy Jirg'a – “maraka” (to'planish, marosim), Qabila Jirg'asi – “Qawmi Jirga” (Qavm Jirg'asi) hamda umumdavlat darajasidagi yig'ilish – “Loya Jirga” (Katta, Ulkan Jirg'a) deb atalishini ta'kidlab o'tadi, ularning funktsiya va vakolatlari xususida ma'lumot beradi [1; p. 6-16].

Afg'on tadqiqotlari instituti (Institute for Afghan Studies) xodimi doktor Rauf Roashanning fikricha, Loyya Jirg'a nisbatan qadimiy siyosiy-ijtimoiy institut bo'lib, qabilaviy-urug'chilik munosabatlari kuchli bo'lgan afg'on jamiyatidagi vakillik munosabatlarida jirg'alarning ahamiyati katta bo'lgan va ular muhokama qilinayotgan masala hal qilinib muayyan qarorga erishilgunga qadar faoliyat yuritgan. Umumdavlat miqyosida chaqirilgan Loyya Jirg'a quyidagi muhim masalalarni muhokama qilgan:

- urush e'lon qilish yoki tinchlik bitimini tuzish;
- yangi hukmdorni tanlash;
- davlat boshqaruv shakli bo'yicha qaror qabul qilish;
- diniy qadriyatlarni va mamlakat hududiy yaxlitligini saqlash kabi milliy qadr-qimmatni himoya qilish bilan bog'liq masalalar;
- mamlakat Konstitusiyasini qabul qilish yoki amalda bo'lgan Konstitusiyani bekor qilish;
- qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlar masalasida qaror qabul qilish va boshqa masalalar [3].

Jirg'aning pushtun millatiga xos boshqaruv tuzilmasi ekanligini ta'kidlagan holda aytish joizki, Afg'oniston hududida tarixan istiqomat qilib kelayotgan boshqa xalqlar va etnik birliklarda ham Jirg'aga o'xshash tuzilmalar mavjud bo'lgan. Xususan, fors-tojik millatiga mansub aholi orasida “Sho'ro” (kengash), turkiy xalqlarda “Qurultoy” va hazoriylar orasida “Rishsafidon” (daryi tilida “rish” – soqol, “safid” – oq va “on” – ko'plik qo'shimchasi) – “Oqsoqollar kengashi” kabi tuzilmalar ushbu xalqlar kundalik hayotidagi masala, muammolarni muhokama qilib, ular yuzasidan tegishli qarorlar chiqargan. (“Sho'ro” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, maslahat, kengash ma'nolarini anglatadi. Ushbu atamani sobiq Sovet Ittifoqi davrida qo'llanilgan “Sho'ro hukumati”, “sho'rolar” atamallari bilan, shuningdek Afg'onistonda sobiq Sovet davlatiga nisbatan ishlatilgan “sho'ravi” atamasi bilan adashtirmaslik lozim – R.R.)

Afg'oniston tarixidagi eng ko'zga ko'ringan Loyya Jirg'alar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

1709- yilda Qandahor hukmdori Mir Vays Xotak tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'ada afg'on zaminini safaviylardan ozod etish masalasi muhokama qilingan [4].

1747- yil oktabrda Qandahorda chaqirilgan Loyya Jirg'ada Ahmadshoh Durraniy (1747-1773) yangi afg'on davlatining hukmdori deb e'lon qilindi.

1793- yilda Ahmadshohning o'g'li Temurshoh (1793-1801) tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'ada mamlakat poytaxtini Qandahordan Kobulga ko'chirish masalasi muhokama qilingan.

1880- yilda amir Abdurahmon (1880-1901) tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'ada mamlakatning keyingi rivojlanishi bilan bog'liq masalalar muhokama qilingan.

1928- yil sentabrda qirol Omonullaxon (1919-1929) tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'ada mamlakatda keng ko'lamli tub islohotlarni o'tkazish masalasi muhokama qilingan.

1930-yil sentabrda chaqirilgan Loyya Jirg'a Muhammad Nodirshoh (1929-1933)ni afg'on davlatining qiroli deb e'lon qilgan.

1941- yilda Muhammad Zohirshoh (1933-1973) tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'a Afg'onistonning Ikkinchi Jahon urushidagi betarafligi maqomini ma'qulladi.

1949- yil 26- iyulida chaqirilgan Loyya Jirg'a Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketganligi tufayli 1893- yilgi Dyurand bitimi asosida belgilab chiqilgan Afg'onistonning Pokiston bilan chegarasini tan olmasligi ma'lum qildi [5].

1964- yil sentabrda Muhammad Zohirshoh tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'a Afg'onistonning yangi Konstitusiyasini ma'qulladi.

1977- yil yanvarda M.Dovud (1973-1978) tomonidan chaqirilgan Loyya Jirg'a uni mamlakat Prezidenti etib tasdiqladi va yangi shaklda ishlab chiqilgan Konstitusiyani qabul qildi.

1985- yil aprelda chaqirilgan Loyya Jirg'a Afg'oniston Demokratik Respublikasining yangi Konstitusiyasini qabul qildi. Shuningdek, 1987, 1989 va 1990- yillarda ham sho'roparast Najibulla hukumati tomonidan bir necha marta Loyya Jirg'a chaqirilib ularda mamlakatda tinchlikka erishish, mujohidlarni hamkorlikka chaqirish masalalari muhokama qilingan bo'lsa-da, ushbu yig'ilishlar samarasiz yakunlangan edi [6; p. 23-33].

Afg'onistondagi AXDP hukumati davrida chaqirilgan Loyya Jirg'a umummilliy darajada bo'lmaganligi tufayli samara bermagan bo'lsa, mujohidlar va ulardan keyin toliblar hokimiyatga kelgan davrda Loyya Jirg'a umuman chaqirilmadi va o'z navbatida, mamlakat miqyosida to'planib qolgan muammolar yechimini topmay, afg'on jamiyatidagi vaziyatning keskinlashuviga sabab bo'ldi. Ayniqsa, toliblar tomonidan Loyya Jirg'a faoliyatini barbod qilishga qaratilgan qo'poruvchilik harakatlari toliblarning Loyya Jirg'aga nisbatan munosabatini yaqqol namoyon etadi.

Afg'onistonda zamonaviy ko'rinishdagi davlatchilikni shakllantirish jarayoni boshlangach, bu boradagi o'ziga xos "yo'l xaritasi" vazifasini bajaruvchi Bonn Kelishuvlariga [7] muvofiq, umumdavlat miqyosidagi masalalarni muhokama etish bo'yicha 2002- yilgi Favqulodda Loyya Jirg'a va 2004- yilgi Konstitusiyada Loyya Jirg'a chaqirish ko'zda tutilgan edi.

2002- yil 11-19- iyun kunlari Kobulda **Favqulodda Loyya Jirg'a** ish olib bordi [8; p. 14-17]. Loyya Jirg'aning tashkillashtirilishi va o'tkazilishi H.Karzay boshchiligidagi Afg'oniston Muvaqqat hukumatining yutug'i bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Oqsoqollar yig'inining asosiy vazifasi mamlakatning keyingi ikki yil davomidagi rivojlanish yo'nalishini belgilab berish edi. Bir qancha bahs-munozaralardan so'ng Muvaqqat hukumat o'rniga 2004- yil o'tkazilishi mo'ljallangan Prezidentlik saylovlariga qadar faoliyat yuritadigan **o'tish hukumatini** tuzish hamda **Afg'oniston Islomiy O'tish Davlati Prezidenti** lavozimini joriy etish bo'yicha bir to'xtamga kelindi. Prezident hamda o'tish hukumati rahbari etib Muvaqqat hukumat boshlig'i H.Karzay saylandi va unga qonun kuchiga ega normativ hujjatlar chiqarish huquqi berildi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, muayyan davlatda Konstitusiya qabul qilinadigan bo'lsa, bunda o'sha davlat qonun chiqaruvchi organi tomonidan yoki xalqning bevosita o'z irodasini bildirishi – referendum orqali tasdiqlanishi kuzatiladi. Ushbu tartibni Konstitusiya qabul qilish arafasida Afg'oniston sharoitiga tatbiq etish imkonsiz edi. Chunki hali davlatda qonun chiqaruvchi organ shakllantirilmagan, mamlakatda xavfsizlik to'la ta'minlanmagan hamda referendum o'tkazishning imkoni yo'q vaziyatda davlat va jamiyat hayotiga oid o'ta muhim masalalarni muhokama etish, umumdavlat miqyosidagi qaror qabul qilishda an'anaviy boshqaruv organi bo'lgan va afg'on davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutuvchi Butunafg'on oqsoqollarining katta yig'ini – Loyya Jirg'ani chaqirish orqali mamlakat Konstitusiyasi qabul qilindi.

2003- yil 13- dekabridan 2004- yil 4- yanvariga qadar Kobulda faoliyat ko'rsatgan Loyya Jirg'ada mamlakat Konstitusiyasi qabul qilinishi bilan birga Afg'onistonning davlat tuzumi masalasiga ham aniqlik kiritildi va Afg'onistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy etildi [9; p. 127].

Yuqoridagi Jirg'alar bilan bir qatorda 2007- yilgi Afg'oniston va Pokiston vakillari o'rtasidagi Tinchlik Jirg'asi, 2010 - yilgi Tinchlik Jirg'asi hamda 2013- yilgi Maslahat Loyya Jirg'asi kabi yig'ilishlar ham Afg'onistonning eng yangi tarixida alohida o'rin egallaydi.

2007- yil 9-12- avgustida Kobulda Afg'oniston va Pokistondan 350 nafardan jami 700 nafar vakil ishtirok etgan Tinchlik Jirg'asi bo'lib o'tdi va unda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni bartaraf etish va "Tolibon" harakati va terrorizmni har ikkala davlatga xavf solayotgan kuch sifatida ko'rish masalasi

muhokama qilindi. Yig'ilish yakunida Kobul Deklaratsiyasi qabul qilindi va unda har ikkala davlat hukumatlari terrorizmga qarshi kurashda keskin choralar ko'rish, chegara hududlaridagi ekstremistlar lagerlarini yo'q qilish, narkotik moddalar yetishtirishga qarshi kurashni kuchaytirish hamda pushtun millatiga mansub aholi istiqomat qiladigan chegara hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga kelishib oldilar [10; c. 60-64].

2010- yil 2-4- iyunida Kobulda bo'lib o'tgan hamda Afg'onistonning Milliy Maslahat Tinchlik Jirg'asi (Afghanistan's National Consultative Peace Jirga – NCPJ) yoki qisqacha **Tinchlik Jirg'asi** deb ataluvchi yig'ilishni o'tkazishdan maqsad mamlakatda xavfsizlikni ta'minlashga chaqirish va tinchlik o'rnatish masalasini muhokama qilish edi [11; p. 4-13]. Garchi mazkur Tinchlik Jirg'asida Afg'onistondagi ichki siyosiy vaziyatga ta'sir o'tkazib kelayotgan barcha kuchlar ishtirok etmagan bo'lsalar-da, rasmiy hukumat tomonidan mazkur kuchlarga qarata murojaat qilinishini hukumat ularni ham Afg'onistondagi yangi ko'rinishdagi davlatchilik barpo etish jarayoniga jalb etish tarafdori ekanligi sifatida baholash lozim.

2013- yil 21-24- noyabrda Kobulda Maslahat Loyya Jirg'asi faoliyat olib bordi. Unda 2014- yil oxirida Afg'onistondan AQSH yetakchiligidagi xavfsizlikka mas'ul bo'lgan xalqaro kuchlarning olib chiqib ketilishi rejalashtirilayotganligi bois, 2014- yildan keyingi davrda Afg'oniston hududida muayyan miqdorda AQSH qo'shinlarini qoldirishga ijozat berish va ularning maqomi borasidagi masalalar muhokama qilindi hamda yig'ilish yakunida **“Amerika Qo'shma Shtatlari va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida xavfsizlik va mudofaa sohalarida hamkorlik bo'yicha Bitim”** [12] imzolandi.

Yuqoridagi Loyya Jirg'alar faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ushbu yuqori darajada tashkil etilgan maslahat uchrashuvlari Afg'onistonda zamonaviy bosqichda shakllanib kelayotgan tamomila yangicha siyosiy tizim va siyosiy qarashlarning ifodasi o'laroq tashkil etilgan va o'tkazilgan bo'lsa-da, tom ma'noda afg'on jamiyatining yagona maslahat organi rolini bajara olmaganligi namoyon bo'ladi. Aynan afg'on jamiyatidagi barcha qatlam, guruh yoki kuchlar Loyya Jirg'ani butun mamlakat miqyosidagi o'rni va rolini tan olmadilar hamda e'tirof etmadilar. Bu, o'z navbatida, afg'on jamiyatida mamlakat miqyosidagi ulkan masalalar muhokamasi hamda ular yuzasidan qaror qabul qilish jarayonlariga salbiy ta'sir o'tkazdi va natijada jamiyatda keskinlik vaziyati saqlanib qolaverdi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Jirg'aning afg'on siyosiy tizimidagi o'ziga xos o'rni va ta'siri borligini e'tirof etgan holda, uning quyidagi ba'zi bir xususiyatlariga e'tibor qaratish o'rinli bo'lar edi.

Birinchidan, Afg'onistondagi mahalliy Jirg'alar yoki Loyya Jirg'ani to'la ma'noda **demokratik institut** deb ayta olamiz. Chunki, unda muhokama etilayotgan masalalarning ochiqligi, muhokama jarayonida har bir ishtirokchi o'z fikri va pozitsiyasini bemalol bildira olishi to'la ma'noda demokratiya tamoyillariga mos keladi.

Ikkinchidan, Jirg'ada muhokama etilayotgan masala yoki muammo bo'yicha barcha ishtirokchilarda yagona fikr va qarashlar yuzaga kelguniga qadar muhokama davom ettirilgan [13; c. 42]. Mazkur holatning e'tiborli jihati shundaki, qaror qabul qilishda demokratik qadriyatlarga xos ko'pchilik ovoz bilan emas, balki barchaning **hammaslak bo'lishi orqali yagona fikrga kelishi va qaror qabul qilishi** muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda turli fikr va qarashlarga ega tomonlarning bir-biriga nisbatan bosim o'tkazish, do'q-po'pisa qilish, majburlash emas, balki ishontirish, o'zaro murosa yo'lini tanlash va yon berish kabi chora-tadbirlarning qo'llanilishini qayd etish lozim. Mazkur xususiyatlari orqali afg'on siyosiy tizimidagi Jirg'ani demokratiyaning sharqona an'ana va qadriyatlar ifodachisi deb bemalol ayta olamiz va unda demokratiya sharqona ko'rinishda namoyon bo'ladi, deya olamiz. Ta'kidlash joizki, agar muhokama va qaror qabul qilish jarayonida ishtirokchilar bir necha guruhga bo'linib ketsa hamda keskin vaziyat vujudga kelsa, ishtirokchilar orasidan hayotiy tajriba va notiqlik qobiliyatiga ega yoshi ulug' **oqsoqol** (spingiri yoki spinjiri)lar mavjud vaziyatni yumshatish, tomonlarni murosaga keltirish uchun o'ziga xos moderatorlik vazifasini bajargan. Shuningdek, mabodo jamoaning muayyan bir yig'ilishida aniq bir to'xtamga kelinmasa, mazkur masala yoki muammoning muhokamasi keyingi muddatga qoldirilgan.

Uchinchidan, tarixan joylardagi mahalliy hokimiyat bilan markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar oson kechmagan Afg'oniston sharoitida Loyya Jirg'ani markaz hamda alohida hududlar va qabilalar o'rtasida o'ziga xos “ko'prik” vazifasini bajaruvchi **“siyosiy vosita (instrument)”** deb aytilish o'rinli bo'lar edi.

To'rtinchidan, markaz tomonidan Loyya Jirg'ada ishtirok etish uchun mahalliy hokimiyat namoyandalarining chaqirilishini afg'on davlatchiligi tarixida markaz hamda mahalliy hududlar o'rtasida muayyan darajada **konsensusning** mavjudligi sifatida talqin etish mumkin. Bunda Loyya Jirg'ani chaqirish orqali markaziy hukmdorlar o'zlari egallab turgan oliy hokimiyatga, yuritayotgan siyosatiga qonuniy tus berishga intilgan bo'lsa, Loyya Jirg'ada ishtirok etish orqali mahalliy hukmdorlar muayyan masala yuzasidan

o'zlariga tegishli hudud yoki qabila pozitsiyasini bemalol ifoda etganlar va o'z manfaatlarini himoya qilganlar. Shuningdek, Loyya Jirg'ada ishtirok etish barobarida ishtirokchilarda, xususan, mahalliy hukmdorlarda "markaz bizning fikrimizni eshitmoqda, biz bilan hisoblashmoqda" degan qarashlar shakllangan va bu, o'z navbatida, mahalliy hukmdorlarning markazga nisbatan muayyan darajada loyalligini ta'minlab bergan.

Xulosalar. Afg'onistonda ayni paytdagi ichki siyosiy vaziyatni kuzata turib aytish joizki, ushbu mamlakatda qurol kuchi vositasida siyosiy tizim barqarorligiga erishish mushkulligi to'g'risida yetakchi siyosiy, ilmiy doiralarda fikr bildirib kelinmoqda. Bu borada, ayniqsa, afg'on xalqining o'zaro kelishuvi orqali tinchlik va osoyishtalikka erishishi masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va bunda butunafg'on vakillarining yig'ini – Loyya Jirg'adan muhim siyosiy-ijtimoiy vosita (instrument) sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Afg'onistonda ayni paytda hukumat tepasida turgan "Tolibon" harakati Loyya Jirg'aning afg'on jamiyati, afg'on davlati va qolaversa, butun siyosiy tizimdagi o'rni va rolini yaxshi anglagan holda, undan mamlakat ahamiyatidagi masalalarning muhokamasi va ijrosida foydalanishlarini tavsiya etish joizdir. Zero, ayni paytda afg'on jamiyatining butun mamlakatni jipslashtiruvchi bir siyosiy institutga ehtiyoji borligi namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Loyya Jirg'a afg'on siyosiy tizimida muhim o'rin tutuvchi siyosiy institut ekanligini qayd etgan holda, uni faqat davlat institutigina emas, balki afg'on jamiyatida yuksak mavqe hamda katta ta'sir kuchiga ega jamoat instituti ekanligini ham e'tirof etish lozim.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ali Wardak. *Jirga – A Traditional Mechanism of Conflict Resolution in Afghanistan*. – Treforest (UK): University of Glamorgan, 2003. – P. 3. <http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/apcity/unpan017434.pdf>
2. Хашимбаев Х. *Лоя Джирга как представительный орган государственной власти Афганистана / Афганистан в начале XXI века (сборник статей). Институт Востоковедения РАН. Научное издание (Ответственный редактор: В. Корзун)*. – М., 2004. – С. 76.
3. Dr. Rauf Roashan. *Loya Jirga: One of the Last Political Tools for Bringing Peace to Afghanistan / Institute for Afghan Studies*. July 30, 2001. <http://www.institute-for-afghan-studies.roashan.com/AFGHAN%20CONFLICT/LOYA%20JIRGA/LoyaJirgaLastToolDrRoashan.htm>
4. Sayyed Amin Mojahed. *Negahi be Loya Jirga-i izarari [A Look at Emergency Loya Jirga]*. – Kabul, 2003.; Fida Yunas. *Afghanistan, Jirgahs and Loya Jirgahs: the Afghan Tradition (977 AD to 1992 AD)*. – Peshawar, 1997.
5. Agha Amin. *Resolving the Afghan-Pakistan Border Question / Journal of Afghanistan Studies*, Kabul. December 12, 2009.
6. Benjamin Buchholz. *Thoughts on Afghanistan's Loya Jirga: A Myth / ASIEN №104 (July 2007)*. – P. 23-33.
7. Совет Безопасности ООН. *Декларации и соглашения по Афганистану / Боннское соглашение о временных механизмах в Афганистане до восстановления постоянно действующих правительственных институтов от 5 декабря 2001 года*. <http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m=S/2001/1154>
8. Anders Fange. *The Emergency Loya Jirga / Snapshots of an Intervention. The Unlearned Lessons of Afghanistan's Decade of Assistance (2001-11)*. Martine van Bijlert and Sari Kouvo (editors). – Kabul: Afghanistan Analysts Network (AAN), 2012. – P. 14-17.
9. Rasul Bakhsh Rais. *Recovering the Frontier State. War, Ethnicity, and State in Afghanistan*. – New York & Toronto: Lexington Books, 2009. – P. 127.
10. Лалетин Ю.П. *Афгано-Пакистанские отношения и Джирга Мира / Азия и Африка сегодня*. – № 5. 2008. – С. 60-64.
11. *Seeking Solutions for Afghanistan / A Report on the Abu Dhabi Process. The EastWest Institute*. – New York, 2010. – P. 4-13.
12. *Security and defense cooperation agreement between the united states of america and the islamic republic of afghanistan; Яна қаранг: Kate Clark. A Yes, a Maybe and a Threat of Migration: The BSA Loya Jirga's last day / Afghanistan Analysts Network (AAN) Publications*. 24 November 2013. <https://www.afghanistan-analysts.org/a-yes-a-maybe-and-threat-of-migration-the-bsa-loya-jirgas-last-day/>
13. Катков И.Е. *Социальные аспекты племенной структуры пуштунов / Афганистан. История, экономика, культура. Сборник статей Института Востоковедения АН СССР*. – М.: Наука, 1989. – С. 42.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MISSIONERLIKNING IJTIMOY-SIYOSIY
MUNOSABATLARGA TA'SIRI

*Musayev Mansur Tursunpo'latovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada global miqyosda namoyon bo'layotgan missionerlikni diniy adovat uyg'otish orqali konfessiyalararo hamjihatlikka raxna solayotganligi to'g'risidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, mamlakat, taraqqiyot, mafkura, ma'naviyat, missionerlik, konfessiya, diniy bag'rikenglik.

ВЛИЯНИЕ МИССИОНЕРСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ
ОТНОШЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируется влияние миссионерства на общественно-политические отношения в условиях глобализации. Также в статье приводятся взгляды о сектантстве, проявляющемся в глобальном масштабе, подрывающем межконфессиональное согласие и пробуждающем религиозную вражду.

Ключевые слова: глобализация, страна, развитие, идеология, духовность, миссионерство, конфессия, веротерпимость.

IMPACT OF MISSIONARY ON SOCIO-POLITICAL RELATIONS UNDER
GLOBALIZATION

Abstract. This article analyzes the impact of missionary work on socio-political relations in the context of globalization. The article also provides views on sectarianism, which manifests itself on a global scale, undermines interfaith harmony and awakens religious enmity.

Keywords: globalization, country, development, ideology, spirituality, missionary work, confession, religious tolerance.

Kirish (Введение /Introduction). Dunyo miqyosida globallashuvning avj olishi inson qalbi va ongi ushun kurashni kushaytirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida missionerlikning kushayishi mafkuraviy ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda, missionerlikni global miqyosda namoyon bo'lishi turli din va diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlikka raxna solmoqda. Aynan, mazkur holatlar missionerlikka nisbatan jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Yangi tahdidlap", jumladan, "ommaviy madaniyat", missionerlik, ppozelitizm xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, milliy va diniy qadpiyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda"[1].

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"[2]ni ustuvor yo'nalishlaridan biri «Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqishga olib shiqish» asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, missionerlikka qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini o'rganish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv sharoitida missionerlik faoliyati bir neshta maqsadni ko'zlab amalga oshirilayotganligi kuzatilmoqda. Aynan, mazkur harakatlar oqibatida o'zga din vakillarini o'z diniga kiritish orqali iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan o'z davlatlarining ta'siriga olish tobora kuchaymoqda. Shu tariqa, muayyan xalq va millat o'rtasida o'z e'tiqodiga nisbatan shubha uyg'otish orqali insonning konstitutsiyaviy huquqi, ya'ni fikrlash va vijdon erkinligi huquqini buzilishga bo'lgan harakatlar namoyon bo'layotganligi

tashvishlidir. Ayniqsa, missionerlik tarafdorlari aksariyat holatlarda maxfiylikka asoslangan holda o'z faoliyatlarini amalga oshirayotganligi, ayniqsa, xatarlidir.

Missionerlik hapakatida avval ma'naviy ta'sir va keyin siyosiy qamrab olish jarayonlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy ta'sir ko'rsatishning birinshi rejaga shiqishini har bir mamlakatda e'tiqod masalasida o'ziga xos yozilgan yoki yozilmagan qonunlar, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar borligi bilan belgilash mumkin. Ma'naviyatni shakllantiruvchi va boshqaruvchi ushbu omillarni yengib o'tmay turib, muayyan insoniy birlikni biror siyosiy maqsad yoki g'oyaga xizmat qildirish majburlashni keltirib shiqaradi. Majburlash esa kuch ishlatish va zo'rlik vositalarini talab qiladiki, inson ongi va qalbini egallash, uni belgilangan g'oyalar va siyosatga bo'ysunuvchi odamga aylantirishda bu muvaffaqiyatli chora bo'la olmaydi. Shunki, majburlash ma'naviyatga zid hodisa hisoblanadi. Qolaversa, globallashuv jarayonlari missionerlik harakatlari ushuni g'oyatda keng imkoniyatlarni oshib bermoqda. Ushbu sharoitda mazkur harakatlar milliy, diniy, dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinsh va osuda hayotga tahdid solish orqali mamlakatda separatizmni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Литература и методология /Methods). Missionerlik harakatlarining salbiy oqibatlarini to'g'risida Kenyaning birinshi bosh vaziri Jomo Kenyatta (1889-1978) tomonidan bildirilgan fikr e'tiborga molikdir. Bu haqda, Jomo Kenyatta "xristianlik Afrikaga kelganida afrikaliklarning yerlari, xristianlarning esa Injillari bor edi. Xristianlar bizga ko'zlarimizni yumib duo-ibodat qilishimiz kerakligini o'rgatdilar. Ko'zlarimizni ochganimizda ular bizning yerlarimizni, biz esa ularning Injillarini olgan edik"[3:100] - deya ta'kidlaydi. Missionerlik tashkilotlarining bir qator uslublari vositasida turli ijtimoiy muassasalar niqobidagi faoliyati natijasida ishsizlar, talabalar, cherkovlar qoshidagi ish topish, chet tilini o'rganishga ko'maklashish muassasalariga kelganlar ularning ta'sir doirasiga tushayotganligi tashvishlidir. Shu tariqa, aksariyat yoshlar missionerlik tashkilotlarining bevosita ko'magi asosida ish torish, savdo yuritish, xorijga "mehmon"ga shiqish yoki malaka oshirish, cherkov hisobidan ta'lim olish, armiya chaqiruvidan qutulishga urinish kabi holatlar misolida missionerlik tuzog'iga ilinmoqda. O'tmishdan ma'lumki, aksariyat davlatlar bosqinshilik urushlari orqali davlat mustamlakalarini barpo etish hamda mustahkamlashda missionerlikdan g'oyaviy ekspansiya sifatida foydalanishgan. Ma'lumki, o'rta asrlarda Israniya va Rortugaliya mustamlakashilari amerikalik hindularni o'z diniga o'tkazishda ularning ongi va qalbini o'zgartirishga asosiy e'tibor qaratishgan. Tadqiqotshi M.R.Rudnik o'rta asrlar missionerlik faoliyatini tahlil qilar ekan, "missionerlar mahalliy xalqlarning o'z madaniyatini ichidan o'zgartirish bilan bir qatorda, uni yo'q qilishga harakat qilishdi"[4]-deya ta'kidlagan edi. Amerikani "o'zlashtirish" jarayonlarida Rim katolik cherkovi tomonidan hindularni xristian diniga o'tkazishda zo'rlik va majburiy ravishda cho'qintirish marosimlari joriy etilgan. Mabodo hindular xristianlikka o'tishni rad etsa, ularga qarshi katolik cherkovining inkvizitsiya (cherkov sudi, lotinsha "tergov") gulxanlari alangasi va mustamlakash hokimiyat harbiy kushlari qirg'in solib turgan. Aytish joizki, davlatlarning muayyan hududda qozongan siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy mavqeidan kelib chiqib, dinga majburan yoki targ'ibot, aldov vositasida kiritishga doir turli uslublar qo'llanilgan. Tajribali missionerlar muayyan mamlakatdagi aholining tili, dini, madaniyati hamda qadriyatlarini puxta o'rganish orqali kerakli vaziyatda o'ta sezgir bo'lishga intilishadi, turli toifadagi insonlar orasida o'zlarini o'ta hushyor tutishga alohida e'tibor qaratishadi.

Natijalar (Результаты/Results). Missionerlar, asosan, davlat va jamiyat miqyosidagi eng muhim faoliyat sohalari: ta'lim, tibbiyot, xayriya, ijtimoiy munosabatlarga alohida e'tibor qaratishmoqda. Davlat maktablari, jamoat tashkilotlari, kasalxonalaridagi faoliyatlari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda [5:213]. Bugungi kunda protestant yo'nalishi tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan yangi diniy tashkilotlar missionerlik harakatini butunjahon birdamligiga erishish maqsadida kelib chiqqanligini e'tirof etishadi. "Rrotestant tashkilotlari interkonfessionalizm prinsipini tez-tez o'rta tashlash orqali barcha oqim va cherkovlarni birlashtirish g'oyasini ilgari so'rishadi"[6:24]. Mazkur g'oya 1933- yilda amalga tatbiq etilgan bo'lib, hozirga qadar ahamiyatini yo'qotmagan. Binobarin, siyosatdagi transmilliy davlatni yaratish g'oyasining mavjudligi, albatta, davlatlar miqyosida transkonfessionilizm g'oyasi bo'lishiga zamin yaratadi. Zero, transchegaralash insonlarning erkin e'tiqod huquqi va erkinligini chegaralaydi. Transdavlat g'oyasi dunyoqarashni bir tomonga yo'naltirgan holda fuqarolarni vijdon erkinligi huquqidan mahrum etadi. Mazkur qarash rus tadqiqotshisi Nikolay Berdyaev fikrlarida ham o'z tasdig'ini topadi. U "interkonfessionilizm yer yuzida tan olinishi mumkin, lekin interkonfessionistik xristianlik bu xristianlikdan farq qiladi. U bu hayot realliklariga javob bera olmaydi"[7: 24] - deya, ta'kidlagan edi.

Xristianlik ta'limoti asosida tayyorlangan missionerlar ilgari ko'proq doktor, o'qituvshi ko'rinishida yuborilgan bo'lsa, texnik taraqqiyot globallashuvi kuchaygan bugungi zamonda kasb turlari sayyoh, sportchi, investor, biznesmen, xalqaro tashkilotlar xizmatchisi, savdo xodimi, hatto, elchilik xodimi sifatida yuborilish holatlariga qadar kengayib, "xizmat vazifasi"ni o'tash maqsadida muayyan hududlarga maxsus topshiriq va

vazifalarni bajarishga yo'naltirilmoqda. Ilgari missionerlar hukmron siyosat bilan bir qatorda o'z dinlariga kiritish yo'lidan borgan bo'lsalar, bugun faoliyatlarida dinga kiritish emas, muayyan hudud va mintaqada yashovshi aholining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Globallashuv sharoitida, missionerlar go'yoki "g'amxo'r", "beg'araz" yordam beruvchi, "iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor qaratuvchi" nodavlat notijorat tashkilotlar maqomida faoliyat ko'rsatishi aksariyat holatlarda ularning faoliyatini niqoblashga zamin yaratmoqda. Xorijiy mamlakatlarda missionerlar tomonidan ochilgan ta'lim muassasalari tezda mahalliy ta'lim tizimi bilan o'zaro aloqa o'rnatish orqali, diniy va umumiy ta'lim berish jarayonini tizimli ravishda tashkil etmoqda.

Missionerlik strategiyasida ushbu maktablar orqali kelajakda o'z manfaatlariga mos "kadrlar tayyorlashga" asosiy e'tibor qaratilganligini anglash lozim. Shu tariqa, missionerlik tassarufidagi maktablarda tahsil olgan o'quvshi hamda talabalarni kelajakda davlat boshqaruvi sohasidagi eng nufuzli mansablariga joylashuviga ham alohida e'tibor qaratiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, missionerlar tashkil etgan maktablarda tatbiq etilgan o'quv dasturlari diniy mohiyatni sezilmas darajada chuqur singdirilgan dunyoviy qarashlar tarkibida ifodalaydiki, bu umumiy dunyoqarashni shakllantirish – o'quv jarayonlarida umuman shubha tug'dirmaydi va natijada go'yoki ilg'or dunyoqarashga ega bo'lgan, mohiyatan esa missionerlik g'oyalari ta'sirida hayot va faoliyatini tashkil etadigan kadrlar shakllantiriladi. Ularning yuqori lavozimlarni egallashi esa missionerlar uchun yana bir ijobiy qadamdir.

Ayniqsa, ular davlatlararo kelishmovshilik yoki nizolar paytida mustamlakachi imperiyalar mafkuraviy hujum qurollaridan biri sifatida "maqsadli" harakat qilish orqali mahfiy ravishda xalqlarni o'z mamlakati siyosatiga qarshi qo'yishda asosiy rolni bajarishmoqda. Vaholangki, missionerlikdagi bunday tizimli harakatlar istiqboldagi rejalar sifatida doimo xristianlik hamda u bilan bog'liq davlatlar nazoratida ekanligi ularning topshiriqlari asosida madaniyat, ma'rifat tarqatishni "adolat tarfdorlari" niqoblari ostida amalga oshirayotganligi namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv sharoitida missionerlik tashkilotlari jamiyatning ijtimoiy guruhlar orasida o'z ta'sirini kengaytirish, mahalliy hukumatlardan o'z rejalarini berkitish maqsadida jamiyatni ijtimoiy qatlamini tashkil etuvshi turli kasb egalari, turli millatga, elatga mansub fuqarolar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi dindorlar, turli yoshdagi insonlar orasida harakat qilmoqda. Missionerlik ruhida diniy adabiyotlarni ommalashtirish, OAVda e'lonlar va turli xil reklamalar orqali o'zlariga yangi tarafdorlarni ko'raytirishda madaniy-ma'rifiy targ'ibotlar uyushtirishmoqda. Bugungi kunda ayrim siyosiy g'oyalarni inson ongiga singdirish uchun ham diniy g'oyalardan mukammal foydalanilmoqda [8:138]. Ayniqsa, missionerlik tashkilotlari muayyan mintaq va hududda o'zlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirish orqali xalqlarga go'yoki, "yuksak madaniyatini" targ'ib etish orqali o'z madaniyatlari bilan tanishtirmoqda. Missionerlar tomonidan mazkur talablarning insonlar ongiga "yuksak madaniyat-xristianlik" g'oyasi sifatida singdirishga bevosita e'tibor qaratishmoqda. Ayrim hududda amalga oshirilgan missionerlik faoliyatlari, asosan, mahalliy davlat rahbarlarining siyosatlariga, xatti-harakatlariga bog'liq ravishda amalga oshirilgan. Ammo ayrim davlat rahbarlari tomonidan missionerlarga qarshi ko'rilgan keskin choralar bilan ham ular faoliyatida to'xtash yoki ortga chekinish holatlari ham bo'lgan. Shunga ko'ra, XVI asrda Hindiston, Xitoy va Yaroniyada faoliyat ko'rsatgan xristian missionerligining faoliyatida kuzatish mumkin. Mazkur holatlar missionerlikning keyinchalik juda tezlikda rivojlanishiga turtki bergan edi.

XIX asrning o'rtalarida Yaron imperatori yurt manfaati Vatan birligini saqlash maqsadida mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barsha missionerlarni ayg'oqshi sifatida mamlakatdan haydab shiqarishga buyruq bergan. Shuningdek, mazkur omillar Afrika mintaqasidagi tub aholi ongida missionerlarga nisbatan salbiy munosabatlar tug'ilishiga sabab bo'lgan. Oqibatda Afrika aholisi orasida "missioner" so'zi "qotil" ma'nosida qo'llanilgan. Missionerlik hech qanday rahm-shafqat tuyg'usini emas, balki doimiy ravishda siyosiy maqsadlarni ko'zlash orqali tinchlikka hamisha raxna solib keladi. Muayyan xalqning an'anaviy diniy qadriyatlarini tanazzulga uchrashi oqibatda "turli madaniyatlarning" o'zaro ta'siri natijasida diniy ayrimashiliklar rivojlangan. Chunki, hali-hanuz o'zida siyosiy maqsadlarni namoyon etayotgan missionerlik muayyan davlatlar siyosiy ta'sir doiralarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'z navbatida, missionerlik tarafdorlari o'z g'oyalarini targ'ibot va tashviqot qilishda, eng avvalo, jamiyat hayotida o'z o'rnini topa olmayotgan ruhiy tushkinlik holatiga tushgan insonlarni o'z ta'siriga olish asosiy maqsadi ekanligi tobora oydinlashmoqda. Shu tariqa, missionerlik harakati natijasida mazkur harakat davom etgan hudud va mintaqada ancha murakkab ko'rinishlardagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda. Shu o'rinda, missionerlik tashkilotlari ba'zan oshkora, aksariyat holatlarda yashirin faoliyat ko'rsatayotganligi dunyo xalqlari o'rtasida o'z e'tiqodiga

shubha uyg'otishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, o'z dinini o'zga din vakillari orasida targ'ibot va tashviqot qilish orqali diniy totuvlikka putur yetkazmoqda. Xususan, missionerlikning soxta da'vatlariga ko'r-ko'rona bo'ysunish orqali ularning g'oyalariga qat'iy ishonish jamiyat manfaatlariga raxna solayotganligi tashvishlidir. Ayniqsa, yoshlarda sog'lom diniy ma'lumotning yetishmasligi, ularning ishonuvshanligi, birdaniga boylilik, shon-shuhrat, martabaga ega bo'lishga intilishi ularning missionerlik ta'siriga tushishiga sabab bo'lmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, missionerlik ta'siriga tushgan inson ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, huquqiy va psixologik jihatdan jiddiy zararlar girdobiga griftor bo'lishi natijasida oilalar barbod bo'lmoqda. Natijada, missionerlik oqibatida insonlar sog'ligiga putur yetib, pul va mol-mulkidan ajralashi holatlari ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bugun missionerlik ba'zi geosiyosiy kushlarning xavfli quroli bo'lib, siyosiy va iqtisodiy ta'sir doirasi ko'rinishida ifodalanayotgan zamonaviy mustamlakachilik yoki vassallikni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim hududlarni belgilab olishadi. Global darajada missionerlik loyihalarida alohida mamlakat yoki mintaqa e'tiborga olinadi»[9:111]. Natijada, ayrim mamlakatlar davlat boshqaruvida mana shunday «o'yinlar»ning girdobiga tushmoqda. Mutaxassislar bugungi kunda dunyoning turli burshaklaridan turib zo'r berib ilgari surishga harakat qilayotgan «tizimiy qayta qurish» g'oyasini ustalik bilan niqoblangan mafkuraviy strategiya sifatida baholamoqda[10:39]. O'z navbatida, mazkur holat, bunday davlatlarda hokimiyat boshqaruvining noaniq kuchlar qo'liga o'tib ketish xavfi namoyon bo'lmoqda. Zero, global tarzda tobora kushayotgan missionerlik harakatlari oqibatida millatshilik, ayirmashilik, antisemitizm, imreriyparastlik, yevrosentrizm g'oyalarining ijtimoiy namoyon bo'lishi siyosiy hayotni izdan chiqarishga zamin yaratmoqda.

Dunyo miqyosida missionerlik aksariyat holatlarda diniy nifoq solish orqali dinlararo to'qnashuvlar, etnokonfessional ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Buni Afrika va Osiyo mintaqasidagi qator mamlakatlarda missionerlik natijasida tub aholining diniy tarkibidagi muvozanat buzilishlari, turli din vakillari orasida doimiy ravishda kelib chiqayotgan mojarolar misolida ko'rish mumkin»[11:113]. Ayniqsa, keyingi vaqtlarda missionerlar keng e'tibor qaratayotgan tarmoqlar ishida muhtoj oilalar, maktab internati, maktabgasha tarbiya muassasalari, mehribonlik va qariyalar uylari, nogironlar, o'rta, o'rta-maxsus hamda oliy ta'lim muassasalari va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ijtimoiy missiya strategiyasida zohiran «beg'araz» yordam ko'rsatish orqali fuqarolarni jamiyatda o'z o'rnini topishi, oilaviy muammolarni bartaraf etishi, insonlarga tinchlik va quvonch ulashish masalalari qamrab olinadi.

Xorijiy moliyaviy ko'mak asosida moliyalashtirilayotgan missionerlik strategiyasida aksariyat holatlarda siyosiy maqsadlarni ko'zlab harakat qilayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. «Ziddiyatlardan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanib kelayotgan turli xil siyosiy-mafkuraviy guruhlar etnik-milliy, diniy asosda yangi ziddiyatlarni ongli ravishda avjiga chiqarmoqdalar»[12:56]. Natijada, mazkur holat, muayyan mintaqalarda, avvalo, jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligiga putur etishi ushun zamin yaratmoqda. Aynan, missionerlikni rivojlantirish maqsadida xorijdan yo'naltirilayotgan «beg'araz moliyaviy» yordamdan o'z manfaati va maqsadlari sari intilish tobora oydinlashmoqda. Vaholanki, dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o'zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini «eksport» qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadida ochiqdan-ochiq da'vogarlik qilishga bo'lgan harakatlar misolida namoyon bo'lmoqda.

Missionerlik harakatlari natijasida «inson huquqlari», «vijdon erkinligi», «demokratik erkinliklar»ni olg'a surish ushun ko'rsatilayotgan «ko'mak» aslida mamlakatni parokandalik sari siyosiy boshboshdoqlikka yetaklayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. «Erkinlik, demokratiya inson huquqlari kabi jozibali g'oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kushlar shu asosida dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ishki ishlariga aralashib, g'arazli maqsadlarga erishmoqchi bo'ladi»[13:12]. Vaholanki, missionerlik orqali amalga oshirilayotgan «demokratiya» niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Odatda urushlar, ocharshiliklar, kasalliklarning avj olishi missionerlik tashkilotlarining faolligini oshiradi. Chunki, bunday holat ular uchun qulay sharoit yaratadi. Ayrim davrlarda ham sun'iy ravishda yaratilgan urushlar, ocharchilik va kasalliklarning sabablari aynan shu mafkuralarni targ'ib qilish ushun tashkil etilgan. Asosan, bir najotkor kelib, bizni bu qiyinshiliklardan qutqaradi, degan ishonchdan foydalanib, soxta mahdiylik, soxta nasroniylik, soxta payg'ambarlik da'volarini vujudga keltirish orqali soxta dinlar, botil e'tiqodlar yaratdilar. Oqibatda odamlarning moddiy va ma'naviy qiyinshiliklaridan foydalanib, ularni suiste'mol qilib, ularga da'vat etishadi. Bundan tashqari, bu tashkilotlar urushlar, ocharchilik va kasalliklarni keltirib chiqaradigan juda katta muassasalar va komraniyalar tomonidan nazorat qilinadi yoki qattiq qo'llab-quvvatlanadi. Aynan ular

tomonidan missionerlik burchlarini bajaradi. Buning o'rniga, bu missionerlik tashkilotlari nishondan qochish va atrofga ko'proq ommaviy va tasvirni jalb qilish ushuni tinchlik va adolatni tiklash, tenglik, barsha dinlar birligi kabi shirin iboralarni ishlatishadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion). O'rganishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, missionerlar mahalliy aholiga o'z madaniyatidan «yuqori» madaniyatni taklif etishadi. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan «strategik tadqiqotlar» natijasiga ko'ra, missionerlik dunyoda global miqyosida turli konfliktlarda va qat'iy geosiyosiy bosimda ekanligini ta'kidlashadi. Missionerlik ta'siri ostida har qanday xalq va millatning madaniy ildiziga tahdid solish orqali o'ta radikal millatchilik harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, mazkur harakatlar oqibatida dunyoda global miqyosida etnik va millatlararo mojarolarning tobora avj olishi har qanday xalq va millatni mentalitetiga raxna solish orqali ma'naviy tubanlik girdobiga yetaklamoqda. Shu tariqa, missionerlik oqibatida «ayrim» siyosiy kushlar o'zining gegemonligini o'rnatish maqsadida g'oyaviy-mafkuraviy, geosiyosiy, madaniy jihatdan ustunlikka erishishi kuzatilmoqda. Xususan, global iqtisodiy inqiroz davrida missionerlik dunyoning nochor davlatlari taraqqiyotiga go'yoki, «iqtisodiy» yordam ko'rsatish bahonasida qashshoqlik, ochlik, nochorlikni bartaraf etish maqsadida «maqsadli» yordamni tavsiya etishi namoyon bo'lmoqda.

Missionerlik tarafdorlarini ayrim siyosiy markazlar bilan o'zaro yaqin aloqalar o'rnatishga intilishi ularga yangi imkoniyatlarni qo'llashga sharoit yaratmoqda. «Missionerlik globallashuv sharoitida ma'naviy-mafkuraviy tahdid vositasi bo'lib, eng avvalo, jahondagi muayyan siyosiy kuchlarning geopolitik maqsad manfaatlariga yo'naltirilgan holatda olib borilmoqda»[14:45]. Natijada, qudratli siyosiy markazlar ta'siridagi zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari muayyan mintaq va mamlakatlarni ongli ravishda «nishonga olib», mavjud siyosiy rejim bilan fuqarolar o'rtasiga nifoq solishga intilmoqda.

Bugungi kunda u yoki bu dinni bayroq qilib dunyoviy tartibotga qarshi yo'naltirilgan radikal harakatlarga qarshi kurash olib borish ko'p qirrali benihoya ziddiyatli fenomen ekanligini inobatga olish zarur[15:115-116]. Zero, jahondagi yetakchi davlatlar missionerlik harakatlarini yo'naltirish orqali iqtisodiy yordam berish bahonasida aksariyat holatlarda o'zlarining siyosiy shartlarini bajarishga majbur qilish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif davlatlarga «beg'araz» yordam ko'rsatish orqali o'z siyosiy ta'sir doirasiga olish holatlari tobora oydinlashmoqda. Xususan, diniy vositalar orqali o'zga davlatlarning ichki ishlariga aralashuvi namoyon bo'lmoqda. Missionerlik geosiyosiy kuchlar ko'magida xavfli qurol sifatida, o'zga din vakillari e'tiqodiga raxna solmoqda. Mazkur harakatlar gegemonlik va mustamlakani, bosqinchilik hamda kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlarga nisbatan siyosiy bosimini tajovuzkorlik harakatlari oqibatida amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mazkur holat, jahondagi yetakchi davlatlarning dunyo zaxiralarining to'liq egallash va nazorat qilishda mafkuraviy hujum quroli sifatida missionerlikdan foydalanayotganligini namoyon etmoqda. Natijada, muayyan hudud yoki mintaq xalqlarni o'z mamlakati siyosatiga qarshi qo'yish holatlari kuzatilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, missionerlik globallashuv sharoitida ushbu harakatlari oqibatida dunyo miqyosida milliy, diniy adovatlarni qo'zg'otuvchi harakat sifatida dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinch va osuda hayotga tahdid solish orqali nafaqat jamiyatda, balki mamlakat miqyosida separatizmni keltirib chiqarishga intilayotganligi jiddiy fikrlashni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Rrezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: «Biz faqat shu yo'l bilan bugungi kunning barcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg'unshi g'oyalarga qarshi qat'iy immunitet yaratishimiz, o'zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo'lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin»[16], deya alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Zero, mamlakatimizda missionerlik tahdidlarni oldini olish, uni bartaraf etish orqali tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, millatlararo hamjihatlikni ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик. Ўзбекистон Республикаси Президенти вазифасини бажарувчи Шавкат Мирзиёевнинг Тошкентдаги симпозиумлар саройида Ислоҳ ҳамкорлик ташкилоти Ташиқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // «Халқ сўзи» online, 2016 йил 19 октябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги Фармони.

3. Гундуз Шиносий. Миссионерлик. Анқара. ТДВ. Нашириёти. 2007.Б-100.

4. Милтон Л. Рудник. История евангельского христианства. – <http://svitlo.by.ru/istoria/ewang/ewang4.html>

5. Колесниченко. Ю.В. Политические аспекты миссионерства в российском обществе в переходный период: на примере Приморского края: диссертация ... кандидата политических наук: 23.00.02. - Владивосток, 2008.
6. Бердяев Н.А. О самоубийстве: Психологический этюд. - Москва: Изд-во МГУ, 1992.
7. Бердяев Н.А. О самоубийстве: Психологический этюд. - Москва.: Изд-во МГУ, 1992.
8. Бултаков Б. Бағрикенглик ва мўтадиллик виждон эркинлиги таъминланишининг ижтимоий-фалсафий асослари сифатида. ЎЗМУ хабарлари. 2016 йил. № 1/4.
9. Хасанбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташиқлотлар, оқимлар мафкуравий курашининг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014.
10. Назаров А.Н. Глобаллашув шароитида барқарор сиёсий тараққиёт хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. ЎЗМУ хабарлари. №1/1 2016 йил.
11. Хасанбоев Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташиқлотлар, оқимлар мафкуравий курашининг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014.
12. Пахрутдинов Ш. Мустақиллик ва жамият тараққиётига таҳдид муаммоаси. (сиёсий таҳлил тажрибаси) С.ф.н. илмий даражаси учун ёзилган дис. 23.00.02. – Тошкент, 1999.
13. Қуронов. М. Ниқоб ортига бир нигоҳ. – Тошкент. Маънавият, 2018.
14. Каримова.М, Маширабов А., Алимардонов А. Динлараро таъсирнинг глобаллашуви. «Конфессиялараро мулоқот ва диний бағрикенглик – жамият барқарорлиги гарови». Халқаро конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2014 йил 12 ноябр. ТИУ. НМБ.
15. Пахрутдинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдиди. с.ф.д. илмий даражаси учун ёзилган дис. 23.00.02. – Тошкент: 2001.
16. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилidir. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташиқил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. <http://www.uza.uz/oz/politics/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017>

UO‘K 378

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

*O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistenti
everest11@gmail.com*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida informatika o‘qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta‘minoti mazmuni differensial professiogrammani ishlab chiqish, dasturiy apparatga ustuvorlik berish, informatsion, kasbiy, tizimli-axborotli, grafik, obyektga yo‘naltirilgan dasturlash hamda tizimli, faoliyatiy, kompetentli yondashuvlar asosida takomillashtirish haqida takliflar keltirib o‘tilgan.*

Bo‘lajak pedagoglarga informatikadan ta‘lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga, motivatsion-qadriyatli, refleksiv mezonlarni reproduktiv, kasbiy interaktiv kurslar metodikalari keltirib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, didaktik, tarmoq, texnologiya, differensial, professiogramma, tizim va boshqalar.*

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

***Аннотация:** В данной статье содержанием методического и дидактического обеспечения развития профессиональных компетенций и профессиональной подготовки студентов посредством преподавания информатики в педагогических вузах является разработка дифференцированной профессиональной программы, отдающей приоритет программным, информационным, профессиональным, систематическим основам информационного, графического, объектно-ориентированного и системного программирования, даны предложения по совершенствованию, основанные на оперативных, компетентных подходах.*

Будущих педагогов ознакомили с использованием телекоммуникационных технологий в образовательном процессе, информатикой, мотивационно-ценностными, рефлексивными критериями, методами репродуктивной деятельности, профессиональными интерактивными курсами.

***Ключевые слова:** компетентность, дидактика, сеть, технология, дифференциал, профиограмма, система.*

**SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF
PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PEDAGOGUES**

***Abstract.** In this article, the content of methodological and didactic support for the development of professional competences and professional preparation of students through informatics teaching in pedagogical higher education institutions is the development of a differential professional program, giving priority to software, informational, professional, systematic-informational, graphic, object-oriented programming and systematic, proposals for improvement based on operational, competent approaches are made.*

Future pedagogues were introduced to the use of telecommunication technologies in the educational process of informatics, motivational-valuable, reflexive criteria, methods of reproductive, professional interactive courses.

***Key words:** competence, didactic, network, technology, differential, professiogramma, system, etc.*

***Kirish.** Pedagogik faoliyatda tarmoq texnologiyalarini qo‘llash va xususan uning alohida turlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilishimiz shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tadqiqotlarda olimlarning e‘tiborini pedagogik faoliyatga umumiy tayyorlik tahlilidan uning faoliyatiga qaratish tendensiyasi mavjud.*

Masalan, so‘nggi o‘n yillikdagi ilmiy ishlarda biz kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlikning o‘ziga

xos turlarini o'rganishda bo'lajak o'qituvchining talabalar bilan muloqot qilishga tayyorligi, axborot va kommunikatsion o'zaro ta'sirga tayyor bo'lish, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashga, yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirishga, o'quv jarayonida modulli audiovizual texnologiyalardan foydalanishga, informatika darslarida kompyuter o'qitish texnologiyalaridan foydalanishga va boshqa yo'nalishlarni aniqladik.

Ushbu tendensiyaga muvofiq, biz ta'lim muassasi talabalarini axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishga tayyorlikni o'qituvchining mehnatga umumiy tayyorligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida ko'rib chiqamiz. Shu munosabat bilan o'qituvchining telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi uning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarligining asosiy jihati deyish mumkin.

O'qituvchining axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga tayyorligining bir qismi bo'lgan bevosita motiv - bu bolalarni mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan (masalan, internetdan) pedagogik jarayonni qo'llab-quvvatlashning muhim didaktik vositasi sifatida o'qitishga qiziqish deyish mumkin. Bu qiziqish pedagogika o'qituvchisi shaxsi yo'nalishining asosiy mazmunidir.

Asosiy qism. Biz o'qituvchi shaxsining ushbu yo'nalishini uning pedagogik faoliyatning ushbu jihatini asosiy sifatida tanlashini belgilaydigan fazilatlar to'plami sifatida tushunamiz. Bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan texnologiya o'qituvchisi shaxsiyatining yo'nalishida ma'lum bir "siljish" motivatsiya ustunlik qiladi, chunki zamonaviy kompyuterda axborot telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bolalarni o'qitishga alohida qiziqish mavjud.

O'z oldimizga texnologiya o'qituvchisining ta'lim muassasi talabalarini o'qitishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligining asosiy komponentlarini tuzish vazifasini qo'ygan holda, biz uning tarkibida quyidagi elementlarni ajratib ko'rsatamiz:

o'qituvchi shaxsining yo'nalishi va uning jismoniy fazilatlarini rivojlanish normasi, chidamliligi, jismoniy salomatligi;

o'qituvchining tegishli kasbiy tayyorgarlik bilan pedagogik jarayonni qo'llab-quvvatlashning didaktik vositasi sifatida kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalangan holda o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirishga intilishi va qobiliyati.

Bu holda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi ostida biz uning maxsus va metodik bilimlari va tegishli malakalari majmuasini tushunamiz.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik muammosi bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida biz ko'pchilik mualliflar uning bunday ko'rinishlarini o'qituvchi ishiga ijobiy munosabat, pedagogik bilim, ko'nikmalarning ma'lum darajada egallashi, va pedagogik muammolarni hal qilishda mustaqillik deb tushunamiz. E.P.Belozerskiy va A.G.Frost bu ko'rsatkichlarni pedagogik qobiliyatlarning zaruriy rivojlanish darajasi, shaxsning kasbiy-pedagogik yo'nalishi mavjudligi hamda yondashuvlar bilan to'ldiradi.

Kompetentli yondashuv doirasida talabalarining individual faoliyatlari rag'batlantiriladi, ularda egallagan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishga oid faoliyat mustahkamlanadi.

Kompetentli yondashuv doirasida amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bilimlar esa ushbu ko'nikma va malakalarning asosini tashkil qiladi. O'quv jarayoni talabalarining o'zlashtirilgan bilimlar asosida hayotiy-amaliy faoliyat tajribalarini o'zlashtirishlariga yo'naltiriladi.

Kompetensiya keng qamrovli tushuncha bo'lib, inglizcha —competence», ya'ni —mahorat», —qobiliyat» degan ma'nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar va individ shaxsiy sifatlarining namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir.

Kompetentli yondashuvga ilm sohalariga ko'ra: pedagogik, psixologik, antropologik, falsafiy, fanlararo bog'liqlik sifatida qarash mumkin. Kompetentli yondashuv maqsadga yo'naltirilgan holda faoliyatli, madaniyatshunoslikka asoslangan, shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan qarash talab qilinadi. O'rganishning tashkiliy shakllariga ko'ra, kompetentli yondashuvga tizimli, kopleks, tarkibiy jihatdan qarash mumkin.

Kompetentli yondashuv doirasida muayyan ta'limiy vazifalarga yechim izlanadi. Mazkur yondashuv ta'limning shaxs taraqqiyotiga yo'nalganligini ifodalab, talabalarda bir qator shaxsiy sifatning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Kompetentlilik ta'lim jarayonida kasbiy-ijtimoiy vazifalarni yechish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kompetentli yondashuv bilimlarni o'rgatish jarayonida talabalarda tayanch kompetensiyalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Biz aniqlagan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga professional tayyorgarlik tarkibiga asoslanib, biz ushbu sifat mavjudligining quyidagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlarini ajratamiz:

- universal didaktik vosita sifatida kompyuterdan foydalangan holda o'rganishga qiziqish;
- o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning didaktik vositasi sifatida telekommunikatsiya vositalaridan

foydalanishga qiziqish;

- jismoniy salomatlik, chidamliligi;
- informatika, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarning mavjudligi;
- kompyuter yordamida o'qitish bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarning mavjudligi.
- telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda o'qitish sohasida uslubiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi (shu jumladan masofaviy qo'llab-quvvatlash).

Umuman olganda, bizning tadqiqot obyekti o'rganish natijalari - bo'lajak texnologiya o'qituvchisining o'qitishda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi - bo'lajak pedagogika o'qituvchisining telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganishga tayyorligi quyi tizim ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz o'qituvchining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishga maxsus va metodik tayyorgarligi holati ko'rsatkichlarini tavsiflashda kasbiy yondashuvdan foydalandik.

Talabalar bilan o'z faoliyatining ushbu yo'nalishi bo'yicha texnologiya o'qituvchisining professiogrammasini ishlab chiqishni boshlab, biz quyidagi chegaralar bilan izlanishimizni belgiladik:

- pedagogik professiogrammani pedagogik tadqiq etishning barqaror tendensiyalari;
- o'rganishga dastlabki tayyorgarlik tarkibi;
- tayyorlikning biz tanlagan jihati.

Метод обучения представляет собой систему подходов и деятельности учителя и ученика, которая способствует освоению знаний, развитию навыков, формированию мировоззрения и воспитанию обучающихся. Он в значительной мере определяет выбор учебного материала, последовательность его представления и дозировку на занятиях, а также методы введения и активизации материала в процессе общения. В современной лингводидактике справедливо отмечается, что без применения соответствующих методов обучения невозможно достичь поставленных целей и задач обучения.

В области преподавания иностранных языков проблема выбора метода остается неокончательно решенной и подлежит обсуждению как в определении понятия "педагогическая технология", так и в описании содержания педагогических технологий, рекомендуемых в качестве оптимальных для различных условий обучения.

Анализируя основные тенденции развития систем образования в мировой педагогической практике, становится понятно, что современное информационное общество ставит перед всеми учебными учреждениями, особенно школами, задачу подготовки молодых людей, способных самостоятельно учиться и работать с информацией, самостоятельно развивать свои знания и навыки в различных областях, а при необходимости осваивать новые знания и профессии на протяжении всей своей осознанной жизни.

Эффективное и последовательное решение этих актуальных проблем педагогики требует выявления ключевого элемента, который способен стать опорой для достижения целей образования в новых социально-экономических условиях. Таким элементом могут стать новые педагогические и информационные технологии.

Педагогическая технология представляет собой систематическую реализацию заранее спланированного учебно-воспитательного процесса. Ее отличие от других методов заключается в

том, что педагогические технологии способствуют более эффективному обучению, повышая интерес и мотивацию учащихся.

Среди разнообразных направлений новых педагогических технологий существует несколько, которые в контексте преподавания русского языка могут быть особенно адекватными и соответствовать поставленным целям:

«Обучение в сотрудничестве» (cooperative learning): Этот подход акцентирует внимание на сотрудничестве и взаимодействии между учащимися. Он способствует развитию коммуникативных навыков, сотрудничеству в группе и совместному решению задач. Учащиеся работают вместе над проектами, обмениваются мнениями и идеями, что способствует активному участию и повышению мотивации.

Метод проектов: Этот метод основывается на организации учебного процесса вокруг конкретного проекта, в рамках которого учащиеся решают практические задачи, проводят исследования, применяют полученные знания на практике. Это способствует развитию творческого мышления, самостоятельности и применению языковых навыков в реальных ситуациях.

Индивидуальный и дифференцированный подход к обучению: Этот подход учитывает индивидуальные особенности каждого учащегося, его уровень знаний, интересы и потребности. Учитель адаптирует учебный материал и методы обучения, чтобы каждый учащийся мог достичь максимального прогресса. Это позволяет ученикам развивать свои сильные стороны и преодолевать сложности в изучении русского языка.

Сознательно-практический метод: Этот метод акцентирует внимание на практическом применении полученных знаний и умений. Учащиеся имеют возможность применять языковые навыки в реальных ситуациях, проводить практические упражнения, ролевые игры, дискуссии и т.д. Это помогает учащимся закрепить изученный материал и развить навыки использования русского языка на практике.

Все эти педагогические технологии имеют свои преимущества и могут быть эффективными инструментами в преподавании русского языка, способствуя активному участию учащихся, повышению мотивации и развитию необходимых языковых навыков.

Направления новых педагогических технологий, такие как "Обучение в сотрудничестве", метод проектов, индивидуальный и дифференцированный подход, а также сознательно-практический метод, относятся к гуманистическому подходу в образовании.

В гуманистическом подходе к образованию основное внимание уделяется развитию личности учащегося, его индивидуальности и самостоятельности. Этот подход ставит целью не только усвоение готовых знаний, но и развитие критического мышления, способности к самостоятельной познавательной деятельности и коммуникации.

Цель обучения русскому языку учащихся среднего специального звена образования, заключается в формировании более глубоких знаний, умений и навыков, необходимых для свободного общения на русском языке в устной и письменной формах, а также для чтения и понимания литературных произведений.

Использование гуманистических педагогических технологий в преподавании русского языка может способствовать более эффективному достижению этих целей. Например, метод проектов позволяет стимулировать самостоятельность и творческое мышление учащихся, а индивидуальный и дифференцированный подход позволяет учитывать особенности каждого ученика и адаптировать обучение под его потребности.

Важно также отметить, что гуманистический подход не является революционным преобразованием, а скорее эволюционным процессом, который учитывает современные потребности и приоритеты в образовании. Он стремится к более активной и познавательной деятельности учащихся, с учетом их индивидуальности и возможностей.

Заключение. В заключение, представленная статья подчеркивает важность использования активных форм занятий в образовательном процессе для эффективного освоения нового материала. Применение презентаций, таких как "Инфо-угадайка", "Кластер" и "Мозговой штурм", способствует активизации познавательной деятельности учащихся и способно повысить усвоение и понимание изучаемого материала.

Результаты исследования подтверждают, что указанные активные формы занятий способствуют стимуляции мыслительных процессов, развитию творческого мышления и способности структурировать знания. Они обеспечивают организацию информации и обмен идеями между

учениками. Кроме того, данные формы занятий развивают коммуникативные навыки, самостоятельность, коллективное взаимодействие и аналитическую способность.

Исходя из вышеизложенного, активные формы занятий представляют значимую роль в образовательном процессе, особенно для школьников, так как они способствуют активному взаимодействию с учебным материалом, применению теоретических знаний на практике, формированию умения делать выводы и систематизировать информацию. Эти формы занятий способствуют развитию навыков самоорганизации, самостоятельности и повышению уверенности в собственных способностях.

Таким образом, внедрение активных форм занятий в образовательный процесс является неотъемлемым компонентом современной педагогики, способствующим развитию ключевых навыков и качеств учащихся, а также повышению эффективности образования в целом. Дальнейшие исследования и практическое применение данных активных форм занятий могут способствовать более глубокому пониманию и успешному усвоению учебного материала студентами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Боголюбов В.И. (2020). *Инновационные подходы в школьном образовании*. Москва: Издательство "Просвещение".
2. Азизходжаева Н.Н. (2023). *Педагогические технологии и педагогическое мастерство*. Ташкент: Издательство "Узбекистон".
3. Хуторский А.В. (2014). *Современные методы обучения русскому языку*. Москва: Издательство "Академия".
4. Жалолова Ж. (2020). *Иностранные языки в современном образовании: методика и практика*. Ташкент: Издательство "Фан".
5. Шукина А.Н. (2013). *Методика преподавания иностранных языков*. Москва: Издательство "Высшая школа".
6. Шукина А.Н. (2016). *Русский язык как иностранный: методика обучения*. Москва: Издательство "Флинта".
7. Шелякина М.А. (2021). *Функциональная грамматика русского языка*. Москва: Издательство "Дрофа".
8. Шукина А.Н. (2023). *Методика преподавания русского языка как иностранного*. Москва: Издательство "Просвещение".

UO'K 94:342.56(575.1)

TURKISTON MINTAQASIDA SANOAT SOHASIDAGI TEXNIK YANGILIKLARNING TARIXIY TAHLILI (1917-1924 YILLAR)

Hayitov Shodmon Ahmadovich,
Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori,
Hasanova Habiba Yorqin qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
habibahasanova0709@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-1924 yillarda Turkiston mintaqasi sanoatiga kirib kelgan texnik yangiliklar, sohadagi to'siq va muammolar haqida fikr yuritilgan. Turkiston o'lkasida 1917-1920 yillarda sodir bo'lgan iqtisodiy inqiroz natijasida qishloq xo'jaligi va sanoatida tushkunlik holati ro'y beradi, bu esa o'z navbatida, yangi texnikalar kirib kelish jarayoniga to'siq bo'ladi. Ammo yuzaga kelgan mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rib, yangi texnik vositalar kirib kelishi uchun amaliy harakatlar olib boriladi.

Kalit so'zlar: sanoat, texnik vositalar, "Kompaud" bug' mashinasi, "Eklips", "Limus" jinlari, «Dizel», «Ruston va Proktor» dvigatellari, «Karver» linteri, «Gardner» guzolomasi, «Kornovalskiy» bug' qozoni, «Presslash» mashinasi va barabani, "Drobilka".

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКИХ НОВАЦИЙ В ОБЛАСТИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО РЕГИОНА (1917-1924 гг.)

Аннотация. В данной статье рассматриваются технические новшества, препятствия и проблемы промышленности, вошедшие в Туркестанскую промышленность в 1917-1924 годах. В результате экономического кризиса, произошедшего в Туркестане в 1917-1920 годах, произошла депрессия в сельском хозяйстве и промышленности, что, в свою очередь, стало препятствием для внедрения новых технологий. В статье рассмотрены пути устранения существующих проблем, и предприняты практические действия по внедрению новых технологий.

Ключевые слова: промышленность, технические средства, паровая машина «Компауд», джинны «Эклипс», «Лимус», двигатели «Дизель», «Растон и Проктор», линтер «Карвер», хлопок «Гарднер», паровой котел «Корновальский», «Прессовая» машина и барабан, «Дробилка».

HISTORICAL ANALYSIS OF TECHNICAL INNOVATIONS IN THE FIELD OF INDUSTRY IN THE TURKEY REGION (1917-1924)

Abstract. This article discusses the technical innovations, obstacles and problems in the industry that entered the Turkestan industry in 1917-1924. As a result of the economic crisis that occurred in Turkestan in 1917-1920, there was a depression in agriculture and industry, which, in turn, became an obstacle to the introduction of new technologies. However, ways to eliminate existing problems will be considered, and practical actions will be taken to introduce new techniques.

Key words: industry, technical means, "Compaud" steam engine, "Eclipse", "Limus" genies, "Diesel", "Ruston and Proctor" engines, "Carver" linter, "Gardner" cotton, "Kornowalsky" steam boiler, "Pressing" machine and drum, "Crusher".

Kirish. Turkiston mintaqasida 1917-1920- yillarda sanoat korxonalarining milliyashtirilishi va ko'plarining yarim quvvat bilan ishlashi hamda ba'zilar butunlay yopilishi tufayli mintaqaga yangi texnikalar kirib kelish imkoniyatlarini chekladi. Shu sababli, aksariyat zavod va fabrikalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keltirilgan texnik vositalarni ta'mirlash orqali ishlab chiqarish choralari ko'rish zarurati vujudga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, jarayonlarga davr nuqtai nazaridan baho berish tamoyillari arxiv manbalari ma'lumotlari va adabiyotlardan foydalanilgan holda yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, faqatgina 1923- yilga kelib, savdo-sanoat boshqarmalari tasarrufida bo'lgan sanoat korxonalarining bir qismi to'la quvvat bilan ishga tushgan. Jumladan, BXSrdagi 1923- yilga kelib, 32 ta

sanoat korxonasidan 26 tasi ishlay boshlagan, shundan 19 tasi to'la quvvat bilan ishlagan. To'la quvvat bilan ishlagan korxonalar qatoriga charm-teri, g'isht, vino, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari, ichak-chavoq kombinati, Chorjo'ydagi solod kombinati, Karmana, Ziyovuddin, Zirabuloq, Chorjo'y, Karki, Termiz, Boysun, G'ijduvon va Qorako'ldagi paxta tozalash va yog'-moy zavodlari mahsulot chiqara boshlagan

1917-1920 yillarda Xiva xonligida 15 ta paxta tozalash zavodlari, 8 ta beda urug'i tozalovchi, 4 ta jun-teri, 4 ta yog'-moy va sovun pishirish, 11 ta g'isht zavodi bo'lib, shundan 13 tasi yirik korxonalar hisoblangan. 1918-1922- yillarda ushbu korxonalar 25 foiz quvvat bilan ishlagan, ularning ko'plari amalda yopilgan, zavodlardagi muhandis, usta, slesar, mexanik ustalar ishsiz qolib, ular asosan, Yevropa millati vakillari bo'lgan hamda yangi texnikalar kiritilishi deyarli to'xtab qolgan [1;s.106-110].

Arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari hamda boshqa turdagi korxonalarda mavjud texnikalarni ta'mirlash masalasi muhim hisoblangan. Har bir korxonada 8-10 nafargacha texnik ta'mirlovchilar faoliyat yuritgan. Paxta tozalash zavodlarida paxtani chigitdan ajratish (Guzolomochniy) bo'limi, «Katel» bo'limi, «Quritish» bo'limi, «Presslash» bo'limi, «Jin» bo'limi, «Amerika» bo'limi, «Samotas» bo'limi, «Yog'-moy, kunjara va chigit chiqitini olish» bo'limi kabilardan iborat bo'lib, ularning har biriga o'nlab texnika qurollari, bug' kamerasi, envator, linter, motor va nasoslar, dvigatel va bug' mashinasi kabilar o'rnatilgan. Ushbu texnik jihozlarni ta'mirlash, eskirib va yaroqsiz bo'lib qolganlarini yangilari bilan almashtirish borasida 1922-1923- yillarda katta hajmdagi ta'mir ishlari bajarilgan [2;s.69-71]. Hatto har bir zavodda turlariga qarab nechtagacha texnik vositalar borligi, ularni ta'mirlashga sarf-xarajatlar hisobotlari ham arxiv hujjatlaridan o'rin olgan [3; s.9,80,81,1.10,28,38,42]. Jumladan, Chorjo'ydagi I.Vadyaev paxta tozalash va yog'-moy zavodini ta'mirlash 1922 yilda uch oy davom etib, 146.000 oltin rubl sarflangan [4;s.4]. Buxoro shahridagi 5-raqamli zavod ta'miriga 150.000 oltin rubl (1923- yil yozi) xarajat qilingan [5;9]. Xarajatlar smetasi zavodning har bir bo'limi bo'yicha alohida-alohida tuzib chiqilgan.

Arxiv manbalarida 1922-1923- yillarda sanoat korxonalarida faoliyat yuritgan, slesar, muhandis, texnik xodimlarning maoshlari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilganligi ham bu boradagi tasavvurni yanada kengaytiradi. Buxorodagi 10-raqamli zavodda texnik bo'limi malakali ishchi xodimlariga 715 rubldan 750 rublgacha, zavod texnik ustalariga 805 rubldan 940 rublgacha, yog'-moy bo'limi ustalariga 670 rubldan 715 rublgacha maosh to'langan.

Birgina №10 va №13 raqamli Buxoro paxta-tozalash va yog'-moy zavodi misolida masalaga qaraydigan bo'lsak, ishchi texnik xodimlar oylik maoshi ism va familiya asosida keltirilganiga guvoh bo'linadi. Jumladan, Zlatkovskiy va Epieyn – 750 rubl, Shverev – 715 rubl, Ratner – 805 rubl, Karpov – 850 rubl, Mamed Ismoil (suv tashuvchi) – 670 rubl, Glubstov – 805 rubl, Rustam Musaev, Habib Lutfulla o'g'li va Yoqubjon o'g'li kabilar – 650 rubl, 11-raqamli zavoddan Burnashev – 805 rubl, Baronov – 850 rubl, Borisov Kamenstov, Kasinskiylar – 715 rubl, 13-zavoddan Abramov – 850 rubl, Gusak – 850 rubl, Raxmin – 805 rubl olgan. Ushbu ro'yxatdan quyidagilar ayon bo'ldi. Birinchidan, oylik maoshlar razryadiga qarab to'langan, ikkinchidan, mahalliy millat vakillarining maoshlari past darajada bo'lgan.

Tadqiqotchi T.T.To'xtametov ta'kidlaganidek, mahalliy aholi vakillari, asosan, qora ishchi va batrak (mavsumiy yollanma ishchi) bo'lib ishlagan. Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarida, undan keyin ham mahalliy usta, slesar, muhandis ishchi o'rinlarida, asosan, rus millati vakillari (yevropaliklar) mehnat qilgan. Texnik malaka talab qilinadigan ishchi o'rinlarida o'zbek, tojik, turkmanlar barmoq bilan sanarli bo'lgandi. Zavodlar o'zini tiklab, me'yoriy ishlab chiqarishga o'tib brogan sari, ularning o'ziga ayrim xarajatlarni qoplash majburiyati yuklangan.

Zavodlar yopilib borayotgan bir sharoitda, ishlab turgan zavodlarga butunlay yopilgan korxonalarining texnika vositalari olib berilgan. Buxorodagi 1-raqamli zavodda Amerika paxtasini chigitdan ajratish madsadida 2 ta betareya va 4 ta jin, 1 ta bug' mashinasi va motorli dizelni 3-raqamli zavoddan, linter jinlari esa 15-raqamli zavoddan olib berilgan [6; s. 89]. Shuningdek, 1,4,5,6 – zavodlarining texnik holatini nazorat qilish, ular texnik ta'minotini yangilash choralari haqida maxsus qaror qabul qilingan [7; s.91]. Zavodlarning ishlash qudratini oshirish maqsadida ularni yangi texnikalar bilan ta'minlash choralari ham ko'rika boshlangan.

Zavodlar Yangi iqtisodiy Siyosat (YIS, NEP) bergan imkoniyatdan foydalanib, o'z ishlab chiqarish quvvatini oshirish uchun tadbirkorlar bilan shartnoma tuzganlar. 1922- yilda Buxoro 1-raqamli zavod boshlig'i A.Qosimov fors tadbirkori Yusup Mamedov bilan kelishuv bitimini imzolaydi. Ushbu bitimga ko'ra, Yusup Mamedov paxta sotish markazlaridan o'z ot va arobalarida 1,3,4,5,6-raqamli zavodlarga o'z vaqtida yetkazib turishi kerak edi. Paxtani har bir pud tashigani uchun zavod 2 oltin koopeykdan pul bergan. Yusup Mamedovning aravakash va arobalari sug'urta qilinib, sug'urta pulini zavodlar to'lagan.

Arobakashlarga ish haqi bir oyda ikkiga bo'linib, (oyning 1-15 chislolari hamda 15 chislodan keyin) to'langan [8; s.8].

Natijalar va ularning tahlili: Arxiv manbalari tahlili natijasida, Turkiston ASSRda paxta tozalash zavodlarini zaruriy mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda bir qator muammolar vujudga kelganligi ayon bo'ldi. Hatto, 1918-1922-yillarda Turkiston ASSRda 296 ta paxta tozalash zavodidan bor-yo'g'i 16 tasi ishlasada, ularni texnik vositalar (jin, presslash mashinasi, ko'tarma kran va h.k) bilan ta'minlash muammo bo'lib qolgan. Turkiston ASSR XKS ning 1918- yil bahorida 221-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan «Paxta-moysovun kasaba uyushmasi» ham mavjud ahvolni o'nglay olmadi.

Manbalarda: «Zarur mashina va asbob-uskunalar Turkistonda yo'q, valyutaga AQSHdan sotib olish kerak [9; s.96-98]» – degan takliflar vujudga keldi. Jumladan, mavjud bo'lgan paxta presslash apparatlari sodda bo'lib, ular paxta tolasini toylab (kip) qilib, o'rov materiallari bilan o'rab, temir va po'lat belbog'lentalar bilan bog'lardi. Har bir belbog'lar jamlanmasida 70-75 ta kip birlashtirilgan. Bular «Marka» deb atalib, bir markadagi kiplarning vazni 10-13 tonnadan 16,5 tonnagacha bo'lib, yuk tashuvchi vagonlarga joylashtirilgan. Har bir paxta tozalash zavodida press agregati o'rnatilgan bo'lib, tolani qo'lda to'rtburchakli yashiklar yasab, vintlar yordamida sitib, arqonlar bilan bog'lab olishgan.

XX asr boshlaridagi «Murrey» tipidagi paxta presslash agregati (unda toy (kip) ning 1 tasi 160-200 kg) dan foydalanilgan. 1922- yildan so'ng biroq takomillashgan revolverli markali presslar olib kelingan. Faqatgina 1925- yilga kelib, Sankt-Peterburgning «Putiloviya», «Baxtiyskiy» zavodlarida ishlab chiqarilgan gidrovlik pressovlar mintaqaga keltirilgandi [10.s.105]. Turkiston ASSR davrida esa ularni olib kelib o'rnatishga moddiy imkoniyatlar mutlaqo mavjud emasdi.

Arxiv manbaalarining ma'lumoticha, 1919-1920- yillardagi paxta tozalash va yog'-moy zavodlarida o'z zamonasining yangi texnikalari o'rnatilgan bo'lib, ular sirasiga «Kompand» bug' mashinasi, bug' koteli, «Dizel», «Ruston va Proktor» dvigatellari, «Karver» linteri, «Gardner» guzalomasi, «Eklips», «Limus» jinlari, «Kornovalskiy» bug' qozoni, silindrli «Tange» vertikal nug' mashinasi, «Presslash» mashinasi va barabani, «Oryol», «Prett», «Broun», «Amerik» ko'p va oz tishli jinlari, «Grochyov pressi», «Parilka», «Isitish bug' mashinasi», «Maslaboynik», «Dinam mashina» kabilar kiradi [11; s.71].

Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlaydigan korxonalarda o'ziga xos mashinalar ishlatilgani, jumladan Yangi Buxoro (Kogon) dagi vino zavodi(1922 yildan ijaraga berilgan, 1 kunda 770 chelak vino chiqargan) dvigatelli motor bilan harakatga keladigan «Drobilka» texnik vositasi yordamida 8 soatda 120 pud bug'doy, arpa doni, yanchilgan [12; s.8].

Junni va terini qayta ishlash korxonasida AQSH dan olib kelingan junni tozalash, titish, yuvib quritish mashinalari mehnat unumdorligini bir necha barobar oshirgan. Qo'y va echki juni etishtirishga respublikalardagi murakkab siyosiy vaziyat («bosmachilik»), chegaralardagi notinchlik, mol ozuqasi tanqisligi, paxtachilik inqirozi kabilar salbiy ta'sir ko'rsatib, bu borada mahsulot keskin kamaygan, mashinalar ishlatilmay qolishi holatlari ham yuz bergan. Shunga qaramay, Eski Buxorodagi teri va jun korxonasi 1922- yil 36.500 pud junni qayta ishlab, ishlanmay qolgan 10.366 pud junning 7000 pudini yuvish (moyka)ga bergan. Xorijga yuborish uchun 10 vagon mashinaga yuvilgan va tozalangan jun tayyorlab qo'yilgan [13.s.6].

1923-yil iyunida Yangi Buxoro (Kogon)dagi 4-raqamli zavodda 150 ta ot kuchiga ega bo'lgan «Kompand» rusumli bug' mashinasi va 350 pud paxtani qayta ishlash qudratiga ega «Amerika dugilik stanogi» o'rnatilgan. Ushbu yangi texnikalar zavodga 4000 oltin rublga tushgan [14; s.5,6]. Yoxud XXSRga 1923-yil oxirida Botumi porti (Kavkaz) uch shakldagi guruch tozalaydigan mashinalar Moskva (Rossiya)dan olib kelingan. Ushbu yangi texnikalarning birinchisi 1 soatda 6,5 pud, ikkinchisi 18 pud, uchinchisi esa 92 pudgacha guruch tozalash quvvatiga ega bo'lishgan. Ushbu mashinalar Chorjo'y stansiyasidan Xorazmga yetkazilgan [15; s.4]. 1922-1923-yillarda Xorazm sanoat korxonalarini ayrim RSFSR zavodlari yangi texnika bilan ta'minlash majburiyatini olishgan. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining 1923-yildagi 45-bayonnomasida: «Yangi Urganch va Toshhovuzdagi zavodlarga Yaroslavl va Krestovskiy korxonalarini asbob-uskunalarini yetkazib berishi [16; s.1-2]» qayd etilgan. 1923-yilda Rossiya Federatsiyasidan so'nggi rusumdagi to'quv mashinalari keltirilib, ular 50 foizlik kredit bilan berilgan [17; s.4].

Buxorodagi sanoat korxonalarining texnik ta'minoti va faoliyati tahlil qilinar ekan, ularning aksariyati sovet hokimiyati natsionalizatsiya siyosati, xomashyo tanqisligi, yoqilg'i (neft, kerosin) keltirilmaganligi, ishchilarga o'z vaqtida ish haqi to'lanmaganligi, paxta tolasini yoxud chigit chiqindisi va kunjarani tashishga transport taqchilligi kabi sabablar tufayli yopilganligiga guvoh bo'lindi. Ayrim zavodlar zaxirada bo'lib, ayrimlari to'la bo'lmagan quvvat bilan ishlagan.

Mazkur zavodlar ishlab turgan davrda, ma'muriy boshqaruv tarkibi, mexanik, mexanik yordamchi, usta, slesar, kucher, suv tashuvchi, temirchi, kocheqar, molotboynik, g'isht teruvchi, hisobchi, kassir bilan

qo'shib hisoblaganda 40-50 tadan 65-70 tagacha ishchi xodimlar faoliyat yuritishgan. Katta zavodlarda bir oyda ishchi va xodimlar 52.673 ming rubldan – 75 ming rublgacha, o'rta va kichik zavodlarda 39.916 rubldan 45.000 rublgacha ish haqi olgan [18; s.3-6]. Zavodlar yopilganidan so'ng, zavodlarda mexanik, montyor, kuzatuvchi, qorovul shtatlari qoldirilib, ularga bir oyda 3805 rubldan 2085 rublgacha ish haqi tayinlangan [19; s.20-22]. Chorjo'y shahridagi yopilgan zavodlarda (№12,13,14,15 va h.k) mexanik va montyor bir oyda 850 rubldan 805 rublgacha, kuzatuvchi – 785 rubl, qorovul 650 rubl maosh olgan [20; s.64-66]. Buxoro rus manzilgohlaridagi kazarmalarda yashovchi ishchilar ko'p sonli bo'lib, korxonalar yopilganidan so'ng, ular qashshoqlar safiga borib qo'shilgan. Hukumat ishchilarni zavod yopilishidan oldin ogohlantirish, ularga qolgan ish haqlarini, bayram pullarini to'lash, kazarmalarda istiqomat qilayotgan ishchilarga boshpana topguncha kazarmada yashashiga ruxsat berish, aravakashlarga har bir botmon yukni zavodga yetkazgani uchun 5 rubl to'lovini berish kabilar haqida buyruq va ko'rsatmalar chiqargan. Jumladan, Chorjo'y revkomi №1 zavod ishchilariga 25000 rubl qolgan pullarini berish, 20.000 rubl mablag'ni №2, №6 zavod ishchilariga 10.000 rubldan berishni, kunbay ishchilar ish haqini (10 ming rubl) to'lash haqida 1918 yil 25 dekabrda buyruq chiqargan [21; s.29,30,43].

1922- yilda Germaniyaning «Qoradengiz shirkati» hamda «Shreder va uning sheriklari», «Sinkup» shirkati Buxorodan qorako'l teri, paxta, shirinmiya, ichak-chavoqlarni sotib olish istagini bildirgan. Germaniyaning hukumati Buxoroning Moskvadagi vakiliga murojaat qilib (Ato Xo'ja), qizil tilla va fabrika mashinalari evaziga qorako'l terilarini Moskva orqali yuborishni so'ragan [22].

Shirinmiya zavodi Chorjo'y (hozirgi Turkmanistonning Lebop viloyati) da zavodi ochilib, unda shirinmiya presslangan. Germaniya-Rossiya-Buxoro paychilik shirkatlari 5 yil muddatga shartnoma tuzib, zavod har yili 10 ming tonna presslangan shirinmiyani Germaniyaga yetkazish, Germaniya tomoni zavodni yangi texnika bilan ta'minlash majburiyatini olgan [23].

Germaniya shirkatlari shirinmiya toylarini Astraxan va Botumi portlari orqali o'z paraxodlarida Germaniyaning Gamburg va Berlin shaharlariga keltirishgan. Ushbu shaharlarda shirinmiyadan oshqozon, ichak, yurak, buyrak, gripp, jinsiy o'jizlik kasalliklariga davo bo'ladigan dori-darmonlar olingan. Shuningdek, undan haydovchilik sohasi uchun zarur bo'lgan vanimen moddasi olingan. Chorjo'y shirinmiya zavodiga nemis presslash uskunalarini olib kelingan [24; s.29,32,34].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, Turkiston mintaqasida 1917-1920- yillarda iqtisodiy inqirozning yuksak bosqichi kuzatiladi, oqibatda qishloq xo'jaligi va sanoat sohasi rivojida bir qator jiddiy muommalar kelib chiqadi. Ko'pgina sanoat korxonalarini yopilib, yangi texnika asbob-uskunalar kirib kelish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazadi. Natijada, inqiroz sababli yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari ko'riladi. 1920-1929- yillarda sanoatda yangidan yuksalish sari dastlabki qadamlar qo'yildi. Har qanday og'ir ahvolga qaramay, Turkiston mintaqasiga yangi texnikalar kirib kelishi uchun zarur chora-tadbirlar ko'riladi.

ADABIYOTLAR:

1. Тухтаметов Т.Т. Россия И Хива В конце XIX - начале XX веков. Победа Хорезмской Народной Революции. М.: Наука, 1969. – С.106,107,108,109,110.2. O'MA; R-57-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild.
2. O'MA; R-57-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 69,70,71-varaqlar.
3. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 48 A-yig'ma jild; 9-varaq, 17-yig'ma jild, 80,81-varaqlar, 37-yig'ma jild, 1-varaq, 1-varaqning orqa tomoni, 10-varaq, 28-varaq, 38,42-varaqlar.
4. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 20-yig'ma jild; 4-varaq.
5. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 22-yig'ma jild; 9-varaq.
6. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 89-varaq.
7. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 91-varaq.
8. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 48A-yig'ma jild; 8-varaq, 8-varaqning orqa tomoni.
9. O'MA; R-25-fond; 2-ro'yxat; 1096-yig'ma jild; 96,97,98-varaqlar.
10. O'MA; R-25-fond; 2-ro'yxat; 1096-yig'ma jild; 105-varaq, 105-varaqning orqa tomoni.
11. O'MA; R-57-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 70-varaq, 70-varaqning orqasi, 71-varaq, 71-varaqning orqasi.
12. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 20-yig'ma jild; 8-varaqning orqa tomoni.
13. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 20-yig'ma jild; 6-varaq.
14. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 48A-yig'ma jild; 5,6-varaqlar.
15. O'MA; R-73-fond; 1-ro'yxat; 80-yig'ma jild; 4-varaq.
16. O'MA; R-73-fond; 1-ro'yxat; 10-yig'ma jild; 1,2-varaqlar.
17. O'MA; R-73-fond; 1-ro'yxat; 80-yig'ma jild; 4-varaq.

HISTORY

18. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 3,4,5,6-varaqlar.
19. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 20,21,22-varaqlar.
20. O'MA; R-53-fond; 2-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 57,58,59,60-varaqlar, 64,65,66-varaqlar.
21. O'MA; R-53-fond; 1-ro'yxat; 8-yig'ma jild; 29,30-varaqlar, 43-varaq.
22. Germaniyaning bizga murojaati // Buxoro axbori, 89-son. 1922 yil 8 iyul.
23. Germaniyaning bizga taklifi // Buxoro axbori,192-son. 1923- yil 22-avgust; Presslangan shirinmiya shirkati // Buxoro axbori, 205-son, 1923- yil 28- sentyabr.
24. Hayitov Sh.A. va b. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi: iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, madaniy hayot. Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2005. - B.29-32.
25. Hayitov Sh. Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX asrlar). Buxoro. - 2007. - B.34.

UO'K 9.433.902

O'RTA ZARAFSHON VOHASI YODGORLIKLARI: RABOTI MALIK KARVONSAROYINING YARATILISH HAMDA O'RGANILISH TARIXIDAN AYRIM MA'LUMOTLAR

Savriyev Jasur,
Navoiy Innovatsiyalar Instituti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Jsavriyev99@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola, XI asrning monumental arxitektura yodgorligi, Raboti Malik va Sardobaning qurilish tarixi, qayta tiklanishi, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Raboti Malikni karvonsaroy hamda "Podsholar" qarorgohi, qal'asi sifatida muhim rol o'ynaganligi, XI-XVIII asrlar davomida bu yerda jahon miqyosida savdo yarmarkalari tashkil qilinganligi ilmiy adabiyotlar asosida bayon qilingan. Taniqli olim N.Nemseva tomonidan arxeologik qazishmalar davomida topilgan XI-XVIII asrlarga oid mis, kumush, bronza, va temirdan yasalgan hunarmandchilik buyumlari, numizmatika materiallari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: karvonsaroy, sardoba, rezidensiya, qal'a, ochiq hovli, gumbaz, obi g'isht, qarorgoh, shohlar saroyi, sahro, qir, gil, tuproq.

ПАМЯТНИКИ СРЕДНЕЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА: НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ ИЗ ИСТОРИИ СОЗДАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ КАРАВАН-САРАЯ РАБОТИ МАЛИК

Аннотация. В данной статье рассказывается о монументальном памятнике архитектуры 11 века, истории строительства Работи Малик и цистерны, ее реставрации, археологических исследованиях, о том, что Работи Малик играл важную роль как караван-сарай, а также резиденция и крепость». Организация ярмарок изложена на основе научной литературы. Известный ученый Н. Немцева приводит сведения о медных, серебряных, бронзовых и железных поделках и нумизматических материалах, найденных при археологических раскопках XI-XVIII веков.

Ключевые слова: караван-сарай, сардобе, резиденция, замок, открытый двор, купол, кирпичная вода, резиденция, царский дворец, поле, деревня, глина, почва.

MONUMENTS OF MIDDLE ZARAFSHAN OASIS: SOME INFORMATION FROM THE HISTORY OF CREATION AND STUDY OF RABOTI MALIK CARAVANSERAI

Abstract. This article is about the monumental architectural monument of the 11th century, the construction history of Raboti Malik and the Cistern, its restoration, archaeological research, the fact that Raboti Malik played an important role as a caravanserai and the residence and fortress of the "Kings". The organization of trade fairs is stated on the basis of scientific literature. The famous scientist N. Nemtseva provides information about copper, silver, bronze and iron handicrafts and numismatic materials of the 11th-18th centuries found during archaeological excavations.

Key words: caravanserai, sardoba, residence, castle, open yard, dome, brick water, residence, palace of kings, field, countryside, clay, soil.

Kirish. Qadimgi davrlardayoq tashkil etila boshlangan karvonsaroylarning keng miqyosda qurilish jarayoni o'рта asrlarda jadal tus oladi. Xususan IX- X asrlardagi rabotlar, ularning me'moriy tuzilishidan kelib chiqsak, ular mustahkamlangan va qo'riqlanadigan karvonsaroylar vazifasini bajarishga xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo XII asrga kelib ular o'zlarining harbiy istehkom sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi[1, 189-b]. Lekin ularning qurilishi bu bilan butunlay to'xtab qolmadi. Keyingi davrlarda Movarounahrning har bir qishlog'i aholisi yirik shaharlarda rabotlar qurgan bo'lib, tarixiy adabiyotlarda bu haqida yetarlicha manba va ma'lumotlar mavjud.

Dolzarbligi. Jumladan turli mualliflar tomonidan Somoniylar davlatida Movarounahrda 10 mingdan ortiq rabot, karvonsaroy va qo'nalg'alar faoliyat ko'rsatganligi, Qoraxoniylar davrida ko'plab rabotlar barpo etilgani[2, 243-b], Chig'atoy ulusida yo'l bo'ylarida barpo etilgan maxsus bekat yomlar faoliyati[3-4, 480-b], Amir Temur va Temuriylar, Shayboniylar va boshqa sulolalar davrida barpo etilgan ko'plab yo'l bo'yi

inshootlari tavsiflanib alohida e'tirof etilgan. Karmanadagi dastlabki Karvonsaroylardan biri hisoblanmish Raboti Malik shoh saroyi, Qoraxoniylar sulolasi vakili Shams-ul Mulk Nasr ibn Ibrohim tomonidan qurilib, XII asrning boshlarida Qoraxoniylarning yana bir sulola vakili Arslonxon Muxammad ibn Sulaymon tomonidan (1102-1130 hukmronlik qilgan) tomonidan dastlabki qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

Metodlari. Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, ob'yektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Raboti Malik yodgorligi XI- XII asrlarda o'z xususiyatiga ko'ra nafaqat "Rabot" balki boshqa vazifalarni ham o'tagan yirik inshoot hisoblanadi. Raboti Malik joylashgan yerlar Cho'li Malik nomi bilan mashhur bo'lib "Shohlar cho'li yoki shohlar manzilgohi" degan nomlar bilan ham atalgan. "Raboti Malik" karvonsaroyi, Qoraqum sahrosi bag'rida qurilgan bo'lib, Karmana va Qiziltepa hududlari qadimgi karvon yo'li orqali ko'prik vazifasini bajargan. Shu bilan bir qatorda bu inshoot ichida amaldor va savdogarlar uchun maxsus talab darajasidagi xonalar va xonaqohlar ham mavjud bo'lgan. Raboti Malik bo'yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchi N.B.Nemsevaning fikriga qaraganda, bu inshoot Qoraqum sahrosidagi Qoraxoniylarning (rezidensiyasi) qarorgohi ham hisoblangan bo'lishi mumkin chunki karvonsaroy XVIII asrgacha qarorgoh bo'lib xizmat qilgan degan taxminlar ham e'tibordan xoli bo'lmagan. 2. Bu yerda Buyuk sohibiqiron Amir Temur va temuriy shahzodalar, jumladan, shahzoda Jahongirmirzo, Ulug'bek, Boburmizrolarning tashrif buyurgani turli tarixiy manbalarda qayd etib o'tilgan. Buxoro xonligi va amirligini boshqargan podshohlar qo'nib o'tib ayrim davlat boshqaruviga oid siyosiy va ijtimoiy masalalar turli davlatlardan kelgan elchilar orqali maslahatli ravishda hal etilgan bo'lib ularga izzat-ikrom ko'rsatilgan. XIX asr va XX asr boshlarida karvonsaroy atrofida qishloq shakllangan bo'lib qishloq qisqa davrda Rabot nomi bilan mashhur bo'lgan. Qishloq aholisining asosiy qatlamini asosan kasb-hunarga ega bo'lgan aholi vakillari tashkil etgan. Chunki karvonsaroyga qo'nib o'tgan karvon va uning odamlari uchun qishloq aholisi tomonidan ehtiyojlariga qarab xizmatlar ko'rsatilgan. Buxoro xonligining katta qismini cho'l va sahrolar tashkil etib, bu hududlar orqali o'tgan karvon yo'llar faoliyatini yo'lga qo'yish markaziy hukumatning doimiy diqqat e'tiborida bo'lgan. Qoraxoniy, Shayboniy, Ashtarxoniy hukmdorlar tomonidan xonlikning dasht va cho'l hududlari orqali harakatlanuvchi savdo karvonlari va yo'lovchilarni ulov vositalarini suv bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi gidrotexnik inshootlarning paydo bo'lish tarixiga qisqacha to'xtalib o'tish joiz [10,4-5b].

Sardoba qurilishi uchun suv, tuproq va qum alohida toza joydan, ganch esa Qorovulbozor va Nurotadan olib kelgan. Qumga yantoq, qamish, yulg'un kuli qo'shilgan. Inshoot uchun ishlatiladigan g'isht ham issiq sovuqqa g'oyat chidamli bo'lishi lozim bo'lgan. Loy yaxshi pishitilib unga tuya juni qo'shilgan. Xom g'isht 1-2 yil quyosh jaziramasida toblangandan so'ng, ular pishirilib saralab olingan. Bu g'ishtlarning nomi obi g'isht deb atalgan. G'ishtlarni bir biriga yopishtiradigan qorishma loyga suvdan tashqari qo'y suti, tuya juni ham qo'shilgan. Raboti Malik sardobasi me'moriy tuzilishi jihatidan viloyatlarda joylashgan sardobalardan deyarli farq qilmaydi. Chunki aylana shaklidagi hovuz va uning ustini yopib turuvchi gumbaz shaklida qurilgan bu sardobalar gumbazida bir nechta darvozalar, ular pastida esa suv tushishi uchun mo'ljallangan maxsus teshiklar va tepasida aylana shaklidagi tuynuklar bor va bir xillikni qayd etadi. Bundan tashqari sardoba hovuzidagi suvdan olish uchun mo'ljallab qoldirilgan maxsus kirish joyi mavjud. Sardoba suvini salqin holda saqlash uchun deraza va eshik doimiy havo aylanib turiladigan qilib qurilgan. Sardobaning asosiy suv manbai bo'lib asosan yomg'ir suvi va qor erishidan hosil bo'lgan suvlar xizmat qilgan. Bunday suvlar maxsus ariqchalar orqali sardoba hovuziga kelib tushgan. Suv sizib chiqmasligi uchun hovuz sirti qir bilan ya'ni (shox-shabba va butalar kulidan qilingan gil qo'shib tayyorlangan qorishma) bilan qoplangan. Yana bir e'tiborli tomoni shundaki Raboti Malik sardobasi uchun yomg'ir va qor manbalaridan tashqari, Zarafshon daryosining yer osti sizot suvlari ham uni doimiy ravishda to'lib turishiga imkon yaratib bergan. Mana shu Zarafshon daryosining suvidan to'yinishi natijasida ham karvonsaroyning ichki va tashqi hovuzlari muntazam ravishda suv bilan to'la bo'lgan unga zinapoyalar yordamida tushilib u yerga maxsus yo'lak orqali borilgan. XI- XII asrlarga mansub bo'lgan karvonsaroy Raboti Malik sardoba inshootining arxitekturasi ana shunday bo'lgan. Suv havzasining atrofida katta maydon bo'lib unda yo'lovchilar dam olishlari uchun salqin soya beruvchi daraxtlardan ekilgan bo'lib sharoit hozirlangan. Xuddi shu qurilma loyihasi XVI asr o'zbek ustasi chizmasida ham aks ettirilgan.

Karvon yo'li yaqinida qurilgan sardoba qo'shni rabot va aholi yashaydigan joylar uchun ham xizmat qilgan. Sardoba faqat qadimgi karvon yo'llarining yo'nalishlarini aniqlashga yordam beribgina qolmasdan, balki xalqimiz me'morchiligi tarixini, bu sohadagi yutuqlarini, o'tmishidagi me'moriy uslublarni o'zida aks ettirgan muhim tarixiy manba hamdir. Bu inshoot, Buyuk Ipak Yo'lining nafaqat savdo balki boshqa yo'nalishlar uchun ham yaratilgan suv havzasi vazifasini o'tagan. Ushbu yodgorlik bugungi kunda ham Raboti Malik karvonsaroyining ajralmas qismi hisoblanadi.

Karvonsaroyning taxminiy ma'lumotlarga qaraganda (XI asrning oxiri yoki XII asr boshlari) o'rta qismi yonib ketgan va u yaroqsiz holga kelib qolgan va boshqatdan qurilgan degan taxminlar ham mavjud bo'lib shu davrga qadar uning asli ko'rinishi boshqacha tarzda bo'lgan. Shimoliy ochiq hovli o'rnida yopiq ko'k gumbazli aylana markazida sakkiz qirrali aylana gumbaz qad rostlagan. Yopiq majmua devoriga ikkinchi davrda birinchi davrdan saqlanib qolgan qoldiqlar, ya'ni g'isht parchalari (50,5 x 48,5) yopishtirilgan. Raboti Malikning janubiy qismi 2 etajda 3ta xo'jalik hovlisi (2 ta yon va 1 ta markaziy) paralel va perpendikulyar joylashgan yodgorlikning tashqi xonalari devorlari bilan tutashib ketgan.

Karvonsaroyning ko'p qirrali gumbazi aylanasini kvadrat shaklida (26x4,5-5 sm) li pishgan g'isht ganjli qorishma bilan terilgan. Raboti Malik aralash qurilish materiali- to'g'ri burchakli (18-20x28-30x6,6x7sm) xom g'isht, paxsa qatlami va kvadrat pishiq g'ishtdan (24x24x4-5sm) barpo etilgan. Qal'aning asosiy devorlari paxsa qatlami qo'shilgan xom g'ishtdan qilingan (tashqi devor 2,35 metr, ichkisi 1,45 metr), peshtoq, bosh fasadning novsimon buramalari va burchak guldastalari pishiq g'ishtdan qurilgan. Pishiq g'isht bilan interyerlarni ko'tarib turuvchi-gumbazlar, arkalar, gumbaz shiftlari, ustunlar va yarim ustunlar bunyod etilgan. Xom va pishiq g'ishtli materiallardan yirik inshootlarni qurish (xom g'isht, kvadrat g'isht) XI-XII asrlarda butun Markaziy Osiyo qurilish sohasi uchun xos hisoblanadi. (Dashtdagi Dehgaron masjidi XI -XII asrlar, qadimgi Amul (Chorjo'y) dan Xorazmga boradigan karvon yo'lida XII asr Doyaxotin karvonsaroyi, Tojikiston janubi XII asrning Xo'ja Mahshad maqbara-xonaqosi) ni misol qilish mumkin.

Buxoro amirligi saroyiga XIX asr 40-yillarida yuborilgan Rossiya elchiligi (1841 yil) ishtirokchisi A.Leman[6] Buxoro dashtidagi qal'ani ko'zdan kechirgach, Raboti Malikning ichki xonalarni birinchi marta bayon etadi va orqa hovlining yarim vayron gumbazli zalida arabeskalar bilan qoplangan "gotik ustunlar"i bo'lganligini qayd qiladi [12, 181-b]. Haqiqatdan shimoliy galereyaning sakkiz qirrali yarim doira gumbazida o'tkazilgan arxeologik qazishmalari jarayonida o'ymakorlik ganchi bilan qoplangan deyarli butun holda saqlangan XII asr arkasi topildi. Arkaning va birlashgan ustunlarning asosida sakkiz qirrali yarim doira gumbazning aksonometrik grafik rekonstruksiya amalga oshirildi [7, 128-142b]. Bu konstruksiyalar ikkinchi qurilish davriga oid bo'lib, Raboti Malikning shu ko'rinishi XVIII asr o'rtalarigacha o'zgarmasdan kelgan. Hozirgi vaqtda Raboti Malik karvonsaroyining faqatgina yagona inshooti yerli xalq tili bilan aytadigan bo'lsak Raboti Malik deb emas, balki "Buxoro darvozalari" deb ataydigan bir bo'lagigina saqlanib qolgan. XIX asr oxirida Raboti Malikdagi saroylar ancha xarobaga aylanganligi N.Mayev ekspeditsiyasi davomida aniqlangan[12, 18-20b].

1924-1925- yillar davomida Buxoro Xalq Respublikasi ixtiyorida bo'lgan tarixiy yodgorliklar Sredaz Komstori (Yodgorliklarni asrash va himoya qilish O'rta Osiyo tashkiloti) ixtiyoriga o'tadi. Sredaz Komstori 1925- yilning kuzida Raboti Malikning xarobalarini tekshirish uchun injener V.A.Krasilnikov va arxeolog V.R.Cheylitkoni safarga yo'llaydi. Ular bu joyni xaroba holatda ekanligini o'z safarlari davomida ko'rishib ta'mirlash haqida takliflar kiritadilar [9, 45-b].

1926- yili arxeolog olim Muso Saidjonov, V.K.Kostkova, injiner M.M.Lochinov boshchiligidagi ekspeditsiya Raboti Malikda bir necha kun bo'lib, bu joyni o'rganish va qanday loyihalashganligi hamda dastlabki ta'mirlash ish rejalarini tuzadi. 1927- yilda B.N.Zasipkinning tavsiyasi va maslahatiga tayanib Raboti Malikda ta'mirlash ishlari boshlanadi[5].

1934- yil may oyida Karmana rayon ijroiya komiteti Raboti Malik tarixiy yodgorligining g'ishtlarini olib, boshqa quriladigan qurilishlarga ya'ni shahar qurilishidagi ko'chalar yo'laklarida oyoq ostiga g'ishtlarni terishda ishlatish uchun ruxsat so'rab, O'zkomstari (Yodgorliklarni asrash va himoya qilish Respublika tashkiloti)ga murojaat qiladi. Yaxshiyamki, tashkilot bu taklifni rad etib, Raboti Malikni buzishga qarshilik ko'rsatadi [8,37-b].

Shundan keyingi davrda Raboti Malikni o'rganish va ta'mirlash ishlari o'z holiga tashlab qo'yildi. Faqat 1973, 1975, 1977 yillarda bir guruh arxeolog va arxitektorlar Y.Bryuxoveskaya boshchiligidagi Raboti Malikda arxeologik tadqiqotlar olib boradilar. Bu ishda O'zbekiston Respublikasidagi Madaniyat vazirligiga qarashli Hamza nomidagi san'atshunoslik institutining N.B.Nemseva boshchiligidagi olimlari ham ishtirok etadilar[7, 112-120b].

Raboti Malik xarobalarida N.B.Nemseva boshchiligidagi bir guruh olim va tadqiqotchilar arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan. N.B.Nemsevaning ushbu arxeologik tadqiqoti mustaqilligimizning dastlabki, ya'ni (1991-1992- yillarda) yangi tarixiy ma'lumotlarni kashf etib, ular qazish jarayonida eski asfalt yo'li qoldiqlari ostidan Amir Temur davrida zarb etilgan tangani va oziq-ovqat saqlaydigan eski omborxonaga qoldig'ini topadi [11].

Xulosalar. Demak, Raboti Malikning ulkan hududda qoraxoniylar davrida tashkil topishi, bir tomondan, uzoq va yaqin viloyatlar o'rtasida aloqalarning muttasil ravishda olib borilishiga hamda savdo karvon yo'lining jonlanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xon va podshohlar, shahzodalarning

HISTORY

bunday yo'llar orqali yurishlarining uzluksiz bo'lib turishi karvon yo'lida nafaqat oddiy raboti karvonsaroylarning qad ko'tarishiga, balki yirik shaharlarda podshohlar uchun ham maxsus shohona, muhtasham rabotlar va sardobalar qurilishini talab etgan.

ADABIYOTLAR:

1. Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX-нач. XX в.в.). - Тошкент: Фан, 1980. стр 189.
2. Грицина А.А. Уструшанские были. - Тошкент: Изд-во Народного наследия, 2000. стр 243.
3. Марко Поло. Книга о разнообразии мира // Перевод И. Минаева. - Москва: ЭКСМО, 2005. стр 480.
4. Марко Поло Книга о разнообразии мира, записанная пизанцем Рустикано в 1298 году от р.х. Алма-Ата. 1990.
5. Засыпкин Б.Н. Работы Малик. Вопросы реставрации. - М., 1928.
Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи рискларнинг юзага келиш эҳтимоли бу ҳар бир кўрсаткич орқали бўлиши мумкин. Корхоналар фаолиятидаги яна бир муҳим кўрсаткич бу ўз капитали ҳисобланиб, уни ўзгариши ҳам рискли ҳолатларни ривожланишига олиб келади. Корхонанинг ўз капиталининг ҳаракати нисбий кўрсаткичлар - тушум ва чиқим коэффициентлари билан ҳам тавсифланади, улар куйидагича аниқланади:

Тушум коэффициенти = ўз капиталининг ошиш (кўпайтириш) миқдори / йил охиридаги ўз капиталининг қолдиғи

Чиқим коэффициенти = ўз капиталининг пасайиши (камайиши) миқдори / йил бошидаги ўз капиталининг қолдиғи.

Шунга ўхшаш корхоналарни молиявий ҳисоботларидан фойдаланган ҳолда таҳлил қилиш ҳар бир босқичларига кирувчи кўрсаткичларни ижобий ҳолатда бўлиши бу юзага келиши мумкин бўладиган рискларни олдини олишга ёрдам беради.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида олинган таҳлилий маълумотлар асосида куйидаги хулосалар шакллантирилди:

- корхона фаолиятига таъсир қилувчи рискларнинг мониторингини олиб бориш жараёнида асосий эътибор уларнинг келиб чиқиш эҳтимолигини баҳолаш зарур бўлган алгоритми ишлаб чиқилди;

- корхоналар фаолиятига таъсир қилувчи рискларни юзага келишини таъминлашга хизмат қилиши эҳтимолиги бор бўлган молиявий ҳисоботларнинг таҳлил қилиш босқичлари таклиф этилди;

- акциядорлик жамиятлари ва масъулияти чекланган жамиятлар соф активлар миқдорини мунтазам равишда кузатиб боришлари шарт. Агар соф активлар миқдори устав капиталидан кам бўлса, жамият ўз устав капиталини соф активлар даражасига камайтириши шартлиги асосланди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Абдуллаев Ё, Бобоқулов Кредит: 100 саволга 100 жавоб.- Т.: «Меҳнат», 1996 й. 80 бет.
2. Адҳамов М. Лойиҳа таҳлили. - «Фарғона», 2002.-72 б. 24. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент. -Т.: «Ўқитувчи», 2001. 583 б.
3. Аленичев, В. В., & Аленичева, Т. Д. (1994). Страхование валютных рисков, банковских и экспортных коммерческих кредитов. М.: Ист-сервис. 35.
4. Ван Хорн, Д. К., & Вахович, Д. М. (2001). Основы финансового менеджмента. М. и др.: Издат. дом" Вильямс".
5. Грабовий П.Г. и др. Риски в современном бизнесе - М.: Аланс, 1999. 75б.
6. Грабовий П.Г. и др. Риски в современном бизнесе - М.: Аланс, 1999. 75б.

7. Какие риски существуют в работе предприятия? Предотвратимые риски. Стратегические риски. Внешние риски. Оценка риска. Предупреждение и устранение рисков. Принятие риска. Предотвращение риска. Перенос риска. Методы управления рисками. <https://xn----dtbhaacat8bfloi8h.xn--p1ai/what-risks-work-enterprise>.
8. Камагуров И.С. Классификация рисков деятельности предприятия «МИРЭА - Российский технологический университет» Россия, г. Москва. (<https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-riskov-deyatelnosti-predpriyatiya>)
9. Маликов Т. «Молявий қарор қабул қилиш асослари» - Т.: «Шарқ», 1996. 24 б. 12.
10. Марочкин Н. А. Влияние рисков на экономическую безопасность предприятия: отраслевой и региональный аспекты. (https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/77032/1/978-5-7996-2731-7_2_32.pdf)
11. Марочкин Н. А. Влияние рисков на экономическую безопасность предприятия: отраслевой и региональный аспекты. (https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/77032/1/978-5-7996-2731-7_2_32.pdf)
12. Пласкова Н.С. Экономический анализ: учебник. – 2-изд. -М.: Эксмо, 2009. -704 с.
13. Маликов Т.С. Молия: амалий жиҳатлар (Ўқув қўлланма). – Т.: «Nihol print» ОК, 2022. – 428 б.
14. Webster, T. M., Norsworthy, J. K., Ward, S. M., Shaw, D. R., Llewellyn, R. S., Nichols, R. L., ... & Witt, W. W. (2012). Reducing the risks of herbicide resistance: best management practices and recommendations. *Weed Science*, 60(SP1), 31-62.
15. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/14063/mod_resource/content/0/risklarni_kichik_biznes_korxonalar_fojdasiga_tasirini_baholash.pdf
16. <https://1fin.ru/?id=281&t=1340>
17. <https://assistentus.ru/vedenie-biznesa/riski-predpriyatiya/>
18. <https://astral.ru/info/elektronnaya-otchetnost/obshchie-voprosy-otchetnost/chistye-aktivy-v-bukhgalterskom-balanse/>
19. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/management/enterprise-risk-management-erm/>
20. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/management/enterprise-risk-management-erm/>
21. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/12_Ashurov.pdf
22. <https://lex.uz/uz/search/unique>
23. <https://www.accountingtools.com/articles/net-assets>
24. https://www.audit-it.ru/finanaliz/terms/solvency/net_assets.html
25. https://www.profiz.ru/se/5_2003/864/ (Л.Г. Паутова д-р экон. наук, проф. кафедры экономики производственных предприятий РЭА им. Г.В. Плеханова Статья опубликована в журнале «Справочник экономиста» № 5, 2003.)
26. <https://www.techtarget.com/searchcio/feature/4-basic-types-of-business-risks-in-the-enterprise>.

UO'K 7.067.6

IQTISODIYOTNING GLOBALLASHISH SHAROITIDA BOZOR FAOLIYATINING AMAL QILISHI (ijodiy ishlab chiqarishda)**Qolqanatov Asilbek Nazarbay o'g'li,***O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida o'qituvchisi
qolqanatov9518@gmail.com*

Annotatsiya. Uzoq o'tmish davrlardan buyon mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va madaniy-ma'rifiy sohalarida o'zaro almashuvlar doimo bo'lib kelgan. Hozirda bu holat, ijodiy globallashuv deb nomlanadi va mamlakatlarni madaniy, iqtisodiy integratsiyalashuvini nazarda tutadi. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida milliy va jahon miqyosidagi bozorlarning ishlash prinsiplari va globallashuv sharoitida madaniyatning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Ijodiy ishlab chiqarish mahsulotlarining iqtisodiy globallashuv sharoitida madaniy iste'mol bozoridagi ommaviy bozor munosabatlaridagi muvozanati va bozor qoidalariga amal qilinishi yuzasidan ham tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, jahon iqtisodiyoti, integratsiya, bozor modeli, madaniy xizmat, ijodiy ishlab chiqarish.

ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ РЫНОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ГЛОБАЛИЗОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ (в творческом производстве)

Аннотация. С древнейших времен между странами всегда существовал взаимный обмен в экономической, социальной, технологической, культурной и образовательной сферах. В настоящее время такая ситуация называется творческой глобализацией и подразумевает культурную и экономическую интеграцию стран. В данной статье рассматриваются принципы функционирования национального и мирового рынков в условиях глобализации и роль культуры в национальной экономике в условиях глобализации. Также представлены аналитические данные о балансе продуктов творческого производства и соблюдении рыночных правил в массовых рыночных отношениях на культурном потребительском рынке в условиях экономической глобализации.

Ключевые слова: глобализация, мировая экономика, интеграция, рыночная модель, культурные услуги, творческая деятельность.

**MARKET ACTIVITY IN THE GLOBALIZATION OF THE ECONOMY
(in creative production)**

Abstract. Since the distant past, there have always been mutual exchanges between countries in the economic, social, technological and cultural-educational spheres. Currently, this situation is called creative globalization and implies the cultural and economic integration of countries.

This article examines the principles of functioning of national and global markets in the context of globalization and the role of culture in the national economy in the context of globalization. Analytical information is also provided on the balance of creative production products in mass market relations in the cultural consumption market in the conditions of economic globalization and the observance of market rules.

Key words: globalization, world economy, integration, market model, cultural service, creative work.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarimida boshlangan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar, ayniqsa, integratsiya hamda xalqaro madaniy hamkorlikning global voqealikka aylanishi tasavvurlarni ondan, tafakkurdan siqib chiqara boshladi. XXI asrning birinchi choragiga kelib esa global va innovatsion rivojlanish ijtimoiy taraqqiyotning kafolati sifatida e'tirof etildi. Ushbu omillar ta'sirida milliy davlatlar, etnomadaniyatlar va etnosotsial hayot paradigmal o'zgarishlar tomon yuz tutgan. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida O'zbekiston, bir tomondan, milliy taraqqiyotning strategik maqsadi va vazifalarini mustaqil, tashqi tazyiqsiz belgilash imkonini qo'lga kiritdi, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti va globallashuvning ziddiyatli, goho esa destruktiv tomonlariga duch kelib, yangi kutilmagan muammolarni echishga majbur bo'lmoqda[1:174].

Bunda iqtisodiy rivojlanish ma'naviy taraqqiyot bilan teng bo'lishi belgilab berildi. Iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan ko'p yillik muammo – moliyaviy barqarorlikka, iqtisodiy o'sishga va turmush darajasini oshirishda madaniy tendensiyani asrab qolishga ham erishishdan iborat edi.

Asosiy qism. Ushbu maqsadlarga erishish uchun juda ko'p turli xil yo'llar mavjud va har bir mamlakatning yo'li milliy iqtisodiyot va siyosiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda bir-biridan farq qiladi. Masalan, so'nggi yigirma yil ichida Xitoyning yuqori o'sish sur'atlariga hissa qo'shgan iqtisodiy rivojlanish modeli, Malayziya va Malta kabi turli mamlakatlarda yuqori o'sishga hissa qo'shgan modellardan biri-biridan tubdan farq qildi. Shunday bo'lsa-da, butun dunyo bo'ylab tajribaga asoslanib, bir qancha asosiy tamoyillar farovonlikni ta'minlaydi. Bularga yillar davomida turli xil iqtisodiy modellar tomonidan tajribadan o'tgan quydagilarni keltirish mumkin: investitsiyalar (ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar), yuqori samaraga ega bo'lgan texnologiyalarning dunyo bo'ylab mamlakatlar o'rtasida tarqalishi, kuchli iqtisodiy-ijtimoiy institutlar, to'g'ri makroiqtisodiy siyosat, bilimli kadrlar va bozor iqtisodiyotining mavjudligi va eng asosiysi ijodiy ishlab chiqarishda mazkur davlatlarning jahon media maydonidan yuqori su'ratlarda va ko'lamda joy egallashi edi. Bundan tashqari, deyarli barcha yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarda rivojlanayotgan mamlakatlarni bir-biriga bog'laydigan umumiy xususiyat bu zamonaviy ijodiy ishlab chiqarishning global ishtiroki va integratsiyasidir.

Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin globallashuv o'zi nima? Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi oqibatida sodir bo'ladigan jarayondir. Globallashuv (lotincha globus – yer kurrasi) atamasi jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi[2:1].

Globallashuv tushunchasi uning ma'no mazmuni va insoniyat taraqqiyotdagi o'rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog'lab qo'ymoqdaki buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta'siridan hali qolayotgani yo'q. O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma'naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p, lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olagani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B. Bandi bergan ta'rifdir. Unga globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi. "Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon. Globallashuv – jahonning bir xillashuvi va universallashuvi jarayoni. Globallashuv – milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni. Bu ta'rifga keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har o'lchashga nisbatan ham muayyan e'trozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning har o'lchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi[3:12].

Bundan tashqari globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy-siyosiyati va ma'naviyatiga o'tkazish mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirini Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandi shunday ta'rif bergan edi: "Men uyimning eshik va darvozlarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni agdar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman" [4:8]. Haqiqatan bugun madaniyat va san'at sohasi jahon andozalaridan namuna olgan holda rivojlanmoqda. Xorij san'ati qanday taraqqiy etayotgan bo'lsa ular milliy madaniyatimizga ham to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. Buni cheklab bo'lmaydi. Chunki, Yangi O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikni ma'naviy sohada ham ta'minlab turishi shart ekanligini yaxshi tushinib yetdi. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir[5:1], – deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Iqtisodiy "globallashuv" esa tarixiy jarayon bo'lib insoniyat innovatsiyalari va texnologik taraqqiyotining natijasidir. Bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotlarning tobora kuchayib borayotgan integratsiyasini, xususan, madaniy xizmatlar va madaniy kapitalning chegaralar orqali harakatlanishini anglatadi. Bu atama ba'zan xalqaro chegaralar orqali odamlar (mehnat) va bilim (texnologiya) harakatini ham anglatadi. Globallashuvning kengroq madaniy, siyosiy va ekologik jihatlar ham mavjud. Madaniy xizmat, aholiga madaniy xizmat ko'rsatish bo'lib, aholiga ijodiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining bir qismidir. Madaniy xizmat kishilarning ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bog'liq bo'lgan holda moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarni bevosita qondirish bo'yicha amalga oshiriladigan

ijtimoiy-tashkiliy usullar va shakllar bilan tavsiflanadi. Lekin shuni tan olishimiz kerakki, bugungi kunda tijorat va moliyaviy xizmatlar avvalgi davrdagiga nisbatan ancha taraqqiy etgan va chuqur integratsiyalashgan.

XXI asr – dunyo iqtisodiyotining yangicha shakllanish asridir. Bu dunyo insoniyatni, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning o'zgarishini, iqtisodiy modellar transformatsiyasini, xalqaro munosabatlarni, globallashuv va yangi geoiqtisodiy qurilishini shakllanishini anglatadi.

Bugungi iqtisodiyot aybni o'zgalardan axtaradigan, muammolar yechimiga osongina kelinadigan, hammaning boshini bir xilda silaydigan, istagancha mol-mulkka ega bo'lishda ilmni, bilimni talab qilmaydigan, o'zgarish va rivojlanishda cheksiz imkoniyatlarni ochib beruvchi, tahlikalardan holi bo'lgan iqtisodiyot emasligini tan olish kerak. Zamonaviy iqtisodiyot, avvalo, chuqur tahliliy yechimlar asosida doimo o'zini yangilab boruvchi, tartibga soluvchi va turli tahlikalarga ta'sirchan murakkab tizimga aylanib bormoqda[6:7].

Global bozorlar, rivojlanayotgan mamlakatlarga butun dunyo bo'ylab ko'proq diversifikatsiyalangan va kengroq bozorlarga kirish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Bu shuni anglatadiki, ular ko'proq kapital, texnologiya, arzonroq internet media importi va yirik eksport bozorlariga kirishlari mumkin. Iqtisod sohasida globallashuvning asosiy elementi – import tariflari kabi savdo to'siqlarini yo'q qilish yoki kamaytirish orqali jahon savdosining kengayishi va milliy doirada bozorlarni raqobatbardosh import tovarlari bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Madaniyat va san'at sohasi importi hozirgi kunda muassasa va tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha o'zlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yoki ta'minlash maqsadida xorijdan import qilib olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan musiqa cholg'ulari, ovoz kuchaytirgich moslamalar, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus libos va oyoq kiyimlar bilan cheklanmoqda. Lekin ular maxsus avtotransport vositalari, ularga o'rnatiladigan musiqa texnikasi va sahnalar 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod etilgani ham ijobiy jarayondir. Importning ko'pligi iste'molchilarga arzon narxlarda kengroq turdagi tovarlarni taklif qiladi, shu bilan birga, mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun kuchli turtki beradi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun ko'pincha iqtisodiy o'sish manbai bo'lgan eksport ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi. Chunki sanoat mahsulotlari o'z chegaralaridan tashqarida sotiladi.

Umuman olganda, savdo ishchilarni o'zlari va ularning mamlakatlari raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lgan kasblarga e'tibor berishga undash orqali milliy raqobatbardoshlikni oshiradi. Savdo iqtisodiy barqarorlik va moslashuvchanlikni rag'batlantiradi, chunki import ichki ta'minotning salbiy defitsit zarbalarini bartaraf etishga yordam beradi. Milliy bozorlarning globallashuv jarayonida xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi o'z navbatida xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiga kirib kelishini ham rag'batlantiradi[7:201].

Bizning media olamimizdachi xorij mahsulotlariga import darajasi yuqori. Milliy bozorlarni globallashuv jarayonidan proteksionizm orqali himoya qilib qolish esa g'oyatda qiyin ish. Xalqaro ijodiy ishlab chiqarish savdosini cheklash, ya'ni proteksionizm bilan shug'ullanish – bunday siyosatni amalga oshirgan mamlakat uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Globallashuv tufayli tez rivojlanayotgan mamlakatlar boy davlatlarga aylanadi, qashshoq mamlakatlar ulardan yanada ko'proq ortda qoladi. Dramatik tarzda o'sib borayotgan daromadlardagi farq qashshoq mamlakatlarda norozilik keltirib chiqaradi, bu xalqaro mojarolarga olib kelishi mumkin. Bu hodisalikka majorani bostirish yoki yanada avj oldirishda ham internetning o'rni beqiyosdir.

Yer yuzidagi hamma inson ijodiy ishlab chiqarish mahsulotlarini teng foydalana oladi, desak xato fikr bo'ladi. So'nggi 15 yilda aholi jon boshiga daromad 100 dan ortiq mamlakatlarda pasaygan, 60 dan ziyod mamlakatda aholi jon boshiga talab qisqargan. (Rivojlangan mamlakatlarda yashayotgan deyarli 5 mlrd. kishi orasida 3/5 qismi eng past sanitar me'yorlarga mos kelmaydigan sharoitda yashashadi, 1/3 qismi ichimlik suvidan mahrum, 1/5 qismi esa to'yib ovqatlanmaydi). "Imtiyozlarni adolatli taqsimlash" jahon iqtisodiyotini globallashtirishning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ammo bu muammo, afsuski, yagona emas.

Boshqa bir muhim muammo milliy iqtisodiyotlarning umum sayyora darajasidagi o'zaro bog'liqligi tufayli yuz berish imkoniyati yuqori mintaqaviy yoki global beqarorlik bilan shartlangan. Bir mamlakatdagi iqtisodiy silkinishi, media olamdagi bitta noto'g'ri ma'lumoti yoki bo'ron mintaqaviy, hatto, global oqibatlariga ega bo'lishi mumkin. Dunyo bo'yicha sustlik yoki depressiya populistik chaqiriqlarni keltirib chiqarishga, globallashuvning borishida qaror topgan o'zaro bog'liqlik va aloqalarni uzib yuborishga qodir. Natijada iqtisodiy urushga aylanish xavfi bo'lgan iqtisodiy mojaro va hatto, harbiy-siyosiy to'qnashuv kelib chiqishi mumkin. Boshqa tomondan globallashuv rivojlangan mamlakatlarni, jumladan, Markaziy Osiyo

mamlakatlarini ham Jahon xo‘jaligi aloqalariga kirishga bir qator muammolarni ham tug‘diradi. Global bog‘liqlik tamoyillari kuchaygan sayin jahon xo‘jalik tizimining rivojlanishidagi nomutanosiblik tobora oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut yanada ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlar eksporti jahon ijodiy ishlab chiqarishining eksportining qariyb 60%ni tashkil etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlar o‘z ijodiy eksport tovarlarining 70%ni rivojlangan davlatlarga sotadi.

Jahondagi “katta yettilik” mamlakatlari (AQSh, Kanada, Yaponiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya) hissasiga yalpi eksport va importning qariyb yarmi to‘g‘ri kelmoqda. Bundan tashqari globallashuv nafaqat iqtisodiy tarkibiy qismlarni, balki madaniy, mafkuraviy, siyosiy va shunga o‘xshash boshqa jabhalarni ham o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli hodisadir.

Shunga qaramay, globallashuv ta‘sir kamdan-kam hollarda jamiyatlar va ularning madaniyatlariga ta‘sir qiluvchi, hal qiluvchi omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Aniqrog‘i, globallashuv va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir hali ham yetarlicha o‘rganilmagan va bu boradagi globallashuv munozaralari nisbatan yaqinda bayon qilina boshlandi[8:28].

Umuman olganda, barcha tadqiqotchi olimlar global o‘zgarishlar faqat iqtisodiy omillar bilangina chegaralanmasdan, madaniy o‘ziga xosliklarga ta‘sirini, albatta, o‘tkazishini ta‘kidlaydilar, biroq ushbu ta‘sir doirasi to‘g‘risida har xil munosabat bildiradilar. Ba‘zilari yangi texnologiyalarning keng tarqalishini qo‘llab-quvvatlaydilar, bu bilan globallashuv jarayoni barcha salbiy oqibatlarining oldini olishga qodir deb hisoblaydilar. Farb sivilizatsiyasining yutuqlaridan hayratlangan boshqalar esa globallashuv faqatgina ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, degan fikrda. Ushbu toifadagi tadqiqotchi va olimlar bu o‘rindagi madaniy o‘ziga xoslikni qoloqlik, kambag‘allik, taraqqiyotdan voz kechish kabi tushunchalarning sinonimi sifatida baholaydilar. Uchinchi bir guruhdagilar esa global o‘zgarishlarda katta tahdid mujassam ekanligini ta‘kidlaydilar. Mamlakatimizdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma‘naviy islohotlar globallashuv jarayoni kengayib va chuqurlashib borayotgan bir sharoitda amalga oshirilmog‘da. Bu jarayon bilan bog‘liq bir qator vazifalar mavjud bo‘lib, ulardan biri – globallashuv natijalaridan davlatimiz manfaatlari yo‘lida foydalanib, ularni jamiyatimizning barqaror taraqqiyotiga xizmat qildirishga erishish hamda O‘zbekiston globallashuv jarayonida kuzatuvchi bo‘lib emas, uning faol ishtirokchisi va unga ta‘sir eta oluvchi subyekt sifatida qatnashishini ta‘minlashdan iborat[9:1].

Globallashuv va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir yaqinda paydo bo‘lgan hodisa emas. Darhaqiqat, ular, xususan, globallashuvning madaniyatga ta‘sirini bilan, adabiyotda bahsli nuqtani tashkil etadi, chunki bu o‘zaro ta‘sirni tekshirish uchun turli xil nazariy nuqtai nazarlar ishlab chiqilgan. So‘nggi o‘n yil ichida Guiso, Sapienza va Zingales kabi iqtisodchilar madaniyat, qadriyatlar, individual imtiyozlar va iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, madaniyatning iqtisodiyotga bir yo‘nalishli ta‘siriga e‘tibor qaratdilar.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta‘sirini ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma‘naviy salohiyatli va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta‘sirini kamaytirish va ijobiy ta‘sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Globallashuv mana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma‘naviyatini tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan baravar bo‘ladi. Tarixiy rivojlanishning boshlang‘ich bosqichlarida globallashuv – iqtisodiy integratsiyani ijobiy omili va milliy iqtisodning natijali o‘zgarishiga ko‘makchi sifatida qabul qilingan[10:153].

Xulosa. Globallashuv hayot sur‘atlarining tezlashishi bilan bog‘liq jarayondir. Globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma‘naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va bog‘liqlikning kuchayishi oqibatida sodir bo‘lmoqda va yanada o‘z funktsiya doirasini kuchaytirmog‘da. Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, globallashuvning ham salbiy va ijobiy tomoni mavjud. Globallashuv jarayonida xalqlarning iqtisodiy, ma‘naviy hayotidagi aloqalari kuchayishi bilan bir vaqtda ularning madaniyati va ma‘naviyatiga turli xil yot unsurlar o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi uning salbiy tomoni bo‘lsa, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi globallashuvning ijobiy tomonlaridan biridir. Umuman olganda, barcha tadqiqotchi olimlar global o‘zgarishlar madaniy o‘ziga xosliklarga, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, ularning ongi va mafkurasiga ta‘sirini o‘tkazishini ta‘kidlaydilar. Globallashuv – bu avvalo madaniyat va san‘at sohasida ijodiy ishlab chiqarish sur‘atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

ADABIYOTLAR:

1. Alimasov V. *Innovatsiya va ta'lim falsafasi. Madaniyat va san'at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz //konf. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni.* – Toshkent.: Oltin meros press. 2020. – B 488. (73-79).
2. <https://www.investopedia.com/terms/g/globalization.asp>
3. Allamuratov Sh.A. *Globallashuv asoslari.* – Termiz.:TerDU. 2014. 179-b
4. Ben Lutkevich. *Globalization. Article: https://www.techtarget.com/searchcio/definition/globalization*
5. Uza. *Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.*// “Yangi O'zbekiston” gazetasi. № 13 (269), 2021- yil 20- yanvar. – B 8. “Kolorpak” MChJ bosmaxonasi. – Toshkent, 2021.
6. J Raximov M.Y., Mavlanov N.N., Kalandarova N.N. *Iqtisodiy tahlil.* – T.: Iqtisod-Moliya, 2020. – 517 b.
7. Oseph Stiglitz. *Globalization and Its Discontents.* – New York, Columbia University. 2003. – B 304.
8. AcostaO.GonzalezJ. I.2010 *A Themodynamic Approach for the Emergence of Globalization, in K.G. Deng (Eds.), Globalization- Today, Tomorrow, 126 , Sciyo, Rijeka, Croatia.*
9. Ro'ziyev Y. *Globallashuv jarayonlari:ma'naviy o'ziga xoslik//gaz. Hurriyat. Manba: https://uzhurriyat.uz/2016/03/21/globallashuv-jarayonlari-ma-naviy-o-ziga-xoslik/*
10. Ergashev D. M. *Globallashuv jarayonlari. Konf. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya”.* (152-153).

ONA TILI – TAFAKKUR VA TUYG‘UNING YORQIN AKSI!

*Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

Dunyoda olti mingdan ortiq til bo‘lsa-da, hammasi ham Davlat tili maqomiga ega emas. O‘zbek tili Davlat tili maqomini juda murakkab, ziddiyatli davrda tinimsiz harakatlar natijasida qo‘lga kiritdi. Buning uchun uzluksiz ishlar amalga oshirildi. O‘tgan asrning 80-yillari oxirlarida o‘zbek ziyolilarining sa‘y-harakatlari – matbuotda o‘zlarining qator maqolalari bilan ishtirok etishlari natijasida 1989-yil 21-oktabrda ona tilimiz “O‘zbekiston Davlat tili” sifatida rasman tan olindi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan har yili 21-oktabr sanasi “**Ona tili bayrami kuni**” tarzida keng nishonlash belgilab qo‘yildi. Bu tilimizga bo‘lgan cheksiz hurmatning bir ko‘rinishi, albatta. Bu kunlarda ona tilimiz she‘r va qo‘shiqlarda madh etiladi. Tilimizning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan olim-u fuzalolar, ijodkorlarning xizmatlari e‘tirof etiladi.

Til – ong kabi qadimiy

Qadimshunos olimlarimizning izlanishlariga ko‘ra turkiy urug‘lar, o‘zbek millatining qadimgi avlodlari eramizdan avvalgi to‘rtinchi ming yilliklarda ham bo‘lgan. Qadimgi so‘g‘d, sak, masagetlar turkiy xalqlarning dastlabki ajdodlari sifatida e‘tirof etiladi. Demakki, shu davrlarda ham tilimiy amalda bo‘lgan.

Xalqimizning eng qadimgi davrlariga oid ishonchli ma‘lumotlar bir qator manbalarda, jumladan, G‘arb tarixchisi Gerodatning “Tarix” (mil.av.V asr), Xitoy tarixchilarining “Shimoliy sulolalar tarixi” (mil.av.III asr), arab olimlari, xususan, Rashiddinning “Jome ut-tavorix” (milodiy XIII asr) kabi asarlarida saqlangan. Ko‘rinadiki, maqtovgva arzigulik uzoq tariximiz va qadimiy tilimiz bor.

O‘zbek xalqi va tili, tilimizning tabiatiga oid qadimgi yodgorliklarning avvalida Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda bitilgan “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy tillar devoni”) asari turadi. Bunda ulug‘ bobomiz turkiy xalqlar tilidagi sakkiz mingga yaqin so‘zni izohlaydi, shuningdek, xalqimizning keng ijod namunalari – qo‘shiqlar, she‘rlar, yuzlab maqol va matallarni to‘plab kitobiga kiritadi. Bu bilan kelajak avlodga qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalari yetkazib berishga ulkan hissa qo‘shadi. Xuddi shu davrda ona tilimizda yozilgan manbalardan yana biri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asaridir. Boy tilimiz jozibasini bu asarda ham yorqin ko‘ramiz. Sal keyingi davrlarda ona tilimizda bitilgan Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul haqoyiq” asari, Ahmad Yassaviyning hikmatlarini ham alohida ta‘kidlash lozim. Turkiy (o‘zbek) tilida asar yozish an‘anasini Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy”, Xorazmiy esa “Muhabbatnoma” asarlari orqali davom ettirdi. Bu ishlarni Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi o‘nlab vatandoshlarimiz rivojlantirdi. Bu asar nafaqat o‘z davrida, bugungi kunda ham yuqori qiymatga ega. Ularning purma‘no tilimizdagi asarlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham yuqori qiymatga ega.

XV asrda turkiy tilda asar yozish yukini buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘z zimmasiga oldi. Mutafakkir turkiy tilda ham olamshumul asrlar yozish mumkin ekanligini, tilimiz hech bir tildan kemptik emasligini yorqin misollar bilan amalda isbotladi. Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali ona tilimizni butun bo‘y-basti bilan ko‘z-ko‘z qila oldi. U kishi bir asarida “Xitoydan Xurosongacha bo‘lgan o‘lkalarni qo‘shinsiz egalladim”, deya faxr etadi:

Olubmen taxti farmonim`a oson,

Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.

Buni suyukli shoirimiz Abdulla Oripov quyidagicha e‘tirof etadi:

Temur tig‘i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher.

Keyingi davrda xalqimizning ma‘naviy olamida munosib o‘rin tutgan ahli donishlar, ma‘naviyat yulduzlari – Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozixon, Turdi Farog‘iy, Uvaysiy, Nodira, Ogahiy, Munis, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar, shuningdek, Abdurauf Fitrat, Behbudiy-u Avloniylar, Elbek-u Botular, Cho‘lpon-u Qodiriylar sof o‘zbek tilida ijod etdi, ularning serjilo va purma‘no asarlari shu tilda tom-

tom kitobat bo‘ldi. Bu kabi donishlar ona tilimiz rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Ularning har bir ibrati qulog‘imizga xush yoqadi, har bir kalomi ohanrabodek jaranglaydi. Qolaversa, mazkur ijodkorlarning har bir jumlasini, har bir naqli zamirida ona xalqimizning ochiqko‘ngilligi, soddadilligi, mehr-oqibati, fazl-u kamoli, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbekning o‘zligi, ma‘naviy olami aks etib turadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma‘rifat yalovbardorlari tilni ma‘naviyatdan ayro tasavvur qilib bo‘lmasligini, xalqning tili uning ruhi, o‘zligi, millat qiyofasini o‘zida aks ettiruvchi, ma‘rifat-ma‘naviyat darajasini ifodalovchi mezon ekanligini chuqur anglagan holda til uchun, uning mustaqilligi uchun kurashdi.

Yaqin o‘tmishda ijod etgan shoir-u yozuvchilarimiz, jumladan, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Odil Yoqibov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va bir qator adiblarimiz samarali ijodlari o‘laroq tilimiz sayqal topdi, boyidi. O‘zbek tili rivoji, taraqqiyoti uchun kurashgan ajdodlarimizning fidokorona, zahmatli mehnatini avlodlarimizga ibrat sifatida ko‘rsatish bizning sharaflari burchimiz, aslida.

Tilda xalqning o‘zligi mujassam

Tildagi har bir so‘z, jumla, nutq bilan bog‘liq imo-ishoralar odamzod tafakkuri, his-tuyg‘ulari natijasi o‘laroq yuzaga chiqadi. Pirovardida yurtimiz, xalqimiz, millatimizning o‘ziga xos tabiati, ma‘naviyati, qadriyatlarini efoda topadi.

O‘zbek tili o‘zining purma‘no jumalari, ohanrabodek o‘ziga tortuvchi iboralari, maqol va matallari bilan o‘ziga xos mavqega ega. Bu tilning yaratuvchisi, aniqrog‘i, ijodkori o‘zbek xalqidir. Shu xalqning ijodkorlari, olimlar-u ziyolilarining mashaqqatli mehnati, ona tiliga bo‘lgan mehr-u e‘tibori evaziga tilimiz asrlar osha boyib, taraqqiy etdi, turkiy tillar orasida munosib o‘rin topdi.

Til va uning vositasi bo‘lgan so‘z insoniyat uchun buyuk qurollardan biri. Vaziyat talabi bilan, o‘rnida, vaqtida, qalban aytilgan oddiygina so‘z yoki jumla qudratli va yengilmas kuchga ega. Tafakkurning teranligi uning mahsuli bo‘lgan so‘z orqali namoyon bo‘ladi. Buyuk so‘zshunos, “so‘z zargari” deya e‘tirof etiladigan iste‘dodli adib Abdulla Qahhor: “Adabiyot atomdan kuchli, biroq uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”, - deganda ming bor haq edi. Adabiyot esa so‘z bilan ish ko‘rishini izohlashga hojat bo‘lmas kerak, albatta. Ko‘rinadiki, so‘zning qudrati benihoya ulug‘. Birgina so‘z bilan gullab-yashnab turgan dunyoni ostin-ustun qilish yoki asrab qolish mumkin. Bunda esa bizdan tilimizga befarq bo‘lmaslik, so‘z – hayotning buyuk quroli ekanligini unutmaslik talab etiladi.

So‘zimiz va shu so‘zlar vositasida tuzilgan nutqimizga talabchan, o‘ta e‘tiborli bo‘lishimiz lozim. Zero, tilga e‘tiborsizlik mana shu xalqqa, ota-bobolarimizga e‘tiborsizlik sanaladi. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday deydi: “So‘zni ko‘ngulda pishkormaguncha tilga kelturma, Har nekim ko‘ngulga bor – tilga surma”. Mazkur so‘zlar ortida olam-olam ma‘no mujassamdir. Ko‘rinadiki, til insonga inoyat etilgan buyuk ne‘matdir. Uni asrab-avaylash, sofligini saqlash va asil holatda avlodlarga yetkazish muqaddas vazifalarimizdan biridir.

Til millat ruhi, milliy o‘zlikni anglash vositasi sanaladi. U insonni kamolot sari yetaklaydi. Ma‘naviy-ma‘rifiy amallarda, farzandlar kamolida, bilim egallashida, murg‘ak qalblarni ezgulik sari yetaklashda ona tilimiz alohida ahamiyatga molik.

Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz

Mustaqilligimiz sharofati tufayli milliy tilimiz har tomonlama rivojlandi, ona tilimizga bo‘lgan e‘tibor oshdi. Bundan iftixor etamiz. Bu tilda faxrlansak arzigulik ilmiy, ommabop, badiiy asarlar, lug‘atlar, qomuslar yaratildi. Bularning bari quvonarli. Biroq ba‘zida tilimizga nopisandlik bilan munosabatda bo‘lish hollari ham kuzatiladi. Bu ayniqsa, ko‘cha-ko‘ydagi yozuvlar, turli reklama-afishalar, televideniyedagi ko‘rsatuv va kino seriallari, elektron yozishmalar, yoshlarning nutq jarayonlarida uchraydi. Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning quyidagi fikrini eslash o‘rinli. Ijodkor “Nega ko‘cha-ko‘yda yo‘l harakati qoidalarini buzgan kishiga militsiya xodimi hushtak chaladi-yu, lekin til me‘yorlarini buzgan odamga hech kim indamaydi”, deganda ming bor haqli edi. Ko‘rinadiki, nutqimizning to‘g‘ri, aniq, izchil, jo‘yali, ta‘sirli bo‘lishida nutq me‘yorlariga amal qilish lozimki, bu hol insoniylik belgisi bo‘libgina qolmay, uning qonuniy qat‘iy asosi ham bor. Qolaversa, nutqqa, tilga e‘tiborsizlik Navoiy bobomiz uqtirganidek “elga e‘tiborsizlik”dan o‘zga holat emas. Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, inson to‘g‘ri, aniq – xatolardan xoli so‘zlashi uchun, avvalo, xuddi shunday fikrlashi ham lozim. Donolar aytganidek, agar so‘zlovchining so‘zi poyma-poy, noto‘g‘ri, mujmal, qovushmagan, lanj, og‘ir bo‘lsa, uning zehni ham o‘shanday, aslida. Fikr aniqligi, tiniqligi ifoda aniqligi bilan uyg‘un hamisha.

Yana bir misol – rus yozuvchisi Anton Chexovning hikoyalaridan birida asar qahramoni: “Men o‘limdan qo‘rqmayman, o‘lsam qabrim ustida falonchi nutq so‘zlaydi, deb qo‘rqaman”, - deydi. Bu ham insoniylik darajasining bosh belgisi nutq ekanligiga yana bir ishora.

Xullas, insonning olamni anglashi, kashf etishi tafakkur va uning voqeligi bo‘lgan til orqali bo‘ladi. Tilimizga e‘tibor xalqimiz, millatimiz, hukumatimizga e‘tibor belgisi sanaladi.


Til – millatning qalbi

Quvonarlisi shundaki, mustaqillik yillarida ona tilimiz va uning keng targ‘ibi Davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami kengaydi. Xuddi shu kunlarda ma‘rifatparvar olimlarimizdan biri Abdulla Avloniyning “Har bir millatni dunyoga tanitadigan oynayi jahoni ona tili va adabiyotidir”, degan so‘zlariga hamohang holda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi nufuzli minbaridan bashariyat uchun ONA TILIMIZda nutq so‘zlagani ham o‘zbek tilining va u orqali o‘zbek xalqi qadrini yana bir bor oshirish borasidagi samarali amaliy ishlardan bo‘ldi, desak hech adashmaymiz.

Yaqin yillarda tilimizni rivojlantirish, nufuzini oshirish borasidagi ham nazariy, ham amaliy ishlar ko‘lamining oshganligini mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan bir qator qonun va farmonlarda ko‘ramiz. Jumladan, 2019-yil, 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari” farmoni, O‘zbek tilini rivojlantirish Davlat departamentining tashkil etilganligi, Vazirlar mahkamasi huzurida o‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining tuzilganligi, 21-oktabr sanasining “Ona tili bayrami kuni” sifatida keng nishonlash ishlarining yo‘lga qo‘yilganligi – bari-bari tilimizga, shu tilda so‘zlovchi xalqimizga bo‘lgan hurmat namunasi sanaladi.

Ayni kunlarda o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tiborni shu tilda yaratilayotgan qomuslar, lug‘atlar bilan ham izohlash mumkin. O‘zRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimlari, tadqiqotchilari sa‘y-harakatlari evaziga oxirgi ikki yilda bir qator lingvistik hamda o‘quv lug‘atlarining yangi avlodlari nashrdan chiqdi. Jumladan, 90 ming so‘zli yangi imlo va yozuvdagi “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati” (2023-y.), “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (2022-y.), ikki jilddan iborat “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” (2023-y.), yangi yozuvdagi 85 ming so‘zli, mazmunan va shaklan to‘ldirilgan olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2023) kabilarni alohida ta‘kidlash lozim. Bu kabi ishlar ko‘lamini rivojlantirish mutaxassislar oldidagi dolzab ishlardan sanaladi.

Bularning bari ona tilimizning hamisha barkamolligini ta‘minlaydigan amaliy ishlardan sanaladi. Bu kabi yumushlarga shay turish, ya‘ni til ravnaqi, sofligi uchun doimiy harakatda bo‘lish har bir tilparvar, xalqparvar fuqaroning vijdon ishi, aslida.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
30.10.2023 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344